1-son, 2026-yil

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

ISSN: 3030-3273

AL-BUKHARI

Scientific journal

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

AL-BUKHARI

Scientific journal



ORIENTAL
UNIVERSITETI

AL-BUXORIY

Ilmiy jurnal

(Birinchi son)

Oliy attestatsiya komissiyasi (OAK) Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qaroriga muvofiq tarix va filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Toshkent – 2026

Bosh muharrir:

Farhod Maksudov, tarix fanlari doktori (DSc)

Bosh muharrir o‘rinbosari:

Malika Nasirova, filologiya fanlari nomzodi, professor

Mas’ul muharrir:

Govhar Rahmatova, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

“Al-Buxoriy”

ilmiy jurnalining tahrir hay’ati:

1. Azamat Ziyo	**t.f.d., akademik, professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
2. Zohidjon Islomov	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
3. Shorustam Shomusarov	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
4. Durdona Lutfullayeva	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
5. Komiljon Rahimov	**t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
6. Shamsiddin Kamoliddinov	**t.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
7. Xolida Alimova	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
8. Aftondil Erkinov	**f.f.d., professor – tahrir hay’ati a’zosi;**
9. Albert Burxanov	**t.f.d., akademik (Tatariston) – tahrir hay’ati a’zosi;**
10. Samal Tuleubaeva	**f.f.d., professor (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi;**
11. Sayfullo Mullodjanov	**t.f.d., professor (Tojikiston) – tahrir hay’ati a’zosi;**
12. Zilola Xudoyberganova	**f.f.d., professor (Turkiya) – tahrir hay’ati a’zosi;**
13. Akram Habibullayev	**t.f.d., professor (AQSh) – tahrir hay’ati a’zosi;**
14. Ashirbek Mo‘minov	**t.f.d., dotsent (Qozog‘iston) – tahrir hay’ati a’zosi;**
15. Murtazo Saidumarov	**f.f.n., professor (Saudiya Arabistoni) – tahrir hay’ati a’zosi.**

MUNDARIJA

FILOLOGIYA

Murtazo Saydumarov, Homid Abbos Xon
“Al-a’sho ko‘chasidagi ishq qissalari” romanida an’ana va erkinlik o‘rtasidagi ziddiyatlar 4
Qurbonov Zayniddin Oltinovich, Oltinova Bahora Zayniddinovna
O‘zbek tilida frazeologizmlar etnosotsiopragmatik aspekt sifatida 17
Tashpulatova Shirina Ziyoviddin qizi
Ruhiy holatni ifodalovchi nutqiy aktlarning gender xususiyatlari tadqiqi dolzarbligi xususida 25
Adambayeva Nargiza Kadambayevna
Inglizzabon tadqiqotlarda XIX asr Xorazm turkiy adabiy manbalari 34
Xasanov Islombek Xasanboy o‘g‘li
Arab tilida uslubiyatning tarixiy shakllanishi 44
Boborajabov Muhammadiqbol Emomaliyevich
Arab va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarda milliy qadriyatlar va axloqiy normalarning ifodalanishi 57
Xaydarova Munira O‘tkir qizi
Xiyazm stilistik vositasining nazariy asoslari..... 70

TARIX

Арипова Зухра Джахангировна
Система образования в медресе «султания» в Египте 80
Tayronov Yoqubjon Rapiqovich
XIX asr ikkinchi yarimida Turkistonda mahalliy tadbirkorlarning yangi avlodining shakllanishi 94
Djurayev Ikrom Nematovich
Markaziy Osiyoda qadimgi davr ko‘chmanchi va o‘troq xalqlarning siyosiy, iqtisodiy hamda madaniy munosabatlari 105
Sattorov Nurbek Abdurazzoqovich
O‘zbek xalqining etnogenezi masalasi: nazariy-metodologik yondashuvlar va akademik A.Asqarov qarashlari 115
Kamolov Jahongir Mamasidiqovich
Piri Raisning dengizshunoslik asari “Bahriya” bo‘yicha tahlillar 125
Sattorov Ulug‘bek Abdurazzoq o‘g‘li
O‘zbekiston va YUNESKO hamkorligi rivojlanishida moddiy madaniy merosning o‘rni 132
Botirov Boburmirzo Mirodiljon o‘g‘li
Islom manbalarida moliyaviy ibodatlardagi majburiyatlarning tarixiy bosqichlari ... 143

“AL-A’SHO KO‘CHASIDAGI ISHQ QISSALARI” ROMANIDA AN’ANA VA ERKINLIK O‘RTASIDAGI ZIDDIYATLAR

ТРАДИЦИИ И СВОБОДА В РОМАНЕ «ИСТОРИИ ЛЮБВИ НА УЛИЦЕ АЛЬ-А’ША»: ГРАНИ КОНФЛИКТА

TRADITION AND FREEDOM IN *LOVE STORIES ON AL-A’SHA STREET*: DIMENSIONS OF CONFLICT

HTTPS://ZENODO.ORG/RECORDS/19260226

Murtazo Saydumarov
Diplomat University Filologiya va xorijiy tillar kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari nomzodi
Tel.: +998 90- 824- 67- 60
E-mail: *msaydumarov@gmail.com*
ORCID ID: 0000-0003-3528-9572
Homid Abbos Xon
Ar-Riyod – Saudiya Arabistoni, Podsho Saud Universiteti
Tillar va til bilimlari fakulteti dotsenti
Tel.: 00966 -55-555-74-52
E-mail: hakhan@ksu.edu.sa

Annotatsiya. Maqolada saudiyalik adiba Badriya al-Bishr hayoti va ijodi yoritilib, uning “Al-A’sho ko‘chasidagi ishq qissalari” (“G‘aromiyat fi shari’ al-A’sha”) romani tahlil etiladi. Asarda o‘z erkinligi uchun kurashgan bosh qahramonlar - xotin-qizlar obrazlari bilan bir qatorda arab jamiyatidagi ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar, badaviylar turmushi va ularning shahar hayotiga moslashishi, jamiyatdagi turli tabaqalar munosabatlari, ekstremizm va unga jamiyatning munosabati, arab ayoli taqdiri hamda shahar hayotiga hali telefon va konditsionerlar kirmagan kundan to bugungi kungacha bo‘lgan o‘zgarishlar, diniy mutaassiblik masalalariga kattalar va yoshlarning munosabatlari, qiyinchilikka tushib qolgan oilaga mahalla ahlining yordam ko‘rsatishi, ekstremizm yo‘liga kirib, fojiali halok bo‘lgan farzandi tufayli og‘ir ruhiy holatga tushgan onaizorning achchiq qismati kabi masalalar yoritilganligi tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: *saudiya adabiyoti, saudiya romani, Badriya al-Bishr, arab jamiyati, arab urf-odatlari, saudiya madaniy hayoti.*

Abstract. The article highlights the life and work of the Saudi writer Badria al-Bishr, analyzes her novel "Love Stories on Al-Asha Street" ("Garomiyat fi shari' al-A'sha"), in which, along with the characters of women who fought for their freedom, describes social relations in Arab society, Bedouin life and their adaptation to urban life, relations between different classes of society, issues of extremism and the reaction

of society to it, the fate of an Arab woman, urban life from the time when there were no air conditioners and telephones, and changes in it today, the relationship between adults and young people on issues of religious fanaticism, the help of a neighboring family in trouble by the inhabitants of the quarter, and analyzes the bitter fate of a mother who suffered a serious mental illness due to the tragic death of her child as a result of extremism.

***Key words**: Saudi literature, Saudi novel, Badria al-Bishr, Arab society, Arab customs, Saudi cultural life.*

Аннотация. В статье освещается жизнь и творчество саудовской писательницы Бадрии аль-Бишр, анализируется ее роман «Любовные истории на улице Аль-Аъша», в котором наряду с характерами женщин, боровшихся за свою свободу, описаны социальные отношения в арабском обществе, жизнь бедуинов и их адаптация к городской жизни, отношения между разными классами общества, вопросы экстремизма и реакции общества на него, судьба арабской женщины, городская жизнь со времен, когда ещё не было кондиционеров и телефонов, и измененния в ней в наши дни, отношения взрослых и молодежи к религиозному фанатизму, помощь соседской семье в беде со стороны жителей квартала, и анализируется горькая судьба матери, перенесшей тяжелое психическое заболевание в связи с трагической гибелью ее ребенка в результате экстремизма.

***Ключевые слова**: саудовская литература, саудовский роман, Бадрия аль-Бишр, арабское общество, арабские обычаи, саудовская культурная жизнь.*

KIRISH

O‘zbek o‘quvchisi XX asr oxiriga qadar Saudiya Arabistoni nomi tilga olinganida eng avvalo Ikki Muqaddas Masjid, bepoyon sahro va neft quduqlarini tasavvur qilar edi. Chunki o‘tgan asr oxiriga qadar saudiya adabiyotidan o‘zbek tiliga birorta asar tarjima qilinmagan, rus tiliga qilingan tarjimalar ham juda cheklangan bo‘lib, bir roman va bir necha she’rlardan iborat edi.

Yangi ming yillik boshidan adabiyot va madaniy aloqalar sohasidagi vaziyat o‘zgarib bormoqda. Saudiya adabiyoti dunyo tillariga tarjima qilinmoqda. So‘nggi yillarda saudiya adabiyotidan uch yuzdan ortiq kitob dunyoning yigirma olti tiliga o‘girildi (al-Yusuf X., 2020:15). Rus tilida hozirgi zamon saudiya adabiyoti antologiyasi, bir qator romanlar, hikoyalar to‘plamlari nashr etildi. O‘zbek kitobxonlari ham hozirgi zamon saudiya adabiyoti namunalaridan Homid Damanhuriyning “Qurbonlik qiymati yoxud muhabbat va burch”, Ibrohim Humaydonning “Tun zulmatidagi nur”, Hamza Buqariyning “Safo ayvoni”, Maha al-Faysalning “Tavba va Sulayyo” romanlari, Xayriya as-Saqqofning “Dengizlar osha olislar sari” hikoyalar to‘plami, Solih Zamananning “Abadiyat manzillari” nomli tanlangan nasriy she’rlari

hamda adabiyotshunoslikka oid tadqiqotlar – Sulton al-Qahtoniyning “Saudiya adabiyotida roman” va Saad al-Boziiyning “Sahro madaniyati. Arabiston yarim oroli modernizm adabiyotiga oid tadqiqotlar”i bilan tanishish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Shuningdek, “Jahon adabiyoti” va “Sharq yulduzi” jurnallari ham o‘z sahifalarida arab adabiyoti turkumida saudiya adabiyotidan arab tilidan o‘zbek tiliga qilingan tarjimalarni chop etib, o‘quvchilarga taqdim etmoqda.

Saudiya arab adabiyotida Xayriya as-Saqqof, Raja Olim, Hind Bag‘affor, Laylo Juhaniy, Umayma al-Hamis, Badriya al-Bishr kabi bir qator saudiyalik ayol ijodkorlar dunyo adabiyoti miqyosida tanildilar (as-Saqqof X, 2021:120). Zamonaviy saudiya romanchiligining taniqli namoyandalaridan biri bo‘lgan Badriya al-Bishring **“al-A’sho ko‘chasidagi ishq qissalari”** romanini o‘zbek tiliga tarjima qilib, o‘quvchilarga taqdim etar ekanmiz, adibaning ushbu asari va ijodiy faoliyati haqida ba’zi fikrlarni bildirmoqchimiz.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Badriya al-Bishrning “Al-A’sho ko‘chasidagi ishq qissalari” romani arab tadqiqotchilari nazaridan chetda qolmagan. Shulardan ba’zilari haqida to‘xtalib o‘tsak. Jazoir universiteti arab filologiyasi va sharq tillari fakulteti professori Al-Qosihiyning maqolasida “Al-A’sho ko‘chasidagi ishq qissalari” romanidan keltirilgan misollar asosida tasvir usuli va ijtimoiy o‘lchamlar o‘rganiladi. Unda tasviriy mexanizmlar qanday ishlashini, ayniqsa makon va qahramon bilan bog‘liq holda tahlil qilib, ularning badiiy va estetik ahamiyatini yoritiladi hamda ushbu elementlar orqali jamiyat voqeligining ochib berilishi va asarning ijtimoiy yo‘nalishi ta’kidlanadi. Tadqiqot asarda shaxslar urf-odatlari, an’analari va xulq-atvorlari orqali jamiyatning chuqur va ko‘p qirrali manzarasi ifodalanganini ta’kidlab, ushbu roman saudiya jamiyatiga ta’sir ko‘rsatuvchi ko‘plab ijtimoiy masalalarni qamrab olganligini bayon etadi (al-Qosihiy L, 2024:45).

Basra universiteti professori Sami Abdunanabiy romannavis Badriya al-Bishr o‘zining “Al-A’sho ko‘chasidagi ishq qissalari” nomli romanida Saudiya Arabistoni va ehtimol butun mintaqada hozir kechayotgan diniy mutaassiblik jarayonlariga zamin yaratgan bir muhim tarixiy davrni eslaydi (Abdunabi S, 2019:55). Yozuvchi o‘tmishga 1970-yillar o‘rtasiga biroz qaytib, Saudiya shaharlaridan biri, poytaxt ar-Riyoddagi ko‘chalardan birining hayotini tasvirlaydi. Bu ko‘cha shu vodiyda yashagan johiliyat davri shoiri Al-A’sho nomi bilan atalishida ham ramziylik bor. Mazkur tadqiqotda o‘sha hayotni to‘liq va ishonarli tarzda qayta jonlantirish uchun yozuvchiga ayrim badiiy hikoya qilish usullariga tayanish zarur bo‘lgan. Bu usullar orqali o‘tmishga qaytish va jamiyat hayoti manzarasini tiklash hikoyadagi qahramonlar orqali amalga oshiriladi *(Abdunabi S, 2019:72)*. Muallif fikricha, bu roman an’anadan modernlikka o‘tish davrini tanqidiy ko‘z bilan aks ettiradi.

Mazkur universitet professori Sabah al-Bashirning maqolasida ta’kidlanishicha, “Al-A’sho ko‘chasidagi ishq qissalari” romani Saudiya jamiyatining zamonaviy uyg‘onish boshlangan ilk yillariga oid benihoya boy tasvirlar bilan to‘la *(al-Bashir S., 2018:84)*. Yozuvchi asarda salbiy holatlarni ochiq ko‘rsatib, ularning ichidagi illat va zo‘ravonlikni ifodalash orqali jamiyatni o‘ylantirishni, tuzatish va yangilash zarurligini anglatishga intilgan. Shu tariqa u ayolga nisbatan munosabatni, shuningdek, jamiyat ongida mustahkam o‘rnashib qolgan ba’zi an’analarni qayta ko‘rib chiqish orqali sog‘lom va barkamol jamiyat qurish g‘oyasini ilgari suradi.

F. Rajabiy va Sh.Delshadning maqolasi asosan roman qahramonlari yashaydigan muhitni, ayollar huquqlarining poymol etilishi deb ko‘rsatishga va mazkur jamiyatni tanqid qilishga qaratilgan *(Rajabi F., 2020:38)*.

Roman asosida tasvirga olingan 30 seriyadan iborat serialning 2025-mart oyida Ko‘rfaz arab davlatlarida namoyish etilishi munosabati bilan ushbu asar va serial haqida bir qator maqolalar e’lon qilindi.

Muavvad Miftohning “Xotin-qiz yozuvchilar hikoya etish uslubi texnikasi: “Al-A’sho ko‘chasidagi ishq qissalari” romani misolida” nomli maqolasida : “Xotin-qizlar hikoya uslubining ayol ovoziga moyil bo‘lishi tabiiy hol bo‘lib, bu holat ushbu adabiyotning xususiyatidan kelib chiqadi”, - deydi va ushbu roman xotin-qizlarning ruhiy va ijtimoiy olamiga yaqinlashishi orqali saudiya romanchiligining tuzilmasidagi ayol “men”ining faol ishtirokiga ishora qiladi”, deb xulosa qiladi *(Miftoh M., 2021:15)*. Muallifning fikricha, asarda Badriya al-Bashr ayol nuqtayi nazaridan hikoyachi obraz, ichki mulohazalar va monolog orqali ayolning jamiyatdagi tajribasini namoyon etadi. Roman an’anaviy erkak hukmron jamiyatning xususiyatlarini bayon etadi va erkinlik hamda an’ana o‘rtasidagi ziddiyatni ochadi.

Yana bir arab tadqiqotchisi – Saboh Abdurrazzoq Bashir (2018)ning fikriga ko‘ra, roman jamiyat ongini o‘zgartirishga chorlaydi va ayolga yangi nazar bilan qarashni ilgari suradi *(al-Bashir S., 2018:84)*.

So‘had Sohibning tadqiqotida xalq urf-odatlari, folklor, mahalla hayoti, so‘zlashuv tili va xalqona obrazlar o‘rganiladi. Roman xalq madaniyati va zamonaviy hayotni uyg‘unlashtirgani ta’kidlanadi hamda folklor elementlari romanning muhim qismi bo‘lib, milliy o‘zlik va madaniy ifodani yangicha talqin etadi *(Sohib S., 2019:59)*, deb xulosa qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotimiz Badria al-Bishr ijodining ijtimoiy, madaniy va estetik xususiyatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, adibaning “Al-A’sho ko‘chasidagi ishq qissalari” romanining badiiy mazmunini, ijtimoiy qatlamini hamda jamiyatdagi gender munosabatlarini tahlil etishga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi - zamonaviy Saudiya jamiyatining adabiy manzarasida ayol shaxsining erkinlik sari

intilish jarayonini Badria al-Bishr romanlari, xususan, ushbu asar misolida ochib berishdir.Tadqiqotda deskriptiv-analitik, adabiy-sotsiologik, biografik, gender tahlil, qiyosiy va kontekstual yondashuvlardan foydalanildi. Shuningdek, tahlil jarayonida analitik-tasviriy, gender-adabiy va kontekstual strategiyalar uyg‘un qo‘llanilib, romandagi ayollar ijtimoiy pozitsiyasi, patriarxal qadriyatlar va erkinlik metaforalari tahlil qilindi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundaki, Badria al-Bishr ijodi o‘zbek adabiyotshunosligida ilk bor kompleks tarzda o‘rganildi va “Al-A’sho ko‘chasidagi ishq qissalari” romanining ijtimoiy-madaniy ahamiyati yoritildi. Natijalar arab adabiyotini o‘rganishda va oliy ta’limda zamonaviy arab romani kurslarida amaliy qo‘llanilishi mumkin.

TAHLIL VA NATIJALAR

Badriya al-Bishr – 1967-yili Riyozda, Saudiya Arabistonida tug‘ilgan. 1989-yili Podsho Saud universitetini “jamiyatshunoslik” (sotsiologiya) mutaxassisligi bo‘yicha tamomlagan, 1997-yili mazkur universitetda magistrlik darajasini olgan, magistrlik dissertatsiyasining mavzusi “Ertaklarda Najd tarixi” edi.

Badriya al-Bishr 2005-yili Bayrutdagi Amerika universitetida doktoranturani tamomlab, “Arab Ko‘rfazi jamiyatlarida globalizm. Dubay va Riyoz o‘rtasida qiyosiy tadqiqot” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qilib, sotsiologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilmiy darajasiga sazovor bo‘ladi.

Badriya al-Bishr 1997-2008-yillarda “al-Yamama”, “Riyoz”, “ash-Sharq al-Avsat” va “al-Hayat” nashrlarida publitsistik faoliyat yuritib, keyinchalik MBC-1 telekanalida ijtimoiy dastur olib bordi hamda “Tosh ma tosh” hajviy serialining muallifasi sifatida mashhur bo‘ldi.

Badriya al-Bishr zamonaviy saudiy adabiyotining yirik vakillaridan biri bo‘lib, bir necha hikoyalar to‘plami va romanlar muallifidir. Uning mashhur asarlari orasida *“Chorshanba oqshomi”*, *“Hind va Askar”*, *“Belanchak”*, *“Al-A’sho ko‘chasidagi muhabbat qissalari”* va *“Payshanbalik ziyoratchi xotin-qizlar”* romanlari alohida o‘rin tutadi.

Adibaning “al-A’sho ko‘chasidagi muhabbat qissalari” romani 2014-yili “Arab romani xalqaro mukofoti (“Arab Bukeri”) ga tavsiya etilgan edi.

Romandagi bir qator asosiy qahramonlar o‘z erkinligini qidiradi. Aziza arab ekrani “Sindrella” (“Zolushka”) si hisoblangan Suad Husniyga taqlid qilib, o‘z muhabbatini izlaydi va misrlik doktor Ahmadni sevib qoladi, chunki u Aziza sevgan oq-qora filmlar qahramonlari kabi misr shevasida gapiradi. Aziza o‘z jamiyatidan qochib, Tahiya Kariyuka kabi o‘z taqdirini o‘zi belgilashni xohlaydi. Ba’daviy ayol Vuzho o‘zining qashshoqligidan qochib, ayollar bozorida ish boshlaydi va ana shu bozordagi eng katta tijoratchiga aylanadi. Yozuvchi bu o‘rinda sahrodagi shafqatsiz hayotni bayon etish bilan birga arab jamiyati qiyin ahvolda qolgan muhtoj insonga

yordam qo‘lini cho‘zishi va u o‘z harakati bilan hayotini, kelajagini ta’minlay olishi imkoniyatini ko‘rsatadi. Atvo qissasi har qanday jamiyatda uchrashi mumkin bo‘lgan o‘gay ota va o‘gay onaning yetimga nisbatan adolatsizlik qissasidir. Atvo o‘zining kichkina qishlog‘idan qochadi va o‘zgartirilgan ismidan yana o‘zining asl ismiga qaytadi, baxtli tasodif tufayli Riyozdagi mustaqil hayotida o‘z kelajagini yaratadi.

Voqealar XX asrning yetmishinchi yillarida Riyoz janubidagi oddiy xalq mahallalaridan birida islomgacha bo‘lgan qadimiy johiliya davri shoiri nomiga qo‘yilgan “al-A’sho” ko‘chasida bo‘lib o‘tadi. Hali konditsionerlar yetib kelmagan paytda odamlar uylarning tomlari sathida uxlardilar. Roman voqealari ana shunday tom sathilarida paydo bo‘lgan romantik muhabbat hamda oq-qora tasvirdagi romantik seriallar hikoyasidan boshlanadi.

Mahalla ahli hayotiga kirib kelgan rangli televizor, konditsionerlar o‘zgarishlari bilan bir qatorda jamiyatdagi diniy konservatizm kuchayishining birinchi qurboni yosh yigit Saad obrazi ochib beriladi. U 1979-yili ashaddiy ekstremistlar tomonidan Makkai Mukarramadagi Masjid-al-Haramning egallab olinishi natijasida terrorchilar va huquqni muhofaza qiluvchi organlar vakillari orasida qon to‘kilishiga sabab bo‘lgan mudhish voqea ishtirokchisiga aylanadi.

Asar qahramonlarining his-tuyg‘ulari jamiyatdagi urf-odatlar devoriga borib urilgach, beshigidayoq bo‘g‘ilib o‘ladi yoki hech bo‘lmaganda, ushalmagan orzuning o‘rnini bosishi uchun o‘z yo‘lini o‘zgartiradi. Har ikki holatda ham bu his-tuyg‘ular egalari mag‘lubiyatga uchraydi, lekin kimki u devorni hatlab o‘ta olsa, shubhasiz, boshqa natijaga erishadi.

Roman voqealari asarning asosiy qahramonlardan biri Aziza tilidan bayon etilsa, ba’zi o‘rinlarda u hodisalarning guvohi, kuzatuvchisi sifatida namoyon bo‘ladi.

Aziza bir jihatdan sevgi munosabatlarining paydo bo‘lishi va uning beshikdayoq o‘lishi guvohi bo‘lsa, boshqa jihatdan u tasodif tufayli o‘z muhabbatini boshidan kechiradi, yashirin rivojlangan bu muhabbat voqelik devoriga borib uriladi va nobud bo‘ladi.

Romandagi aloqalar, munosabatlar urf-odatlar bilan kishanlangan, ashaddiy konservatizm yuki ostida qolgan. Bu jihatlar ikki jinsning aralashmasligi, ayol kishining begonalar oldida yuzini ochmasligi, ayol kishining tunda ko‘chaga chiqmasligi, hijob (abaya) va niqob kiyishi, chet ellik (misrlik va shomlik)lar bilan turmush qurmaslik, nasl-nasabga e’tibor berish, ko‘ngilxushlikni rad etish, patriarxat (erkak aqlining) hukmronligi kabi ko‘rinishlarda namoyon bo‘ladi.

Bu “ko‘rinishlar” roman qahramonlarida quyidagicha namoyon bo‘ladi:

Dindor yosh yigit – Saad ekstremistik jamoaga kirib qoladi, uning miyasi yuvilib, fikrlashi ana shu guruh ta’siri ostiga tushadi, uni o‘z oilasidagi ba’zi yurish-turishlarga nafrat bilan qarashga yo‘naltiriladi, u ekstremistik guruh bilan birga terroristik aktni

amalga oshirishga qo‘shiladi. Zoriy – o‘zgaruvchan (ikkiyuzlamachi) aka oiladagi erkak sifatida singlisiga man qilganini o‘ziga mumkin deb hisoblaydi. Abu Filva – ota, yigirma yoshlik qizini ellik yoshlik erkakka majburlab turmushga beradi. Abu Bijod – din peshvosi, shariat ahkomlarini buzganlarni qamoqqa olishni buyuradi, o‘zi esa yoshligini qaytarish uchun yosh qizga uylanish haqida o‘ylaydi.

Shu bilan bir qatorda romanda bir qator ijobiy obrazlar bor. Bular Abu Ibrohim – oilasini sevuvchi, tushungan, kengfikrli ota; Mit’ab – bag‘rikeng aka; Vuzho – farzandlari uchun o‘zini fido qilgan, bozorga chiqib, muvaffaqiyatli tijoratchi bo‘la olgan ona; Muzna – o‘z tanlovida qat’iy turgan va maqsadiga erishishga astoydil harakat qilgan qiz obrazlaridir.

Asarda ikki turdagi obrazlar bilan bir qatorda ham u tomonga, ham bu tomonga mansub bo‘lgan obrazlar ham bor. Bir narsani orzu qilib, unga erishishga harakat qilib, voqelik to‘sig‘iga urilgach, taslim bo‘lib, o‘z yo‘lini o‘zgartirib, unga moslashuvchi obraz – Avotif, yoki boshqa qulay fursatni kutib yashovchi – Aziza obrazlari ham mavjud.

“Al-A’sho ko‘chasidagi muhabbat qissalari” romanidagi har bir muhabbat qissasining bir-biridan farq qiluvchi o‘z tarixi, o‘z yo‘li bor. Lekin ularning barchasi uchta hokimiyatga bo‘ysunadi, bular – urf-odatlar, diniy ekstremizm, patriarxal fikrlash. Bu hokimiyatlarga qarshi oshiqlar ibtidoiy usullardan foydalanadilar, masalan, sevgilisi bilan suhbatlashish uchun tom sathiga chiqishi, yoki biror belgi qo‘yish, yoki do‘konga borish, yoki kimningdir quchog‘iga kasseta tashlash, yoki qog‘oz pulga telefon raqamini yozish, yoki telefonda gaplashish va ba’zi holatlarda maxfiy ziyoratlar qilish. Bu vositalar ham ayol, ham erkak ustidan tengma-teng o‘rnatilgan nazoratni, ayniqsa, patriarxal ijtimoiy munosabatlar hukmron bo‘lgan jamiyatda zaif bo‘g‘in hisoblangan ayol ustidan o‘rnatilgan nazorat hajmini aks ettiradi.

Shu sababdan ham Saad va Avotif muhabbati Saad sovchi qo‘yganida Avotifning otasi tushungan va bag‘rikeng bo‘lishiga qaramay, rad etishi bilan tugaydi. Albatta, bu yerda rad etishning sababi hali bir ishning boshini tutmagan Saadning yoshligini e’tiborga olib, qizining kelajagi haqida o‘ylagani sabab bo‘lsa, boshqa sabab uning ekstremistik guruhlarga qo‘shilib qolganidir. Avotifning qarindoshi Roshid sovchi qo‘yganida esa ota rozilik bildiradi.

Otasi tomonidan ellik yoshlik erkakka majburlab turmushga chiqarilgan yigirma yoshlik Filva to‘yning ertasiga birinchi kuniyoq qochib ketadi. Otasi uni erining uyiga qaytishga majbur qilganida, u eriga kiyim sotuvchi yosh yigit bilan xiyonat qiladi.

Joziy Saadga turmushga chiqadi, biroq Saad uni kaltaklaydi, erkinligini cheklaydi. Boshqalardan farqli o‘laroq faqat Muzna falastinlik yosh yigit unga sovchi qo‘yganida, ba’daviy oilasi qon tozaligi, nasl-nasab va ajdodlar urf-odatlarini sabab

qilib rad etganida voqelikka qarshi chiqishga qaror qiladi. Ukasi Zoriy uni o‘ldirishga urinadi, undan voz kechish orqali o‘zini oqlashni o‘ylaydi. Biroq Muznaning o‘z tanlov qarorida qat’iyligi, onasi Vuzhoning hikmati, akasi Mit’abning tushunganligi barcha ishni o‘z iziga soladi va Muznaning xohishi amalga oshadi, sevgani bilan baxtli, saodatli va erkin yashaydi.

Shunday qilib, majburlash natijasida munosabatlar o‘z sevmagani bilan bog‘lanib qolish (Avotif), yoki xiyonat (Filva), yoki tahqirlanish (Joziy) bilan tugasa, ayolning o‘z tanlovida qattiq turishi (Muzna) baxt-saodat bilan tugaydi.

Azizaning to‘satdan ko‘zi ko‘rmay qolishi misrlik doktor Ahmad bilan tanishishining bevosita sababidir. Aziza o‘z hayotida otasi va akasidan so‘ng begona erkak bilan birinchi marta uchrashishi edi. Ahmadning ovozidagi mehr va erkalash Azizani bir tomonlama xayoliy muhabbatga olib ketadi. Ahmadning opasi muallima Sumayha xonadonidagi tasodifiy uchrashuv ular o‘rtasidagi munosabatning boshlanishiga asos soladi, bu munosabat vaqt o‘tishi bilan birga sayrga chiqish, sovg‘alar almashish, chorshanba oqshomlari telefon suhbatlari orqali sevgiga aylandi.

Aziza misrlikka turmushga chiqishiga oilasining rozilik bermasligini tushunib, misr filmlaridan ilhomlanib, o‘z orzusini amalga oshirishning kinossenariysini o‘ylab topadi va Ahmadga xuddi kinofilmlar qahramonlari kabi qochib ketishni taklif qiladi. Biroq Azizaning orzusi Ahmadning uni sevishiga qaramay, voqeiyligi va prinsipliligiga duch kelgach, amalga oshmay qoladi. Aziza otasining uyiga qaytadi, qo‘llab-quvvatlovchi otasi uning o‘zidan bir necha o‘n yosh katta bo‘lgan erkakdan ozod bo‘lishiga yordam beradi. Mana shu yerda, romanda ifodalanishicha, kinofilm ssenariylari hayotga mos kelavermasligi, kinoda bo‘ladiganini hayotga tatbiq qilib bo‘lmasligi xulosalanadi.

Badriya al-Bishr “al-A’sho ko‘chasidagi muhabbat qissalari” romanida voqelik hodisalari va o‘tmish qoldiqlari modellarini ochib berishga erishgan. U romanning ijtimoiy fazosida o‘tmishga qaytish va diniy ekstremizmning paydo bo‘lishi sababli salbiy o‘zgarishlarni fosh qila oladi, bir erkak individning ikki xil me’yorlarini, jamoaning o‘zini ustun qo‘yishi kabi salbiy jihatlarni ochib bera oldi.

Romanda bu kabi qora zulmatli nuqtalar bo‘lishiga qaramay, ijobiy yorug‘lik nuqtalari ham mavjud. Bu kelib chiqishi qashshoq bo‘lgan mehnatkash ayol kishining (Umm Jazzo’, Vuzho, Atvo) jamiyatda o‘z o‘rnini isbotlaganini ochib bera oldi. Tushungan, qo‘llab-quvvatlovchi erkaklar (Abu Ibrohim, Mit’ab, doktor Ahmad) obrazlari orqali ana shu ijobiy nuqtalarni, ijobiy jihatlarni ko‘rsata oldi.

Yigirma to‘qqizta bobdan iborat bu asarda hikoya etish vazifasi Azizaga yuklanadi va bu ish asar qahramoni nomidan mahorat bilan uddalanadi. Biroq bu rol boshqa obrazlar hikoyalarini bayon etishda o‘z muammosini kinossenariy orqali hal

qilishga intilgan qahramon obrazi bilan uyg‘unlashmaydi, uning g‘ayrivoqeiyligi va o‘zgaruvchanligi fosh etiladi.

Badriya al-Bishr bir hikoya etish ipidan ikkinchisiga mahorat va osonlik bilan o‘tadi, bayon etishga aniq miqdorda insoniylikni ta’minlay oladi, u voqelik bilan xotiralarni uyg‘unlashtira oladi. Shunday qilib, u hozirgi zamonni o‘tmishga ocha oladi va so‘ng ko‘rinmas harakat orqali uni turli zamonlarda harakatlantira oladi. U bir hikoya etish birligida makonning turli qismlari va tafsilotlari bilan vasf etishni undagi inson harakati bilan biriktira oldi. Qahramonning ichkarisi va tashqarisi bilan uning harakatini roman makonida birlashtirdi.

Badriya al-Bishr o‘zining ijtimoiy va ijodiy faoliyatida arab xotin-qizlarining erkinligi va huquqlari himoyachisi sifatida qayg‘urayotganini sezishimiz mumkin. Romandagi shu masalalar yoritilgan ba’zi ko‘rinishlarda to‘xtab o‘tmoqchimiz. Asar qahramoni Aziza mahalla chetidagi qo‘shnilardan birining uyiga to‘yga borganini va to‘yda kinofilm namoyish qilinganini, film namoyishi tugamasdan, otasini uyga olib ketish uchun kelgani haqida so‘zlab, shunday deydi. “*Vaqt kech bo‘lgani uchun bizni olib ketishga otamning o‘zi kelibdi, u bilan uyga ketdik. Favvoz esa filmni oxirigacha ko‘rgani qoldi. Hayotimda birinchi marta Favvoz kabi o‘g‘il bola bo‘lishni orzu qildim, shunda film tugamasidan uyga ketishga majbur bo‘lmas edim*” *(al-Bishr B., 2025:58).*

Ba’daviy ayol Vuzhoning achchiq qismati haqida yozar ekan, uni otasi o‘n yoshligida turmushga berib yuborganini va sahroda ko‘rgan qiyinchiliklarini ta’sirli tasvirlaydi. Boshqa bir holatda o‘gay ota va o‘gay ona tomonidan o‘n yoshli Atvo turmushga berib yuborilishini bilib, bunday achchiq qismatdan qutulish maqsadida qishlog‘idan noma’lumlik va noaniqlik sari qochib ketadi.

Adiba jamiyatda ikki jins alohida bo‘lishi, ularning aralashmasligi, hattoki xotin-qizlarning ovozini begona erkak eshitmasligi kerakligi ruhida tarbiyalangan onaning fikriga qarshi chiqqan qizining tilidan bu masalaga munosabatini bildiradi.

Maishiy hayotdagi rivojlanishlar qatorida arab oilalariga telefon kirib keladi. Aziza dugonasi bilan gaplashib go‘shakni qo‘yganida, telefon yana jiringlaydi, u javob berish uchun go‘shakni ko‘taradi. Qo‘ng‘iroq qilgan otasining do‘sti Abu Fahd u bilan uzoq salomlashib, o‘qishi haqida, maktabi haqida so‘raydi, otasi aytganidek, a’lochi va aqllimi, shu haqida so‘raydi, keyin otasi haqida so‘raydi. Yonidan o‘tayotgan onasi kim bilan gaplashayotganini so‘raydi. U begona erkak ekanligini bilgan onasi “boshini ushlab, qo‘rqqanicha deydi:

- *Unga javob berdingmi? Shuncha gapni u bilan gaplashib o‘tiribsanmi?*

- *Xudo haqqi, men bu Abu Fahd amaki ekanligi bilmagandim.*

O‘sha kundan boshlab onam menga ovozining bokiraligini yo‘qotgan qizday muomala qila boshladi. Men esa unga qizi telefonga javob berishga xijolat

bo‘lmaydiganligiga odatlanishi kerakligini uqtirdim. Va xato qildim, lekin xatoim meni telefonga javob bermaydigan hijob kiygan qizlar asirligidan ozod qildi. Bilmayman nega? Onamga dedim:

- *Xudo haqqi, oyi, bu amakim, ya’ni xuddi otam kabi”*, deb javob beradi *(al-Bishr B., 2025:95*).

Yana bir ko‘rinishda Aziza va uning onasi falastinlik Riyozning onasini ko‘rgani borishadi, Azizaning onasi yuzini ochib o‘zi keltirgan qahvadan ichib o‘tirganida Abu Riyoz odatiga ko‘ra xursand bo‘lib, Muznaning mehmonlari bilan salomlashgani kirib keladi. Azizaning onasi esa shu payt darrov yuzini o‘girib, niqobini qidira boshlaydi. Mehmondorchilikdan so‘ng uyiga qaytayotgan onasi bu vaziyatdan noqulay ahvolga tushib, begona erkak uning yuzini ko‘rib qolganidan, “avrati ochilganidan” qayg‘urib javrab ketadi. Aziza onasiga deydi:

- *“Oyi, xuddi erkak kishi, sizni yalang‘och ko‘rganday gapirasiz-a.*

- *Nima qoldi, yuzimni ko‘rdi, bo‘ldi, - dedi onam.*

- *Yuzingizni ko‘rdi. Buni o‘zingiz aytyapsiz, u yuzingizdan boshqa hech narsa ko‘rmadi.*

- *Esing joyidami? Yuzni ko‘rish harom emasmi? Yuzni ko‘rish man qilinmaganmi? Alloh bizni jazolamasin, ishqilib, yer zilzilaga uchramasin”, (al-Bishr B., 2025: 222*)- deb tashvish qiladi.

Saudiya jamiyatida bugungi kunda tarixiy o‘zgarishlar yuz bermoqda. Yaqin yillargacha ayollarga mashina minish huquqi berilmagan bu davlatda katta islohotlar o‘tkazilib, xotin-qizlar ham jamiyatning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida ham faol ishtirok etmoqdalar.

Badriya al-Bishrning arab tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilingan ushbu romani yaqin kunlarda o‘zbek o‘quvchilariga havola etiladi va ularga manzur bo‘ladi deb umid qilamiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Maqolada Badria al-Bishrning “Al-A’sho ko‘chasidagi ishq qissalari” romani tahlil qilinar ekan, unda Saudiya jamiyatidagi ayol shaxsining erkinlik sari intilishi, diniy va ijtimoiy cheklovlarga qarshi kurashi badiiy tarzda ochib berilgan. Adiba o‘z asarida konservativ qadriyatlar bilan zamonaviylik, patriarxal dunyoqarash bilan ayol ongining uyg‘onishi o‘rtasidagi ziddiyatlarni yoritadi. Romanning bosh qahramonlari timsolida insoniy orzu, muhabbat, izzat va o‘zlikni anglash kabi ma’naviy qadriyatlar talqini markaziy o‘rin egallaydi.

Asarda ayollar obrazlari orqali nafaqat individual erkinlik, balki jamiyatdagi umumiy islohot, yangilanish va inson huquqlarining badiiy ifodasi aks etgan. Badria al-Bishr o‘z romanida patriarxal jamiyatning ichki mexanizmlarini, diniy mutaassiblik va ekstremizmning ijtimoiy ildizlarini ochib beradi. Shu orqali yozuvchi o‘quvchini

zamonaviy Saudiya jamiyatida kechayotgan ruhiy, madaniy va ma’naviy jarayonlar haqida o‘ylashga undaydi.

Takliflar: 1. Ushbu tadqiqotda olingan natijalar zamonaviy arab romani bo‘yicha o‘quv dasturlariga, ayniqsa, “Zamonaviy arab adabiyoti” va “Arab ayollari adabiyotda” kabi maxsus kurslarga kiritilishi maqsadga muvofiqdir.

2. Badria al-Bishr ijodi bo‘yicha qiyosiy adabiyotshunoslik tadqiqotlari (masalan, Raja Alem, Umayma al-Xamis, Hind Bag‘affor kabi mualliflar bilan) olib borish tavsiya etiladi.

3. Saudiya adabiyotining o‘zbek tiliga tarjimalarini kengaytirish, ayol mualliflar ijodini tizimli o‘rganish ва tanqidiy tahlil qilish milliy adabiyotshunoslik uchun dolzarb vazifadir.

4. Oliy ta’lim tizimida arab ayollar romanlari bo‘yicha amaliy seminarlar va ilmiy konferensiyalar tashkil etish orqali ikki xalq madaniy aloqalarini yanada mustahkamlash maqsadga muvofiqdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Al-Bishr, B. (2013). Gharāmiyyāt fī shāri‘ al-A‘shā (Love Stories on Al-A‘sha Street). Beirut: Dar al-Saqi.
2. Abdunnabiy I.S. *السرد الاستعادي في رواية غراميات شارع الأعشى* (Retrospective narration in “Love Stories on Al-A’sha Street”). Journal of Arabic Narrative Studies, (2019). 12(3), 55–72.
3. Badriya al-Bishr. “Al-A’sho ko‘chasidagi ishq qissalri”. Arab tildan Murtazo Saydumarov tarjimasi. “Yangi asr avlodi” nashriyoti. Toshkent, 2025.
4. Xolid al-Yusuf. “Saudiya adabiyotida o‘zga tillardan va o‘zga tillarga tarjima” (“At-Tarjama fi-l-adab as-saudiy min va ila-l-lug’ati l-uxra”. Jidda, Dar al-Manhal. 2020.
5. Al-Qasihiy, L. “Description and Manifestations of Social Dimensions in the Novel “Love Stories on Al-A’sha Street”. Tamar University Journal of Humanities. 2024. 36(2), 45–61.
6. Al-Rajabi, F. The Effects of Women’s Oppression in Saudi Arabia as Reflected in the Novels of Badriah Al-Bishr. Arab Women Studies. 2020. 5(1), 22–38.
7. **الوصف وتمظهرات الأبعاد الاجتماعية في الرواية** —ليلى قاسحي، مجلة كلية الآداب – جامعة تعز (2024). دراسة أكاديمية ترصد آليات الوصف عبر فضاء السرد والشخصيات، وكيف تكشف الأبعاد الاجتماعية في النصsearch.mandumah.com+1 .
8. **تقنيات السرد النسوي: رواية شارع الأعشى لبدرية البشر – «غراميات» أنموذجًا** —معوض مفتاح، مجلة ASJP (الجزائر، 2021). مقالة تبحث انحياز الصوت السردي النسوي وتمثيلاته في الروايةASJP .
9. **السرد الاستعادي في رواية غراميات شارع الأعشى** —إشراق سامي عبدالنبي) متداول عبر منصات الفهرسة العربية ونسخ .(PDF تدرس توظيف الاسترجاع الزمني وبناء الحكاية .

10. **مقاربة تحليلية للأصوات الساردة في الرواية** —سلمان زين الدين، جريدة «اليوم» (2016). قراءة نقدية للراوي وتناوب الأصوات وتقسيم الوحدات السردي.

11. »**غراميات شارع الأعشى».. أرواح متمرّدة وأحلام مُجهَضة** —مادة نقدية مبكرة في «الجزيرة نت» (2014) تُبرز تمثيل التحوّلات الاجتماعية والمدينة بوصفها فضاءً سرديًا فاعلًا .الجزيرة نت

12. »**غراميات شارع الأعشى» علاقة ملحمية بين الناس والمدينة** —قراءة نقدية في صحيفة «العرب» (2014) تركز على ثنائية المكان والمجتمع alarab.co.uk .

13. **رؤية نقدية حديثة مع تزامن المسلسل المقتبس** —مقالات 2025 تتناول تكامل النص الروائي مع العمل الدرامي وتمثيل الشخصيات النسائية+wejhatt.com .

14. لـلاخ نم ةتاسبلامو يدوعسلا عمتجملا يف ثيدحتلا تُايادبـ .(2018) .دويسإ اضرّلادبع حابصـ ،ريشبلا ،ةرصبلا بادآ ةلجم .يفاقثلا دقنلا ءوض يف ةسارد :«ىشعلأا عراش تايمارغ» ةيلاور العدد 84، 94-127. . https://doi.org/10.33762/1162-000-084-004

15. عراش تايمارغ» ةيلاور يف يداعتسلاا ُدرسلا .(ربمسيد/لولأا نوناك ،2019) .يماس قارشإ ،يبنلادبع ،ةلجم .رشبلا ةيردبلا «ىشعلأا «يبرعلا جيلخلا» ،47(3–4), 82–99. https://doi.org/10.33762/0295-047-003.004-004

16. تايمارغ ُةيلاور» يوسّنلا دِرسّلا ُتايفنتـ .(2021-12-30) .نارهز حاتفم ضوعمو ،بابطخلا نينافأ «أجذومنأ رشبلا ةيردبلا ىشعلأا عراش». (ASJP, Université Ibn Khaldoun de Tiaret).

17. صاحب، سهاد ساعد. الموروث الشعبي في روايات بدري البشر "هند والعسكر"، و"غراميات شارع الأعشى" نمو-زجًا. مجلة كلية الآداب، 2019.

REFERENCES:

1. Abdunnabiy, Ishroq Sami (2019) الأعشى شارع غراميات رواية في الاستعادي السرد (Retrospective narration in “Love Stories on Al-A’sha Street”). Journal of Arabic Narrative Studies. 12(3), 55–72. (In Arabic)

2. Al-Bishr, Badriyah (2013) Gharāmiyyāt fī shāri‘ al-A‘shā (Love Stories on Al-A‘sha Street). Beirut: Dar al-Saqi. (In Arabic)

3. Al-Qasihiy, Layla (2024) Description and Manifestations of Social Dimensions in the Novel “Love Stories on Al-A’sha Street”. Tamar University Journal of Humanities. 36(2), 45–61. (In English)

4. Al-Rajabi, F. (2020) The Effects of Women’s Oppression in Saudi Arabia as Reflected in the Novels of Badriah Al-Bishr. Arab Women Studies. 5(1), 22–38. (In English)

5. Al-Bishr, Badriyah (2025) “Al-A’sho ko‘chasidagi ishq qissalari”. Arab tildan Murtazo Saydumarov tarjimasi. “Yangi asr avlodi” nashriyoti. Toshkent. (In Uzbek)

6. Al-Yusuf, Khalid (2020) “Saudiya adabiyotida o‘zga tillardan va o‘zga tillarga tarjima” (“At-Tarjama fi-l-adab as-saudiy min va ila-l-lug’ati l-uxra”). Jidda: Dar al-Manhal. (In Uzbek)

7. Al-Qasihiy, Layla (2024) الآداب كلية مجلة .الرواية في الاجتماعية الأبعاد وتمظهرات الوصف الأبعاد تكشف وكيف ،والشخصيات السرد فضاء عبر الوصف آليات ترصد أكاديمية دراسة .تعز جامعة – النص في الاجتماعية. search.mandumah.com+1. (In Arabic)

8. Muftah, Ma'wad Zahran (2021) النسوي السرد تقنيات :البشر لبدرية الأعشى شارع رواية – الرواية في وتمثيلاته النسوي السردي الصوت انحياز تبحث مقالة .(الجزائر) ASJP مجلة .أنموذجًا «غراميات» ASJP. (In Arabic)

9. Abdunnabiy, Ishroq Sami (2019) السرد الاستعادي في رواية غراميات شارع الأعشى. الحكاية وبناء الزمني الاسترجاع توظيف تدرس .PDF ونسخ العربية الفهرسة منصات عبر متداول (In Arabic)

10. Zayn al-Din Salman (2016) مقاربة للأصوات تحليلية الساردة في الرواية .جريدة «اليوم». السردي الوحدات وتقسيم الأصوات وتناوب للراوي نقدية قراءة (In Arabic)

11. «Gharāmiyyāt shāri‘ al-A‘shā».. arwāh mutamarrida wa aḥlām mujhaḍa (2014) مادة نقدية مبكرة في «نت الجزيرة» تُبرز تمثيل التحوّلات الاجتماعية والمدينة سرديًا فضاءً بوصفها فاعلًا. نت الجزيرة. (In Arabic)

12. «Gharāmiyyāt shāri‘ al-A‘shā» ‘alāqa malḥamiyya bayna al-nās wa-l-madīna (2014) قراءة نقدية في صحيفة «العرب» تركز على ثنائية المكان والمجتمع. alarab.co.uk. (In Arabic)

13. Ru’ya naqdiyya ḥadītha ma‘a tazāmun al-musalsal al-muqtabas (2025) مقالات النسائية الشخصيات وتمثيل الدرامي العمل مع الروائي النص تكامل تتناول. wejhatt.com+. (In Arabic)

14. Al-Bashir Sabah ‘Abd al-Rida Isyud (2018) السعودي المجتمع في التحديث بداياتُ العدد ،البصرة آداب مجلة .الثقافي النقد ضوء في دراسةٌ :«الأعشى شارع غراميات» رواية خلال من وملابساته 84، 94-127. https://doi.org/10.33762/1162-000-084-004. (In Arabic)

15. Abdunnabiy, Ishroq Sami (2019) «الأعشى شارع غراميات» رواية في الاستعادي السردُ «العربي الخليج»، 47(3–4), 82–99. https://doi.org/10.33762/0295-047-003.004-004. مجلة .البشر لبدرية (In Arabic)

16. Afānīn al-Khiṭāb wa-Mu‘awwaḍ Muftāḥ Zahrān (2021) النِّسْوي السَّردِ تقنياتُ «أنموذجًا البشر لبدرية الأعشى شارع غراميات روايةُ». (ASJP, Université Ibn Khaldoun de Tiaret). (In Arabic)

17. Sahib Suhad Sa‘id (2019) البشر بدري روايات في الشعبي الموروث "والعسكر هند"، نموذجًا "الأعشى شارع غراميات"و .الآداب كلية مجلة. (In Arabic)

O‘ZBEK TILIDA FRAZEOLOGIZMLAR ETNOSOTSIOPRAGMATIK ASPEKT SIFATIDA

УЗБЕКСКИЕ ФРАЗЕОЛОГИЗМЫ ЭТНОСОЦИОПРАГМАТИЧЕСКОМ АСПЕКТЕ

UZBEK PHRASEOLOGICAL UNITS IN THE ETHNOSOCIOPRAGMATIC ASPECT

https://zenodo.org/records/19260263

Qurbonov Zayniddin Oltinovich
filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD),dotsent
Oriental universiteti Samarqand kampusi
Tel.:+99895-447-23-73
E-mail: kurbanovzaynidin1@gmail.com
Oltinova Bahora Zayniddinovna
Samarqand davlat pedagogika institututi 4-bosqich talabasi
Tel.:+99899-278-16-04
E-mail: bahoraoltinova1604@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi frazeologizmlarning etnomadaniy tabiatini yoritish, ularning milliy mentalitet, xalqning tarixiy tajribasi, urf-odatlari va qadriyatlari bilan uzviy bog‘liqligini ilmiy jihatdan asoslash maqsad qilib olinadi. Frazeologizmlarning shakllanishi va rivojlanishida ijtimoiy muhit, nutqiy vaziyat, kommunikativ ehtiyoj hamda avlodlararo til tajribasining o‘rni alohida e’tiborga olinadi. Tadqiqot jarayonida frazeologik birliklar etnosotsiopragmatik aspektda tahlil qilinib, ularning nutqda qanday pragmatik vazifalarni bajarishi, ma’no va ifoda imkoniyatlari ochib beriladi. Shuningdek, frazeologizmlarning badiiy matnlardagi qo‘llanishi yozuvchi yoki shoirning individual uslubi hamda milliy dunyoqarashni aks ettiruvchi muhim vosita sifatida ko‘rsatib o‘tiladi. Keltirilgan nazariy fikrlar badiiy asarlardan olingan parchalar, xalq og‘zaki ijodi namunalaridan tanlangan frazeologizmlar orqali dalillanib, ularning etnomadaniy va sotsiopragmatik ahamiyati atroflicha yoritib berilgan.

Kirish so‘zlar: *frazeologizm, etnosotsiopragmatika, mentalitet, badiiy matn, aspekt, sotsiolingvistika, kontekst, lisoniy birlik, til elementlari.*

Аннотация. В данной статье основной целью является разностороннее раскрытие этнокультурной природы фразеологизмов узбекского языка и научное обоснование их органической связи с национальным менталитетом, историческим опытом народа, его обычаями, традициями и системой духовных ценностей. Подчеркивается, что фразеологические единицы формируются и развиваются под влиянием социальной среды, конкретной речевой ситуации,

коммуникативных потребностей общества, а также межпоколенческой передачи языкового опыта. В ходе исследования фразеологизмы рассматриваются в этносоциопрагматическом аспекте, что позволяет выявить их прагматические функции в речи, определить особенности употребления и раскрыть их семантическое и экспрессивное богатство. Особое внимание уделяется анализу функционирования фразеологических единиц в художественных текстах, где они выступают важным средством выражения индивидуального стиля писателя или поэта и отражения национального мировоззрения. Теоретические положения, изложенные в статье, подтверждаются примерами из художественной литературы и образцами устного народного творчества, благодаря чему всесторонне раскрывается этнокультурная и социопрагматическая значимость узбекских фразеологизмов.

Ключевые слова: *фразеология, этносоциопрагматика, менталитет, художественный текст, аспект, социолингвистика, контекст, языковая единица, языковые элементы*.

Abstract. This article aims to elucidate the ethnocultural nature of phraseological units in the Uzbek language and to scientifically substantiate their close connection with the national mentality, the historical experience of the people, their customs, traditions, and values. Particular attention is paid to the role of the social environment, speech situations, communicative needs, and intergenerational linguistic experience in the formation and development of phraseological units. In the course of the research, phraseological units are analyzed from an ethnosociopragmatic perspective, which makes it possible to reveal the pragmatic functions they perform in speech, as well as their semantic richness and expressive potential. Furthermore, the use of phraseological units in literary texts is considered as an important means of reflecting the individual style of a writer or poet and the national worldview as a whole. The theoretical assumptions put forward in the article are substantiated by examples drawn from works of fiction and samples of oral folk creativity, through which the ethnocultural and sociopragmatic significance of Uzbek phraseological units is comprehensively highlighted.

Key words: *phraseology, ethnosociopragmatics, mentality, literary text, aspect, sociolinguistics, context, linguistic unit, language elements*.

KIRISH

Frazeologizmlar tuzilishi, leksik – semantik, funksional – uslubiy va sintaktik vazifalari, shuningdek, o‘ziga xos shakllanish xususiyatlariga ega bo‘lgan til birligidir. Frazeologizmlar o‘zida xalqning tarixi, urf-odatlari, madaniyati, hayot tarzi hamda e’tiqodlarini aks ettirib turuvchi til elemetlari hamdir. Frazeologizm – ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topgan, ma’naviy jihatdan o‘zaro bog‘liq so‘z birikmasi yoki

gapga teng keladigan, yaxlitligicha ko‘chma ma’noda qo‘llanadigan va bo‘linmaydigan, barqaror (turg‘un) bog‘lanmalarning umumiy nomi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu til elementlari shaklan o‘zlariga o‘xshash boshqa sintaktik tuzilmalardan farqli ravishda, nutqda so‘zlarni erkin tanlash, almashtirish yo‘li bilan yuzaga kelmaydi, balki ma’no va muayyan leksik-grammatik tarkibli, avvaldan tayyor material sifatida qo‘llanadi, ya’ni frazeologizm tarkibidan biror qismni chiqarib tashlash, tushirib qoldirish mumkin emas (Rahmatullayev Sh., 1966). O‘zbek frazeologizmlari xalqimizning tarixi, urf-odatlari, e’tiqodlari hamda turmush tarziga bog‘liqdir. Har bir frazeologizmda chuqur ma’no va xalqimizning tarixi aks etib turadi. Umuman olganda, ushbu til elementlari xalqning madaniyati, dini, millati, urf-odatlaridan kelib chiqqan holda yaratiladi. O‘zbek tilida frazeologizmlarga bag‘ishlangan tadqiqotlar ham talaygina. XX asrning 50-yillariga qadar o‘zbek tilshunosligida frazeologizmlar o‘rganilmaganligi sababli ham bu davrda frazeologiya bo‘limi tilshunosligimizda mustaqil soha sifatida shakllanmagan edi. Frazeologik birliklar to‘g‘risidagi ilk nazariy fikrlar mana shu davrda, ya’ni XX asrning 50-yillarida A.G‘ulomov, U.Tursunov, V.Abdullayev, H.Zarif, N.Mallayev kabi tilshunos va adabiyotshunos olimlarning grammatika, stilistika, ba’zi shoir va yozuvchilarning badiiy mahoratlari tadqiqi masalalari yoritilgan tadqiqotlarida berib o‘tilgan edi (Maksetova Z., Qambaraliyev S., Yunusov A. 2022: 182-186).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqola tavsifiy-tahliliy, qiyosiy-semantik va etnosotsiopragmatik metodlar asosida yoritilgan. O‘zbek tilidagi frazeologizmlar xalqning mentaliteti, ijtimoiy munosabatlari va madaniy qadriyatlari bilan uzviy bog‘liqlikda tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida badiiy matnlar, og‘zaki nutq namunalaridan foydalanilib, frazeologik birliklarning pragmatik vazifasi va kommunikativ ta’siri aniqlandi. Shuningdek, kontekstual tahlil yordamida frazeologizmlarning etnosotsial mazmuni va nutqiy vaziyatga moslashuv xususiyatlari yoritildi. Natijada frazeologizmlarning etnosotsiopragmatik xususiyatlarini aniqlashga doir ilmiy xulosalar va yangicha yondashuvlar ilgari surildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Frazeologizmlarni qo‘llash orqali nutqning emotsional-exspressivlik xususiyati oshadi, nutqimiz yana ham tushunarli hamda ravon bo‘ladi. Frazeologizmlar biron narsa-hodisani atash, nomlash vazifasini bajarmaydi, balki shu predmet yoki hodisani aniqlashtirib, ularni emotsional va obrazli tarzda baholaydi. Adabiy tilning sofligi va ta’sirchanligini ta’minlovchi vositalardan biri. Ammo asosiy muammo ushbu nutq elementlarini to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llay olishda. Ana shunday lisoniy birliklardan qay

birini ijtimoiy etnik omillarni hisobga olgan holda muayyan sharoitda qo‘llash ko‘proq samarali, ya’ni ta’sirchan ekanligini o‘rganuvchi etnosotsiolingvistikaning bir tarmog‘i – etnosotsiopragmatika yoki pragmatik sotsiolingvistika fanidir. Ushbu fan tarmog‘i doirasida frazeologizmlar etnosotsiopragmatik aspekt (tushuncha) sifatida o‘rganib kelinmoqda. Frazeologik birliklarni etnosotsiopragmatik jihatdan tahlil qilish esa bugungi tilshunoslik fanining dolzarb masalalaridan biridir, chunki hozirgi kungacha frazeologizmlar ustida lingvistik, pragmatik, sotsilongvistik va boshqa shunga o‘xshash tadqiqotlar olib borilgan. Ammo etnosotsiopragmatik tomondan tahlillar mavjud emas. Frazeologizmlarni ushbu soha doirasida tadqiq etish tilshunoslikning o‘ziga xos xususiyatlarini ochib berishga imkon beradi. Frazeologizmlar nutqimizni bezab, ta’sirchanligini oshirishdan tashqari tilimizga rang va joziba ham beradi. Yuqorida aytib o‘tganimizdek, faqat bu lisoniy birliklarni to‘g‘ri qo‘llay olishimiz lozim. Kasb, vaqt, yosh, vaziyat va holat, nutq uslublari ham frazeologizmlarni qo‘llashda turli cheklov va me’yorlarga sabab bo‘lishi mumkin. Masalan, rasmiy va ilmiy uslubda nutq ijod qilganda, frazeologizmlardan foydalanishimiz nutqning samaradorligiga salbiy ta’sir o‘tkazadi, chunki ushbu nutq uslublari o‘zining alohida qolip va tuzilishiga, qoidalariga ega uslublar hisoblanadi. Boshqa tillarda bo‘lganidek, o‘zbek tilida ham frazeologik birliklarning asosiy qismi (75 foizi) funksional-uslubiy jihatdan muayyan nutqiy aloqa doiralarida qo‘llanish imkoniyatiga ega. Ayrim iboralar adabiy-kitobiy uslublarda qo‘llana olish xususiyati bilan ajralib tursa, boshqalari adabiy-og‘zaki, maishiy-so‘zlashuv doiralarida qo‘llanilishi bilan xarakterlanadi (Yo‘ldoshev B., 1998:46). Frazeologik birliklar tahlil qilish orqali qo‘llanish doirasi va emotsional-expressivlik darajasini aniqlashimiz mumkin. Masalan, *“do‘ppisini osmonga otmoq”, “do‘ppisi tor kelmoq”, “tarvuzi qo‘ltig‘idan tushmoq”* kabi iboralar, asosan, O‘rta Osiyo xalqlari nutqida uchraydi:

Bu yerda ikki-uch ovora bo‘lib, ish bitirgan odam do‘ppisini osmonga otib xursand bo‘ladi (“Mushtum” jurnalidan*).*

*Do‘ppi tor keldimi, darrov Jo‘raboyevning panohiga tiqilishadi (*Sh. R. “Bo‘rondan kuchli”,1981,18 b,*).*

*Dafndan so‘ng to‘y bir yilsiz bo‘lmasligini eshitib. Qari kuyov, tarvuzi qo‘ltig‘idan tushib, qishlog‘iga xomush qaytib ketdi (*M.Ismoiliy*).*

Badiiy matnlardan olingan parchalardan ko‘rinib turibdiki, frazeologik birliklarning barchasi xalqning o‘ziga xosliklari, urf-odati, dini, hayot tarzi, mentalitetidan kelib chiqqan holda yaratiladi. Ammo frazeologizmlar ham nutqimizda qo‘llanadigan boshqa til birliklari singari ma’lum bir yosh chegarasi doirasida qo‘llanganda nutqning samaradorligini oshirib berish darajasi yuqori bo‘ladi. Masalan, *“ko‘zi moshdek ochildi”, “belini bog‘lamoq”,”vaysaqilik qilmoq”, “tosh otishga usta bo‘lmoq”, “o‘zlarini aka eskilarini taka deb yurmoq”, “ko‘zini shira bosgan”* kabi

frazeologizmlar asosan, yoshlar o‘rtasida ko‘proq qo‘llaniladi. Qariyalarga nisbatan qo‘llanganda, hurmatsizlik kabi salbiy ottenka berishi mumkin:

*Davlat zo‘r, unchalik bilinmaydi, ammo, pirovardi yomon bo‘ladi, ana shunda ko‘zi moshdek ochiladi (*Oybek. Qutlug‘ qon., 2019: 60).

“Belini bog‘lamoq” iborasida ham bevosita milliyligimiz aks etib turadi. Chunki dunyo bo‘yicha faqat O‘rta Osiyo aholisigina “belbog‘” bog‘laydi. To‘yda, azada, marosimlarda, biror yumush bajarayotganda ham belbo‘g taqilgan. Qadimdan “belini bog‘lamoq” jumlasi xalqimiz orasida azada erkaklarning bel bog‘lab turishlariga nisbatan ham qo‘llangan:

*Lekin supada xuddi kattalarday belini bog‘lab, yolg‘iz mung‘ayib o‘tirgan ukasini ko‘rib yuragidagi bir murvati cho‘rt singanday bo‘ldi-da, ovozining boricha o‘kirib yubordi... (*O. Yoqubov. Billur qandillar., 2018:4)

Belbog‘ bog‘lash shunchaki oddiy hol emas, albatta. Bunda ota - bobolarimiz choponning oldini yopib turishi va biror yumush bajarayotganda xalaqit bermasligi uchun ham belbog‘ taqqanlar. Shu sababli ushbu birikmaning “astoydil harakat qilmoq”, “qattiq kirishmoq” kabi ma’no qirralari faollashtirilgan holda bugunga qadar “belini bog‘lamoq” iborasi biror yumushga qattiq kirishmoq, astoydil bajarmoq kabi ma’nolarni anglatib kelmoqda:

O‘zbekiston xalqaro reytinglardagi o‘rnini yaxshilashga bel bog‘ladi (Qalampir.uz *).*

Yuqoridagi gapda ibora “astoydil harakat qilmoq” ma’nosida qo‘llangan. Xalqimiz orasida “belida belbog‘i bor” yigitlar azal-azaldan mard, bir so‘zli inson sifatida ko‘rilgan:

Ochig‘ini aytsam, qizlarga ham ana shunday dovurak, “belida belbog‘i bor” yigitlar yoqadi (Gazetadan).

Belbog‘ bog‘lash bevosita erkaklarga xosligi sababli “bel bog‘lamoq” iborasi ham erkaklar nutqida ko‘p uchraydi.

*Yo‘lchi o‘rnidan turib yelkasiga eski yupqa paxtalik choponni tashladi, poshnasi qiyshiq etikni kiydi, belini bog‘ladi, otxonaga chiqib, go‘ngni to‘pladi, oxurlarni tozaladi (*Oybek. *Qutlug‘ qon.*, 2019:145).

*Otabek Nuriddinov Asaka tumani adirligidan 220 gektar yer olib o‘rmonzorga aylantirishga astoydil bel bog‘ladi (*kun.uz *).*

Masalan: *Barakallo, uka, barakallo. Aqlli bola ekansan, uka, ota qarzini uzishga bel bog‘labsan. Bir tomondan dadangning arvohi xushnud bo‘ladi, ikkinchi tomondan, o‘zing jo‘ralaring orasida boshingni ko‘tarib, xo‘rozday yurasan.* (Oybek. Qutlug‘ qon.,2019: 3).

*Ko‘p yaxshi ishga bel bog‘labsiz (*О.Ёқубов., Бир кошона сирлари., 2002:10*).*

Tilimizda shunday iboralar ham borki, keksalar o‘rtasida keng qo‘llanadi. Masalan: “dumini tugmoq” iborasini olaylik. Bu ibora “qaytmas qilib haydab yubormoq” (Sh.Rahmatullayev, N.Mahmudov, Z.Xolmanova Z.O‘razova, I.Rixsiyeva, 2022: 142) ma’nosini anglatadi va qariyalar nutqida yoshlarga nisbatan ko‘p o‘rinlarda qo‘llanadi:

Shundan keyin qurilish rahbarlari ularning dumlarini tugib, unisi bo‘lmasa, bunisi, deb yana boshqa shunga o‘xshash kishilarni tavakkal qilib ishga olisha beradi (“Mushtum” jurnalidan*).*

Yoshlar nutqida esa ushbu iboraning ishlatilishi ma’no g‘alizligini keltirib chiqaradi. “Pinakka ketmoq” iborasi ham ko‘p hollarda qariyalarga nisbatan norasmiy nutq tarkibida qo‘llanadi:

*Qariya pinakka ketdi: oq sochli boshini qo‘llari bilan siqib, ko‘zlarini yumib, uzoq o‘yga toldi (*Ойбек, Нур қидириб,. 2019: 38).

“Olamdan ko‘z yummoq” iborasini tahlil qiladigan bo‘lsak, emotsional-ekspressivlikning ikki xil darajasini ko‘rishimiz mumkin, ya’ni ushbu keltirilgan ibora 65-70 yoshdan oshgan yoki uzoq vaqt davomida biror og‘ir kasallik bilan og‘rigan insonga nisbatan qo‘llanganda emotsionallik darajasi pastroq bo‘ladi. Ammo yosh, sog‘lom, ayni navqiron vaqtdagi insonga nisbatan qo‘llanganda, salbiy ottenka yana ham yuqori daraja ko‘zga tashlanadi. Masalan:

Mashhur rossiyalik sirk masxarabozi Oleg Popov 87 yoshida olamdan ko'z yumdi (kun.uz).

Mahoratli bastakor Musaxon Nurmatov uzoq davom etgan xastalik sabab 56 yoshida olamdan ko‘z yumdi (Daryo.uz).

Toshkentda yosh yigit tengdoshlari tomonidan kaltaklanishi oqibatida hayotdan ko‘z yumdi (Kun.uz).

Yuqorida “ko‘z yummoq” iborasi qatnashgan uchta gap misol tariqasida keltirildi. Birinchi gapda qari insonning vafoti, ikkinchi gapda esa uzoq vaqt davomida kasallik bilan kurashgan insonning qazosi va uchinchi gapda navqiron yigitning bevaqt o‘limi “ko‘z yummoq” iborasi orqali ifodalanmoqda. Ammo ma’no ottenkasining darajasi har xil. Birinchi gapda mazmunli va uzoq umrdan keyin kelgan qazo tasvirlanganligi sabali ekspressivlik darajasi pastroq. Ikkinchi gapda ham uzoq muddatli kasallikdan keyingi o‘lim bo‘lganidan emotsional-ekspressivlik darajasi birinchi gapdagidek. Uchinchi gapdagi “ko‘z yumdi” iborasi esa eshitgan quloqni larzaga keltiradigan darajada yangramoqda. Gapda salbiy ottenka bo‘yog‘i yuqori darajada ko‘zga tashlanadi. Ushbu iborani rasmiy nutq tarkibida o‘z shaklida bera olmaymiz, aksincha ma’no darajasi teng bo‘lgan boshqa so‘z yoki birikma bilan almashtirishimiz lozim. Chunki rasmiy uslubda tuzilgan nutqda “ko‘z yummoq” iborasi lug‘aviy ma’noda tushuniladi. Shu sababli bu iboraning o‘rniga “vafot etdi” yoki “o‘lim topdi” birikmalari qo‘llanishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Frazeologizmlar biror narsa – hodisani atash, nomlash vazifasinigina bajarib qolmasdan, ko‘rsatilgan predmet yoki hodisani aniqlashtirib beradi, ularni emotsional va obrazli tarzda baholaydi. Frazeologik iboralar zamirida ma’lum obraz, konkret hodisa, predmet tasavvuri yotadi. Bunday obrazlilik frazeologizmlar to‘g‘ri va o‘rinli qo‘llanganda uslubiy imkoniyatlarini oshiradi, ularni tilning kuchli ifoda vositalaridan biriga aylantiradi. Ammo frazeologik birliklarning emotsional-ekspressivlik darajasi nutq egasi va fikr qaratilgan shaxsning ijtimoiy hamda shaxsiy holati, vaziyatiga, nutq yaratilgan makon va zamonga qarab ham turlicha bo‘lishi mumkin. Nutqning ta’sirchanligi hamda samaradorligi ham bevosita frazeologizmlarning o‘rinli qo‘llanishiga bog‘liq.

O‘zbek tilidagi frazeologizmlarni etnosotsiopragmatik jihatdan o‘rganishda ularning hududiy, ijtimoiy va avlodlararo farqlanishiga e’tibor qaratish muhimdir. Frazeologik birliklarning zamonaviy kommunikativ muhitda, jumladan, ijtimoiy tarmoqlar va ommaviy axborot vositalaridagi qo‘llanishi alohida tadqiqot talab etadi. Bu jarayon frazeologizmlarning hozirgi nutq amaliyotidagi funksional xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi. Shuningdek, ularni milliy mentalitet va madaniy kodlar bilan bog‘liq holda qiyosiy tahlil qilish ilmiy ahamiyatga ega. Tadqiqot natijalari etnosotsiopragmatik yondashuv asosidagi o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yaratishga xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mamatov A. E. (1997). O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi. Toshkent.

2. Maksetova Z., Qambaraliyev S., Yunusov A. (2022). Tilshunoslikda frazeologik birliklarning o‘rganilishi va ularning tasnifi. Uchinchi renessans: ilm-fan va ta’lim taraqqiyoti istiqbollari jurnali, 2(5), 182–186.

3. Ойбек. (2019). Нур қидириб. – Янги аср авлоди.

4. Oybek (2019). Qutlug‘ qon. – G‘afur G‘ulom.

5. О. Ёқубов. (2002). Бир кошона сирлар. – Шарқ.

6. О. Ёқубов (2018). Биллур қандиллар. – Ёшлар нашриёт уйи.

7. Rahmatullayev Sh., Abdullayev A. va boshq. (2022). O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi.

8. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. (2022). O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 636 b.

9. Ш.Рашидов (1981). Бўрондан кучли. – Ғафур Ғулом.

10. Рафиев А. (1985). Иборалар нутқимиз кўрки. Тошкент: Фан.

11. Рахматуллаев Ш. (1970). Нутқимиз кўрки. Тошкент, 5–43-б.

12. Рахматуллаев Ш. (1966). Ўзбек фразеологиясининг баъзи масалалари. Тошкент.

13.Йўлдошев Б. (1998). Фразеологик услубият асослари. Самарқанд, 610 б.

14. Ijtimoiy tarmoq: (Qalampir.uz). (kun.uz). (Daryo.uz).

REFERENCES:

1. Mamatov A. E. (1997). O‘zbek tili frazeologizmlarining shakllanishi. Toshkent. (In Uzbek)

2. Maksetova Z., Qambaraliyev S., Yunusov A. (2022). Tilshunoslikda frazeologik birliklarning o‘rganilishi va ularning tasnifi. Uchinchi renessans: ilm-fan va ta’lim taraqqiyoti istiqbollari jurnali, 2(5), 182–186. (In Uzbek)

3. Odil Yoqubov. (2002). Bir koshona sirlar. Sharq. (In Uzbek)

4. Oybek. (2019). Nur qidirib. Yangi asr avlodi. (In Uzbek)

5. Oybek. (2019). Qutlug‘ qon. G‘afur G‘ulom. (In Uzbek)

6. O. Yoqubov. (2018). Billur qandillar. Yoshlar nashriyot uyi. (In Uzbek)

7. Rahmatullayev Sh., Abdullayev A. va boshq. (2022). O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi. (In Uzbek)

8. Rahmatullayev Sh., Mahmudov N., Xolmanova Z., O‘razova I., Rixsiyeva K. (2022). O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 636 b. (In Uzbek)

9. Sh. Rashidov. (1981). Bo‘rondan kuchli. G‘afur G‘ulom. (In Uzbek)

10. Rafiyev A. (1985). Iboralar nutqimiz ko‘rki. Toshkent: Fan. (In Uzbek)

11. Rahmatullaev Sh. (1970). Nutqimiz ko‘rki. Toshkent, 5–43-b. (In Uzbek)

12. Rahmatullaev Sh. (1966). O‘zbek frazeologiyasining ba’zi masalalari. Toshkent. (In Uzbek)

13. Yo‘ldoshev B. (1998). Frazeologik uslubiyat asoslari. Samarqand, 610 b. (In Uzbek)

14. Ijtimoiy tarmoq: (Qalampir.uz). (kun.uz). (Daryo.uz). (In Uzbek)

RUHIY HOLATNI IFODALOVCHI NUTQIY AKTLARNING GENDER XUSUSIYATLARI TADQIQI DOLZARBLIGI XUSUSIDA

ON THE TOPICALITY OF RESEARCHING GENDER-SPECIFIC FEATURES OF SPEECH ACTS EXPRESSING MENTAL STATES

О АКТУАЛЬНОСТИ ИССЛЕДОВАНИЯ ГЕНДЕРНЫХ ОСОБЕННОСТЕЙ РЕЧЕВЫХ АКТОВ, ВЫРАЖАЮЩИХ ПСИХИЧЕСКОЕ СОСТОЯНИЕ

https://zenodo.org/records/19260302

Tashpulatova Shirina Ziyoviddin qizi
Oriental universiteti Tillar-2 kafedrasi
katta o‘qituvchisi, PhD.
Tel.: +998 977738886
E-mail: shirinatoshpolatova@icloud.com

Annotatsiya. Jahon tilshunosligida nutqiy aktlarning turli jihatlarini o‘rganish struktur tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, lingvopragmatika hamda semantik tadqiqotlar doirasida shakllangan antropotsentrik yondashuvlar asosida izchil rivojlanib bormoqda. Ushbu yondashuv doirasida nutqiy akt va uning tarkibiy qismlarini antropologik nuqtayi nazardan tahlil qilish, xususan, ruhiy holat mazmuniga ega nutqiy aktlarning gender xususiyatlarini aniqlash alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Maqolada ruhiy holatni ifodalovchi nutqiy aktlarning ayol va erkak nutqida namoyon bo‘lish shakllari, ularning pragmatik va semantik xususiyatlari qiyosiy tahlil qilinadi. Ingliz va o‘zbek tillari materiallari asosida olib borilgan tadqiqot natijalari gender omilining nutqiy aktlar mazmuni va ifoda vositalariga ta’sirini ochib beradi hamda ushbu xususiyatlarni tizimlashtirish va tarjima jarayonida hisobga olish bo‘yicha ilmiy xulosalar chiqarishga imkon yaratadi.

Kalit so‘zlar: *gender, ruhiy holat, nutqiy akt, pragmaligvistika, antropotsentrik tilshunoslik, lingvakulturologiya, lingvapragmatika, semantika.*

Аннотация. В современной лингвистике изучение различных аспектов речевых актов активно развивается в рамках антропоцентрических подходов, сформировавшихся в структурной лингвистике, лингвокультурологии, лингвопрагматике и семантических исследованиях. В данном контексте особую научную значимость приобретает антропологический анализ речевого акта и его компонентов, в частности исследование гендерных особенностей речевых актов, выражающих психическое состояние. В статье рассматриваются способы репрезентации психических состояний в речи мужчин и женщин, а также их прагматические и семантические характеристики. На материале английского и узбекского языков проводится сопоставительный анализ, позволяющий выявить влияние гендерного фактора на структуру и интерпретацию речевых актов, а

также определить его значение для систематизации языковых средств и переводческой практики.

Ключевые слова: *гендер, психическое состояние, речевой акт, антропоцентрическая лингвистика, лингвокультурология, лингвопрагматика, семантика.*

Annotation. In modern linguistics, the study of various aspects of speech acts has been steadily developing within anthropocentric approaches formed in the framework of structural linguistics, linguistic and cultural studies, pragmatics, and semantic research. Within this paradigm, special attention is paid to the anthropological analysis of speech acts and their components, particularly to the investigation of gender-specific features of speech acts expressing mental states. This article focuses on identifying and analyzing the ways in which mental states are verbalized in male and female speech, as well as on revealing their pragmatic and semantic characteristics. Based on a comparative analysis of English and Uzbek language materials, the study demonstrates the influence of gender on the structure, expression, and interpretation of speech acts. The results contribute to the systematization of gender-related features and provide theoretical insights that may be applied in translation studies and intercultural communication.

Key words: *gender, mental state, speech act, pragmatics, anthropocentric linguistics, lingoculturology, linguopragmatics, semantics.*

KIRISH

Zamonaviy tilshunoslikda nutqiy faoliyatni inson omili bilan uzviy bog‘liq holda tadqiq etish muhim ilmiy yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Nutqiy aktlar milliy-madaniy, ijtimoiy, axloqiy va psixologik omillarning lisoniy birliklar orqali voqelanishini ta’minlovchi murakkab kommunikativ jarayon sifatida namoyon bo‘ladi. Shu bois nutqiy aktlarning semantik va pragmatik xususiyatlarini gender prizmasida o‘rganish tilshunoslikning dolzarb masalalaridan biri sanaladi.

So‘nggi yillarda gender masalasi qiyosiy tilshunoslik, sotsiolingvistika, pragmalingvistika, psixolingvistika hamda tarjima nazariyasi doirasida keng tadqiq etilmoqda. Ayol va erkak jinsiga mansub shaxslarning nutqidagi farqlar, ularning idrok va ruhiy holatini ifodalash usullari, mazkur xususiyatlarning nutqiy aktlarda namoyon bo‘lish mexanizmlarini aniqlash ilmiy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, ruhiy holatni ifodalovchi nutqiy aktlarning ingliz va o‘zbek tillari doirasida chog‘ishtirib o‘rganilishi individual nutqni obyektiv baholash, shuningdek, tarjima jarayonida mazmuniy ekvivalentlikni ta’minlash imkonini beradi.

Mazkur tadqiqot ruhiy holatni ifodalovchi nutqiy aktlarning gender xususiyatlarini ingliz va o‘zbek tillari materiallari asosida qiyosiy tahlil qilishga

qaratilgan bo‘lib, nutqiy muloqot jarayonida inson omilining lisoniy ifodasini yoritishga xizmat qiladi.

Dunyo tilshunosligida nutqning gender ko‘rsatkichlarini turli tillar kesimida tahlil qilish, tarjima variantlari va semantik tarkibida gender semasi mavjud leksik birliklarning leksikografik talqinini tahlil qiluvchi tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Tadqiqotlar asosan gender ko‘rsatkichi yaqqol ifodalangan lisoniy birliklarni nutqdan ajratilgan holda tahlil qiladi. Nutqiy akt milliy, madaniy, axloqiy, mental omillarning lisoniy birliklar vositasida voqelanishini namoyon qiluvchi jonli jarayondir. Ruhiy holatni ifodalovchi nutqiy aktlarning gender xususiyatlarini yoritish vositasida tilning voqelanishda inson omili bilan bog‘liq ravishdagi nutqiy muloqot jarayonini sharhlash muhim ahamiyat kasb etadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Nutqiy aktning turli semantik va pragmatik ko‘rsatkichlari analizi struktur tilshunoslik, lingvomadaniyatshunoslik, lingvopragmatika, semantik tadqiqotlarda yuzaga chiqqan antropotsentrik yondashuv asosida amalga oshirilmoqda. Nutqiy akt va uning komponentlarini gender prizmasida tahlil qilish, xususan, ingliz va o‘zbek tillarida ruhiy holat mazmuniga ega nutqiy aktlarning gender ko‘rsatkichlarini qiyoslash hamda chog‘ishtirish, ushbu xususiyatlarini aniqlash, tizimlashtirish va tarjimasini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Nutq insoniyat taraqqiyoti, ijtimoiy munosabatlar, jamiyat munosabatlarida eng muhim ahamiyat kasb etadi. Til ijtimoiy hodisa o‘laroq, jamiyatda voqelanib, insoniyatning eng muhim muloqot ehtiyojini qondirishga xizmat qiladi. Muloqot jarayonining kommunikativ-pragmatik jihatlari pragmalingvistikaning asosiy obyekti sifatida maxsus tadqiq etiladi (Grice P., 1975:23-53). Shuningdek, bu masalalar qiyosiy tilshunoslik, sotsiolingvistika, uslubiyat, tarjima nazariyasi, lingvomadaniyatshunoslik, va psixolingvistika doirasida o‘rganilgan. Ayol va erkak jinsiga mansub shaxslarning nutqidagi farqlar, ularning idrok va ruhiyatidagi tafovutlar nutqda qanday aks etishi, ushbu o‘ziga xosliklarni nutqda ifodalovchi vosita hamda mexanizmlar jahon va o‘zbek tilshunoslarini qiziqtirib kelgan masalalardan biri hisoblanadi.

Zamonaviy o‘zbek tilshunosligida matnning lisoniy va nolisoniy xususiyatlarini tahlil qilishga katta ahamiyat qaratilmoqda. Xususan, gender masalasi tadqiqi ham badiiy matn doirasida olib boriladi. Milliy adabiyotda gender xususiyatlarining namoyon bo‘lishi tadqiqotchilarni qiziqtirgan mavzulardan biri (Boymirzayeva S., 2009). Pragmalingvistika nutqni inson subyekti va lisoniy qonuniyat (obyektivlik) prizmasida ko‘zdan kechirar ekan, muayyan mazmundagi nutqiy aktlar va ulardagi aniq bir xususiyat doirasida cheklanish xulosalarning aniq, yaxlit va tizimiy bo‘lishini, tadqiqotning izchilligini ta’minlaydi. Ruhiy holatni ifodalovchi nutqiy aktlarning

gender xususiyatlarini ingliz va o‘zbek tillari doirasida chog‘ishtirish vositasida individual nutqqa obyektiv baho berish zaruriyati mavjud.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda qiyosiy-tahliliy, tavsifiy, semantik va pragmatik tahlil metodlaridan foydalanildi. Ruhiy holatni ifodalovchi nutqiy aktlarning gender xususiyatlarini aniqlashda ingliz va o‘zbek tillariga oid badiiy matnlar asosiy tadqiqot materiali sifatida tanlandi. Tadqiqot jarayonida nutqiy aktlarning mazmuniy va funksional jihatlari antropotsentrik yondashuv asosida tahlil qilindi. Mazkur metodologik yondashuv tadqiqotning ilmiy yangiligi va nazariy asoslangan xulosalarini ta’minladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Nutqning gender ko‘rsatkichlarini turli tillar kesimida tahlil qilish, tarjima variantlari va semantik tarkibida gender semasi mavjud leksik birliklarning leksikografik talqinini tahlil qiluvchi tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Tadqiqotlar asosan gender ko‘rsatkichi yaqqol ifodalangan lisoniy birliklarni nutqdan ajratilgan holda tahlil qiladi. Nutqiy akt milliy, madaniy, axloqiy, mental omillarning lisoniy birliklar vositasida voqelanishini namoyon qiluvchi jonli jarayondir. Ruhiy holatni ifodalovchi nutqiy aktlarning gender xususiyatlarini yoritish vositasida tilning voqelanishda inson omili bilan bog‘liq ravishdagi nutqiy muloqot jarayonini sharhlash zarur.

Nutqiy akt nazariyasi zamonaviy tilshunoslikda kommunikativ jarayonni tushuntirishning muhim metodologik asosi hisoblanadi. Nutqiy akt inson tafakkuri, ijtimoiy tajribasi hamda psixologik holatining lisoniy shakllanish jarayonini o‘zida mujassam etadi. Ruhiy holatni ifodalovchi nutqiy aktlar esa shaxsning ichki kechinmalari, hissiy holati va psixologik munosabatlarini nutqda ifodalovchi murakkab pragmatik birliklar sifatida namoyon bo‘ladi.

Gender omili nutqiy aktlarning mazmuniy va pragmatik xususiyatlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Ayol va erkak nutqida ruhiy holatni ifodalashda qo‘llaniladigan lisoniy vositalar, baholash birliklari, emotsional-ekspressiv unsurlar hamda kommunikativ strategiyalar o‘zaro farqlanadi. Ushbu farqlar milliy-madaniy omillar bilan ham chambarchas bog‘liq bo‘lib, har bir til tizimida o‘ziga xos tarzda namoyon bo‘ladi.

Ingliz va o‘zbek tillarida ruhiy holatni ifodalovchi nutqiy aktlarni qiyosiy o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, ingliz tilida individualizmga yo‘naltirilgan ochiq emotsional ifoda ustuvor bo‘lsa, o‘zbek tilida kollektiv ong, madaniy me’yor va nutqiy etiket bilan bog‘liq bilvosita ifodalar kengroq uchraydi. Bu holat genderga xos nutqiy xulq-atvor shakllarida ham o‘z aksini topadi.

Pragmalingvistik nuqtayi nazardan qaralganda, ruhiy holatni ifodalovchi nutqiy aktlarda kontekst, kommunikativ vaziyat va nutq ishtirokchilarining o‘zaro munosabati muhim ahamiyat kasb etadi. Gender omili ushbu jarayonda nutqiy strategiyani tanlash, nutqning bilvositaligi yoki bevositaligi, emotsional baholash darajasini belgilovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Shuningdek, tarjima jarayonida ruhiy holatni ifodalovchi nutqiy aktlarning gender xususiyatlarini inobatga olish muhimdir. Ingliz va o‘zbek tillari o‘rtasidagi tarjimada genderga xos emotsional yuklama, baholash semantikasi va pragmatik ma’no mosligini ta’minlash tarjimonning asosiy vazifalaridan biridir. Aks holda, nutqiy aktning kommunikativ maqsadi va ruhiy mazmuni to‘liq aks etmasligi mumkin.

Badiiy matndan olingan misollar tahlili ushbu xulosalarni yanada asoslash imkonini beradi. Jumladan, ingliz adabiyotida ayol personajlar nutqida ruhiy holat ko‘pincha ochiq emotsional baholash birliklari, modal fe’llar va intensifikatorlar orqali ifodalanadi. Masalan, J. Austen asarlarida ayol qahramonlarning ichki kechinmalari nutqiy aktlar orqali bilvosita emas, balki ochiq va emotsional tarzda ifodalanadi. Erkak personajlar nutqida esa ruhiy holat ko‘pincha bilvosita, vazmin va mantiqiy konstruksiyalar orqali namoyon bo‘ladi.

O‘zbek badiiy matnlarida esa, masalan, A.Qodiriy (2018:384) yoki O‘.Hoshimov (2015:336) asarlarida ayol personajlar ruhiy holatini ifodalashda iltimos, muloyimlik va hissiy ohang ustuvorlik qiladi. Erkak personajlar nutqida esa ruhiy holat ko‘proq ichki monolog, sukut yoki kinoya orqali ifodalanadi. Bu holat o‘zbek madaniyatiga xos nutqiy etiket va gender rollari bilan izohlanadi.

Mazkur badiiy misollar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ruhiy holatni ifodalovchi nutqiy aktlarning gender xususiyatlari nafaqat lisoniy, balki madaniy va psixologik omillar bilan ham uzviy bog‘liqdir. Ushbu jihatlarni hisobga olish nutqiy aktlar tahlilining ilmiy asoslanganligini ta’minlaydi.

Ruhiy holatni ifodalovchi nutqiy aktlarning gender xususiyatlarini yanada aniqroq ochib berish maqsadida ingliz va o‘zbek badiiy matnlaridan olingan real misollar tahlil qilindi. Jumladan, J. Austenning “Pride and Prejudice” (1981:480) romanida Elizabeth Bennet obrazining ruhiy holati nutqiy aktlar orqali quyidagicha ifodalanadi: *“I cannot determine what to say about it… You must allow me to tell you how ardently I admire and love you.”* Mazkur nutqiy aktda ayol personajning ichki kechinmalari modal birliklar, ochiq emotsiyalar orqali ifodalanib, genderga xos emotsionallikni namoyon etgan. Erkak personaj Mr. Darcy nutqida esa, ruhiy holat bilvosita va vazmin shaklda ifodalanadi: *“You must allow me to tell you how ardently I admire and love you,”* jumlasida ham mantiqiy izchillik ustuvorlik qiladi. Bu holat erkak nutqiga xos pragmatik xususiyat sifatida talqin etiladi.

O‘zbek badiiy adabiyotida ham shunga o‘xshash gender farqlari kuzatiladi. Masalan, A. Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romanida Kumush obrazining ruhiy holati quyidagi nutqiy akt orqali ifodalanadi: *“Men sizga ishonaman, ammo ko‘nglim bezovta…”*. Ushbu jumlada ayol personajning ruhiy holati muloyimlik, ishonch va ichki kechinma orqali ifodalanib, bilvosita emotsional baholashga asoslanadi. Roman qahramoni Otabek nutqida esa ruhiy holat ko‘proq ichki monolog va vazmin ohang orqali namoyon bo‘ladi: *“Bu ishning oxiri nima bo‘lar ekan?”*, degan savol shaklidagi nutqiy akt erkak nutqiga xos mulohazalik va hissiylikni ifodalaydi.

Keltirilgan misollar tahlili shuni ko‘rsatadiki, ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida ruhiy holatni ifodalovchi nutqiy aktlar genderga xos lisoniy vositalar, emotsional ifoda darajasi hamda pragmatik strategiyalar orqali farqlanadi. Ushbu farqlarni qiyosiy o‘rganish nutqiy aktlar nazariyasini boyitish bilan birga, tarjima jarayonida mazmuniy va pragmatik ekvivalentlikni ta’minlash uchun muhim ilmiy asos bo‘lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy hayot, turli tarmoqlardagi taraqqiyotning asosiy sharti insonlarning o‘zaro muloqoti, u yoki bu shakldagi nutqiy aktlaridir. Til mana shu zaruratni qoplovchi asosiy vosita bo‘lganligi sababli, muloqot jarayonining kommunikativ-pragmatik jihatlari pragmalingvistikaning asosiy obyekti sifatida maxsus o‘rganilganda til materialidan unumli foydalanish borasida tavsiyalar shakllantirish imkoni tug‘iladi. Tilning gender xususiyatlari qiyosiy tilshunoslik, sotsiolingvistika, uslubiyat, lingvomadaniyatshunoslik, psixolingvistika va tarjima nazariyasi doirasida tadqiq etilmoqda. Ayol va erkak jinsiga mansub shaxslarning nutqidagi farqlar, ularning idrok va ruhiyatidagi tafovutlar nutqda qanday aks etishi, ushbu o‘ziga xosliklarni nutqda ifodalovchi vosita hamda mexanizmlar jahon va o‘zbek tilshunoslarini qiziqtirib kelgan, chog‘ishtirma antropotsentrik tilshunoslikning asosiy tadqiq obyekti bo‘la oladi.

Hozirda o‘zbek va ingliz tilshunosligida matnning lisoniy va nolisoniy xususiyatlarini tahlil qilish dolzarb masalalardan biri (Turniyazov N., Yo‘ldoshev B., 2006., yana: Boymirzayeva S., 2009). Bunda nutqiy aktning gender ko‘rsatkichlarini badiiy, rasmiy matnlar doirasida tahlil qilish mumkin. Hozirda ruhiy holatni ifodalovchi nutqiy aktlarning gender xususiyatlarini ingliz va o‘zbek tillari doirasida chog‘ishtirish vositasida individual nutqqa obyektiv baho berish zarurati mavjud.

Jumladan, ingliz va o‘zbek tilshunosligida nutqiy aktlarning gender xususiyatlari tadqiqi xulosalarini umumlashtirish, nutqiy aktda gender xususiyatlari namoyon bo‘lishining kognitiv va lingvopsixologik asoslarini ochib berish lozim. Shu asnoda ingliz va o‘zbek tilida ruhiy holatni ifodalovchi nutqiy aktlardagi gender ko‘rsatkichlarining milliy-madaniy xususiyatlari yuzaga chiqadi. Ingliz va o‘zbek tilida ruhiy holatni ifodalovchi nutqiy aktlarning gender ko‘rsatkichlarini

chog‘ishtirish vositasida ushbu ma’noni ifodalovchi elementlarning tarjimasini takomillashtirish yuzasidan nazariy tavsiyalar ishlab chiqish mumkin.

Mamlakatimizdagi bugungi ijtimoiy taraqqiyot, axborot-kommunikatsiya sohasini rivojlantirishga qaratilgan strategik harakatlarning amalga oshirilishi, o‘zbek tilining davlat tili sifatida nufuzi mustahkamlanishi, milliy-madaniy qadriyatlarimizning jahon miqyosida targ‘ib qilinayotgani tilning antropotsentrik xususiyatlarini namoyon qiluvchi mavzularga e’tibor qaratishni taqozo qilmoqda. Bu borada mamlakatimiz rahbarining quyidagi fikrlari o‘rinlidir: “Har birimiz davlat tiliga bo‘lgan e’tiborni mustaqillikka bo‘lgan e’tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz kerak” (PQ-4479). Tadqiqot natijasida ruhiy holatni ifodalovchi nutqiy aktlarning gender xususiyatlarini o‘rganish, ingliz va o‘zbek tillari doirasida qiyoslash asnosida yosh avlod ongiga vatanparvarlik, ona tiliga, ma’naviy qadriyatlarga hurmat tuyg‘ulari singdiriladi hamda bugungi globallashuv jarayonida zamon talablariga javob bera oladigan, zamonaviy bilim va ko‘nikmalarni egallagan, keng fikrlaydigan kadrlar yetishib chiqadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, ruhiy holatni ifodalovchi nutqiy aktlarning gender xususiyatlarini tadqiq etish zamonaviy antropotsentrik tilshunoslikning muhim yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ingliz va o‘zbek tillari materiallari asosida olib borilgan qiyosiy tahlil ushbu nutqiy aktlarning genderga xos lisoniy, pragmatik va madaniy xususiyatlarini aniqlash imkonini beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, gender omili nutqiy aktlarning mazmuniy tuzilishi, emotsional-ekspressiv vositalar tanlovi hamda kommunikativ strategiyalarda muhim rol o‘ynaydi. Ushbu xususiyatlarni hisobga olish tilshunoslik tadqiqotlarining ilmiy salohiyatini oshirish bilan bir qatorda, tarjima nazariyasi va amaliyotini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot natijalari pragmalingvistika, gender tilshunosligi va qiyosiy tilshunoslik sohalarida olib boriladigan keyingi ilmiy izlanishlar uchun nazariy va amaliy asos bo‘lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4479-son Qarori. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida // lex.uz – 2019. – 5-oktabr. – URL: https://lex.uz/docs/-4664611

2. Abdullayeva D. (2023). Gender tushunchasi va uning o‘zbek tilidagi xususiyatlari. Central Asian Journal of Education and Innovation, 2(4, Part 2), 135–139.

3. Арутюнова Н. Д. (1985). Истоки, проблемы и категории прагматики.

4. Падучева Е.В., Новое в зарубежной лингвистике. Вып. 16: Лингвистическая прагматика.

5. Atlas D. (2005). Logic, meaning and conversation: Semantical underdeterminacy, implicature, and their interface. Oxford University Press.

6. Boymirzaeva S. (2009). Matn mazmunida temperollik semantikasi. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti.

7. Grice P. (1975). Method in philosophical psychology (From the banal to the bizarre). Proceedings and Addresses of the American Philosophical Association, 48, 23–53.

8. Grice P. (1978). Further notes on logic and conversation. In P. Cole (Ed.), Syntax and semantics: Pragmatics Vol. 9, pp.

9. Grice P. (1981). Presupposition and conversational implicature. In P. Cole (Ed.), Radical pragmatics.

10. Jacob L. (2006). Pragmatics: Overview. In Encyclopedia of language & linguistics (2nd ed., pp. 51–62). Elsevier.

11. Кифер Ф. (1985). Роли прагматики в лингвистическом описании в Новое в зарубежной лингвистике. Вып. XVI. Прогресс.

12. Turniyazov N., Yo‘ldoshev B. (2006). Matn tilshunosligi.

13. Wierzbicka A. (2006). Cross-cultural pragmatics: The semantics of human interaction. Mouton de Gruyter.

14. Xo‘jayev N. (2022). Abdulla Oripov she’riyatidagi personaj nutqining gender xususiyatlari. In O‘zbek amaliy filologiyasi istiqbollari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (p. 281).

15. Yuldasheva X. (2021). Badiiy matnda shaxs gender xususiyatlarining namoyon bo‘lishi. So‘z san’ati xalqaro jurnali 4(4), 97–102.

REFERENCES:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti. (2019, October 4). O‘zbekiston Respublikasining “Davlat tili haqida”gi Qonuni qabul qilinganining o‘ttiz yilligini keng nishonlash to‘g‘risida (PQ-4479-son Qaror). https://lex.uz/docs/-4664611 (In Uzbek)

2. Abdullayeva D. (2023). Gender tushunchasi va uning o‘zbek tilidagi xususiyatlari. Central Asian Journal of Education and Innovation, 2(4, Part 2), 135-139. (In Uzbek)

3. Арутюнова N. D. (1985). Istoki, problemy i kategorii In E. V. Paducheva (Ed.), Novoe v zarubezhnoi lingvistike. Vyp. 16: Lingvisticheskaia pragmatika (pp. 28). Progress. (In Russian, Cyrillic script transliterated)

4. Atlas D. (2005). Logic, meaning and conversation: Semantical underdeterminacy, implicature, and their interface. Oxford University Press. (In English)

5. Boymirzaeva S. (2009). Matn mazmunida temperollik semantikasi. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. (In Uzbek)

6. Grice P. (1975). Method in philosophical psychology (From the banal to the bizarre). Proceedings and Addresses of the American Philosophical Association, 48, 23-53. (In English)

7. Grice P. (1978). Further notes on logic and conversation. In P. Cole (Ed.), Syntax and semantics: Pragmatics (Vol. 9, pp.). Academic Press. (In English)

8. Grice P. (1981). Presupposition and conversational implicature. In P. Cole (Ed.), Radical pragmatics Academic Press. (In English)

9. Jacob L. (2006). Pragmatics: Overview. In Encyclopedia of language & linguistics (2nd ed., pp. 51-62). Elsevier. (In English)

10. Кифер F. (1985). Roli pragmatiki v lingvisticheskom opisanii. In Novoe v zarubezhnoi lingvistike. Vyp. XVI. Progress. (In Russian, Cyrillic script transliterated)

11. Paducheva E. V. (Ed.). (1985). Novoe v zarubezhnoi lingvistike. Vyp. 16: Lingvisticheskaia pragmatika. Progress. (In Russian, Cyrillic script transliterated)

12. Turniyazov N., Yo‘ldoshev B. (2006). Matn tilshunosligi. (In Uzbek)

13. Wierzbicka A. (2006). Cross-cultural pragmatics: The semantics of human interaction. Mouton de Gruyter. (In English)

14. Xo‘jayev N. (2022). Abdulla Oripov she’riyatidagi personaj nutqining gender xususiyatlari. In O‘zbek amaliy filologiyasi istiqbollari: Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari (p. 281). (In Uzbek)

15. Yuldasheva X. (2021). Badiiy matnda shaxs gender xususiyatlarining namoyon bo‘lishi. So‘z san’ati xalqaro jurnali, 4(4), 97–102. (In Uzbek)

INGLIZZABON TADQIQOTLARDA XIX ASR XORAZM TURKIY ADABIY MANBALARI

19TH-CENTURY KHOREZMIAN TURKI LITERARY SOURCES IN ANGLOPHONE SCHOLARSHIP

ХОРЕЗМИЙСКИЕ ТЮРКСКИЕ ЛИТЕРАТУРНЫЕ ИСТОЧНИКИ XIX ВЕКА В АНГЛОЯЗЫЧНЫХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

https://zenodo.org/records/19260339

Adambayeva Nargiza Kadambayevna
Tillar-2 kafedrasi dotsenti,
Tel.: +998 91-424-51-15
E-mail: mumtaz1980@mail.ru

Annotatsiya. Xorijiy turkologiyada XIX asr Xorazm turkiy adabiy-tarixiy manbalariga qiziqish XIX asr o'rtalaridan boshlanadi. A.Vambery 1863-yildagi Xiva safarida Ogahiy ijodi va Xorazm adabiy muhiti bilan tanishib, she'rlarini tarjima qilish niyatini bildirgan birinchi g'arbiy olim bo'ldi. Maqolada inglizzabon tadqiqotchilar orasida ushbu manbalarni eng chuqur o'rgangan Yuri Bregel (1925-2016) faoliyatiga alohida e'tibor qaratiladi. Bregel 1988-yilda "Firdavs ul-iqbol" asarining ilmiy-tanqidiy matnini, 1999-yilda esa to'liq inglizcha tarjimasini nashr etib, Xorazm tarixiy adabiyotini jahon sharqshunosligiga keng ochdi. Shuningdek, Benedek Perining Haydar Xorazmiy "Maxzan ul-asror" asarining Budapesht qo'lyozmasi asosidagi 2020-yilgi inglizcha nashri ham qisqacha tahlil qilinadi. Maqola Xorazm turkiy manbalarining inglizzabon ilmiy adabiyotda qabul qilinishi va tarjima tarixini yoritadi.

Kalit so'zlar: *turkologiya, tarixiy – adabiy manba, "Firdavs ul-iqbol", "Maxzanul-asror", Yu.Bregel, qo'lyozma, Xiva xonligi, Ogahiy, Munis.*

Abstract. Interest in 19th-century Khorezmian Turki literary-historical sources in Western Turkology began in the mid-19th century. Arminius Vámbéry, during his 1863 journey to Khiva, was the first European scholar to become acquainted with the literary milieu of Khorezm and the works of Ogahiy, expressing his intention to translate the poet's verses. The article focuses primarily on the contribution of Yuri Bregel (1925-2016), the Anglophone scholar who studied these sources most profoundly. In 1988 Bregel published the critical edition of "Firdavs ul-iqbol", followed by its complete English translation in 1999, thereby making Khorezmian historical literature widely accessible to international scholarship. The 2020 English edition and translation by Benedek Peri of Haydar Khorezmi's "Makhzan al-asrar" (based on the Budapest manuscript) is also briefly analysed. The study illuminates the reception and translation history of 19th-century Khorezmian Turki sources in English-language academic literature.

Keywords: *Turkology, historical and literary source, "Firdaus ul-iqbal", "Makhzanul-asror", J. Bruegel, manuscript, Khiva Khanate, Ogahiy, Munis.*

Аннотация. Интерес зарубежной тюркологии к хорезмийским тюркским литературно-историческим источникам XIX в. начинается со второй половины XIX века. Арминий Вамбери во время путешествия в Хиву в 1863 г. первым из европейских учёных познакомился с литературной средой Хорезма и творчеством Огахи, выразив намерение перевести его стихи. Статья уделяет основное внимание деятельности Юрия Брегеля (1925-2016) – англоязычного исследователя, наиболее глубоко изучавшего эти источники. В 1988 г. он опубликовал научно-критическое издание «Фирдавс ул-икбал», а в 1999 г. – полный английский перевод, открыв хорезмийскую историческую литературу мировой науке. Кратко анализируется также изданный в 2020 г. Бенедеком Пери английский перевод «Махзан аль-асрар» Хайдара Хорезми по будапештской рукописи. Работа освещает историю восприятия и перевода хорезмийско-тюркских источников XIX века в англоязычной научной литературе.

Ключевые слова: *тюркология, историко-литературный источник, «Фирдаус уль-икбал», «Махзанул-асрор», И. Брейгель, рукопись, Хивинское ханство, Огахий, Мунис.*

KIRISH

Inglizzabon adabiyotshunosligida Devin Devis, Ron Sela, Vilyam Vud, Paolo Stori, Yurgen Paul, Valter Xenning, Micheli Minardi, Benedik Peri kabi olimlar Xorazm tarixi va qisman adabiyoti bilan ham qiziqishgan. Xususan, Devin Devis sufiylik maqomiga oid tadqiqotlaridan birida Xorazmlik shoir Xusayn Xorazmiy haqida ham ma’lumotlar keltirgan.

Benedik Peri, vengriyalik olim, Haydar Xorazmiyning “Maxzanul-asror” asarini o‘rgangan. Haydar Xorazmiy (XV asr) – turkiy va forsiy tilda she’rlar bitgan, Nizomiy Ganjaviyning “Maxzanul-asror” asariga monand “Maxzanul-asror” nomi bilan turkiy tilda javob yozgan taniqli shoir bo‘lgan. Benedik Peri asarning Vengriya fanlar akademiyasida saqlanayotgan qo‘lyozma nusxasi asosida uning ingliz tiliga tarjimasini amalga oshiradi va 2020-yilda nashr qildiradi. “Maxzanul-asror” asarining Budapesht qo‘lyozmasi asosidagi ushbu nashr ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qism qo‘lyozmada mavjud rasmlar hamda matn transkripsiyasini, ikkinchi qism asarning ingliz tiliga tarjimasini qamrab oladi (Xalliyeva G., 2000:24).

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Benedik Peri asarning London, Parij, Vena, Qozon, O‘zbekiston kutubxonalarida qo‘lyozma va foto nusxalarini qiyoslash asosida muhim ilmiy-nazariy xulosalarga keladi. Olimning ushbu tadqiqoti orqali Haydar Xorazmiyning ijodi xorij

turkologiyasida, Xorazm shoirlari orasida eng ko‘p o‘rganilganligining guvohi bo‘lamiz. Adabiyotshunos E.Rustamovning ta’kidlashicha, ushbu asar italyan olimlari A.Bombachi va Ettore Rossi tomonidan ham o‘rganilgan. Benedek Perining xabar berishicha, “Maxzanul-asror” asarining birinchi tanqidiy nashrini 2008-yilda, turk olimi Avni Gozutok (1954-2020), beshta qo‘lyozma nusxa asosida amalga oshirgan, ammo u asarning Yevropada saqlanayotgan nusxalarini ko‘rmagan. Benedek Peri yaqin kelajakda asarning barcha qo‘lyozma nusxalari asosida ilmiy-tanqidiy matnni yaratish istagi borligini ma’lum qiladi. Ammo olim o‘z tadqiqotida bu borada O‘zbekistonda olib borilgan ilmiy ishlarga to‘xtalmaydi. Adabiyotshunos N.Mallayevning ta’kidlashicha, Haydar Xorazmiy ijodi A.Abdug‘afurov, B.Valixo‘jayev, E.Rustamov, J.Sharipov, A.Hayitmetov tomonidan o‘rganilgan. O‘zbek olimi N.Abdullaev esa asarni Nizomiy dostoni bilan chog‘ishtirib maxsus tadqiqot (nomzodlik dissertatsiyasi) ham olib borgan (Vamberi A., 1864:347).

Xorazm turkiy tarixiy-adabiy manbalarini jiddiy o‘rgangan xorijlik olim Yu.Bregel hisoblanadi. Biz bu o‘rinda dissertatsiya hajmini e’tiborga olib, aynan uning ilmiy ishlariga kengroq to‘xtalishni lozim topdik.

Yuriy Enoxovich Bregel (1925-2016) - amerikalik tarixchi, sharqshunos olim, O‘rta Osiyo tarixi, madaniyati va adabiyotiga bag‘ishlangan bir qancha monografiyalar muallifi. Xorazm adabiy muhiti, jumladan, tarixiy adabiy asarlari borasida ham ahamiyatga

molik ilmiy ishlari mavjud. Jumladan, Munis va Ogahiy birgalikda yaratgan “Firdavs ul-iqbol”, Bobojon Sanoyining – “Tavorixi Xorazmshohiya” asarlarini jiddiy o‘rgangan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotning maqsadi – inglizzabon ilmiy muhitda XIX asr Xorazm turkiy (xorazmiy-chig‘atoy) adabiy-tarixiy manbalarining qabul qilinishi, tarjima qilinishi va talqin etilish jarayonini aniqlash hamda ularning jahon sharqshunosligidagi o‘rnini baholashdan iborat bo’lib, XIX asr Xorazm adabiy manbalariga bo‘lgan qiziqishning paydo bo‘lish bosqichlarini (Vambery → Bartold → sovet sharqshunosligi → Bregel → zamonaviy inglizzabon olimlar) xronologik tartibda kuzatish orqali g‘arbiy tadqiqotlardagi uzluksizlik va uzviylikni aniqlash imkonini berdi.

TAHLIL VA NATIJALAR

XIX asr Xorazm turkiy, adabiy-tarixiy manbalari o‘zbek mumtoz adabiyotining hali to‘liq o‘rganilmagan jihatlaridan biridir. Bu eng avvalo ko‘pgina asarlarning hali ham qo‘lyozma holida ekanligi, tabdil qilinmagani, ilmiy-tanqidiy matnlar yetishmasligi bilan ham belgilanadi. Munis va Ogahiy qalamiga mansub “Firdavs ul-

iqbol” asari ana shunday, filologik jihatdan kam o‘rganilgan, ammo katta ahamiyatga ega asarlardan biridir.

“Firdavs ul-iqbol” asari tarixiy-badiiy asarlar sirasiga kiradi. Chunki unda tarixiy voqealar bayonini yanada qiziqarliroq yetkazish maqsadida bir qancha she’rlar, rivoyatlar, maqol va matallar keltirilgan. Bu asarni tarixiy-badiiy manba sifatida o‘rganishga to‘la asos beradi.

Asarni shoir, tarixchi tarjimon Munis boshlab bergan bo‘lsa, uning jiyani, iqtidorli shoir va davlat arbobi Ogahiy davom ettirgan. “Firdavs ul-iqbol” asarida qadim davrlardan tortib, 1825-yilgacha bo‘lgan Xorazm tarixi bilan bog‘liq voqealar tarixiy-badiiy shaklda juda qiziqarli yoritilgan. Asarning bebaho qimmati haqida o‘zbek va xorij ilm-fanida juda ko‘plab fikrlar bildirilgan. “Firdavs ul-iqbol” asarining tarix ilmidagi ahamiyati shundaki, unda Xorazmning qadim davridan boshlab, Muhammad Rahimxon I (1806-1825yy.) davrigacha bo‘lgan siyosiy tarixi xronologik tartibda bayon etiladi. Munis qadim zamonlardan boshlab Abulg‘ozixon davrigacha Xorazmda bo‘lgan voqealarni bayon etarkan, Abulg‘ozi davridagi Xiva va Buxoro xonliklarining o‘zaro munosabatlariga ham to‘xtalib o‘tgan. Shuningdek, asarda XVIII asr va XIX asrning birinchi choragi, ya’ni Qo‘ng‘irot sulolasi vakillarining Muhammadamin inoq (1755-1790), Avaz inoq (1790-1804), Eltuzarxon (1804-1806) va Muhammad Rahimxon I (1806-1825)larning Xorazmda hukmronlik qilgan yillaridagi tarixiy voqealar bayon qilingan, iqtisodiy va ijtimoiy hayotga doir ayrim ma’lumotlar ham berilgan (G‘anixo‘jaev F.,1998:25-30).

Munis “Firdavs ul-iqbol”ning muqaddimasida Eltuzarxon o‘z otasi Avaz Inoqning o‘rniga Xiva xoni sharafiga muyassar bo‘lgach, avvalboshda Xiva qoziligiga uzoq vaqt aralasha olmaganligi va bu uni chuqur qayg‘uga solganligi haqida aytib o‘tadi. Ammo kunlarning birida uni qozilikka taklif qilishadi va Eltuzarxon bilan uchrashtirishadi, xon esa, o‘z navbatida Munisga o‘z hukmronlik yillari haqida kitob yozishni topshiradi. Xon Munisga, shuningdek, bu jadal hayotda inson umrining asosiy mazmuni o‘z nomini abadiylashtirish ekanligi va bunga baland binolar qurish yoki o‘z ortidan ko‘plab zurriyotlar qoldirish bilan emas, aynan, so‘z qudrati yordamida erishajagini ta’kidlaydi. Shuning uchun ham, Xon Munisga o‘zining ham nasrda, ham nazmda beqiyos uslubiyati bilan ajralib turuvchi bir kitob yozishni buyuradi, chunki xon o‘zining ulug‘ silsilasi va ajdodlarining nomi, shuningdek, buyuk sifatlari-yu shonli g‘alabalari tarix zarvaraqlaridan abadiy joy olishini xohlaydi.

1988-yilda amerikalik olim Yu.Bregel Munis va Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” asarining izohlar bilan ilmiy-tanqidiy matnini, o‘n yillik tanaffusdan keyin, 1999-yilda esa ingliz tiliga tarjimasini nashr qildiradi. Asarning tili arabiy va forsiy iboralarga boy bo‘lgani va o‘ziga xos sharqona usulda yaratilgani bois, ingliz tiliga tarjimasi oson kechmagan. Yu.Bregel bu borada ko‘plab olimlar bilan bamaslahat ish olib borgani,

jumladan, doktor Oleg Akimushkin (Rossiya fanlar akademiyasi Sharqshunoslik institutining Sankt-Peterburg filiali), professor Robert Dankoff (Chikago universiteti), doktor Irina Viktorovna Erofeeva (Tarix va etnografiya instituti, Olma-ota), professor Boris Litvinskiy (Sharqshunoslik instituti, Moskva), Aleksandr Naymark (Indiana universiteti), doktor Benno van Dalen (Geografiya instituti, Moskva), professor Devin Devis (Indiana universiteti) kabi sharqshunoslar unga juda katta yordam berganini mamnuniyat bilan eslaydi (Aminov X., 2010:30).

“Firdavs ul-iqbol” asarining yaralganidan salkam ikki asr o‘tgach, birinchi marta, 2010-yilda O‘zbekistondagi nashrlari amalga oshirildi va kitobxonlarga yetkazildi. Ushbu nashrlar aynan Yu.Bregel tayyorlagan ilmiy-tanqidiy matn asosida amalga oshirilgan. Jumladan, Sh.Vohidov, I.Bekchonov, N.Polvonovlar birgalikda tayyorlagan asar tabdili so‘zboshisida mazkur tabdilga Yu.Bregel tomonidan tayyorlangan ilmiy-tanqidiy nashri asos qilib olingan, tabdil matnini Yu.Bregel tomonidan tayyorlangan ilmiy-tanqidiy nashri bilan taniqli olim Ismoil Bekjonov solishtirgani, matndagi arab tilidagi jumlalar, oyat va hadislarni to‘g‘ri o‘qish va tarjima qilishga Nozimjon Iminjonov yaqindan yordam bergani ma’lum qilingan.

“Firdavs ul-iqbol” asarining Yu.Bregel tayyorlagan ilmiy-tanqidiy matni nashrida noyob ma’lumotlarga to‘la, hali fanimizda deyarli o‘rganilmagan ingliz tilidagi so‘zboshisi berilgan. Hajman noan’anaviy bo‘lgan so‘zboshi (60-bet) to‘rtta qismdan iborat bo‘lib: birinchi qismi asar mualliflari Munis va Ogahiy ijodiy faoliyatini, ikkinchi qismi “Firdavs ul-iqbol” asarining mohiyati, uchinchisi asarning o‘rganilishi va nihoyat to‘rtinchisi asarning qo‘lyozma nusxalari xususiyatlarini ochishga qaratilgan. Dastavval muallif ingliz kitobxonini Munis va Ogahiy shaxsiyati, ijodiy merosi bilan tanishtiradi. Bu o‘rinda biz bilgan ma’lumotlardan tashqari, Munisning ustozlari, Ogahiyning tarjima asarlari xususidagi ayrim yangiliklarni o‘qiymiz. Jumladan, Munisning Sayid Eshon Xo‘ja va Sayid Muzaffar Xo‘ja kabi ustozlari bo‘lgani, yoshligidan she’riyat va tarixda bilimdon kishilarga suyanganligi quyidagicha izohlangan: *“Munis tells nothing about his learning except for the names of his two teachers (ustad): Sayid Ishan Khoja, who was also his neighbor in Khiva when he was ten or eleven years old, and Sayid Muzaffar Khoja Mutavalli, whom he mentions on three different occasions, citing also his Persian and Chaghatay poems (*Firdavs al Iqbal, 1988:1280).

Ogahiy tarjimalari haqida axborot berar ekan, Yu.Bregel uning 6 ta tarixiy tarjima asarining nomi shoirning “Ta’viz ul-oshiqin” devoni debochasida keltirilgan (“Ravzat us-safo”, “Tarixi jahonkushoyi Nodiriy”, “Zafarnoma”, “Tabaqoti Akbarshohiy”, “Tazkirai Muqimxoniy”, “Ravzat us-safoyi Nosiriy”), ammo, yettinchisi, ya’ni Muhammad Mahdiy Astrobodiyning “Durrai nodira” asari tarjimasi haqidagi axborot faqat kataloglarda uchrashi haqidagi noyob ma’lumotni keltiradi: *”Agahi by far*

*exceeded his uncle and teacher by the volume of his literary production. His poetry (predominantly in Chaghatay, but including also a number of poems in Persian) was collected in a divan (entitled Ta'vidh al-ashiqin) rather late, at the request of Sayid Muhammad Khan (1272-1281\1856-1864),but this divan must have been supplemented also much later, continuing almost until the end of his life. He was especially prolific as a translator into Chaghatay from Persian. In his time the translation of Persian works which had begun in Khiva apparently with Munis was developing rapidly, and Agahi was the most active writer in this field. In the preface to his divan he gives the total number of his translations as 19 (*Bregel Y., 1978:17-32.).

Ushbu ma'lumotlar Yu.Bregelning nihoyatda sinchkovlik bilan ish olib borganidan, Munis va Ogahiy ijodiga daxldor bir qancha manbalarni, dunyo kataloglarini o‘rganganligidan dalolat beradi.

Yu.Bregel so‘zboshisining "Firdavs ul-iqbol" asarining yaratilish tarixiga bag‘ishlangan ikkinchi qismida asarning Xiva xoni Eltuzarxon buyrug‘iga binoan yozilgani, asarning 5 ta bobdan iborat ekanligi, boblar hajman teng emasligi, unda qadim davrlardan tortib, 1825-yilgacha bo‘lgan Xorazm tarixi bilan bog‘liq voqealar bayon qilingani va boshqa ma'lumotlar keltirilgan. Asarning tarixiy-badiiy yo‘sinda yaratilish sabablardan biri, Eltuzarxonning Munisga nasrda ham, nazmda ham o‘zining nafisligi bilan ajralib turadigan tarix bitishiga da'vat etishi bilan ham belgilanadi.

Yu.Bregel asarning uslubi borasida o‘z fikrlarini bildirib, rus olimi P.P.Ivanovning "asar nihoyatda jimjimador, arabiy-forsiy iboralarga, metaforalarga to‘la tarzda bitilgan" degan qarashlarini unchalik to‘g‘ri emas, biroz mubolag‘ali deb hisoblaydi. Olimning fikricha, Munis va Ogahiyning bayon uslubi sinkretik (aralash) xususiyatga ega. Mualliflar ayrim an'anaviy tasvirlar: harbiy yurishlar, shohlarga xos jihatlarni yoritishda murakkab istioraviy bayon uslubidan, boshqa tasvirlarda oddiy uslubdan foydalanilgan.

Bizningcha, bu borada P.P.Ivanovning fikrlari haqiqatga yaqin bo‘lib, Munis va Ogahiyning tarixiy asarlari, boshqa tarixiy asarlardan o‘zining nafis tili, mumtoz uslubi bilan farq qiladi. Fan tarixidan ma'lumki, Xorazmda XIX asrda tarixiy va badiiy asarlar yozishda o‘ziga xos an'ana shakllangan, Munis boshchiligida maktab yaratilgan, kitobxonlik rivojlangan. Ilmiy adabiyotlardagi faktlarga ko‘ra, "Munis Xiva xoni saroyida kitob va kitobxonlikka munosabat yuqori bo‘lgani haqida bir o‘rinda: *«Aksar avqot (vaqtlar) bazmi ishrat va majlisi tarabda axyor va abror, shuaro va fuzalo bila suhbat tutub, halli mushkiloti aqliy va kashfi mug‘laqoti naqliy qilib, maoniy rangin sharobidin sarshor kayfiyat bo‘lur erdi» deb yozgan bo‘lsa, yana bir o‘rinda, Eltuzar Inoq xonni shunday ta'riflangan: «...davron hukumatida aksar tavoif bani odoi ish va fazl iktisobig‘a biqadri vas'e rag‘bat ko‘rguzub, majolis va mahofilda hunar va fazoy va kitobxonlik va she'rshunoslik va latifago‘ylikdin o‘zga so‘z joriy bo‘lmas edi"*

*(*Xallieva G., №6. 2009:69-71.).

Ogahiy nazarida Xiva madaniy taraqqiyotiga ko‘p hissa qo‘shgan Olloqulixon “tavorixvonlig‘ va she’rshunoslig‘ va latifago‘ylig‘ uquvining xaylida diqqat tirnog‘in andog‘ ishlatur erdikim, fuzaloyi zamonga hayrat barmog‘in tishlatur erdi”.

Shu jihatdan, yuqoridagi faktlarni inobatga olsak, Yu.Bregelning Munis va Ogahiy shohlarga xos jihatlarni yoritishda murakkab bayon uslubidan, boshqa tasvirlarda oddiy bayon uslubidan foydalanganligi haqidagi fikri, doimo xalq manfaatini o‘ylab ish ko‘rgan ikki buyuk mutafakkirning hayot tarzi va ijodiy prinsiplariga to‘g‘ri kelmaydi.

Fikrimizcha, “Firdavs ul-iqbol” asari mualliflari kitobni o‘qiydigan muxlislar ko‘p bo‘lishini ko‘zda tutmaganlar. Ushbu manbani sinchiklab kuzatishimiz, uni lug‘atlarsiz tushunish nihoyatda qiyin ekanini yana bir bor ko‘rsatdi. Asar tilining murakkabligi, boshqa tarixiy asarlardan farq qilishini muallif shunday izohlaydi: *“The readers of the work were not expected to be numerous. Munis and Agahi speak about “the nobles who are the readers of this compendium. This can probably be taken as a conventional flattery intended for the reader, but in any case there is no doubt that the number of educated people who could read this work in the Khanate of Khiva was very limited” (*Samoylovich A.N., 671.).

“Firdavs ul-iqbol” asarining o‘rganilishiga bag‘ishlangan uchinchi qism bu boradagi axborotlarni ilk bora jamlaganligi, Yu.Bregeldan oldin asarning o‘rganilishiga oid ayrim ma’lumotlar, A.Samoylovich, V.Bartold ilmiy asarlaridagina uchrashi bilan belgilanadi. Jumladan, Yu.Bregel bu o‘rinda A.Amirxanyans, V.V.Bartold A.N.Samoylovich, P.P.Ivanov, N.Mingulov, A.D.Kalmikov, B.V.Lunin kabi olimlar turli munosabat bilan asarni o‘rgangani, ularning ilmiy izlanishlarida asarga oid fan uchun kerakli ma’lumotlar borligini ma’lum qiladi (Ro‘zimboev S., Ahmedov A., 2009: №6.).

Yu.Bregel nashridagi so‘zboshining to‘rtinchi qismi juda muhim masalaga: asarning qo‘lyozma nusxalari xususiyatlarini, ular orasidagi farqliklarni ochishga qaratilgan. Olimning ta’kidlashicha, fanga “Firdavs ul-iqbol” asarining 9 ta qo‘lyozma nusxasi ma’lum bo‘lib, ulardan 2 tasi Rossiya Fanlar Akademiyasiga qarashli Sharq qo‘lyozmalari institutining qo‘lyozmalar fondida (Sankt-Peterburg), 5 tasi O‘zRFA ning Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar fondida, 1 tasi Xelsinki kutubxonasida (Finlyandiya), yana biri Istanbul kutubxonasida saqlanmoqda.

Yu.Bregel nashridagi so‘zboshini tadqiq va tahlil qilish asosida olimning nechog‘li sinchkovlik bilan ish olib borgani ma’lum bo‘ldi. Yu.Bregel umrining chorak asrini “Firdavs ul-iqbol” asarini har tomonlama tadqiq qilishga, ingliz tiliga tarjima qilishga bag‘ishlagan. O‘rta Osiyo tarixiga oid manbalarni tekshirish asnosida olim fan

uchun muhim koʻpgina yangiliklarni aniqlaydi, xorij kitobxoniga taqdim qiladi. “Firdavs ul-iqbol” asarining qomusiy xarakteri manbani kelajakda har tomonlama: tarixiy, geografik, filologik, ijtimoiy jihatdan oʻrganishga keng yoʻl ochadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

XIX asr Xorazm turkiy (xorazmiy-chigʻatoy) adabiy-tarixiy manbalari inglizzabon sharqshunoslikda XIX asr oʻrtalaridan boshlab qiziqish uygʻotgan boʻlib, bu jarayon Vamberyning 1863-yildagi Xiva safaridan boshlanadi. Vambery Ogahiy ijodi va Xorazm adabiy muhiti bilan tanishib, uning she’rlarini tarjima qilish niyatini bildirgan birinchi gʻarbiy olim sifatida tarixiy ahamiyatga ega. Biroq, ushbu manbalarning inglizzabon ilmiy muhitda chuqur oʻrganilishi va jahon sharqshunosligiga keng taqdim etilishi asosan Yuri Bregel (1925–2016) faoliyati bilan bogʻliq. Bregel 1988-yilda Munis va Ogahiyning “Firdavs ul-iqbol” asarining ilmiy-tanqidiy matnini, 1999-yilda esa toʻliq inglizcha tarjimasini nashr etib, Xorazm tarixiy adabiyotini xalqaro olimlar uchun ochiq manbaga aylantirdi. Bu nashrlar asarning qoʻlyozma variantlarini sinchkovlik bilan qiyosiy tahlil qilish, mualliflar ijodiy merosi haqidagi yangi ma’lumotlarni keltirish va tarixiy-badiiy xususiyatlarini yoritish jihatidan noyobdir. Shuningdek, Benedek Périning 2020-yildagi Haydar Xorazmiy “Maxzan ul-asror” asarining Budapesht qoʻlyozmasi asosidagi inglizcha nashri va tarjimasi XV asr Xorazm shoiri ijodini xorijiy turkologiyada yanada chuqurroq oʻrganishga hissa qoʻshdi.

Tadqiqot natijalari shuni koʻrsatadiki, inglizzabon olimlarning Xorazm turkiy manbalariga qiziqishi xronologik uzviylik (Vámbéry → Bartold → Bregel → zamonaviy tadqiqotchilar) bilan kechgan boʻlib, bu jarayon manbalarning qabul qilinishi, tarjima qilinishi va talqin etilishida muhim bosqichlarni belgilaydi. “Firdavs ul-iqbol” kabi asarlarning ingliz tilidagi nashrlari Oʻrta Osiyo tarixi, adabiyoti va madaniyatini global ilmiy diskursga integratsiya qilishda katta rol oʻynadi. Biroq, ushbu manbalarning filologik va ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari hali toʻliq oʻrganilmaganligi, koʻpgina qoʻlyozmalar tabdil qilinmaganligi va inglizzabon tadqiqotlarda mahalliy (oʻzbek) olimlar ishlariga yetarlicha murojaat qilinmasligi kuzatildi.

Yuqoridagi fikr va xulosalardan kelib chiqib quyidagi takliflarni keltirishimiz mumkin bo’ladi:

- XIX asr Xorazm turkiy manbalarining barcha qoʻlyozma nusxalari asosida xalqaro hamkorlikda yangi ilmiy-tanqidiy matnlar va koʻp tilli tarjimalar tayyorlash, xususan, Ogahiy va Munis merosini zamonaviy inglizzabon olimlar (Devin DeWeese, Ron Sela va boshqalar) ishtirokida chuqurroq oʻrganish.

- Xorazm adabiy an’analarining jahon sharqshunosligidagi o‘rnini yorituvchi xalqaro konferensiyalar va loyihalar tashkil etish, shu orqali mahalliy va xorijiy tadqiqotlarni integratsiya qilish.

- Ushbu manbalarning raqamli arxivlarini yaratish va ochiq foydalanishga taqdim etish, bu kelajak avlod olimlari uchun tarixiy, filologik va madaniy tadqiqotlarga keng yo‘l ochadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Аминов Х. (2010). Хоразмда китоб тарихи манбалари (XVIII аср иккинчи ярми – XX аср бошлари: ЎзР ФА ШИ қўлёзмалар фонди асосида). Тарих фанлари номзоди diss. автореф. Тошкент.

2. Bregel Y. (1978). The Tawārīkh-i Khārazmshāhiya by Thanā’ī: The Historiography of Khiva and the Uzbek Literary Language. Aspects of Altaic Civilization II: Proceedings of the XVIII PIAC, Bloomington, June 29-July 5, 1975 (L.V. Clark, P.A. Draghi eds.). Bloomington. P. 17-32.

3. Bregel Y. (ed.) (1988). Munis Sh.M.M., Ogahiy M.R.M. Firdaws al-iqbāl: History of Khorezm. E.J. Brill. Leiden; New York. 1280 p.

4. Ғанихўжаев Ф. (1998). Огахий қўлёзма меросини излаб. Тил ва адабиёт таълими. № 5. Б. 25-30.

5. Péri B. (2020). Ḥaydar Ḫvārizmī, Maḫzan al-asrār – The Treasury of Secrets. Library and Information Centre of the Hungarian Academy of Sciences. Budapest.

6. Рўзимбоев С., Аҳмедов А. (2009). “Фирдавс ул-иқбол” даги адабий жанрлар ҳақида. Ўзбек тили ва адабиёти. № 6.

7. Самойлович А.Н. Хивинская придворная книгохранилища и книгопечатня: Ханская библиотека в Хивинском замке (арк). Рукописи Исфандияр тюри. РНБ. Ф. 671, ед. хр. 145.

8. Сапарбаев Б. “Фирдавс ул-иқбол” асарида ижтимоий-сиёсий ва маданий ҳаётнинг акс этиши (Муҳаммад Раҳимхон II даври). library.ziyonet.uz.

9. Vámbéry A. (1864). Travels in Central Asia: Being the Account of a Journey from Teheran Across the Turkoman Desert on the Eastern Shore of the Caspian to Khiva, Bokhara, and Samarkand, Performed in the Year 1863. John Murray. London. P. 347.

10. Веселовский Н.И. (1877). Очерки историко-географических сведений о Хивинском ханстве от древнейших времен до настоящего. Санкт-Петербург. С. 315-316.

11. Xallieva G. (2000). Огахий мусамматлари. Филол. фанлари номзоди diss. автореф. Тошкент. 24 б.

12. Xallieva G. (2009). А.Н. Самойлович ва XIX аср Хоразм адабий муҳити. Илм сарчашмалари. Урганч. № 6. Б. 69-71.

REFERENCES:

1. Aminov X. (2010). Xorazmda kitob tarixi manbalari (XVIII asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari: O‘zR FA SHI qo‘lyozmalar fondi asosida). Tarix fanlari nomzodi diss. avtoref. Toshkent. (In Uzbek)

2. Bregel Y. (1978). The Tawārīkh-i Khārazmshāhiya by Thanā’ī: The Historiography of Khiva and the Uzbek Literary Language. In Aspects of Altaic Civilization II: Proceedings of the XVIII PIAC, Bloomington, June 29-July 5, 1975 (L.V. Clark, P.A. Draghi eds.). Bloomington. P. 17-32. (In English)

3. Bregel Y. (ed.) (1988). Munis Sh.M.M., Ogahiy M.R.M. Firdaws al-iqbāl: History of Khorezm. E.J. Brill. Leiden; New York. 1280 p. (In English/Chaghatay)

4. G‘anixo‘jaev F. (1998). Ogahiy qo‘lyozma merosini izlab. Til va adabiyot ta’limi. № 5. B. 25-30. (In Uzbek)

5. Péri B. (2020). Ḥaydar Ḫvārizmī, Maḫzan al-asrār – The Treasury of Secrets. Library and Information Centre of the Hungarian Academy of Sciences. Budapest. (In English)

6. Ro‘zimboev S., Ahmedov A. (2009). “Firdavs ul-iqbol” dagi adabiy janrlar haqida. O‘zbek tili va adabiyoti. № 6. (In Uzbek)

7. Samoylovich A.N. (n.d.). Xivinskaya pridvornaya knigoxranilisha i knigopechatnya: Xanskaya biblioteka v Xivinskom zamke (ark). Rukopisi Isfandiyar tyuri. RNB. F. 671, ed. xr. 145. (In Russian)

8. Saparbayev B. (n.d.). “Firdavs ul-iqbol” asarida ijtimoiy-siyosiy va madaniy hayotning aks etishi (Muhammad Rahimxon II davri). library.ziyonet.uz. (In Uzbek)

9. Vámbéry A. (1864). Travels in Central Asia: Being the Account of a Journey from Teheran Across the Turkoman Desert on the Eastern Shore of the Caspian to Khiva, Bokhara, and Samarkand, Performed in the Year 1863. John Murray. London. P. 347. (In English)

10. Veselovskiy N.I. (1877). Ocherki istoriko-geograficheskix svedeniy o Xivinskom xanstve ot drevneyshix vremen do nastoyashchego. Sankt-Peterburg. S. 315–316. (In Russian)

11. Xallieva G. (2000). Ogahiy musammatlari. Filol. fanlari nomzodi diss. avtoref. Toshkent. 24 b. (In Uzbek)

12. Xallieva G. (2009). A.N. Samoylovich va XIX asr Xorazm adabiy muhiti. Ilm sarchashmalari. Urganch. № 6. B. 69-71. (In Uzbek)

ARAB TILIDA USLUBIYATNING TARIXIY SHAKLLANISHI

ИСТОРИЧЕСКОЕ ФОРМИРОВАНИЕ СТИЛИСТИКИ В АРАБСКОМ ЯЗЫКЕ

Xasanov Islombek Xasanboy o‘g‘li
Oriental universiteti Sharq tillari kafedrasi
katta o‘qituvchisi
Tel.: +998 99-884-34-45
E-mail: xislombek51@gmail.ru

Annotatsiya. Ushbu maqola arab tilida uslubiyatning (stilistikaning) tarixiy shakllanish va rivojlanish yo‘lini o‘rganadi. Tadqiqot johiliyat davri she’riyatidan (muallaqotlar, xususan Imru al-Qays qasidasi) boshlab, Qur’oni Karimning i’joz uslubi va hadislar ta’siri, Abbosiylar davrida balog‘at ilmining gullashi, Abdulqohir al-Jurjoniy nazm nazariyasi (“Daloyil al-i’joz”, “Asror al-balog‘a”), Zamaxshariyning “Al-Kashshof” tafsiridagi uslubiy yondashuvlar kabi klassik bosqichlarni tahlil qiladi. Uslubiyatning ilm al-ma’oniy, ilm al-bayon va ilm al-badi’ fanlari bilan chambarchas bog‘liqligi ko‘rsatiladi. Ish filologik, tarixiy, qiyosiy va paleografik usullarga asoslanib, klassik manbalar bilan zamonaviy lingvistik tadqiqotlarni solishtiradi. Natijada arab til uslubiyati arab madaniyati, ijtimoiy identifikatsiya va tilning barqarorligini ta’minlovchi markaziy element ekanligi ta’kidlanadi. Klassik balog‘at an’analarining zamonaviy diskurs tahlilidagi dolzarbligi isbotlanib, nodir qo‘lyozmalarni raqamlashtirish va qiyosiy o‘zbek-arab uslubiyati izlanishlari taklif etiladi.

Kalit so‘zlar: *arab tili, uslubiyat, balog‘at, johiliyat she’riyati, Qur’on i’jozi, nazm nazariyasi, Abdulqohir Jurjoniy, Zamaxshariy, Abbosiylar davri, zamonaviy lingvistika.*

Abstract. This article examines the historical formation and development of stylistics in the Arabic language. The study traces its origins from pre-Islamic Jahiliyya poetry (notably the Mu’allaqat, especially Imru’ al-Qays’ qasida), through the inimitable style (i’jaz) of the Qur’an and the influence of Hadith, the flourishing of balagha during the Abbasid period, Abdulqahir al-Jurjani’s theory of nazm (“Dala’il al-i’jaz” and “Asrar al-balagha”), and al-Zamakhshari’s stylistic approach in “Al-Kashshaf”. The close interconnection of stylistics with the sciences of ma’ani, bayan, and badi’ is highlighted. Employing philological, historical, comparative, and paleographic methods, the paper compares classical sources with modern linguistic research. The findings underscore that Arabic stylistics is not merely a literary-aesthetic

phenomenon but a central element in Arab cultural and socio-cultural identity, ensuring linguistic stability. The enduring relevance of classical balagha traditions in contemporary discourse analysis is demonstrated, with proposals for digitizing rare manuscripts and conducting comparative Uzbek-Arabic stylistic studies.

Keywords: *Arabic language, stylistics, balagha, Jahiliyya poetry, Qur'anic i'jaz, inimitability, nazm theory, Abdulqahir al-Jurjani, Zamakhshari, Abbasid period, modern linguistics.*

Аннотация. Статья посвящена историческому формированию и развитию стилистики в арабском языке. Исследование начинается с поэзии джахилийского периода (муаллакаты, в частности, касыда Имру аль-Кайса), охватывает иджаз Корана и влияние хадисов, расцвет науки о красноречии (балага) в аббасидскую эпоху, теорию назма Абдулкахира аль-Джурджани («Далаъил аль-иджаз» и «Асрар аль-балага»), а также стилистический подход аз-Замахшари в тафсире «Аль-Кашшаф». Показана тесная связь стилистики с науками о смыслах (маъани), выражении (баян) и украшении речи (бадиъ). Работа опирается на филологический, исторический, сравнительный и палеографический методы, сопоставляя классические источники с современными лингвистическими исследованиями. В итоге подчеркивается, что арабская стилистика – не только литературно-эстетическое явление, но и центральный элемент арабской культуры и социальной идентичности, обеспечивающий устойчивость языка. Доказана актуальность классических традиций балаги в современном дискурс-анализе; предложены цифровизация редких рукописей и сравнительные узбекско-арабские стилистические исследования.

Ключевые слова: *арабский язык, стилистика, риторика, джахилийская поэзия, иджаз Корана, теория назма, Абдулкахир аль-Джурджани, Замахшари, аббасидский период, современная лингвистика.*

KIRISH

t
a
r
i
x
a
n

o
‘
r
t
a

a

va o‘rinli so‘zlay olish, ritorika kabi so‘zlarga mos keluvchi atamadir. (Nosirova M.A., 2017:56)

Arab uslubiyatining asl nazariy ildizlari hijriy II–VIII asrlarda balog‘at ilmining shakllanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu davrda olimlar nutqdagi ma’no va shakl munosabati, iboralarning tartibi va ularning tinglovchiga ko‘rsatadigan ta’sirini chuqur tahlil qila boshladilar. Ayniqsa, Abdul-Qohir al-Jurjoniy (v. 471 h./1071 m.) tomonidan ishlab chiqilgan nazm nazariyasi arab uslubiy tafakkurining rivojida muhim burilish nuqtasi bo‘ldi. Uning “Daloyil al-i’joz” va “Asror al-balog‘a” asarlarida balog‘at so‘zlarning alohida qo‘llanishida emas, balki ularning o‘zaro munosabati va ma’no talabiga muvofiq joylashuvida namoyon bo‘lishi asoslab beriladi. Jurjoniy nahviy tuzilma va balog‘iy mazmun o‘rtasidagi uzviy aloqani ko‘rsatib, uslubiy ta’sirning manbai aynan sintaktik va semantik uyg‘unlikda ekanini ilmiy jihatdan isbotlaydi (عبد القادر حمراني. اللفكر الأسلوبي لدى عبد القاهر الجرجاني جسور السعرفة).

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Klassik manbalardan Abdulqohir Jurjoniy “Dalail al-i’joz”da Qur’on uslubining mo’jizaviy jihatlarini tahlil qilgan va undagi i’joz nazariyasi asarning kuchli tomoni sifatida ko‘rilsa, subyektivlik kamchiligi deya baholanadi. Zamaxshariy “Al-Kashshof”da izohli tafsir orqali uslubiy elementlarni ko‘rsatgan. Abu Hilol al-Askariy “Kitab as-sano‘atayn”da she’riyat va nasr uslublarini qiyoslagan. O‘rta asr va undan keyingi davrda yashagan olimlardan As-Sakkokiy “Miftah al-ulum”da balog‘at ilmining asosini tushuntirgan.

Maqolada o‘rganilgan zamonaviy arab olimlari tadqiqotlaridan quyidagi ishlar keltirilgan: Shavqiy Dayf “Al-Balag‘a”da johiliyat davri she’riyatining uslubiy xususiyatlarini yoritgan; bu ishning kuchli tomoni misollarga boyligidadir. Muhammad Abd al-Muttalib “Uslubiyat al-Qur’an”da Qur’on uslubining semantik tahlilini bergan. G‘arb tadqiqotchilari ilmiy ishlaridan Reynold Nikolson “A Literary History of the Arabs”da johiliyat va islom davrini qiyoslagan; uning kamchiligi sifatida sharqshunoslik nuqtai nazari cheklanganligida deb ta’riflangan (Nicholson R.A. A Literary History of the Arabs). Va maqolada bu ilmiy ishlarga klassik manbalarda diniy ruh kuchli, zamonaviy ishlarda lingvistik usullar ustun ekanligiga qiyosiy baho berib o‘tilgan. O‘zbek olimlari tadqiqotlarida (Nosirova M., Rustamiy S., Sodiqov Q. ishlarida) arab tili uslubiyati, ya’ni stilistikasi, balog‘at ilmi tarixi va zamonaviy nazariyalari o‘rganilgan, arab-turkiy uslublar qiyosiy misol o‘laroq keltirib o‘tilgan (Nosirova M.A.,2017).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu maqolada qo‘llanilgan metodologiyada bir nechta muhim ilmiy yondashuvlarga tayaniladi. Xususan, tarixiy usul yordamida arab tili va uslubiyatining islomdan oldingi johiliyat davridan tortib, islom va abbosiylar davrlarigacha bo‘lgan

bosqichma-bosqich rivojlanishini tizimli ravishda o‘rganadi. Ushbu yondashuv arab tilining tarixiy yo‘nalishini har tomonlama tushunishga yordam beradi. Filologik tahlil orqali klassik matnlarda qo‘llaniladigan asosiy metodologik vositalar, ya’ni majoz, kinoya, istiora va ijozlarning tematik elementlarga, shuningdek, matnning badiiy va estetik qiymatiga ta’sirini aniqlash uchun chuqur tahlil qilinadi. Paleografik usul qadimiy qo‘lyozmalar va Qur’on nusxalarini o‘z ichiga olgan noyob yozma manbalarni tahlil qilish, ularning grafik shakli va semantik qatlamlarini baholash uchun qo‘llaniladi. Qiyosiy usul arab uslubiyati bilan turkiy tilshunoslik an’analari o‘rtasidagi umumiylik va farqlarni aniqlashga qaratilgan. Ushbu tadqiqot ham birlamchi, ham ikkilamchi manbalarga asoslanadi. Birlamchi manbalar sirasiga Qur’on, hadis va muallaqot, ikkilamchi manbalarga esa arab tilshunosligi va uslubiyati sohasidagi klassik va zamonaviy mualliflarning ilmiy asarlari kiradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Islomgacha bo‘lgan davr (johiliyat davri) arab tili va adabiyoti tarixida muhim bosqich hisoblanadi. Til madaniyati asosan og‘zaki xarakterga ega bo‘lishiga qaramay, aynan shu davrda keyinchalik klassik arab tilining asosiga aylangan asosiy stilistik va poetik normalar shakllandi. She’riyat nafaqat estetik, balki arab qabilalarining dunyoqarashi, qadriyatlari va tarixiy xotirasini aks ettiruvchi ijtimoiy va kommunikativ vazifani ham bajargan. Arab tilida uslubiyat tilshunoslikning asosiy qismi sifatida ta’riflanadi; uning madaniy va diniy ahamiyati (masalan, Qur’onning i’jozligi) katta. Johiliyat davri she’riyati (Muallaqotlar), islomiy davr (Qur’on va hadislar), o‘rta asrlar (Abbosiylar davri olimlari) va zamonaviy bosqichlar (XX asr arab tilshunosligi) uslubiyat evolyutsiyasining umumiy ko‘rinishini aks ettiradi.

Johiliyat davri (milodiy VI-VII asrlar, Islomdan oldingi davr) arab tilshunosligi va adabiyotida uslubiyatning boshlang‘ich shakllanishini belgilaydi. Bu davrda arab she’riyati, asosan, og‘zaki an’anada rivojlangan bo‘lib, uslubiyat she’riyat orqali shaxsiy ifoda, qabilaviy faxr va tabiat tasviri vositasi sifatida namoyon bo‘lgan. Uslubiyat tizimli fan sifatida emas, balki shoirlarning individual ijodiy uslubi sifatida shakllangan. Islomgacha bo‘lgan arab jamiyatida she’riyat nutqning, lingvistik ifodaning eng yuqori shakli, arab madaniyatining markaziy elementi hisoblangan. Shoir lingvistik normalarning tashuvchisi va qabila o‘ziga xosligining ifodachisi edi (الجاحظ. والتبيين البيان. ج. 1. ص. 75-90). She’riyat nafaqat badiiy ifoda, balki qabilaviy urushlar, sevgi va faxrni tasvirlash vositasi sifatida ishlatilgan. Johiliyat she’riyatining o‘ziga xos stilistik xususiyatlaridan biri uning kuchli tasvir va metafora tizimidir. Shoirlar ko‘chmanchi hayot haqiqatlaridan foydalanib, giperbola, o‘xshatish va simvolizmdan keng foydalanganlar. Tuya, cho‘l, yirtqich hayvonlar va tabiat elementlari asosiy obrazlar bo‘lib xizmat qilgan va madaniyat tashuvchilari uchun tushunarli bo‘lgan barqaror she’riy kodni shakllantirgan. Johiliyat davrining she’riy

nutqida fonetik ifoda vositalari – alliteratsiya, assonans va qat'iy qofiya markaziy rol o'ynagan. Og'zaki an'analar kontekstida ular she'rga musiqiy sifat berdi va uni yodlashni osonlashtirgan. Tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, qadimgi arab tilining fonologik normalarini mustahkamlashga she'riyatning fonetik tuzilishi katta hissa qo'shgan. Islomgacha bo'lgan arab tili sezilarli dialektal xilma-xillik bilan ajralib turgan. Biroq, she'riyatda keyinchalik eng "fasix" (fusha) deb tan olingan Markaziy va Shimoliy Arabistondagi badaviy qabilalarining tili ustunlik qilgan. Bu dialektdan yuqori she'riy til ifodasi klassik arab adabiy standartining asosiga aylandi (بنن سلام الجمحي. طبيقات فحول الشعراء.ص. 12-20).

Keyinchalik arab filologlari tomonidan "sof" va normativ nutq namunasi sifatida ta'riflangan barqaror metrik tuzilishga ega monoritm she'riy shakl – qasida janri alohida o'rin egallagan. Uslubiyat bu davrda she'riy qasidalar orqali rivojlangan, ular odatda uch qismdan iborat bo'lgan: nasib (sevgi va xarobalar tasviri), rahil (sayohat va cho'l tasviri) va madh/faxr. Ular Islom davrining dastlabki grammatik va leksikografik asarlari uchun asosiy manbaga aylangan johiliyat davrining she'riy tili edi. She'riyat og'zaki shaklda tarqalgan, ritm va qofiya orqali esda saqlangan. Uslubiy vositalar: kinoya (simile), isti'ora (metafora), tabiat tasviri va emotsional ifodalar ishlatilgan. Bu vositalar she'riyatni shaxsiy ifoda vositasi qilgan, lekin tizimli nazariya yo'q edi – uslubiyat keyinchalik ilk Islom va Abbosiylar davrida mustaqil fan sifatida shakllangan. Qasida janri o'zining qat'iy kompozitsiyasi va barqaror tematik bloklarning mavjudligi bilan ajralib turardi. Bularga nasib (ishqiy-elegik kirish so'zi), tashlab ketilgan makonning tavsifi (atlal), sayohatnomalar, jang sahnalari va o'zini maqtash (faxr) kiradi. Ushbu motivlarning takrorlanishi islomgacha bo'lgan she'riy an'analarning yuqori darajada rivojlanganligidan dalolat beradi. Johiliyat she'riyatining lug'ati, ayniqsa tabiiy hodisalar, ko'chmanchi hayot, qurol-yarog' va ijtimoiy munosabatlarni tasvirlashda o'zining ajoyib aniqligi va boyligi bilan ajralib turardi. Aynan shu leksik material keyinchalik "Kitob al-'Ayn" va "Lison al-'Arab" kabi klassik arab lug'atlarida qayd etilgan. Islomgacha bo'lgan davrning stilistik normalari klassik arab tilining shakllanishida asosiy rol o'ynagan. Johiliyat she'riyati lingvistik standartlar tizimi asosida ishlab chiqilgan normativ model bo'lib xizmat qilgan. Qur'on nozil bo'lgandan va Islom yoyilgandan so'ng, bu normalar yanada kodifikatsiya qilindi va rivojlantirildi, bu arab tilining barqarorligi va yuqori madaniy ahamiyatini ta'minladi. Quyida ushbu ma'lumotlarni johiliyat davri shoirlaridan Imru al-Qaysning "Muallaqot" she'ri misolida batafsil ko'rib chiqamiz.

Muallaqot (معلقات – "terilgan durlar") johiliyat she'riyatining eng mashhur 7 ta qasidasi bo'lib, ular Makkadagi Ka'ba devoriga osib qo'yilgani uchun shunday nomlangan. Bu qasidalar Johiliyat uslubiyatining cho'qqisi hisoblanadi. Imru al-Qays ibn Hujr (milodiy 501–544) – "Muallaqot"ning eng mashhur muallifi, arab

she’riyatining “shohi” deb atalgan. Uning “Muallaqot”ida sevgi, cho‘l va qayg‘u tasviri orqali uslubiyatning boshlang‘ich shakllarini ko‘rishimiz mumkin. “Muallaqot” she’ri nasib qismi bilan boshlanadi, bu yerda shoir xarobalar oldida to‘xtab, ko‘z yosh to‘kishni taklif qiladi. Bu johiliyat she’riyatining odatiy uslubi: atrof-muhit tasviri orqali shaxsiy qayg‘uni ifodalaydi:

قِفَا نَبْكِ مِنْ ذِكْرَى حَبِيبٍ وَمَنْزِلِ بِسِقْطِ اللِّوَى بَيْنَ الدَّخُولِ فَحَوْمَلِ
لِمَا نَسَجَتْهَا مِنْ جَنُوبٍ وَشَمْأَلِ فَتُوْضِحَ فَالْمِقْرَاةِ لَمْ يَعْفُ رَسْمُهَا
وَقِيعَانِهَا كَأَنَّهُ حَبُّ فُلْفُلِ تَرَى بَعَرَ الْأَرْآمِ فِي عَرَصَاتِهَا
كَأَنِّي غَدَاةَ الْبَيْنِ يَوْمَ تَحَمَّلُوا لَدَى سَمُرَاتِ الْحَيِّ نَاقِفُ حَنْظَلِ

قِفَا نَبْكِ مِنْ ذِكْرَى حَبِيبٍ وَمَنْزِلِ – “To‘xtang, do‘stlarim, Daxul va Haumal orasidagi vodiyda sevganim va uning maskanini eslab yig‘laylik.” Bu misra tabiat tasviri (xarobalar) orqali shaxsiy qayg‘uni ifodalaydi.

تَرَى بَعَرَ الْأَرْآمِ فِي عَرَصَاتِهَا – “Uning hovlilarida va maydonlarida oq ohularning qumalog‘i ko‘rinadi, go‘yo qalampir donalari kabi.” Bu tashbeh tabiatning yovvoyi holatini va o‘tgan hayotni ramziylashtiradi, shu bilan birga shoirning bu achchiq xotiralar bilan hasrati ifodalanadi.

كَأَنِّي غَدَاةَ الْبَيْنِ يَوْمَ تَحَمَّلُوا – “Go‘yo ayriliq kuni ertalab, ular ketayotganda, men qabilaning akatsiya daraxtlari yonida achchiq hanzal mevasini yeyotgandekman.” Bu isti’ora (metafora) shoirning qayg‘usini achchiq meva bilan taqqoslaydi.

She’r “tavil bahri” (uzun vazn) bo‘yicha yozilgan, har bir bayt (ikki misra) oxirida “li” qofiyasi takrorlanadi (*haumali, sham’ali, fulfuli, hanzali* va h.k.).

Qur’onning nozil bo‘lishi arab tilining uslubiy taraqqiyotida tub burilish yasadi. Qur’on tili na an’anaviy she’rga, na oddiy nasrga to‘liq mos keladi. Uning ushbu o‘ziga xosligi I’joz al-Qur’on nazariyasining yuzaga kelishiga sabab bo‘ldi. Qur’on matnidagi sintaktik uyg‘unlik, semantik chuqurlik va ohangdorlik arab tilshunoslarini chuqur tahlilga undadi. Islomiy davrda Qur’onni tushuntirish zarurati ilmul ma’oniy, ilmul bayon va ilmul badi’iy ilmlarining shakllanishiga olib keldi. Ushbu ilmlar nutqning kontekstga mosligi, obrazliligi va estetik qiymatini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Qur’on tili arab adabiy tilining eng oliy namunasi sifatida qabul qilinib, keyingi adabiy va diniy matnlarda me’yor vazifasini bajardi. Natijada arab uslubiyati diniy matnlar ta’sirida mustahkamlanib, nazariy tizimga aylanish uchun muhim zamin yaratdi (Nosirova M.A., 2017:71).

Payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga Qur’onning nozil qilinishi nafaqat diniy tarixda, balki arab tilining rivojlanishida ham burilish nuqtasi bo‘ldi. Islomdan oldingi davrda she’riyat til uchun normativ model bo‘lib xizmat qilgan bo‘lsa-da, Islomning paydo bo‘lishi bilan bu vazifani Qur’on – musulmon an’analari tomonidan betakror (i’joz) deb tan olingan ilohiy vahiy matni o‘z zimmasiga oldi. Aynan shu paytdan boshlab klassik arab tilining shakllanishi barqaror adabiy va stilistik norma sifatida

boshlandi. Islom an’analarida Qur’on inson matni sifatida emas, balki Allohning “aniq arab tilida” (arabiy mubiyn) nozil qilingan to‘g‘ridan-to‘g‘ri nutqi, kalomi sifatida qaraladi. Bu uning mutlaq stilistik va ritorik standart sifatida qabul qilinishini oldindan b

elgilab qo‘ydi. Klassik davr arab olimlari – al-Jurjoniy, al-Baqillaniy va as-Suyutiy – Qur’on uslubi she’riyatdan ham, qofiyali nasrdan ham (saj) ustun turishini va noyob hodisa ekanligini ta’kidlaganlar. Alohida oyatlarning soddaligiga qaramay, Qur’on matni chuqur semantik ko‘p qatlamlilikka ega. Al-Jurjoniy ta’kidlaganidek, Qur’onning ma’nosi nafaqat so‘zlar darajasida, balki ularning sintaktik va kontekstual munosabatlari orqali ham ochib beriladi. Zamonaviy olimlar (marhum shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf, Izutsu, Versteeg) Qur’onni talqin qilishning

Qur’onning asosiy stilistik xususiyatlaridan biri uning qisqalik va semantik boylikning uyg‘unligidir (Nosirova M.A., 2017:71). Oyatlar ko‘pincha tushirib qoldirilgan (hazf), ishora va elliptik konstruksiyalarni o‘z ichiga oladi, bu esa matn va qabul qiluvchi o‘rtasida “ichki muloqot” effektini yaratadi. Al-Baqillaniyning fikriga ko‘ra, bunday qisqalik ilohiy i’jozaning bir qismidir va inson nutqi bilan qayta tiklana olmaydi. Qur’onda tarixiy voqealar, payg‘ambarlar va xalqlar haqidagi qissalar keng tushuntirishsiz tez-tez tilga olinadi, bu kontekstni bilishni nazarda tutadi. Bu ishora tafsir ilmining rivojlanishining sabablaridan biri bo‘lgan Tabariy ta’kidlaganidek, tafsirchining vazifasi matn, tarix va til o‘rtasidagi yashirin aloqalarni ochib berishdir. Ko‘rinib turgan parchalanishiga qaramay, Qur’on chuqur ichki strukturaviy izchillikka ega. Zamonaviy tadqiqotlar (Neuwirth, Küpper) shuni ko‘rsatadiki, suralar va oyatlar murakkab ritorik va tematik tizimni tashkil qiladi. Qur’on klassik arab tili normalarini mustahkamlashda, asrlar davomida uning tarkibiy o‘zgarishlarini minimallashtirishda hal qiluvchi rol o‘ynadi. Aynan Qur’on tili Sibavayh va undan keyingi Basriya va Ko‘fiy maktablarining grammatik asarlari uchun asos bo‘ldi. Qur’on matnining jozibadorligi va chuqurligi tafsirning mustaqil akademik fan sifatida paydo bo‘lishiga olib keldi. Tafsir tilshunoslik, ritorika, ilohiyot va tarixni birlashtirdi. O‘zbek olimlarining ta’kidlashicha, tafsir klassik lingvistik normalarni saqlash va rivojlantirishning asosiy mexanizmiga aylandi. Qur’on uslubi Islom yozuvining barcha asosiy janrlariga ta’sir ko‘rsatdi: hadis, fiqh, kalom, tasavvuf adabiyoti va hatto she’riyatga ham. Shunday qilib, noyob madaniy va lingvistik hodisa – muqaddas maqomga ega bo‘lgan “Islomning arab tili” paydo bo‘ldi. Islomning tarqalishi bilan arab tili shunchaki etnik aloqa vositasi bo‘lishdan to‘xtadi va diniy bilimlarning universal tiliga aylandi. Bu unga maxsus muqaddas maqom berdi va ko‘p tilli islom dunyosida uning saqlanishi va obro‘sini ta’minladi. Qur’on nafaqat yangi stilistik qonunlar yaratdi, balki arab tilining o‘zini me’moriy jihatdan qayta tuzdi, uni ma’naviy va intellektual bilim vositasiga aylantirdi. Islom davri arab tiliga ta’sir ko‘rsatishda

davom etayotgan ushbu ilohiy stilistik merosni tushunish, talqin qilish va rivojlantirish davriga aylandi. Bu davr arab madaniyati va tiliga bugungi kungacha ta’sir ko‘rsatib kelmoqda (Мавланов Н.2025).

Balog‘at ilmining rivoji. Arab tilshunosligi tarixidan ma’lumki, arablar o‘z tillarining grammatikasini tadqiq qilishni boshlaganlarida avval “علم النحو” – sintaksis, keyin “علم الصرف” – morfologiya vujudga kelgan. So‘ngra “علم البلاغة” – uslubiyat, ya’ni stilistikaning asoslari yaratilgan. Ammo o‘sha davrda mazkur fan bo‘yicha alohida kitob mavjud emas edi. Bu ilmga oid alohida savollarga javob tariqasida yozilgan kichik hajmdagi risolalargina mavjud edi. Keyinchalik stilistika fani rivojlana borgani sari alohida asar yozish ehtiyoji tug‘ilgan. Stilistikaga oid birinchi kitobni yozgan olim Abu Ubayda (vaf. 825y.) bo‘ladi. Uning asari مجاز القرآن (Majoz ul-Qur’on) – “Qur’on tafsiri” deb nomlanadi (Nosirova M. A., 2017: 56). Arab tili uslubiyati balog‘at, fasohat va nahv ilmlaridan shakllangandir. Arab klassik tilshunosligi va adabiyotshunosligida b

alog‘at (البلاغة) tushunchasi nutqning vaziyatga mosligi va ma’no-ta’sir uyg‘unligini ifodalovchi asosiy estetik kategoriya sifatida qaraladi, balog‘at so‘zining lug‘aviy

1. Grammatik jihatdan mukammal gapni o‘z o‘rnida va tegishli holatda qo‘llash.
2. So‘zlovchining yuqoridagi talablarga javob beruvchi gaplarni so‘zlay olish mahorati.

Balog‘atli so‘zlay olishga 6 yo‘l orqali erishiladi:
ovushlarning uyg‘unligi did bilan bilinadi;
o‘zlarning qoidaga xilofligi sarf orqali muolaja etiladi;
ahv yordamida gaplarning qoidaga tushmasligining oldi olinadi;
o‘zlarning g‘aribligi ko‘p mutolaa qilish orqali yo‘qotiladi;
lm al-bayon jumlalarning ma’no jihatdan mukammal bo‘lishni o‘rganadi;
aziyat taqozosi ilm al-maoniy yordamida o‘rganiladi.

Ilm al-balog‘a qadimdan arab tilshunoslari, adabiyotshunoslari diqqat markazida bo‘lib kelgan. Adib (o‘rta asr arab ziyolisi)ning yetukligi uning ilm al-balog‘ani qay darajada egallaganligi bilan o‘lchanardi. Shu bois, ilm al-balog‘a masalalariga bag‘ishlangan asarlarni ko‘plab olimlar ijodlarida uchratishimiz mumkin (Nosirova M.A., 2017:67). Abdul-Qohir al-Jurjoniy (v. 471/1078) o‘zining *“Daloyil al-i’joz”* va *“Asror al-balo‘ga”* asarlarida balog‘atni mustaqil qoidalar majmui sifatida emas, balki nazm nazariyasi doirasida ma’no va tarkibning o‘zaro munosabatiga tayanuvchi hodisa sifatida izohlaydi. Uning fikricha, nutqning balog‘atli bo‘lishi so‘zlarning alohida xususiyatiga emas, balki ularning ma’no talabiga muvofiq tartibda joylashuvi bilan belgilanadi (عبد القاهر الجرجاني. دلائل الإعجاز). Balog‘atni tizimli ilmiy fan sifatida shakllantirish Abu Ya’qub as-Sakkokiy (v. 626/1229) nomi bilan bog‘liq bo‘lib, u

“Miftaḥ ul-’ulum” asarida balog‘atga eltuvchi nazariy mexanizmlarni uch asosiy bo‘limda izohlaydi:

1) Ilm al-ma’oniy (علم المعاني) – gapning vaziyatga mos qurilishi yoki so‘zlovchining ko‘zlagan maqsadini tushuntirish uchun kalomni turli vositalar bilan bezab izohlash qoidalari ilmidir. Bu jumla yoki so‘z birikmasi yoki bir so‘zga jo bo‘lgan ma’nolarning ahamiyatini o‘rganuvchi ilmdir;

2) Ilm al-bayon (علم البيان) – ma’noni ochiq va obrazli ifodalash usullari (tashbeh, isti’ora, majoz va b.) yoki ta’birni voqelik va maqsadga muvofiq tarzda tuzish uslublari haqidagi ilmdir. “Ilm al-bayon” – so‘zma-so‘z tushuntirib berish ilmi degani. Bu – bitta fikrni turli usullar bilan tushuntirib berish ilmidir (Nosirova M.A., 2017:58);

3) Ilm al-badi’ (علم البديع) – nutqning badiiy bezaklari (jinos, tiboq, muqobala va b.) yoki so‘z san’ati ilmi. Unga birinchi bo‘lib Abu Usmon Amr ibn al-Johiz asos solgan. So‘ng uning ishini Xolif ibn Mu’tazz davom ettirgan. Uning ta’kidlashicha, “so‘z san’ati” johiliyat paytlaridan mavjud bo‘lib, shoirlar undan uddaburonlik bilan foydalanishgan. So‘ngra bu san’atni Qur’oni karim va hadislarda ham ko‘rishimiz mumkin. So‘z san’ati ilmi nutqni tinglaganda xush yoqadigan qiluvchi so‘z e

lementlarini o‘rganuvchi ilmdir (M. A. Nosirova, “Arab tili stilistikasi”, 59-b.). Sakkokiyga ko‘ra, balog‘at nutqning “muqtazo al-hol”ga mos kelishi bilan belgilanadi, balog‘at ilmi esa aynan shu moslikni ta’minlovchi qoidalarni o‘rganuvchi fan hisoblanadi. Mazkur nazariy model Jaloliddin al-Qazviniy (v. 739/1338) tomonidan *“Talxiṣ al-Miftaḥ”* hamda *“Al-Izaḥ”* asarlarida ixchamlashtirilib, ta’limiy va didaktik shaklga keltirilgan. Qazviniy balog‘atni fasohat bilan uyg‘un holda nutqning vaziyatga mosligi sifatida ta’riflab, balog‘at ilmini ushbu sifatni tahlil qiluvchi mustaqil fan sifatida mustahkamlaydi (43 ،جلال الدين القزويني). Natijada arab balog‘at an’anasida balog‘at – estetik natija, balog‘at ilmi – nazariy vosita degan ilmiy paradigma qaror

Abbosiylar davri haqli ravishda Islom sivilizatsiyasining “oltin davri” hisoblanadi. Aynan shu davrda arab intellektual an’anasi asosan amaliy bilim to‘plashdan uning nazariy tushunchasi va tizimlashtirilishiga o‘tdi. Diniy bilimlarni saqlash va uzatish hukmronlik qilgan ilk Islom davridan farqli o‘laroq, Abbosiylar davri tanqidiy tahlil, bilimlarni tasniflash va madaniyatlararo sintezga asoslangan ilmiy metodologiyaning shakllanishi bilan tavsiflanadi. Davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash fan rivojida muhim rol o‘ynadi. Xalifalar Horun ar-Rashid va Ma’mun bilimni davlatni mustahkamlash va hokimiyatni qonuniylashtirish vositasi sifatida ko‘rishgan. Ularning homiyligida kutubxonalar, tadqiqot markazlari va akademik doiralar tashkil etilgan bo‘lib, bu ilmiy faoliyatning institutsionalizatsiyasiga katta hissa qo‘shgan. Bag‘doddagi Bayt al-Hikma (Donolik uyi) Abbosiylar dunyosining markaziy intellektual markaziga aylandi. U yerda falsafa, tibbiyot, matematika va

astronomiyaga oid yunon, fors va hind asarlarining tarjimalari amalga oshirilgan. Donolik uyi shunchaki tarjima byurosi emas, balki bilim, tanqidiy tahlil va moslashuvga yuz tutgan yangi ilmiy metodologiyani shakllantirish maydoni bo‘lgan. Abbosiylar davri madaniyatlarning intensiv muloqoti bilan ajralib turadi. Yunon ratsionalligi, fors ma’muriy an’anasi va hind matematik bilimlari islom intellektual muhitiga integratsiyalashgan. Bu sintez avvalgi kognitiv modellarni qayta ko‘rib chiqishga yordam berdi va yangi nazariy yondashuvlarning rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Arab tilshunosligi eng rivojlangan sohalardan biriga aylandi. Basra va Ko‘fa grammatik maktablari morfologiya, sintaksis va lug‘atni tahlil qilish uchun tizimli usullarni ishlab chiqdilar. Sibavayh (al-Kitob) asarlari tilning ilmiy tavsifi uchun asos yaratdi, bu induksiya, o‘xshatish (qiyos) va lingvistik korpusga asoslangan. Olimlar arab tilshunosligiga qat’iy metodologik xususiyatni bergan narsa Abbosiylar grammatik an’anasi bo‘lganini ta’kidlaydilar. Abbosiylar davridagi falsafiy tafakkur Aristotel mantig‘ining Islom ilohiyotiga integratsiyasi bilan tavsiflanadi. Al-Kindiy va al-Farobiy mantiqni bilishning universal vositasi sifatida ko‘rib chiqadigan ilmiy bilim tushunchalarini ishlab chiqdilar. Al-Farobiy, xususan, keyingi Islom va Yevropa falsafasiga ta’sir ko‘rsatgan fanlar tasnifini yaratdi. (Ergashev O.B., 2010). Vaqt o‘tishi bilan arab va musulmon olimlari oddiy tarjimadan tashqariga chiqdilar. Ular qadimiy matnlarni tanqidiy o‘rganishdi, ularni to‘ldirishdi va asl tushunchalarni ishlab chiqishdi. Islom falsafasi bilim manbalarining epistemologik tasniflarini ishlab chiqdi: ratsional (aqliy), hissiy va vahiy (naqliy), bu diniy bilimlarni ratsional va empirik usullar bilan birlashtirishga imkon berdi (Mamadaliyev A.A., Izzetova E.M. 2025).

Abbosiylar davrida shakllangan metodologik an’ana qadimiy merosni saqlash va uni Andalusiya va Sitsiliya orqali Yevropaga yetkazishda muhim rol o‘ynadi. Arab va musulmon olimlarining ko‘plab g‘oyalari va usullari Yevropa Uyg‘onish davri uchun intellektual asosga aylandi. Shunday qilib, Abbosiylar davri izchil arab ilmiy metodologiyasining shakllanishini belgilab berdi. Bilimlarning institutsionalizatsiyasi, madaniy sintez va nazariy tafakkurning rivojlanishi arab va musulmon ilmini global fan tarixiga uzoq muddatli ta’sir ko‘rsatgan mustaqil va ta’sirchan an’anaga aylantirdi.

Zamonaviy arab tilshunosligida uslubiyat til va matnning ichki mexanizmini o‘rganuvchi muhim soha sifatida namoyon bo‘lmoqda. Klassik balog‘at ilmlari (ilm al-bayon, ilm al-ma‘oniy, ilm al-badi‘) asosida shakllangan uslubiyat XX–XXI asrlarda lingvostilistik va diskursiv yondashuvlar bilan boyidi. Bu rivojlanish globallashuv, ommaviy axborot vositalari (OAV) va raqamli texnologiyalar ta’sirida yuz berdi. Klassik nazariyalar, masalan, Abdulqohir Jurjoniy nazm nazariyasi, yangi metodlar (masalan, kognitiv tilshunoslik) asosida qayta talqin qilinmoqda (فاطمة مهدي البزّال. الأسلوبية وحضورها في كتابات عبد القاهر الجرجاني في كتابيه). OAV va badiiy matnlarda

uslubiy vositalarning yangi shakllari paydo bo‘layotgan bo‘lsa-da, ularning ildizi tarixiy tajribaga borib taqaladi (تمام,حسان. اللغة العربية معناها ومبناها).

Hozirgi vaqtda tilshunoslikda uslub bir necha guruhlarga bo‘lib o‘rganiladi. Masalan, o‘zbek va rus tillarida uslub 5 taga bo‘lib o‘rganiladi:

1. So‘zlashuv uslubi
2. Ilmiy uslub
3. Rasmiy uslub
4. Publisistik uslub
5. Adabiy-badiiy nutq uslubi.

Hozirgi zamonaviy tilshunoslikda bu 5 uslub yana mayda, kichik uslublarga bo‘linib ketgan. G‘arbda asosan 5 uslub, Sharqda esa 3 ta uslub mavjud. Jumladan arablarda:

1. Ilmiy uslub
2. Adabiy (badiiy) uslub
3. Xitob (ritorika) (Nosirova M.A., 2017:61-62).

Arab tilshunosligida uslubiyat haqidagi tadqiqotlar boy tarixga ega. Klassik davrda Abdulqohir Jurjoniy “Dalo‘il al-i’joz” asarida nazm nazariyasini rivojlantirib, fasohatni so‘z va ma‘no munosabati orqali izohlagan (Abdulqohir Jurjoniy. Dalā’il al-i’jāz). Zamaxshariy “Al-Kashshof” tafsirida ma‘oniy va bayonni qiyosiy tahlil qilgan, bu zamonaviy diskurs tahliliga asos bo‘lgan. O‘zbek olimlaridan Qosimjon Sodiqov “Turkiy til tarixi” (2009) asarida arab va turkiy uslublarni qiyoslab, tarjima maktabidagi uslubiy elementlarni yoritgan (Sodiqov Q., 2009). Malika Nosirova esa o‘zining “Arab tili stilistikasi” kitobida arab tilida uslubiyatning tarixiy shakllanishidan to zamonaviy nazariyasigacha bo‘lgan barcha jarayon va bosqichlarni, bu yo‘lda xizmat qilgan barcha tilshunos olimlarning hissasigacha batafsil ma’lumot bergan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Umuman olganda, zamonaviy arab tilshunosligida uslubiyat klassikdan zamonaviyga uzluksiz o‘tish jarayonini aks ettiradi. Klassik balog‘at nazariyalari yo‘qolib ketmagan, balki yangi ilmiy metodlar yordamida boyitilib, zamonaviy matn turlarini tahlil qilishda samarali qo‘llanilmoqda. Bu holat arab tilining tarixiy tajribasi va zamonaviy kommunikativ ehtiyojlari o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni yaqqol ko‘rsatadi.

Shu munosabat bilan, kelgusidagi tadqiqotlar uchun bir qator takliflarni ilgari surish mumkin:

- birinchidan, nodir manbalar va qo‘lyozmalarni raqamli transliteratsiya qilish hamda arxeografik jihatdan o‘rganishni kengaytirish;
- ikkinchidan, oliy ta’lim muassasalarida arab uslubiyatiga bag‘ishlangan maxsus o‘quv dasturlarini joriy etish;

- uchinchidan esa arab va turkiy adabiy-uslubiy an’analarni qiyosiy asosda tadqiq etish orqali umumiy va farqli jihatlarni aniqlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Dr. Mustafo as-Soviy al-Juvayniy (1984) Manhaju az-Zamahshariy fi tafir al Qur’an va bayani i’jazihi. Dor al Maorif. Misr. – B. 275.
2. Ergashev O. B. (2024) Aristotel mantig‘ining arab tiliga tarjima qilinishi va Islom olamiga yoyilishi) Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN: 2181-1784. 4(7).
3. Izutsu T. (1964) *God and Man in the Qur’an*. – Tokyo.
4. Mamadaliyev A.A., Izzetova E.M. (2025) Arab-musulmon sharqida madaniyat va ilmiy falsafiy fikr taraqqiyotining tarixiy rekonstruksiyasi (VIII-XII asrlar). Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. (E)ISSN: 2181-1784. 5(3), March.
5. Muhammad Abd al-Muttalib. (1980) Uslubiyat al-Qur’an. Qohira: Dar al-Fikr.
6. Neuwirth A. (1996) *The Qur’an as Text*. – Leiden.
7. Nicholson R.A. (1907) A Literary History of the Arabs. – Cambridge: CUP.
8. Nosirova M.A. (2017) Arab tili stilistikasi. Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti.
9. Rustamiy S. (2019) O‘rta asrlar balog‘at ilmida tilshunoslikka oid qarashlar. Toshkent.
10. Shawqi Dayf. (1995) Al-Balagha: Tareekh wa naqd. Qohira: Dar al-Ma‘arif.
11. Sodiqov Q. (2009) Turkiy til tarixi. Toshkent: Fan.

авланов Н. (2025) Тафаккурга чорловчи Қуръон оятлари: Ибн Жарир Табарий тафсири мисолида. *Наука и инновация*, *3*(22), 70-73.

13. ابن سلام الجمحي. طبقات فحول الشعراء. — بيروت: دار الكتب العلمية، 1993.
14. الباقلاني .إعجاز القرآن .القاهرة،.1954
15. الجاحظ. والتبيين البيان. القاهرة, 1998.
16. د. علي محمد الصلابي .القرآن الكريم مصدر تاريخي عظيم. نُشر الخميس، 25 يونيو 2020
17. الزركشي .البرهان في علوم القرآن .ج .2بيروت،.1988
18. السكاكي، أبو يعقوب .مفتاح العلوم .بيروت :دار الكتب العلمية،.1987
19. عبد القادر حمراني. الفكر الأسلوبي لدى عبد القاهر الجرجاني جسور المعرفة Volume 3, Numéro 10, Pages 376-389. 2017-06-01

REFERENCES:

1. Abd al-Fattoh Ashur. (1962). Manhaju az-Zamahshariy fi tafsir al-Qur’an va bayani i’jazihi. – Qohira: Dor al-Ma’orif. (In Arabic)
2. Al-Baqillani. (1954). I’jaz al-Qur’an. – Qohira. (In Arabic)
3. Al-Jahiz. (1998). Al-Bayan va at-Tabyin. – Qohira. (In Arabic)

4. Al-Sakkaki, Abu Ya’qub. (1987). Miftah al-‘Ulum. – Bayrut: Dor al-Kutub al-‘Ilmiyya. (In Arabic)

5. Al-Zarkashi. (1988). Al-Burhan fi ‘Ulum al-Qur’an. Juz’ 2. – Bayrut. (In Arabic)

6. Ali Muhammad as-Salabi. (2020, 25 iyun). Al-Qur’an al-Karim masdar tarikhi ‘azim. Nashr etilgan sana. (In Arabic)

7. Amir Abd al-Qadir Hamrani. (2017). Al-Fikr al-uslubi lada Abd al-Qahir al-Jurjani. Jusur al-Ma’rifa. Volume 3, Numero 10, Sahifalar 376–389, 2017-06-01. (In Arabic)

8. Ibn Sallam al-Jumahi. (1993). Tabaqat fuhul ash-Shu’ara’. – Bayrut: Dor al-Kutub al-‘Ilmiyya. (In Arabic)

9. Ergashev O. B. (2024). Aristotel mantig‘ining arab tiliga tarjima qilinishi va Islom olamiga yoyilishi. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences (E)ISSN: 2181-1784. 4(7). (In Uzbek)

10. Izutsu T. (1964). God and Man in the Qur’an. – Tokyo. (In English)

11. Mamadaliyev A.A., Izzetova E.M. (2025). Arab-musulmon sharqida madaniyat va ilmiy falsafiy fikr taraqqiyotining tarixiy rekonstruksiyasi (VIII–XII asrlar). Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. (E)ISSN: 2181-1784. 5(3), March. (In Uzbek)

12. Muhammad Abd al-Muttalib. (1980). Uslubiyyat al-Qur’an. – Qohira: Dor al-Fikr. (In Arabic)

13. Mavlonov N. (2025). Tafakkurga chorlovchi Qur’on oyatlari: Ibn Jarir Tabariy tafsiri misolida. Nauka i innovatsiya, 3(22), 70–73. (In Russian)

14. Neuwirth A. (1996). The Qur’an as Text. – Leiden. (In English)

15. Nicholson R.A. (1907). A Literary History of the Arabs. – Cambridge: CUP. (In English)

16. Nosirova M.A. (2017). Arab tili stilistikasi. – Toshkent Davlat sharqshunoslik instituti. (In Uzbek)

17. Rustamiy S. (2019). O‘rta asrlar balog‘at ilmida tilshunoslikka oid qarashlar. – Toshkent. (In Uzbek)

18. Shawqi Dayf. (1995). Al-Balagha: Tarikh wa naqd. – Qohira: Dor al-Ma’arif. (In Arabic)

19. Sodiqov Q. (2009). Turkiy til tarixi. – Toshkent: Fan. (In Uzbek)

ARAB VA O‘ZBEK TILLARIDAGI FRAZEOLOGIZMLARDA MILLIY QADRIYATLAR VA AXLOQIY NORMALARNING IFODALANISHI

EXPRESSION OF NATIONAL VALUES AND MORAL NORMS IN PHRASEOLOGISMS IN ARABIC AND UZBEKISTAN

ВЫРАЖЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ И НОРМ НРАВСТВЕННОСТИ ВО ФРАЗЕОЛОГИЗМАХ АРАБСКОГО ЯЗЫКА И УЗБЕКИСТАНА

Boborajabov Muhammadiqbol Emomaliyevich
Oriental universiteti Tillar-1kafedrasi o‘qituvchisi
Tel.: +99877-767-09-00
E-mail: mboborajabov62@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada arab va o‘zbek tillaridagi ta’lim-tarbiyaga oid frazeologik birliklar lingvomadaniy jihatdan tahlil qilingan. Frazeologizmlar xalqning asrlar davomida shakllangan dunyoqarashi, axloqiy me’yorlari va milliy qadriyatlarini ifoda etuvchi til birliklari sifatida qaraladi. Tadqiqotda mehmondo‘stlik, oila va urug‘-aymoq qadriyatlari, diniy e’tiqodlar, mehnatsevarlik va sabr-toqat kabi muhim ijtimoiy-madaniy tushunchalar frazeologik birliklar misolida yoritilgan. Arab va o‘zbek tilidagi o‘xshash va farqli jihatlar taqqoslanib, ularning tarbiyaviy hamda madaniy ahamiyati izohlangan. Maqola xulosalarida til birliklari orqali tarbiyaviy qadriyatlarni o‘rganish, milliy o‘zlikni anglash va yosh avlodni tarbiyalashda frazeologizmlarning muhim vosita ekanligi ta’kidlanadi.

Kalit so‘zlar: *frazeologizm, lingvomadaniyat, ta’lim-tarbiya, milliy qadriyat, axloqiy me’yor, arab tili, o‘zbek tili, mehmondo‘stlik, oila qadriyatlari, mehnatsevarlik, sabr-toqat.*

Annotation. This article analyzes educational phraseological units in the Arabic and Uzbek languages from a linguocultural perspective. Phraseologisms are considered as language units that express the worldview, moral standards and national values of the people formed over the centuries. The study highlights important socio-cultural concepts such as hospitality, family and clan values, religious beliefs, hard work and patience using phraseological units. Similarities and differences in the Arabic and Uzbek languages are compared, and their educational and cultural significance is explained. The conclusions of the article emphasize that phraseologisms are an important tool in studying educational values, understanding national identity and educating the younger generation through language units.

Keywords: *phraseology, linguistic culture, education, national value, moral standard, Arabic language, Uzbek language, hospitality, family values, hard work, patience.*

Аннотация. В данной статье анализируются образовательные фразеологизмы в арабском и узбекском языках с лингвокультурологической точки зрения. Фразеологизмы рассматриваются как языковые единицы, выражающие мировоззрение, моральные нормы и национальные ценности народа, формировавшиеся на протяжении веков. В исследовании с помощью фразеологизмов выделяются такие важные социально-культурные концепты, как гостеприимство, семейно-родовые ценности, религиозные убеждения, трудолюбие и терпение. Сравниваются сходства и различия в арабском и узбекском языках, объясняется их образовательное и культурное значение. В выводах статьи подчеркивается, что фразеологизмы являются важным инструментом в изучении образовательных ценностей, понимании национальной идентичности и воспитании подрастающего поколения посредством языковых единиц.

Ключевые слова: *фразеология, лингвокультура, образование, национальная ценность, моральный стандарт, арабский язык, узбекский язык, гостеприимство, семейные ценности, трудолюбие, терпение.*

KIRISH

Har bir xalqning tili uning tarixi, dunyoqarashi, milliy qadriyatlari va madaniy merosini o‘zida aks ettiradi. Til boyligining muhim qatlamlaridan biri bo‘lgan frazeologik birliklar xalqning ma’naviy hayotini, urf-odatlari va tarbiyaviy qarashlarini chuqur ifodalaydi. Ayniqsa, ta’lim-tarbiyaga oid frazeologizmlar orqali xalqning axloqiy-me’yoriy qarashlari, tarbiyaga oid qadimiy tajribalari va ijtimoiy munosabatlari yaqqol ko‘zga tashlanadi. Shu bois arab va o‘zbek tillaridagi ta’lim-tarbiyaga oid frazeologik birliklarni lingvomadaniy jihatdan o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki xalqshunoslik, madaniyatshunoslik uchun ham muhim ilmiy ahamiyatga ega.

Mazkur tadqiqotda arab va o‘zbek xalqlarining tarbiyaga oid qarashlari frazeologik birliklar misolida tahlil qilinadi. Har ikkala tilda qo‘llaniladigan iboralarning lingvomadaniy mazmuni ochib berilib, ularning xalq tarbiyasi, axloqiy qadriyatlari va ijtimoiy hayotidagi o‘rni ko‘rsatib beriladi. Shuningdek, tadqiqot davomida frazeologizmlarda xalqning milliy mentaliteti, tarbiyaviy qarashlari va o‘ziga xos dunyoqarashi qanday aks etgani ilmiy tahlil qilinadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘zbek tilshunosligida H. Doniyorov, Sh. Rahmatullayev, M. Mirtojiyev, A. Hojiyev kabi olimlar frazeologizmlarning lug‘aviy va uslubiy xususiyatlarini izohlaganlar. Sh. Rahmatullayevning “O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati” da minglab frazeologizmlar jamlangan bo‘lib, ular xalqning axloqiy qarashlari va tarbiyaviy

qadriyatlarini ifodalashdagi o‘rni bilan ajralib turadi. Shu bilan birga, N. Mahmudov va A. Nurmonovlarning ishlari frazeologizmlarning matnshunoslik va lingvomadaniy talqiniga qaratilgan.

Arab tilshunosligida tildagi frazeologizmlarning lingvistik xususiyatlari ko‘plab tadqiqotlarda o‘rganilgan. Jumladan, Izzat Husayn Husayn G‘urobning “Qur’oni karimdagi frazeologizmlarning semantikasi va tarkibi” mavzusidagi doktorlik dissertatsiyasi, doktor Vafo Komil Foidning “Zamonaviy arab tilida ayrim frazeologizmlar turlari” nomli maqolasi kabi tadqiqotlarda frazeologizmlarning semantik, struktur, lingvopoetik, lingvomadaniy xususiyatlari ochib berilgan.

Shuningdek, dunyo arabshunosligida ham frazeologizmlar tahliliga oid bir qator ishlar kuzatiladi. Jumladan, Murat Yig‘itning “Arab tilidagi frazeologizmlar va ularning Qur’oni Karimda qo‘llanilishi” doktorlik dissertatsiyasi, Mansur Muhammad Hasan Sammanining “Rus tilidagi frazeologizmlar va evfemizmlar arab tili misolida: lingvokulturologik aspekt” nomli doktorlik dissertatsiyasi, Abdulhamid S.A. ning “Arab va rus tillaridagi frazeologizmlarning lingvomadaniy tahlili doktorlik dissertatsiyasi, Bekirov R.A “Arab tilidagi frazeologizmlarning leksik-semantik xususiyatlari, I.K.Shabaning “Arab va rus tillaridagi frazeologizmlar qiyosiy tahlili” nomli maqolalari va yana bir qator dissertatsiya monografiya va maqolalarda frazeologizmlarning lingvopoetik (sistem-struktur) va lingvokulturologik xususiyatlari yoritilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot qiyosiy-lingvokulturologik yondashuv asosida olib borildi. Unda arab va o‘zbek tillaridagi ta’lim-tarbiyaga oid frazeologik birliklar yig‘ildi, semantik tahlil qilindi hamda ularning lingvomadaniy mazmuni ochib berildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Har bir frazeologizm o‘z xalqining tarixiy tajribasi, axloqiy qadriyatlari va dunyoqarashini ifodalaydi. Shu boisdan, ta’lim-tarbiya sohasidagi frazeologik birliklar milliy axloqiy normalar, odob-axloq qoidalari va ta’lim muhitida hurmat qilinadigan qadriyatlarni o‘zida mujassam etadi.

Arab va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarda quyidagi har ikki xalqning milliyligini ifodalovchi o‘ziga xos milliy qadriyatlar va axloqiy normalarni ko‘rish mumkin.

Mehmondo‘stlik va saxiylik. Arab va o‘zbek madaniyatida mehmondo‘stlik eng muhim milliy qadriyatlardan biri hisoblanadi. Mehmonni hurmat bilan kutib olish, unga eng yaxshi sharoit yaratish har ikki xalqda ham an’anaviy axloq normalari sifatida qadrlanadi. Bu qadriyat, ayniqsa, oila muhitida mustahkam o‘rin tutadi va jamiyatda ijtimoiy birdamlikni ta’minlaydi. Quyida arab va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlarda mehmondo‘stlik va saxiylikning ifodalanishini ko‘rish mumkin.

وجهه مبسوط ويده ممدودة (yuzida tabassum, qo‘li uzun). Ushbu ibora mehmondo‘st, saxiy va har doim yordamga tayyor inson holatini ifodalaydi. Arab madaniyatida tabassum va qo‘l ochiqlik ijobiy xislatlar sanaladi. Iborada insonning mehribonligi, yuzida tabassum va saxiyligi aks etilgan. Tarbiya jarayonida bolalarga xushmuomala va saxiy bo‘lishni o‘rgatadi (الميداني., 1983: 231).

O‘zbek tilida ham ushbu iboraning *qo‘li ochiq* varianti mavjud. O‘zbek tilshunosligida *qo‘l* amaliy harakat ramzi, *ochiq* esa yopiqlikning aksi sifatida mehr va saxovat timsoli. O‘zbek xalqi ko‘p hollarda moddiy jihatdan yordam berishni, ayniqsa mehmonlarga ochiq qo‘l bilan munosabatda bo‘lishni qadrlaydi.

Har ikki tildagi frazeologik birliklar ham xalqning axloqiy-ma’naviy olami, ijtimoiy muomalasi va tarbiyaviy holatini ifoda etuvchi vositalardir. Arab tilida ibora ikki jihatni yuzdagi xushmuomalalik va qo‘ldagi saxovatni uyg‘unlashtirgan holda kengroq semantik yuklamaga ega bo‘lsa, o‘zbek tilida amaliy yordam va mehr-muruvvatni birlashtirgan holatda ifodaviy ixchamlikni ko‘rsatadi.

بيته مفتوح وطبخه مشروح (uyi ochiq, ovqati tayyor). Iborada mehmon uchun har doim tayyor, mehmondo‘st inson holati tasvirlanadi. Arab an’analarida mehmon uchun eshik har doim ochiq bo‘lishi kerakligi qadimiy urf. Bu ibora insonning doimo mehmon kutish uchun tayyorligi va saxiyligi orqali tarbiyani aks ettiradi (الميداني., 1983: 304).

O‘zbek tilidagi *eshigi ochiq* frazeologik birligi ham shunga o‘xshash ma’noni ifodalaydi. Bu ibora oddiy so‘zma-so‘z ma’noda uy eshigi yopiq emasligini bildirishi bilan birga, insonning ochiqligi, mehmondo‘stligi va samimiyligini ifodalashda ishlatiladi. O‘zbek madaniyatida bu ibora ko‘pincha ijtimoiy munosabatlar va oilaviy qadriyatlar kontekstida tilga olinadi.

فلان يكرم الضيف ويؤثره على نفسه (falonchi mehmonni izzatlaydi va uni o‘zidan ustun qo‘yadi). Ushbu ibora o‘z ehtiyojlaridan voz kechib, mehmonni ulug‘lash holatlarida qo‘llaniladi (الميداني., 1983: 341). Ibora (الإيثار – boshqani o‘zidan afzal ko‘rish) qadriyatini ifodalaydi. Tarbiyaviy nuqtayi nazardan, bu oliyjanoblik va fidoiylik namunasi. Arab tilshunosligida bu fazilatni ijtimoiy muomala etiketi sifatida o‘rganiladi.

O‘zbek tilida *mehmonni ko‘ksidan qo‘yish* iborasi mavjud bo‘lib, bu ibora metaforik ma’noga ega va mehmonni o‘zidan ustun qo‘yish, uni yuqori hurmat bilan qarshi olish, mehmondo‘stlikning eng oliy darajasini ifodalaydi. Frazema o‘zbek xalqining mehmondo‘stlik madaniyatini yuksak baholashi va uni ijtimoiy norma sifatida qabul qilganligini ko‘rsatadi.

Har ikkala ibora ham tarbiyaviy nuqtayi nazardan oliyjanoblik, saxiylik va fidoyilikni ifodalaydi. Mehmonni o‘zidan ustun qo‘yish insonning boshqa odamlarga nisbatan mehr-muruvvat ko‘rsatishi, o‘z manfaatlarini chetda qoldirib, boshqani

qadrlashidir. Bunday xulq-atvor yosh avlodga insonparvarlik va insoniy fazilatlarni o‘rgatishda muhim vosita bo‘lib xizmat qiladi.

الكرم غريزة عند العرب (saxiylik arablar orasida tug‘ma xislatdir). Bu ibora xalqning o‘z-o‘zini tarbiyaviy jihatdan faxr bilan baholashini anglatadi. Arablar o‘z urf-odatlarida saxiylikni eng muhim qadriyatlardan biri deb hisoblaydilar. Shuning uchun ta’limda ham bu qadriyat bolalikdan shakllantiriladi.

O‘zbek tilida shuningdek mehmondo‘stlik va saxiylikni ifodalovchi *osh bermoq, xayr-ehson qilmoq, dasturxoni keng,* kabi bir qator tarbiyaviy frazeologizmlar ham uchraydi. Bu kabi frazeologik birliklar o‘zbek xalqining mehmondo‘stlik va saxiylik qadriyatlarini, ularning ijtimoiy va madaniy o‘rni hamda tarbiyaviy ahamiyatini chuqur ifodalaydi.

Oila va urug‘-aymoq. Arab va o‘zbek jamiyatida oila va urug‘-aymoqchilik muhim qadriyatlardan hisoblanadi. Oila a’zolari orasidagi hurmat, mehr-muhabbat va bir-biriga yordam ko‘rsatish madaniy-axloqiy normadir. Arablarda esa o‘zbek xalqidan farqli ravishda qabilachilik ham ijtimoiy himoya va birlik manbai sifatida qaraladi. Qadimda arablar turli qabilalarga bo‘lingan bo‘lib, ularning har birida o‘z urf-odat va an’analari bo‘lgan. *Quraysh, Banu Hashim, Avs va Hazraj, Banu Tamim, Banu G‘atfan* qabilalari shular jumlasidandir. Bu tuzilmalar arab millatining ijtimoiy barqarorligi va milliy o‘zligini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Shu sababli oila va qabilachilik qadriyatlari arab va o‘zbek frazeologizmlarida ham o‘z aksini topgan. Buni quyidagi misollarda ham ko‘rish mumkin:

يَحْفَظُ ماءَ وَجْهِ أَهْلِهِ – Oilasining yuzini saqlaydi, ya’ni ota-onasini uyaltirmaydi, o‘z nomusni saqlaydi. Bu ibora arab jamiyatidagi or-nomus, ayniqsa oilaviy sha’nni saqlashga bo‘lgan yuqori e’tiborni aks ettiradi. O‘z qilib yurgan ishlari bilan oila yuzini yerga qaratmaslikni ifodalaydi. Bu qadriyatlar bolalarga tarbiya orqali singdiriladi. لا يرفع رأسه بين قومه – qavmi orasida bosh ko‘tarmaydi, ya’ni obro‘siz va qilgan nojo‘ya ishlari sababli uyatga qolgan. Yuqorida ta’kidlanganidek, arab madaniyatida qabila yoki qavm obro‘si juda muhim. Tarbiya jarayonida farzandga nomusli bo‘lish, boshini baland tutish g‘oyalari singdiriladi. Bu ibora esa ushbu fazilatlardan mahrum bo‘lish, tarbiyasizligi sababli o‘z oilasi va qarindoshlari orasida obro‘si to‘kilishiga aytiladi. خرج عن طوع أهله – oilasining nazoratidan chiqdi. Ushbu ibora tarbiyasiz bola, yoki ota-onaning gapiga quloq solmaydigan farzandga nisbatan ishlatiladi. Arab jamiyatida oilaviy nazorat va tarbiya qattiq bo‘lgan, shu sababli bu ibora salbiy konnotatsiyaga ega. وَرِثَ الشَّهَامَةَ مِن آبَائِهِ – jasurlikni ajdodlaridan meros olgan, ya’ni qo‘rqmas va jasur etib tarbiyalangan. Arab jamiyatida jasurlik, saxovat, or-nomus kabi xususiyatlar nasldan naslga o‘tadi, deb e’tiqod qilinadi. Bu ibora orqali bola tarbiyasida ota-bobolarning yaxshi sifatlarini davom ettirish talab qilinadi. Tarbiyada “ajdodingga munosib bo‘l” degan fikr muhim o‘rin tutadi. صَاحِبُ نَسَبٍ عَرِيقٍ – nasl-nasabli, obro‘li,

tarbiyali kishi. Arab madaniyatida nasl-nasab “or-nomus, tarbiya, odob, saxovat” kabi qadriyatlar manbayi sifatida qaraladi. Tarbiya bu naslga mos bo‘lish, uni sharaf bilan davom ettirish vositasi sifatida qaraladi. هاك الشبل من ذاك الأسد – bu arslon ana u sherdan. Bu ibora ko‘pincha ota yoki ajdodning kuchi, jasorati va qahramonlik fazilatlari avlodga meros sifatida o‘tishini ta’kidlaydi (الميداني., 1983: 417). Madaniy nuqtayi nazardan, arab jamiyatida qabila va nasl davomiyligi muhim o‘rin tutadi. Ibora esa shunday qadriyatlarni ifodalovchi ramziy birikmadir. Shunday qilib, ibora til va madaniyat o‘rtasidagi chuqur bog‘liqlikni ko‘rsatib, kuchli ota-ona avlodga shijoat va qahramonlikni meros qilib qoldirishini ifodalaydi.

Yuqoridagi frazeologik birliklardan tashqari qabila nomlari ishtirok etgan iboralar ham mavjud:

أَكْرَمُ مِن قُرَيْشِيٍّ – Qurayshiyday saxiy, ya’ni juda saxiy, ochiq qo‘l inson. Quraysh qabilasi tarixan Makka ahli orasida eng hurmatli, nasabdor, savodli, va saxiy qabila sifatida tanilgan. Bu ibora orqali saxovat, or-nomus, tarbiya kabi qadriyatlar Quraysh nomi bilan ifodalanadi. أَفْصَحُ مِنْ هُذَيْلِيٍّ – Huzayl qabilasidan fasohatliroq. Ushbu ibora juda ravon so‘zlovchi, fasohatli, zukko shaxsga nisbatan qo‘llaniladi. Huzayl qabilasi fasohat, ya’ni ravon va go‘zal so‘zlash bilan mashhur bo‘lgan. Bu ibora ta’lim-tarbiya va til madaniyati bilan bog‘liq. Bola yoki kishi madaniyatli, chiroyli gapirsa, undan oila va qabila sha’ni ko‘rinadi. Arablar til madaniyatini ham nasl va tarbiya orqali o‘tadigan qadriyat deb bilishadi. أَشْجَعُ مِن تَمِيمِيٍّ – Tamimlikdan ham jasur, ya’ni o‘ta jasur, qo‘rqmas odam. Tamim qabilasi jasurligi, jangchiligi bilan tanilgan (الميداني., 1983: 391). Arab tarbiyasida jasurlik, erkaklik, sabr katta qadriyat bo‘lgan. Bu ibora orqali tarbiyada bolaga shijoat beriladi va oila sha’niga loyiq bo‘lishga undaladi.

Yuqoridagi frazeologik birliklarning barchasi ta’limga emas, balki tarbiyaga dalolat qiladi. Ular arab madaniyatining asosiy qadriyatlarini oilaviy sha’n, nasl davomiyligi, or-nomus, jasorat, saxovat va til madaniyatini o‘zida mujassam etadi. Shuningdek, til orqali ijtimoiy tarbiya va axloqiy me’yorlarni ifodalab, shaxsning oilasi va qabilasi oldidagi mas’uliyatini ta’kidlaydi. Qabila nomlari bilan bog‘liq iboralar esa tarixiy va madaniy merosning ramzi sifatida, nasl va tarbiyaning ijtimoiy munosabatlardagi o‘rnini ko‘rsatadi. Shu bois, bu frazeologik birliklar arab jamiyatining lingvomadaniy mohiyatini aks ettirib, til va madaniyatning o‘zaro uzviy bog‘liqligini namoyon etadi.

O‘zbek xalqining madaniy merosida ham oila qadriyatlari markaziy o‘rin egallaydi. Azaldan oilaviy tarbiya, ajdodlar izzatini saqlash, ota-onaga hurmat, urug‘-aymoq sha’nini ko‘z qorachig‘idek asrash kabi qadriyatlar avloddan avlodga og‘zaki nutq, udum va iboralar orqali yetkazib kelingan. Ayniqsa, xalqning kundalik tilida qo‘llaniladigan frazeologik birliklar ushbu qadriyatlarning til vositasidagi eng barqaror va kuchli aksidir.

O‘zbek tilidagi ba’zi frazeologizmlar bevosita oila, qarindoshlik, ajdodlar sha’ni, nasl davomiyligi, farzandlik burchi kabi g‘oyalarni o‘zida mujassam etgan bo‘lib, ularning mazmuni faqat semantik emas, balki lingvomadaniy jihatdan ham o‘ta boy va ma’nodor. Bu kabi frazeologik birliklar orqali xalq farzandni qanday tarbiyalagan, qanday xulq-atvorni qadrlagan, nimalarni uyat yoki faxr deb bilganini aniqlash mumkin. Buni misoli o‘laroq quyidagi frazeologizmlarni keltirish mumkin:

Ota-onaning yuzini yorug‘ qilish – ota-onani faxrlantirish, ular uchun g‘urur bo‘lish. Bu frazeologik birlik orqali ta’lim-tarbiyaning maqsadi ota-onani xursand qilish, el-yurt ichida obro‘li bo‘lish ekanligini anglash mumkin. *Urug‘-aymoqqa gap tushirmaslik* – yomon ish qilib qarindoshlar ichida sharmanda qilmaslik. Ushbu iborada o‘zbek xalqining oilaviy burchi, o‘z avlodi sha’nini saqlash qadriyati aks ettiriladi. *Ajdodiga munosib bo‘lmoq.* Ushbu frazeologik birikma o‘zbek tilida avlodlar uzviyligini va ota-bobolarga hurmatni ifodalovchi muhim madaniy-konseptual tushunchani aks ettiradi. Bu ibora orqali ajdodlarning tarbiyaviy, axloqiy va madaniy merosiga mos kelish, ularning izidan borish, ularning sha’nini saqlash ma’nosi ifodalanadi. Madaniy kontekstda bu fraza o‘zbek xalqining ota-bobolariga hurmat, avlodlararo bog‘lanish va uzviylik qadriyatlarini yuksak tutishini ko‘rsatish bilan birga, nasl davomiyligi va oila sharafini saqlashga chaqiradi. *Ota-onaning yuzini yerga qaratish* – o‘z xatti-harakatlari bilan ota-onasini sharmanda qilish, ularning yuzini yerga qaratish. O‘zbek mentalitetida avlod sha’nini asrash, ota-ona nomini yuksaltirish muhim tarbiyaviy mezon sifatida qaraladi. Ushbu ibora esa salbiy ma’no ya’ni tarbiyasizligi sababli ota-onasini sha’niga dog‘ tushirishni anglatadi. *Ota-onasining izidan yurmoq* – ota-onasining xulq-atvori, kasbi yoki yo‘lini davom ettirmoq. O‘zbek oilasida avlodlar uzviyligi, tarbiya orqali qadriyatlar avloddan-avlodga o‘tishi muhim hisoblanadi. Shu sababli har bir farzand ota-onasining mehnatkashligi, halolligi va mehribonligini o‘z hayotiga namuna qilib oladi. Oilada shakllangan axloqiy qadriyatlar, odatlar va kasb-hunar odatda avlodlar davomida davom etib, jamiyatda barqarorlik va do‘stlik muhitini yaratishga xizmat qiladi. Bu esa yoshlarni o‘z kelajagiga mas’uliyat bilan qarashga, o‘z ota-bobolarining izidan borishga undaydi. Shuning uchun ota-onasining izidan yurish nafaqat oila, balki butun jamiyat uchun ham muhim qadriyat hisoblanadi. *Ota-onaning izini toptamaslik* – ota-onaning sha’niga dog‘ tushirmaslik, nomini yomon qilmaslik. Azaldan ajdodlarga hurmat va ularning tarbiyasiga munosib bo‘lish o‘zbekcha tarbiyaning muhim elementi hisoblanadi. Aynan shunday qadriyatlar orqali o‘zbek jamiyatida oilaviy mehr-muhabbat, sadoqat va vatanparvarlik ruhi mustahkamlanadi. *Urug‘ini yerga urmoq* – butun avlodini sharmanda qiladigan ish tutmoq. Bu ibora urug‘ sha’ni, oilaviy obro‘ning ijtimoiy ahamiyatini ko‘rsatadi. O‘zbek oilaviy tarbiyasida el ichida yuzi yorug‘ bo‘lish muhim. Urug‘ sha’ni deganda nafaqat oilaning ichki hurmati, balki uning jamiyatdagi mavqeyi,

obro‘si tushuniladi. Shu bois, har bir avlod o‘zining qilgan ishlari, so‘zlari bilan oila nomini faxr bilan tilga olinishiga sababchi bo‘lishga intiladi. *Ota-onaning ko‘z quvonchi bo‘lmoq* – ota-onaga yordamchi, yaxshi ko‘rilgan, suyilgan farzand bo‘lish. Ushbu ibora o‘zbek tilida metaforik ma’noga ega bo‘lib, ota-onani xursand qiladigan, ularni hurmat qiladigan va yordam beradigan farzandni ifodalaydi. Bu ifoda o‘zbek madaniyatida ota-ona va farzand o‘rtasidagi mehr-muhabbat, hurmat va mas’uliyatni aks ettiradi. *Ko‘z quvonchi* nafaqat hissiy quvonch, balki oilaning ichki barqarorligi va ijtimoiy obro‘yining ramzi hisoblanadi. Umuman olganda, bu ibora o‘zbek oilaviy tarbiyasining asosiy tamoyillaridan biri bo‘lib, avlodlar o‘rtasidagi uzviylik va hurmatni ta’kidlaydi hamda jamiyatda ota-ona sha’nini saqlashning muhimligini ifodalaydi.

O‘zbek tilidagi frazeologizmlar oilaviy qadriyatlar, nasl uzviyligi, ota-ona sha’ni hamda farzandlik burchi kabi muhim madaniy va ijtimoiy g‘oyalarni o‘zida mujassam etgan bo‘lib, ularning semantik va lingvomadaniy jihatdan boyligi o‘zbek xalqining axloqiy me’yorlari va tarbiyaviy tamoyillarini anglashda katta ahamiyat kasb etadi. Misol tariqasida keltirilgan yuqoridagi frazeologik birliklar nafaqat oilaviy munosabatlar va qadriyatlarni, balki jamiyat oldidagi mas’uliyat va sharaf tushunchalarini ham yoritadi. Ushbu frazeologizmlar orqali xalq farzandning tarbiyasi, ota-onaga hurmat, oilaning obro‘-e’tibori, avlodlar o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik hamda jamiyatda yuz ko‘rsatish, sharmanda bo‘lmaslik tamoyillari qanday qadrlanishi aniq ko‘rinadi. Natijada, o‘zbek frazeologik merosi nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik va sotsiologiya sohalarida ham o‘zbek xalqining ma’naviy hayotini chuqurroq o‘rganish uchun boy manba bo‘lib xizmat qiladi. Bu esa o‘zbek oilasining barqarorligi, milliy o‘ziga xosligi va ijtimoiy integratsiyasida frazeologik qadriyatlarning o‘rni va ahamiyatini yanada mustahkamlashga yordam beradi.

Arab va o‘zbek tillaridagi ta’lim-tarbiyaga oid frazeologizmlar shaxsning axloqiy, ruhiy va ijtimoiy jihatdan rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan xulq-atvor va ichki sifatlarni ifodalab, bolalarni halollik, sabr-toqat, muloyimlik, ichki poklik, iymon va taqvo kabi fazilatlarni shakllantirishga yo‘naltiradi. Bu frazeologizmlar nafaqat til boyligi, balki tarbiyaviy va ma’naviy meros sifatida ham katta ahamiyatga ega.

Shu bois, arab va o‘zbek tillaridagi frazeologizmlar nafaqat madaniy va lingvistik o‘rganish obyekti, balki ta’lim-tarbiyadagi asosiy qadriyatlarni yetkazishda muhim vosita sifatida e’tiborga loyiqdir. Ular orqali yosh avlodning ijtimoiy-madaniy va axloqiy barkamolligi ta’minlanadi, shu bilan birga jamiyatda ijobiy axloqiy muhit yaratiladi.

Mehnatsevarlik va sabr-toqat. Arab va o‘zbek madaniyatida mehnatsevarlik va qiyinchiliklarga sabr qilishga katta ahamiyat beriladi. Hayotdagi qiyinchiliklarga bardosh berish, mehnat qilish orqali maqsadlarga erishish milliy axloqning ajralmas

qismi hisoblanadi. Buni frazeologik birliklarda ham kuzatish mumkin. Bunday frazeologik birliklar arab va o‘zbek xalqlarining mehnatsevarligi va sabrliligini mujassam etgan lingvomadaniy hodisa sifatida e’tirof etiladi. Masalan, شدّ حيلك – kuchingni mustahkamla frazasi insonni faoliyatga safarbar qilish, dangasalikdan tiyib, mehnatga undashda qo‘llaniladi. Bu ibora o‘zbek tilida keng qo‘llaniladigan *bo‘sh kelma, jonbozlik ko‘rsat* kabi iboralarga yaqin bo‘lib, shaxsda irodaviy sifatlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, bu ibora o‘quvchini yoki talabani o‘z bilim faoliyatiga jiddiy, mas’uliyat bilan yondashishga undovchi pedagogik vosita sifatida samarali bo‘lishi mumkin.

Yana bir diqqatga sazovor frazeologizm أكل الخبز بعرق الجبين – peshona teri bilan non yedi iborasi bo‘lib, u halol mehnat, rizqni o‘z kuchi bilan topish, haromdan tiyilish g‘oyalarini targ‘ib etadi. O‘zbek tilida bunga muqobil tarzda *peshona teri bilan mehnat qilmoq, ter to‘kmoq* kabi iboralar mavjud. Bu frazeologik birliklar yosh avlodga halollik, mas’uliyat, vijdon bilan yashashni o‘rgatishda muhim tarbiyaviy yuklama kasb etadi. Ayniqsa, ta’lim jarayonida bu kabi frazeologik namunalarni muhokama qilish orqali o‘quvchilarda axloqiy qadriyatlarga nisbatan ongli munosabat shakllanadi.

شمر عن ساعد الجد – qat’iyat bilan yeng shimardi frazeologik birligi mehnatga, faoliyatga to‘liq tayyorgarlik ko‘rish, astoydil kirishish ramzi sifatida ishlatiladi (Hojiyev A., 2006: 460). Ushbu ibora shaxsning mashaqqatli ish yoki vazifani bajarishga bo‘lgan qat’iyatini, fidoyiligini ifodalab, pedagogik kontekstda mehnatsevarlik va jiddiy yondashuvni targ‘ib qiladi. Til va madaniyat nuqtayi nazaridan bu frazeologizm har qanday faoliyatga samarali va mas’uliyat bilan yondashish zarurligini ko‘rsatadi, shuningdek, o‘quvchilarda intizom va fidoyilik fazilatlarini shakllantirishda ahamiyatlidir. O‘zbek tilida ham *yeng shimarmoq* iborasi xuddi shu ma’noni ifodalaydi.

Arab tilida tez-tez uchraydigan يبلّط البحر – dengizni tekislaydi frazasi esa, juda murakkab, hatto imkonsizdek tuyulgan vazifalarga sabr bilan yondashish, ulardan qo‘rqmaslik, qat’iyat bilan harakat qilish zarurligini bildiradi (الميداني., 1983: 415). Bu frazeologizm o‘zbek tilidagi, *tog‘ni silkitmoq, changalda sho‘rva pishirish* kabi iboralar bilan semantik jihatdan yaqin. Bunday iboralar orqali insonni hayotdagi sinovlarga bardosh berishga, o‘z oldiga qo‘ygan maqsad sari sabr-toqat bilan intilishga undovchi g‘oyalar ilgari suriladi. Bu frazeologizm faqat mehnat emas, balki ilm olish, tarbiya, jamiyatda faol ishtirok etish singari yo‘nalishlarda ham shaxsiy intizom va kuchli irodaning zarurligini ifoda etadi.

يطحن الصخر – toshni maydalaydi, frazasi juda murakkab va og‘ir vazifalarni qat’iyat bilan bajarish, barcha to‘siqlarga qaramay sabr bilan harakat qilishni anglatadi. Bu ibora o‘zbek tilidagi *qattiq toshni yoradi, yelkasida tog‘ni ko‘taradi* kabi frazeologizmlarga semantik jihatdan yaqin bo‘lib, har ikki tilda mehnatning barakasi,

sabr-toqatning esa muvaffaqiyat kaliti ekanligi teran ma’noda ifoda etiladi. Ushbu frazeologik birliklar yoshlarni hayotdagi qiyinchiliklar oldida taslim bo‘lmaslik, mustahkam iroda va fidoyilik bilan harakat qilishga rag‘batlantiradi.

Shuningdek, يحفر بالصخر – toshda o‘ra qaziydi frazasi yuqoridagi birlikka yaqin bo‘lib, deyarli imkonsizdek ko‘ringan vazifalarni ham sabr va iroda bilan amalga oshirish zarurligini ta’kidlaydi.

Bundan tashqari, يمشي على الجمر – cho‘g‘ ustida yuradi iborasi hayotdagi har qanday mashaqqat va sinovlarga chidab, bardosh bilan oldinga intilish, qiyinchiliklarga qaramasdan maqsad sari dadil harakat qilishni anglatadi. Bu frazeologizm o‘zbek tilidagi *o‘t ichida yurmoq, jonini tikib ish qilmoq* kabi iboralar bilan semantik jihatdan mos kelib, kuchli sabr, ruhiy barqarorlik va metin iroda sifatlarini tasvirlaydi. Ta’lim-tarbiya jarayonida ushbu frazeologik birliklar o‘quvchi yoki talabada intizom, bardoshlilik va irodani mustahkamlashga qaratilgan axloqiy-ruhiy tarbiya vositasi vazifasini bajaradi.

Shu bilan birga o‘zbek tilida mehnatga, sabr-toqatga va iroda mustahkamligiga urg‘u beruvchi ko‘plab frazeologik birliklar mavjud bo‘lib, ular til orqali xalqning axloqiy-ruhiy qadriyatlarini ifoda etadi. Masalan, *belini baquvvat bog‘lamoq* iborasi og‘ir, murakkab vazifalarni bajarishga tayyorlanish, jismoniy va ruhiy kuchni jamlash ma’nosini anglatadi. Bu ibora o‘quvchi yoki talabani oldiga qo‘yilgan maqsad sari jasorat bilan intilish, mashaqqatlarga tayyor turishga ruhlantiradi. Shuningdek, *yelkasiga yuk ortmoq* frazasi katta mas’uliyatni o‘z zimmasiga olish, murakkab ishlarni bajarish uchun tayyor bo‘lishni bildiradi. Bu ibora tarbiyaviy nuqtayi nazardan shaxsda fidoyilik, mas’uliyatlilik va qat’iyat kabi fazilatlarni shakllantirishda muhim vosita hisoblanadi. Bundan tashqari, *qalbi toshdek mustahkam* iborasi sabr-toqat, iroda bardoshliligi va ruhiy qat’iyatni ifodalab, hayotdagi qiyinchiliklarga dosh berish zarurligini ta’kidlaydi. Ushbu frazeologizm orqali tarbiyalovchi shaxsga ichki kuch, chidamlilik va mashaqqatlarga tayyorlikni singdirish mumkin.

Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat. Arab va o‘zbek jamiyatlarida oilaviy va ijtimoiy qadriyatlar orasida kattalarga hurmat va kichiklarga izzat ko‘rsatish muhim o‘rin tutadi (Mirtojiyev M., 2003: 119). Bu qadriyatlar har ikki xalqning an’anaviy madaniyatida chuqur ildiz otgan bo‘lib, ular o‘zaro munosabatlarni tartibga soluvchi ijtimoiy normativ sifatida shakllangan.

Bu ikki xalq madaniyatida avvalo ota-onalar, keksa qarindoshlar va jamiyatdagi hurmatga loyiq shaxslar e’tiborga loyiqdir. Kattalarga hurmat ko‘rsatish, ularga itoat qilish nafaqat oilaviy majburiyat, balki diniy va ijtimoiy normalarga ham bog‘liqdir. Arab oilalarida farzandlar ota-onalarining so‘zini tinglashlari, ularni yuksak hurmat qilishlari odatiy tarbiya tizimining ajralmas qismi hisoblanadi. Bundan tashqari, kattalarning so‘zlari dono va ahamiyatli hisoblanib, jamiyatda ularga ustunlik beriladi.

Kichiklarga esa mehr-muhabbat va izzat bilan munosabatda bo‘lish, ularni himoya qilish, parvarishlash madaniyatda muhim qadriyatlardandir.

Arab tilida kattalarga hurmat va kichiklarga izzat qadriyatlari ko‘plab frazeologik birliklar orqali o‘zining aniq til ifodasini topgan. Bu frazeologizmlar nafaqat til birliklari, balki madaniyatda mavjud ijtimoiy normalar va axloqiy qadriyatlarning ramziy aksidir.

Misol uchun, على الرأس والعين (bosh va ko‘z ustiga) iborasi arab tilida keng qo‘llanilib, odatda kattalarga yoki muhim shaxslarga itoatkorlik va chuqur hurmatni ifodalaydi. Bu ibora orqali so‘ralgan ishga rozilik bildiriladi va unga nisbatan ehtirom, sadoqat aks ettiriladi. Shuningdek, حطّه على راسه (uni boshiga qo‘ydi) frazeologizmi ham juda chuqur hurmatni, ya’ni insonni eng oliy maqomga qo‘yishni bildiradi. Bu ibora odatda kattalar yoki jamiyatda obro‘li shaxslarga nisbatan ishlatiladi.

Kattalarga hurmatni ifodalovchi boshqa frazeologik birlik رفع له القبعة (u uchun qalpog‘ini ko‘tardi) ham xuddi shunday o‘ringa ega bo‘lib, insonga nisbatan chuqur ehtirom va hurmat ko‘rsatishni anglatadi. Shuningdek, وَضَعَه فوق رأسه (uni boshining ustiga qo‘ydi) frazeologizmi ham juda katta ehtirom va ulug‘vor munosabatni ifodalaydi.

Kattalarga bo‘lgan hurmat va izzat, shuningdek, ularning yurakdan joy olganligi frazeologik birliklar orqali ham ifodalanadi. Masalan, له مكانة في القلب (uning yurakda o‘rni bor) iborasi insonning e’tiborli va qadrli ekanligini ta’kidlaydi.

Bundan tashqari, arab tilida kichiklarga nisbatan mehr va izzatni ifodalovchi frazeologik birliklar ham mavjud. Masalan, قَلْبُهُ لِلصِّغَارِ مَفْتوحٌ (yuragi kichiklarga ochiq) iborasi kichiklarga bo‘lgan mehribonlik va hurmatni ko‘rsatadi. Shuningdek, يَحْمِلُ الصِّغَارَ فِي قَلْبِهِ (kichiklarni yuragida tutadi) frazeologizmi kichiklarga bo‘lgan e’tibor, mehr-muhabbat va qadrlashni ifodalaydi.

O‘zbek tilida ham *gapiga quloq solmoq, gapini ikki qilmaslik, ko‘nglini olmoq, ko‘ngliga qaramoq, bag‘riga bosmoq, ko‘z qorachig‘iday asramoq, boshini silamoq, oyoqqa turg‘izmoq* kabi iboralar madaniyatda kattalarga hurmat va kichiklarga izzat qadriyatlarining amaliy ifodasi hisoblanadi (Rahmatullayev Sh., 1978: 234). Ushbu iboralar ta’lim-tarbiyadagi muhim prinsiplarni hurmat, ehtirom, mehr-muhabbat va himoya qilishni o‘zida mujassamlashtirib, yoshlarga tarbiya berishda samarali vosita sifatida xizmat qiladi. Masalan, *quloq solmoq* va *gapini ikki qilmaslik* frazeologizmlari kattalarning so‘ziga hurmat bilan munosabatda bo‘lishni, ularga itoatkorlikni ta’kidlaydi. *Ko‘nglini olmoq* va *ko‘ngliga qaramoq* iboralari esa kishining ichki dunyosiga e’tibor berish, mehr-muhabbat ko‘rsatish orqali ijobiy munosabatlarni rivojlantirishga urg‘u beradi. Shuningdek, *bag‘riga bosmoq, ko‘z qorachig‘iday asramoq* kabi iboralar kichiklarga nisbatan himoya va mehr ko‘rsatishni anglatadi, ularning jismoniy va ruhiy jihatdan parvarishlanishining zarurligini ta’kidlaydi.

Boshini silamoq va *oyoqqa turg‘izmoq* frazeologizmlari esa yoshlarga ruhiy kuch berish va ularga ta’lim-tarbiya jarayonida ko‘mak berishni ifodalaydi. Shu tarzda, mazkur frazeologik birliklar nafaqat til boyligini boyitadi, balki ularning orqasida yotgan madaniy qadriyatlar va tarbiyaviy tamoyillar orqali jamiyatda hurmat-izzat tizimini shakllantirishga xizmat qiladi. Bu esa o‘z navbatida, milliy ma’naviyat va axloqiy muhitning poydevorini mustahkamlaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi fikrlar shuni ta’kidlaydiki, arab va o‘zbek tillaridagi ta’lim-tarbiyaga oid frazeologizmlarda milliy qadriyatlar va axloq normalari muhim o‘rin tutadi. Bu frazeologizmlar orqali xalqning tarixiy tajribalari, madaniyati, axloqiy me’yorlari va ma’naviy qadriyatlari aks etadi. Ikkala tilning frazeologik boyligi ta’lim-tarbiyaga oid ma’naviy-axloqiy normalarni avaylab saqlash va avlodlarga yetkazishda muhim vosita sifatida xizmat qiladi. Shunday qilib, frazeologizmlar milliy ong va axloqiy madaniyatning ifodasi bo‘lib, xalqning ma’naviy barkamolligi va ijtimoiy uyg‘unligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Бекиров Р.А. (2016) Общие вопросы лексико-семантических преобразований в глагольных фразеологизмах арабского языка // Научный вестник Крыма. – № 2(2). – С. 142.

2. Дониёров Ҳ. (1989) Ўзбек тилида фразеологик бирликларнинг шаклланиши. – Тошкент: Фан. – 210 б.

3. Ғаниева Ш.А. (2017) Ўзбек фразеологизмлари структураси. (Шаклий ва мазмуний моделлаштириш). Филол. фан. бўйича фалс. докт. (PhD) … дисс. автореф. – Фарғона. – 46 б.

4. Ҳожиев А. (2006) Ўзбек тилининг изоҳли луғати. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – 672 б.

5. Маҳмудов Н., Нурмонов А. (2008) Ҳозирги ўзбек адабий тили. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси. – 320 б.

6. Миртожиев М. (2003) Ҳозирги ўзбек тили. Фразеология. – Тошкент: Университет. – 256 б.

7. Раҳматуллаев Ш. (1978) Ўзбек тилининг изоҳли фразеологик луғати. – Тошкент: Ўқитувчи. – 407 б.

8. Усманова Ш. (2019) Лингвокультурология. – Тошкент. – 248 б.

9. فايد كامل وفاء. (2003) مجمع مجلة // المعاصرة العربية في الاصطلاحية التعبيرات صور بعض. المجلد-4. – سوريا. – ص. 895–917. بدمشق العربية اللغة.

10. الميداني. (1983) مجمع الأمثال بيروت :العرب. – ص دار 680 – .المعرفة.

REFERENCES:

1. Bekirov R.A. (2016) Obshchiye voprosy leksiko-semanticheskikh preobrazovaniy v glagol'nykh frazeologizmakh arabskogo yazyka // Nauchnyy vestnik Kryma. – № 2(2). – S. 142. (In Russian)

2. Doniyorov H. (1989) O‘zbek tilida frazeologik birliklarning shakllanishi. – Toshkent: Fan. – 210 b. (In Uzbek)

3. G‘aniyeva Sh.A. (2017) O‘zbek frazeologizmlari strukturasi. (Shakliy va mazmuniy modellashtirish). Filol. fan. bo‘yicha fals. dokt. (PhD) … diss. avtoref. – Farg‘ona. – 46 b. (In Uzbek)

4. Hojiyev A. (2006) O‘zbek tilining izohli lug‘ati. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – 672 b. (In Uzbek)

5. Mahmudov N., Nurmonov A. (2008) Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. – 320 b. (In Uzbek)

6. Mirtojiyev M. (2003) Hozirgi o‘zbek tili. Frazeologiya. – Toshkent: Universitet. – 256 b. (In Uzbek)

7. Rahmatullayev Sh. (1978) O‘zbek tilining izohli frazeologik lug‘ati. – Toshkent: O‘qituvchi. – 407 b. (In Uzbek)

8. Usmanova Sh. (2019) Lingvokulturologiya. – Toshkent. – 248 b. (In Uzbek)

9. فايد كامل وفاء. (2003) صور بعض التعبيرات الاصطلاحية في العربية المعاصرة // مجلة مجمع بدمشق العربية اللغة. المجلد-4. – سوريا. – ص. 895–917. (In Arabic)

10. الميداني. (1983) مجمع الأمثال العرب. – بيروت: دار ص 680 – المعرفة. (In Arabic)

XIYAZM STILISTIK VOSITASINING NAZARIY ASOSLARI

THEORETICAL PRINCIPLES OF CHIASMUS AS A STYLISTIC DEVICE

ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СТИЛИСТИЧЕСКОГО ПРИЁМА ХИАЗМА

https://zenodo.org/records/19260576

Xaydarova Munira O‘tkir qizi
Toshkent davlat transport universiteti tayanch doktoranti
Oriental universiteti stajyor-o‘qituvchisi
Tel.:+998 97-774-44-96
E-mail:muniraxaydarova3@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada xiyazm – so‘zlar, grammatik tuzilmalar yoki tushunchalarning teskari tartibda takrorlanishi orqali A–B–B–A simmetrik modelini hosil qiluvchi ritorik va stilistik hodisa – tilshunoslik, adabiyotshunoslik, kognitiv lingvistika va diskurs tahlili nuqtayi nazaridan kompleks o‘rganilgan. Xiyazmning sintaktik, leksik, fonetik va tematik shakllari ingliz, o‘zbek va rus tillaridagi adabiy matnlar, xalq og‘zaki ijodi, Muqaddas Kitob, Shekspir asarlari hamda falsafiy matnlar misolida tahlil qilingan. Uning estetik, semantik, pragmatik va argumentativ funksiyalari, paradox va antitez bilan chambarchas bog‘liqligi yoritilgan. Xiyazm nafaqat ritorik vosita, balki idrok, tana va ong o‘rtasidagi kesishuvni ifodalovchi kognitiv-falsafiy hodisa sifatida talqin etiladi. Tadqiqot xiyazmni darajaviy va ehtimollik asosida baholash, komparativ va kognitiv yondashuvlarni kengaytirish zarurligini ta’kidlaydi.

Kalit so‘zlar. *Xiyazm, ritorika, stilistika, diskurs, badiiy vosita, estetik shakl, kognitiv lingvistika, A–B–B–A modeli, badiiy nutq, antimetabola, parallelism, so‘z o‘yini*

Abstract. In this article, chiasm – a rhetorical and stylistic phenomenon that creates a symmetrical pattern of A-B-B-A through the repetition of words, grammatical structures or concepts in the reverse order – is comprehensively studied from the point of view of linguistics, literary studies, cognitive linguistics and discourse analysis. Syntactic, lexical, phonetic and thematic forms of chiasmus are analyzed on the examples of literary texts in English, Uzbek and Russian languages, folklore, the Holy Bible, works of Shakespeare and philosophical texts. Its aesthetic, semantic, pragmatic and argumentative functions, its close connection with paradox and antithesis are highlighted. Chiasmus is interpreted not only as a rhetorical device, but also as a cognitive-philosophical phenomenon representing the intersection between perception, body and mind. The study emphasizes the need to evaluate chiasm on the basis of rank and probability, to expand comparative and cognitive approaches.

Key words. *Chiasmus, rhetoric, stylistics, discourse, literary device, aesthetic form, cognitive linguistics, A–B–B–A model, literary speech, antimetabole, parallelism, wordplay*

Аннотация. В данной статье хиазм – риторико-стилистическое явление, создающее симметричную схему А-Б-В-А за счет повторения слов, грамматических конструкций или понятий в обратном порядке – всесторонне изучается с точки зрения языкознания, литературоведения, когнитивной лингвистики и дискурс-анализа. Синтаксические, лексические, фонетические и тематические формы хиазма анализируются на примере художественных текстов на английском, узбекском и русском языках, фольклора, Библии, произведений Шекспира и философских текстов. Выделены его эстетическая, смысловая, прагматическая и аргументативная функции, тесная связь с парадоксом и антитезисом. Хиазм трактуется не только как риторический прием, но и как когнитивно-философский феномен, представляющий собой пересечение восприятия, тела и разума. В исследовании подчеркивается необходимость оценки хиазмов на основе ранга и вероятности, расширения сравнительного и когнитивного подходов.

Ключевые термины. *хиазм, риторика, стилистика, дискурс, художественное средство, эстетическая форма, когнитивная лингвистика, модель А–В–В–А, художественная речь, антиметабола, параллелизм, языковая игра.*

KIRISH

Xiyazm – bu so‘zlar yoki so‘z birikmalari juftligining ikkinchi qatorda teskari tartibda takrorlanishidan iborat tuzilma bo‘lib, yunoncha “χ” harfi nomi bilan bog‘liq (ya’ni “kesishuv”ni bildiradi). Tadqiqotchilar (Dubremetz va Nivre, 2015; Dunn, 2013) ta’kidlaganidek, xiyazmni aniqlashda u “bor” yoki “yo‘q” sifatida emas, balki darajali hodisa sifatida baholanishi lozim. Chunki haqiqiy matnlarda xiyazmning turlari o‘ta xilma-xil bo‘lib, ularni farqlash ko‘p hollarda semantik chuqurlik va kontekstga bog‘liq bo‘ladi. Shu sababli xiyazm tahlilida ehtimollik darajalarini hisobga olish muhimdir. (Dubremetz M., Nivre J. 2018).

Xiyazm tushunchasi va uning turli xil ko‘rinishlari til tuzilishi, inson tanasi hamda idrok va ong hodisalari bilan bog‘liq murakkab hodisani ifodalaydi. U sintaktik va ritorik vosita sifatida gap ichidagi birliklarning teskari joylashuvi asosida A–B–B–A modelini hosil qiladi va bu usul turli madaniy muhitlarda keng qo‘llaniladi. Mazkur tuzilishga keng tarqalgan, Gippokrat nomiga bog‘langan “Taom doring bo‘lsin, dori esa taoming bo‘lsin” iborasini misol qilib keltirish mumkin. Ramziy jihatdan xiyazm kesishuvchi elementlar tizimini anglatadi va uning eng oddiy grafik ifodasi X shaklidir. Faylasuf Moris Merlo-Ponti talqinida esa xiyazm tana va ong o‘rtasidagi o‘zaro

munosabatni ifodalaydi. Ushbu yondashuvda xiyazm tananing va miyaning harakat, sezgi hamda idrok jarayonlarini qanday muvofiqlashtirishini tushuntiradi: miyaning bir yarimshari tananing qarama-qarshi tomonidagi funksiyalarni boshqaradi. Shunday qilib, barcha xiyazmatik shakllar – tilga oid yoki anatomik bo‘lishidan qat’i nazar – elementlarning o‘zaro kesishuvi va almashuviga asoslanadi.

Xiyazm – bu “so‘zlar, grammatik tuzilmalar yoki tushunchalar teskari tartibda takrorlanadigan ritorik yoki badiiy usuldir (Oxford Dictionary). Alm-Arvius ta’kidlaganidek, bu “so‘zlar yoki ifodalar teskari tartibda takrorlanadigan” ritorik vosita bo‘lib, uni parallelizmning bir turi deb ham qarash mumkin. Masalan, “Fair is foul, and foul is fair” “*Yaxshi yomon, yomon esa yaxshi*”. (Alm-Arvius C., 2003: 180.)

Xiyazm tushunchasi va undan kelib chiqqan ko‘plab shakllar keng tarqalgan bo‘lsa-da, ularning ta’siri ko‘pincha yetarli darajada anglanmaydi. Bunday ixcham va kuchli tuzilgan iboralar oson yodda qoladi va turli tillarda, turli madaniy muhitlarda uchraydi. “G‘oliblar hech qachon taslim bo‘lmaydi, taslim bo‘lganlar esa hech qachon g‘olib bo‘lmaydi” kabi iboralar bunga yorqin misoldir.

Xiyazm nutq vaziyatiga kuchli darajada bog‘liq bo‘lgan, muallifning individual uslubini yaqqol namoyon etuvchi murakkab stilistik hodisa sifatida qaraladi. U, odatda, semantik jihatdan zich va ifoda jihatidan ixcham bo‘lgan nutq birliklarida – aforizmlar, maqollar, frazeologik birikmalar, badiiy nasr namunalarida hamda, ayniqsa, obrazlilik va uslubiy intensivlik eng yuqori darajada namoyon bo‘ladigan she’riy matnlarda keng qo‘llaniladi. Bunday kontekstlarda xiyazm nafaqat sintaktik simmetriya vositasi, balki mazmuniy qarama-qarshilikni kuchaytiruvchi, muallif pozitsiyasini aniqlashtiruvchi va estetik ta’sirni oshiruvchi muhim ritorik mexanizm sifatida xizmat qiladi.

Обучающиеся мамлюки куттабийя это преимущественно несовершеннолетние рабы, принимающие участие в занятиях. Однако среди них встречались и те рабы, которые в своё время не были сочтены достойными освобождения. Система обучения выступала в роли жесткого фильтра. Государство тратило огромные средства на содержание тибаков (казарм), поэтому “выпускной билет” – “итоку” в элиту получали только лучшие. Это обеспечивало высокое качество командного состава армии.

Феномен «хушдашийя» сформировал среди мамлюков духовное братство, которое стояло выше кровного родства. Это позволило мамлюкам, составлявшим меньшинство в инородной среде (Египет и Шам), долгое время удерживать бразды правления.

Султанские военные школы (тибак) служили не только местом проведения боевых учений, но и функционировали как мощные идеологические и корпоративные центры. Цепь личной преданности, сформированная через систему отношений «наставник – ученик» и “старший брат– младший брат” (ага – ини), создала прочный политический фундамент страны.

В заключение следует отметить, что система мамлюков является уникальной моделью формирования профессиональной управленческой и военной элиты в истории средневековой восточной государственности, опыт которой и сегодня имеет большое значение для изучения истории государственного управления и социальных институтов.

Рекомендуется подготовить более полные переводы и комментированные издания трудов аль-Макризи, аль-Калкашанди, Ибн Тагриберди и других источников на арабском языке, а также активизировать поисковые работы в

Национальной библиотеке и архивах Узбекистана по новым находкам, относящимся к мамлюкскому периоду (вакфные документы, списки икта и др.).

Совместно с университетом Аль-Азхар и Каирским университетом Египта организовать международную конференцию или семинар на тему «Система образования мамлюков и её современное влияние». Это позволит шире представить опыт узбекистанских учёных на международной научной арене.

Результаты исследования рекомендуется внедрять в учебные программы вузов по дисциплинам «История исламской цивилизации», «Политические системы стран Востока» и «История военных организаций», включив их в виде специального модуля или семинарской темы для студентов. Это поможет молодому поколению извлекать уроки из исторического опыта и глубже понимать механизмы социальной мобильности.

СПИСОК ИСПОЛЬЗОВАННОЙ ЛИТЕРАТУРЫ:

1. Abd al-Fattoh Ashur. (1962). Al-mujtama‘ al-misri fi ‘asr salotin al-mamolik. – Qohira: Dor an-nahda al-arabiya.

2. Amitai D. (2006). The Mamluk Institution or One Thousand Years of Military Slavery in the Islamic World // Arming slaves: from classical times to the modern Age / edited by Christopher Leslie Brown and Philip D. Morgan. – New Haven; London: Yale University Press, 2006. – P. 42–53.

3. Ayalon D. (1975). Preliminary Remarks on the Mamluk Military Institution in Islam / in V. J. Perry and M. E. Yapp (eds.), War, Technology and Society in the Middle East. – London, 1975.

4. Hautecoeur G. Wiet. Les Mosquees du Caire. 2 Vol. – Cairo, 1932 – 623 p.

5. Hasan Ali Ibrohim. (1967). Tarix al-mamolik al-bahriyya. Qohira: maktabat an-nahda al-misriyya.

6. Jamol ad-din Abu al-Mahasin Ibn Taghri Birdi. (1992). Kitab an-nujum az-zahira fi muluk Misr va al-Qahira. Bayrut: Dar al-kutub al-‘ilmiya.

7. Mojid Abd al-Mun‘im. (1964-1967). Nuzum davlat salatin al-mamolik va rusumihim fi Misr. – 2 jildli. – Qohira: Maktabat al-anjalu al-misriya.

8. Muhammad ibn Ahmad ibn Iyyos. (1982). Kitob tarix Misr al-mashhur bi bado’‘i az-zuhur fi viqo’i ad-duhur. Qohira: Kutub al-Hay’a al-Misriya.

9. Shahabiddin al-Qalqashandiy. (1914-1919). Subh al-a’sha fi sinaot al-insho. Qohira: Dor al-Kutub.

10. Taqiy ad-Din al-Maqriziy. (2002). Kitob al-mavo‘iz va al-i‘tibor bi-zikr al-xutat va al-osor (T. II). Buloq: Kaston Viit.

11. Willam M. (1896). The Mameluke or Slave Dynasty of Egypt, 1260–1517 A.D. – London: Smith, Elder, & Co, 1896. – 316 p.

12. Xalil ibn Shahin az-Zohiriy. (1988). Zubdat kashf al-mamolik va bayon at-turuq va-l-masolik. – Qohira: Dor al-arab li-l-bustoniy, 1988. – 159 б.

13. Эсбридж Т. Крестовые походы. Войны Средневековья за Святую землю. – М., 2016. – С. 232.

14. Хасанов А.А. (1973). Формирование черкесской группировки мамлюков в Египте // Арабские страны, Турция, Иран, Афганистан. История, экономика. – М. – С. 158–166.

15. Хасанов А.А. (1975). Социально-политический строй мамлюкского Египта, при черкесских султанах (1382-1517). Автореферат дисс. на соиск. канд. ист. наук. – М.

16. Хотко С.Х. (1993). Черкесские мамлюки. – Майкоп.

17. Семёнова Л.А. Салах ад-Дин и мамлюки в Египте. – М., 1966. – С.

REFERENCES:

1. Abd al-Fattoh Ashur. (1962). Al-mujtama‘ al-misri fi ‘asr salotin al-mamolik. – Qohira: Dor an-nahda al-arabiya. (In Arabic)

2. Amitai D. (2006). The Mamluk Institution or One Thousand Years of Military Slavery in the Islamic World // Arming slaves: from classical times to the modern Age / edited by Christopher Leslie Brown and Philip D. Morgan. – New Haven; London: Yale University Press, 2006. – P. 42–53. (In English)

3. Ayalon D. (1975). Preliminary Remarks on the Mamluk Military Institution in Islam / in V. J. Perry and M. E. Yapp (eds.), War, Technology and Society in the Middle East. – London, 1975. (In English)

4. Hautecoeur G. Wiet. Les Mosquees du Caire. – 2 Vol. – Cairo, 1932 – 623 p. (In French)

5. Hasan Ali Ibrohim. (1967). Tarix al-mamolik al-bahriyya. Qohira: maktabat an-nahda al-misriyya. (In Arabic)

6. Jamol ad-din Abu al-Mahasin Ibn Taghri Birdi. (1992). Kitab an-nujum az-zahira fi muluk Misr va al-Qahira. Bayrut: Dar al-kutub al-‘ilmiya. (In Arabic)

7. Mojid Abd al-Mun‘im. (1964-1967). Nuzum davlat salatin al-mamolik va rusumihim fi Misr. – 2 jildli. – Qohira: Maktabat al-anjalu al-misriya. (In Arabic)

8. Muhammad ibn Ahmad ibn Iyyos. (1982). Kitob tarix Misr al-mashhur bi bado’‘i az-zuhur fi viqo’i ad-duhur. Qohira: Kutub al-Hay’a al-Misriya. (In Arabic)

9. Shahabiddin al-Qalqashandiy. (1914-1919). Subh al-a’sha fi sinaot al-insho. Qohira: Dor al-Kutub. (In Arabic)

10. Taqiy ad-Din al-Maqriziy. (2002). Kitob al-mavo‘iz va al-i‘tibor bi-zikr al-xutat va al-osor (T. II). Buloq: Kaston Viit. (In Arabic)

11. Willam M. (1896). The Mameluke or Slave Dynasty of Egypt, 1260–1517 A.D. – London: Smith, Elder, & Co, 1896. – 316 p. (In English)

12. Xalil ibn Shahin az-Zohiriy. (1988). Zubdat kashf al-mamolik va bayon at-turuq va-l-masolik. – Qohira: Dor al-arab li-l-bustoniy, 1988. – 159 b. (In Arabic)

13. Esbrij T. (2016). Krestovye poxody. Voyny Srednevekovya za Svyatuyu zemlyu. – M., 2016. – S. 232. (In Russian)

14. Xasanov A.A. (1973). Formirovanie cherkesskoy gruppirovki mamlukov v Egipte // Arabskie strany, Turtsiya, Iran, Afganistan. Istoriya, ekonomika. – M. – S. 158–166. (In Russian)

15. Xasanov A.A. (1975). Sotsialno-politicheskiy stroy mamlukskogo Egipta, pri cherkesskix sultanax (1382-1517). Avtoreferat diss. na soisk. kand. ist. nauk. – M. (In Russian)

16. Xotko S.X. (1993). Cherkesskie mamluki. – Maykop. (In Russian)

17. Semyonova L.A. (1966). Salax ad-Din i mamluki v Egipte. – M., 1966. – S. (In Russian)

XIX ASR IKKINCHI YARIMIDA TURKISTONDA MAHALLIY TADBIRKORLARNING YANGI AVLODINING SHAKLLANISHI

THE FORMATION OF A NEW GENERATION OF LOCAL ENTREPRENEURS IN TURKESTAN IN THE SECOND HALF OF THE 19TH CENTURY

ФОРМИРОВАНИЕ НОВОГО ПОКОЛЕНИЯ МЕСТНЫХ ПРЕДПРИНИМАТЕЛЕЙ В ТУРКЕСТАНЕ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX ВЕКА

https://zenodo.org/records/19260636

Tayronov Yoqubjon Rapiqovich
Nizomiy nomidagi O‘zbekiston milliy pedagogika universiteti Tarix kafedrasi mudiri, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Tel.: 998 93-532-73-32
E-mail: yoqubjon.tayronov@bk.rutel

Annotatsiya. Ushbu maqolada XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston Rossiya imperiyasining mustamlakasiga aylangandan keyin, mintaqada mahalliy tadbirkorlarning jamiyat taraqqiyotiga qo‘shgan o‘rni, ularning savdo ishlari, o‘lkadan tashqarida olib borgan savdo ishlari bayon etilgan. Shuningdek, hukmron ma’muriyati mahalliy madaniyat va qadriyatlarga hurmatsizlik ko‘rsatish bilan birga ularning faoliyatini cheklashga urinsa-da, lekin o‘lkada vujudga kelgan bozor munosabatlari va sanoat taraqqiyoti ta’sirida yirik savdogar va sanoatchilar (Tojimuhammad Isammuhammad o‘g‘li, Saidkarim Sayida’zimboy o‘g‘li, Mirkomil Mo‘minboev, aka-uka O‘rinboyevlar, S.I. Nazarov va boshqalar) shakllangan. Ular paxta tozalash, ko‘nchilik, g‘isht va boshqa sohalarda korxonalar ochib, hatto Yevropa bozorlarida faoliyat yuritdi. Mustamlakachilik siyosati milliy boylarning faoliyatiga to‘siqlar qo‘ydi, ammo shunga qaramasdan ular jamiyatda faol bo‘lib, yurt taqdiri, yoshlar kelajagi uchun kurashdilar va bu borada jadidlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatladilar.

Kalit so‘zlar: *tadbirkorlik, savdo-sotiq, sarmoyador, zavod va fabrikalar, Turkiston, mustamlakachilik, milliy tadbirkorlar, sanoat rivoji, paxta tozalash, tadbirkorlar qatlami, rus ma’muriyati, yirik boylar.*

Abstract. This article describes the role of local entrepreneurs in the development of society in the region, their trade activities, and their trade activities outside the country after Turkestan became a colony of the Russian Empire in the second half of the 19th century. Also, although the ruling administration tried to limit their activities, showing disrespect for local culture and values, under the influence of market relations and industrial development that emerged in the country, large merchants and

industrialists (Tajimuhammad Isammuhammad oglu, Saidkarim Sayida'zimboy oglu, Mirkomil Mominbaev, the Orinbaev brothers, S.I. Nazarov, etc.) were formed. They opened enterprises in cotton ginning, tanning, brick and other industries, and even operated in European markets. Colonial policies placed obstacles to the activities of national intellectuals, but despite this, they remained active in society, fought for the fate of the country and the future of its youth, and provided comprehensive support to the jadids in this regard.

Keywords: *entrepreneurship, trade, investors, factories and mills, Turkestan, colonialism, national entrepreneurs, industrial development, cotton ginning, entrepreneurial class, Russian administration, big businessmen.*

Аннотация. В данной статье описывается роль местных предпринимателей в развитии общества региона, их торговая деятельность, а также их торговая деятельность за пределами страны после того, как Туркестан стал колонией Российской империи во второй половине XIX века. Кроме того, несмотря на попытки правящей administratsii ограничить их деятельность, проявляя неуважение к местной культуре и ценностям, под влиянием рыночных отношений и промышленного развития, возникших в стране, сформировались крупные купцы и промышленники (Таджимухаммад Исаммухаммад оглу, Саидкарим Сайидазимбой оглу, Миркомил Моминбаев, братья Оринбаевы, С.И. Назаров и др.). Они открывали предприятия по хлопкоочистке, кожевенному производству, кирпичному и другим отраслям, и даже работали на европейских рынках. Колониальная политика ставила препятствия для деятельности natsionalной интеллигенции, но, несмотря на это, они оставались активными в обществе, боролись за судьбу страны и будущее её молодёжи, и оказывали всестороннюю поддержку джадидам в этом отношении.

Ключевые слова: *предпринимательство, торговля, инвесторы, фабрики и заводы, Туркестан, колониализм, natsionalные предприниматели, промышленное развитие, хлопкоочистка, предпринимательский класс, российская administratsiя, крупные капиталисты.*

KIRISH

O‘lka butunlay bosib olingandan keyin hukmron rus ma’muriyati o‘z maqsadi yo‘lida barcha sohalarda o‘zgarishlar qilib, mintaqaning har tomonlama tanladi. Ular mahalliy millat manfaatlariga hurmatsizlik ko‘rsatib, ularning madaniyati, urf-odatlari, qadriyatlarini oyoq osti qildi va xalqning siyosiy, huquqiy ongini o‘sishiga, ma’naviy-ma’rifiy boyishiga qattiq qarshilik qildi. Shuningdek, ayrim borada milliy tadbirkorlar sinfining shakllanishi va rivojlanishiga ham to‘sqinliklar qilib, ular faoliyatini cheklashga urindi. Lekin, o‘lkada vujudga kelgan tarixiy shart-sharoit va ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyat sarmoyadorlar qatlamining o‘sib borishiga zamin yaratdi.

Mustamlaka sharoitida bozor munosabatlari hamda sanoat taraqqiyoti ortidan o‘z mehnatlari evaziga mablag‘ to‘plagan sanoatchi boylar kirib keldi. Shu bilan birga o‘lkada mol-mulklari ota-bobolaridan meros bo‘lib, katta-katta yerlar va joylardagi ko‘chmas mulklarga ega tadbirkorlar ham bor edi. Ular ulgurji savdo-sotiq ishlari bilan shug‘ullanish orqali mablag‘larini orttirish bilan birga merosiy mulklaridan ham katta foyda olishgan. XIX asrning ikkinchi yarmidan sharoit taqozosi bilan ularning ko‘pchiligi yirik savdo-sanoat egalariga aylangan. Mirkomil Mo‘minboyev, Mullo Abdulloh Muhammedov, Bobojon Sarimsoqov, Ahmadjon Yusufboyev, Nig‘matulla Xo‘jayevlar shular jumlasidandir . Ular nafaqat mintaqada balki, chet ellarda ham samarali savdo faoliyatlarini olib borishgani manbalarda o‘z aksini topgan. Masalan, Mirkomil Mo‘minboev asosiy savdo muomalasini chet el banklari va firmalari bilan, toshkentlik yirik sarmoyador Tojimuhammad Isomuhammad o‘g‘li Parij, London shaharlaridagi yarmarkalarda ishtirok etib, yevropalik savdogarlar bilan savdo aloqalarini o‘rnatdi (Turkiston viloyatining gazeti, 1900-yil, 45-46-47-sonlari).

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili uch bosqichda amalga oshirildi. Xususan, dissertatsiyalar, arxiv materiallari va ilmiy monografiyalar chuqur tahlil qilindi. Masalan, R.A. Yo‘ldashevning (1994) avtoreferati milliy tadbirkorlarning shakllanish jarayonini tahlil qiladi. Muallif arxiv materiallariga tayangan holda, bir qator sarmoyadorning chet el savdo aloqalarini yoritadi va ularning rus ma’muriyati tomonidan cheklanishini ko‘rsatadi. Ishning kuchli tomoni – statistik ma’lumotlar (masalan, 1915-yilga kelib 753 ta korxona) va manbalar ro‘yxati alohida ko‘rsatib o‘tiladi.

N.Yu. Patapovaning (История предпринимательства в Туркестане (второя половина XIX-начало XX вв.), Автореф. дис. ... канд. ист. наук –Т., 2002) avtoreferati tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy kontekstini o‘rganadi. Muallif o‘lkada paxta sanoati va ko‘nchilikdagi mahalliy korxonalar va ularning egalari (masalan, Mirkomil Mo‘minboev, Mullo Abdulloh Muhammedov, Bobojon Sarimsoqov, Ahmadjon Yusufboev, Nig‘matulla Xo‘jaevlar) haqida batafsil ma’lumot beradi.

Shuningdek, Кастелскаянинг З.Д. “Из истории Туркестанского края” (1980) kitobi rus mustamlakachiligi davridagi sanoat rivojini yoritadi. Muallif Toshkentdagi birinchi suv tegirmoni (1867) va ko‘n zavodlari (Xuludov M.A., 1868) haqida arxiv ma’lumotlariga asoslanib, rus va mahalliy tadbirkorlar o‘rtasidagi raqobatni tahlil qiladi. Kitobning afzalligi – geografik va xronologik yondashuv, ammo mahalliy millat vakillarining hissasini kam baholash sovet ideologiyasining izi sifatida ko‘rinadi. A.I. Dobrosmislov “Ташкент прошлом и настоящем” asarida (1911) shahardagi savdo va sanoat korxonalarini tasvirlaydi. Bu ish birlamchi manba sifatida qimmat, lekin rus markazi nuqtayi nazar tufayli obyektiv emas. M. Babaxonov (1970) Shimoliy

Tojikiston (Turkistonning bir qismi)da paxta va teri savdosini o‘rganadi. Muallif mahalliy tadbirkorlarning Yevropa bozorlariga chiqishi (masalan, Arabov aka-ukalari)ni ta’kidlaydi, ammo sinfiy kurash nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. N. Musayevning “Turkistonda sanoat ishlab chiqarishning vujudga kelishi” (1999) monografiyasi mahalliy korxonalar soni va ularning texnologik orqada qolishini yoritadi.

“Turkiston viloyatining gazeti” (1900, №45-47; 1916, №8) va “Sadoi Turkiston” (1914, №3) gazetalari jadid maktablari yopilishi va milliy matbuotga yordam haqida xabar beradi. Mir Muhsinning “Milliy matbuot” (1916) maqolasi mustamlakachilik cheklovlarini tanqid qiladi. Zamonaviy jurnallarda D. Ziyoyevaning “O‘zbekiston tarixi” (2009, №1) maqolasi Toshkentdagi ma’muriy o‘zgarishlarni tahlil qiladi. Akrom Akmal o‘g‘lining “Sharq yulduzi” (1992, №5) maqolasida Mirkomil Mo‘minboy haqida batafsil ma’lumot beradi. Ushbu maqolalar mavzuning ijtimoiy jihatini yoritadi, ammo ularning ko‘pchiligi publitsistik xarakterda va ilmiy dalillarga kamroq tayangan.

O‘zR Milliy Arxivi materiallari (masalan, 1-jamg‘arma, 16-ro‘yxat, 1932-hujjat; 36-jamg‘arma, 1-ro‘yxat, 3167-hujjat) korxonalar daromadlari va shartnomalari (masalan, 1872-yildagi g‘isht yetkazib berish shartnomasi) haqida batafsil ma’lumot beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ilmiy yondashuv sifatida tarixiy-ijtimoiy metodologiyaga asoslangan bo‘lib, tarixiy tahlil va kontent-tahlil usullari qo‘llanildi. Shuningdek, statistik analiz-sintezdan ham foydalanildi. Bu yondashuv mavzuning murakkabligini hisobga olgan holda tanlangan: bir tomondan, tarixiy manbalarni tahlil qilish orqali kontekstni ochib berish, ikkinchi tomondan, statistik ma’lumotlar (masalan, korxonalar soni, daromadlar) orqali iqtisodiy o‘sish dinamikasini ko‘rsatish.

TAHLIL VA NATIJALAR

XIX asrning ikkinchi yarimida o‘lkaning yirik shaharlarida Rossiya imperiyasining boshqa millatga mansub tadbirkorlarining sanoat korxonalari paydo bo‘la boshladi. Masalan, Toshkent shahrida 1867-yilda birinchi Yevropa tipidagi suv tegirmoni qurilgan bo‘lsa, uning ikkinchisi, kapitan Kukurin tamonidan 1868-yilda ishga tushirildi. Yana shu yilda sanoat egasi M. A. Xuludov shaharda birinchi bo‘lib, Solor arig‘i bo‘yida ko‘n zavodini qurgan va 1877-yilda esa Kunaysev tomonidan uning ikkinchisi barpo etilgan. Bularning ta’sirida 1886-yil shaharning eski qismida savdogar Y. Karimboyev ham xuddi shunday ko‘n zavodini qurib ishga tushirgan. 1879-yilda esa yana bir mahalliy ishbilarmonlardan S.I. Nazarov birinchi bo‘lib paxta tozalash zavodini qurishga muvaffaq bo‘ldi (O‘zR MA 1., 1932:13). Shu tarzda mintaqadagi rus sanoatchilari ta’sirida yirik mahalliy savdogarlar, sanoatchi boylar

guruhi shakillana boshladi. Ularning ayrimlarining hatto, Peterburgda, Gelsingforse kabi shaharlarda alohida firmalari bor edi (Кастелская З.Д., 1980:65).

Bulardan tashqari Turkistonda tamaki, gugurt, shoyi to‘qish, sovun, g‘isht, yog‘-moy, karton, sham, yelim, pilla quritish fabrika va zavodlari, bosmaxonalar tashkil etilib, ular soni 1915-yilga kelganda Turkistonning uch viloyatida (Sirdaryo, Farg‘ona, Samarqand) 753 taga yetgan va bu korxonalarning ko‘pchiligi mahalliy millat tadbirkorlariga tegishli edi (O‘zRMA 1., 1526:2). Ammo ularning korxonalari dastlabki vaqtlarda oddiy ko‘rinishga ega bo‘lib, mehnat unumdorligi ham yuqori emasdi. Birgina, Toshkent shahrining eski qismida yillik daromadi 282000 rublga teng mahalliy ishbilarmonlarga qarashli 598 ta korxona mavjud bo‘lgan. Ammo ular rus sanoatchilarining korxonalariga nisbatan kam mahsulot ishlab chiqarar va daromadi ham oz edi. Buning sababi rus ishbilarmonlariga qarashli zavodlar zamonaviy texnika vositalari bilan to‘liq ta’minlanganligida edi. Garchi rus sanoatchilari shahar umumiy savdogarlarining ichida kamchilikni tashkil qilsa-da, lekin olayotgan foydalari yuqori bo‘lgan. 1889-yilda shaharda jami 42642 kishi savdo bilan shug‘ullangan bo‘lsa, shulardan atiga 1206 kishigina rus millatiga mansub edi (O‘zRMA 1., 3167:207). Bu raqamda mayda savdogarlar, baqqollar, bozorlardagi savdo ahllari ham hisobga olingan.

XIX asr oxirlarida Toshkent shahridagi ishbilarmon savdogarlar orasida mahalliy millat vakillarining salmog‘i ortib borib, sanoatchi-boylarga aylanish jarayonlari jadal kechdi. Masalan, aka-uka O‘rinboyevlar, Shosolixovlar qisqa vaqt ichida millionchi boylarga aylandi va mazkur vaqtda ularning qo‘l ostida 190 ta turli hajmdagi savdo va hunarmandchilik korxonalari bor edi. (Добросмыслов А.И., 1911:398). Shuningdek, A.Abdumalikboyev hamda uning bu savdo borasidagi hamkori M.Rasulmuhammedovlarning bir yillik pul aylanmasi 500000 rubldan 1 milliongacha bo‘lgan yirik zavodlari ham mavjud edi (Добросмыслов А.И., 1911:398). Buning ta’sirida mahalliy sarmoyadorlarning aksariyati o‘z mablag‘larini yangi zavod va fabrikalar qurishga sarfladilar. Masalan, 1884-yilgi ma’lumotlarga qaraganda toshkentlik savdogar Badalboy Karimboyev va Mira’zam Mirayupovlarning bir yilda 30 ming rubllik mahsulot ishlab chiqaradigan ko‘n zavodlarini, Tojiboy va Yoqubjon Yusupovlar esa g‘isht korxonalarini faoliyatini yo‘lga qo‘ygan edi (Заорская В.В. и Александерь К.А., 1915:58) G‘isht zavodlari mintaqaga ruslar kirib kelmasdan ilgari ham mavjud bo‘lib, ularga talab u qadar katta emasdi. Lekin o‘lkada yangi shaharlarning vujudga kelishi va u yerda qad rostlayotgan aholi uylari hamda hukumat binolarining g‘ishtdan qurilishi ushbu borada yangi izlanishlarga zamin yaratgan. Natijada XX asr boshlarida mahalliy ishbilarmonlar orasida ham bu sohaga alohida ahamiyat qaratilib, bir necha g‘isht korxonalarining egalari vujudga keldi. Masalan, Toshkentdagi Parkent ko‘chasida sarmoyador Saidkarim Saidazimboy o‘g‘liga tegishli

mazkur tipdagi zavod keng faoliyat olib borgan edi (Канопка С.Р., 1913:4). Endi mahalliy ishbilarmonlar yevropacha usulda g‘isht pishirishni o‘rganib olib, yangi shaharlarning g‘ishtga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlay oladigan korxonalar qurishga kirishdi. Yirik davlat miqyosidagi tashkilotlar ham mahalliy ishbilarmonlar bilan bu borada o‘zaro shartnomalar tuzishga harakat qilgan edilar. Masalan, 1872-yilda “Yarmarka va karvonsaroylarni tashkil etish qo‘mitasi” tadbirkor Mulla Abduraim bilan yaxshi pishirilgan g‘ishtlarni yetkazib berish yuzasidan shartnoma imzolagan edi (O‘zRMA 1., 340:29). Keyinchalik bu kabi zavod egalari o‘z korxonalarining faoliyatini kengaytirib, keng jamoatchilikka xizmat qilgan va bu xalqqa ma’lum bo‘lishi uchun milliy matbuot sahifalariga reklamalar berib borgan. Masalan, Samarqanddagi tadbirkorlardan biri Xoji Abdulqodir usta Muhammad Boqi o‘g‘lining g‘isht va koshin zavodida arzon baholarda g‘isht va koshinlar sotilishi “Samarqand” gazetasida e’lon qilingan edi. Shuningdek, unda madrasa va maktablarga moddiy yordam sifatida oluvchilarga, xayriya imoratlari uchun va ulgurji oladigan xaridorlarga yanada arzonroq sotilishi ham ma’lum qilingan. Bundan ko‘rinadiki, g‘isht pishiradigan zavodlar yil sayin takomillashib, o‘z mijozlariga ega bo‘lib borgan. Ammo, shuni qayd etish joizki, o‘lkada bu xildagi zavodlar boshqa (paxta tozalash va qayta ishlash, yog‘, moy, ko‘n kabi) sanoat korxonalariga nisbatan keng yoyilmagan edi. Misol uchun 1915-yilgacha butun Turkistonda jami 20 ta (Farg‘ona viloyatida 9 ta, Sirdaryo viloyatida 7 ta va Samarqand viloyatida esa 4 ta) g‘isht zavodlarining mavjudligi fikrimiz tasdig‘idir (Мусаев Н. 1999:85). Demak, Muhammad Boqi o‘g‘lining Samarqanddagi g‘isht va koshin zavodi viloyatdagi 4 ta shu kabi korxonaning bittasi bo‘lgan. Yangi shaharlarda qad ko‘targan imoratlarning barchasini loyihalashtirishda mahalliy an’analardan foydalanilgan edi (Зиёева Д., 2009: 50).

Mazkur vaqtda Toshkentda ham sanoatchilar miqdori ortib borganki, ularning safiga Ramazon Qozoqov va Mulla Nurmuhammedovlarning ham kiritish mumkin. Chunki, ularning ham yiliga 20 ming so‘mlik mahsulot ishlab chiqaradigan terini oshlash va qayta ishlash zavodlari bor edi. Shuningdek, Rahmatbobo Holboboyev, Xo‘jaahmad Abdujabborov, Inog‘ombobo Roziqboyev, Ashur Bobojonov kabi ko‘n zavodi egalarini ham ular qatoriga kiritish maqsadga muvofiqdir. Arxiv manbalariga tayangan holda ularning ishlab chiqargan mahsulotlariga qarab quyidagi 3 guruhga ajratish mumkin: birinchi, yirik korxonalar bo‘lib, unga Mira’zam Mirayupov va Mulla Nurmuhammedovlarning zavodlarini kiritish mumkinki, ularning yillik ishlab chiqargan mahsuloti 30 ming so‘mdan ortiq edi. Ikkinchi o‘rtacha korxonalar bo‘lib, unga Badalboyev, Roziqboyev, Abdujabborov, Holboboyev kabi sanoatchilarning zavodlarini kiritish mumkin. Ularning ishlab chiqargan mahsulotlari bir yilda 10 ming rubldan 20 minggachani tashkil etar edi. Uchinchi guruhni Ashurboy va Qosimboy

kabilarning mayda korxonalari tashkil etib, ularning yillik daromadlari 5 mingdan 10 ming so‘mgachani tashkil etgan.

Bundan tashqari teri savdosi bilan shug‘ullanib katta daromad orttirgan toshkentlik savdogarlar ham bo‘lganki, ular nafaqat mintaqada balki, Yevropa bozorlarida ham o‘z mollarini sotishga muvaffaq bo‘lishgan edi. Masalan, aka-uka Arabovlar va Ubaydulla Qosimxo‘jayevlar har yili 300 mingtagacha, Latif Qosimxo‘jayev esa 100 000 dona teri mahsulotlarini Yevropa bozorlariga jo‘natib turar edilar (Кастельская З.Д., 1980:177.) Bundan ma’lum bo‘ladiki, mustamlakachilik rejimi sharoitida ham mahalliy tadbirkorlar, xususan, ko‘nchilik bilan shug‘ullangan ishbilarmonlar Yevropa bozorlarida o‘z mollarini sotishib sarmoyalarini orttirgan. Biroq, ularning bu faoliyatlarini yanada kengayishiga hukmron doira vakillari qarshilik qilishar edi. Buning sababi sifatida shuni ko‘rsatish mumkinki, birinchidan, yerli tadbirkorlarning g‘arb sarmoyadorlari bilan aloqalari nisbatan mushkullik bilan qo‘lga kiritilgan O‘rta Osiyo masalasi uchun xavf tug‘dirardi hamda Buxoro va Xiva davlatlari hali to‘liq bo‘ysundirilmagan edi, ikkinchidan, mahalliy savdogarlarning Yevropa bozorlariga chiqishlari ularning shaxsiy boyliklarining ortishiga va dunyoqarashining kengayishiga olib kelar edi. Natijada millatparvar mulkdorlar o‘z xalqi manfaati uchun turli ijtimoiy yordamlar berishga, aholini ortlaridan ergashtirib, ozodlik, mustaqillik uchun kurashga chorlashi mumkin edi. Bunday holatni istamagan ma’muriyat vakillari imkon darajasida ularning bu boradagi faoliyatlariga to‘sqinliklar qilardi. Odatda bunday qarshiliklar quyidagi ko‘rinishlarga ega bo‘ladi;

- turli bo‘htonlar va bahonalar bilan qamoqqa olish. Misol uchun, 1860-yilda Andijon shahrida boy savdogar oilasida tug‘ilgan va XIX asrning 80- yillarida yer-suv, katta paxta maydonlariga ega bo‘lib, yirik shaxsiy boylik to‘plagan, bir qator chet el firmalari hamda banklari bilan aloqada bo‘lgan, XX asr boshlarida 13-15 million so‘m jamg‘argan Mirkomil Mo‘minboyev 1915-yil oktyabrida bo‘hton bilan qamalgan va surgun qilingan. Lekin tadbirkorlik qilib 1916-yilning boshlarida rus armiyasini qurollantirish uchun 500 ming so‘m berish sharti bilan ozod qilingan va Andijonga qaytgan. Ammo hech qancha vaqt o‘tmay 1917-yil boshlarida “Sho‘roi Islomiya” jamiyatining faol ishtirokchisi – deb to‘qilgan bo‘htonga asoslanib muvaqqat hukumatning o‘lkadagi vakillari tomonidan qamoqqa olingan va 1918-yilda otib tashlangan (Шамсутдинов Р., Бозоров Қ., 2008: 109-149)

- mahalliy gazeta va jurnallarga moddiy yordam berganlarni jazolash, mol-mulkini musodara qilish. Masalan, “Taraqqiy”, “Xurshid”, “Shuhrat” va boshqa ma’rifatparvarlar tomonidan asos solingan, millatning ko‘zgusi hisoblangan, ammo o‘zining maqolalari bilan hukumatga qarshi, deb e’trof etilgan matbuotlarga iqtisodiy

ko‘mak bergan mahalliy tadbirkorlarga turli cheklovlar joriy etilgan edi (Мир Муҳсин., 1916, №8, 28 январь)

- jadidlarning yangi usul maktablarining ta’minotchilariga, ularning taraqqiysi uchun mablag‘lar ajratgan savdogarlar ham turli “qog‘ozda yozilmagan” choralarga duchor etilar edi. Chunki, bunday ta’lim maskanlarida xalq bolalariga diniy bilimlar bilan birga dunyoviylari ham o‘rgatilar, madrasalarda talaba bo‘lganlaridan so‘ng esa chet ellarga (Germaniya, Turkiya kabi mamlakatlarga) o‘qishga yuborilar, bunday hollarda dunyoqarashi keng tadbirkorlar ularga moddiy jihatdan suyanchiq bo‘lishar edi. Ular yurtlariga qaytganlaridan keyin rus hukumatining siyosatiga qarshi chiqishib, xalqini vatan ozodligiga chorlashi mumkin edi. Shu boisdan chor ma’muriyati jadid maktablarining faoliyatiga imkon darajasida qarshilik qilishga intilgan va ularni yopish uchun bahonalar qidirgan. Masalan, 1914-yilda Marg‘ilon shahrida Qodirqori Shohakimov, Mullo Abdulqodir va Mullo Nishonboylarning yangi usuldagi maktablari ruxsatnomasi yo‘qligi bahona qilinib yopib qo‘yilgan. Shu taxlitda rus ma’muriyati tadbirkorlar, sarmoyadorlarning erkin faoliyat olib borishlariga qarshiliklar qilgan. Ayniqsa, millat manfaati uchun o‘zlarining moddiy yordamlarini ayamagan ishbilarmonlar hukumatning maxfiy hujjatlarida alohida o‘ringa ega bo‘lishar edi.

O‘rta Osiyoga kirib kelgan ruslar paxtaga xom ashyo sifatida qarab, ushbu sohaning rivojlanishi va shakllanishini ta’minlagan edi. Shuning uchun Turkistonda ham aksariyat sanoat korxonalari dastavval paxta tozalash va qayta ishlash zavodlari sifatida qaror topdi. Ko‘plab rus sanoatchilari o‘zlarining asosiy mablag‘larini paxta sanoatiga sarflashib katta foyda ola boshladi. Buning ta’sir doirasida esa mahalliy millat vakillari ichidan ham mazkur soha bilan shug‘ullanuvchi sanoat egalari shakllanib bordi. Bu haqida mahalliy tarixchilardan biri Mullo Olim Mahmudhoji o‘zining “Turkiston tarixi” asarida shunday ta’kidlagan edi; “...musulmonlarimizdin ham sanoat korxona egalari-zavodchilar yetishib chiqdi, bular o‘z korxonalaridan katta foyda olmoqdalar” (Мулло Олим Маҳмудхожи., 1915:166). Bu kabi sanoatchilar rus adabiyotlarida “paxtachi boy” deb atalib, ularning eng yiriklari har birida to‘rt-beshtadan paxta tozalash zavodlari bo‘lgan M. Mo‘minboyev, R. Nazarboyev, A. Temirboyevlar edi. Shuningdek, namanganlik tadbirkor S. Hudoyorbekovning Namangan, To‘raqo‘rg‘onda va Andijon shaharlarida shu kabi zavodlari mavjud edi (Бабаханов М., 1970:110).

Birinchi paxta tozalash zavodiga 1879-yilda Toshkent shahrida ishbilarmon S.I. Nazarov tomonidan asos solingan edi va unda 110 arrali 6 ta jun (paxta tozalash) mashinasi bo‘lgan va bular bug‘da, arralari esa qo‘lda harakatga keltirilar va jami 12 kishi ishlar edi. Bunday korxonalar Qo‘qonda Madrahim Po‘latov, Samarqandda Azizxon Najmiddinov, Marg‘ilonda Mirza Qosimovlar tomonidan ham ketma-ket barpo etilgan edi. Shundan keyin ko‘pchilik mahalliy savdogarlar paxta zavodlari

qurishga kirishib, u yerlarda talab darajasidan kelib chiqqan holda mahsulotlar ishlab chiqarishga intilgan. Masalan, 1885-yilda toshkentlik tadbirkor Shobek Hakimboyevning Ko‘kcha dahasidagi paxta tozalaydigan zavodida 3 ta jun, paxta toylaydigan 1 ta uskuna, 1 ta suv dvigateli, 11 ishchisi bo‘lgan va 1891-yilda ushbu korxonada 68400 so‘mlik mahsulot tayyorlangan. Yana bir ishbilarmon Yo‘lchiboy To‘ychiboyevning ham xuddi shu dahadagi paxta tozalaydigan zavodida 1891-yilning besh oyida 8500 pud paxta tozalangan, ya’ni har bir oyda o‘rtacha 1700 puddan. Agar shunday bo‘lsa, ushbu korxona 12 oy davomida 20400 pud paxta tozalagani ma’lum bo‘ladi. Shuningdek, shaharning Shayxontohur dahasida sanoatchi tadbirkor Mulla Aminboyning ham paxta tozalash korxonasi bo‘lib, unda 1892-yilning o‘zida 60 ming 10000 rubllik paxta tozalangan edi. Va Isobek Hakimboyevning shunday zavodida ham shu yilning 9 oyi davomida 68400 so‘mlik paxta qayta ishlangan edi (O‘zRMA 36., 3822:23). Bundan tashqari toshkentlik savdogarlar Turkistonning turli viloyat markazlari va shaharlarida ham paxta zavodlari barpo etishgan. Masalan, I.Abdurahmonov Xo‘jand shahrida shu xildagi korxona ochgan va 1891-yilda bu yerda 35 000 pud tola tayyorlanib, 70000 so‘mga teng bo‘lgan edi. Shu bilan birga xo‘jandlik savdogar Alimboyevning shu kabi zavodida bir mavsumda 14 000 pud tola, Iskandar Mirzaumarovning korxonasida esa bir mavsumda 6 ming pud paxta tozalanib, 1800 pud tola tayyorlangan va u 12600 rublni tashkil etgan edi. Va yana Niyozmuhammedovning paxta zavodida esa 13300 pud paxta tozalanib, 28 000 rubllik 4000 pud tola hozirlangan (Бабаханов М.,1970:110). Lekin, mahalliy sanoat egalari tomonidan barpo etilayotgan bu kabi korxonalarning miqdori yil sayin ortib borgan bo‘lsa-da, bu vaqtda ham ular zamonaviy texnologiyalar bilan ta’minlanishda rus sarmoya egalarinikidan orqada edi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Turkistonda rus mustamlakachiligi sharoitida milliy tadbirkorlar sinfining shakllanishi va sanoat rivojining asosiy jihatlarini yoritishga qaratildi. Mustamlaka ma’muriyati mahalliy madaniyat, urf-odatlar va qadriyatlarga hurmatsizlik ko‘rsatib, milliy sarmoyadorlarning faoliyatini cheklashga urinsa-da, bozor munosabatlari va sanoat taraqqiyoti ta’sirida yirik savdogar va sanoatchilar vujudga keldi. Ular paxta tozalash, ko‘nchilik, g‘isht ishlab chiqarish va boshqa sohalarda korxonalar ochib, hatto Yevropa bozorlarida savdo aloqalarini o‘rnatdi. Rus sanoatchilari zamonaviy texnologiyalar ustunligi bilan yuqori daromad oldi, ammo mahalliy korxonalar texnologik orqada qolganligi sababli raqobatda zaiflashdi. Mustamlakachilik siyosati qamoqqa olish, moddiy yordamni jazolash va jadid maktablarini yopish kabi to‘siqlar orqali milliy boylarning faoliyatiga qarshilik qildi, natijada millatparvarlik va mustaqillik g‘oyalari kuchaydi.

Kelgusida mavzuni chuqurlashtirish uchun quyidagi ***takliflar*** beriladi:

- Turkistonni Buxoro va Xiva xonliklari bilan solishtirib, mustamlaka siyosatining mintaqaviy farqlarini o‘rganish. Bu uchun chet el arxivlari (masalan, Buyuk Britaniya va Turkiya arxivlari) jalb etilishi mumkin.

- Arxiv materiallarini raqamlashtirish va GIS texnologiyalari orqali korxonalar geografiyasini xaritalashtirish.

- Milliy tadbirkorlikdagi ayollar roli va quyi qatlamlar hissasini o‘rganish, chunki mavjud adabiyotlar asosan yirik boylarga e’tibor qaratgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Акром Акмал ўғли (1992). Миркомилбой қандай шахс эди? // Шарқ юлдузи. №5. Б.88.

2. Бабаханов М. (1970). Социально-экономическое положение Северного Таджикистана накануне Октября. Душанбе. Б.110.

3. Добросмыслов А.И. (1911). Ташкент прошлом и настоящем. Т. С.398.

4. Заорская В.В., Александерь К.А. (1915). Промышленные заведения Туркестанского края. Пг. С.58.

5. Зиёева Д. (2009). XIX аср охири – XX аср бошларида Тошкент шаҳридаги маъмурий – ҳудудий ва ижтимоий ўзгаришлар // Ўзбекистон тарихи. №1. Б.50.

6. Кастельская З.Д. (1980). Из истории Туркестанского края. М. С.65, 177.

7. Канопка С.Р. (1913). Туркестанский край (Торгово-промышленный отдел). Т. С.4.

8. Маҳаллий хабарлар (1914). Мактаблар ёпилмиш // Садои Туркистон. №3, 17 апрель.

9. Мир Муҳсин (1916). Миллий матбуот // Туркистон вилоятининг газети. №8, 28 январь.

10. Мусаев Н. (1999). Туркистонда саноат ишлаб чиқаришнинг вужудга келиши. Т. Б.85.

11. Мулло Олим Маҳмудхожи (1915). Тарихи Туркистон. Т. Б.166.

12. Патапова Н.Ю. (2002). История предпринимательства в Туркестане (вторая половина XIX – начало XX вв.): Автореф. дис. ... канд. ист. наук. Т. Туркистон вилоятининг газети (1900). №45, 46, 47.

13. Юлдашев Р.А. (1994). Формирование национальной буржуазии в Туркестане (конец XIX – начало XX вв.): Автореф. дис. ... канд. ист. наук. Т. С.18.

14. O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi. 1-jamg‘arma, 16-ro‘yxat, 340-hujjat, 29-varaq.

15. O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi. 1-jamg‘arma, 16-ro‘yxat, 1526-hujjat, 2-varaq.

16. O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi. 1-jamg‘arma, 16-ro‘yxat, 1932-hujjat, 13-varaq.

REFERENGES:

1. Akrom Akmal o‘g‘li (1992). Mirkomilboy qanday shaxs edi? // Sharq yulduzi. №5. B.88. (In Uzbek)

2. Babaxanov M. (1970). Sotsialno-ekonomicheskoye polozheniye Severnogo Tadzhikistana nakanune Oktyabrya. Dushanbe. B.110. (In Russian)

3. Dobrosmislov A.I. (1911). Tashkent v proshlom i nastoyashchem. T. S.398. (In Russian)

4. Zaorskaya V.V., Aleksander K.A. (1915). Promyshlennyye zavedeniya Turkestanskogo kraya. Pg. S.58. (In Russian)

5. Ziyoyeva D. (2009). XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Toshkent shahrida ma’muriy – hududiy va ijtimoiy o‘zgarishlar // O‘zbekiston tarixi. №1. B.50. (In Uzbek)

6. Kastel’skaya Z.D. (1980). Iz istorii Turkestanskogo kraya. M. S.65, 177. (In Russian)

7. Kanopka S.R. (1913). Turkestanskiy kray (Torgovo-promyshlennyy otdel). T. S.4. (In Russian)

8. Mahalliy xabarlar (1914). Maktablar yopilishi // Sadoi Turkiston. №3, 17 aprel. (In Uzbek)

9. Mir Muhsin (1916). Milliy matbuot // Turkiston viloyatining gazeti. №8, 28 yanvar. (In Uzbek)

10. Musayev N. (1999). Turkistonda sanoat ishlab chiqarishning vujudga kelishi. T. B.85. (In Uzbek)

11. Mullo Olim Mahmudxo‘ji (1915). Tarixi Turkiston. T. B.166. (In Uzbek)

12. Patapova N.Yu. (2002). Istoriya predprinimatel’stva v Turkestane (vtoraya polovina XIX – nachalo XX vv.): Avtoref. diss. ... kand. ist. nauk. T. S.21-22. (In Russian)

13. Turkiston viloyatining gazeti (1900). №45, 46, 47. (In Uzbek)

14. Yo‘ldashev R.A. (1994). Formirovaniye natsional’noy burzhuazii v Turkestane (konets XIX – nachalo XX vv.): Avtoref. diss. ... kand. ist. nauk. T. S.18. (In Russian)

15. O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi. 1-jamg‘arma, 16-ro‘yxat, 340-hujjat, 29-varaq. (Archival document in Uzbek)

16. O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi. 1-jamg‘arma, 16-ro‘yxat, 1526-hujjat, 2-varaq. (Archival document in Uzbek)

MARKAZIY OSIYODA QADIMGI DAVR KO‘CHMANCHI VA O‘TROQ XALQLARNING SIYOSIY, IQTISODIY HAMDA MADANIY MUNOSABATLARI

ПОЛИТИЧЕСКИЕ, ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И КУЛЬТУРНЫЕ ОТНОШЕНИЯ МЕЖДУ КОЧЕВЫМИ И ОСЕДЛЫМИ НАРОДАМИ В ДРЕВНЕЙ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

POLITICAL, ECONOMIC, AND CULTURAL RELATIONS BETWEEN NOMADIC AND SETTLED PEOPLES IN ANCIENT CENTRAL ASIA

https://zenodo.org/records/19260656

Djurayev Ikrom Nematovich
Guliston davlat pedagogika instituti
Tarix kafedrasi dotsenti
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Tel.: +998 97-902-20-81
E-mail: ikromgdu@mail.ru

Annotatsiya. Markaziy Osiyoda qadimgi davrda ko‘chmanchi chorvador va o‘troq dehqon xalqlar o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarni tahlil qiladi. Tadqiqotda ikki xil xo‘jalik turining o‘zaro bog‘liqligi, mehnat taqsimoti va iqtisodiy almashinuv (chorva mahsulotlari bilan dehqonchilik va hunarmandchilik buyumlari ayirboshlash) asosiy o‘rin tutadi. Ko‘chmanchilar yaylovlar yetishmasligi, qurg‘oqchilik va demografik omillar tufayli o‘troq vohalarga bosqinlar uyushtirgan bo‘lsa-da, tinch savdo, karvonsaroy va bozorlar orqali aloqalar kuchaygan. Sirdaryo bo‘yi va tog‘oldi hududlarda statsionar manzilgohlar, shaharlar vujudga kelishi, Andronovo, Srubnaya, Chust, Burg‘uliq kabi madaniyatlar shakllanishi bu jarayonni tasdiqlaydi. Ko‘chmanchilar o‘troqlashib, dehqonchilik va hunarmandchilik bilan shug‘ullangan, natijada urbanizatsiya va davlatchilik (masalan, Yuechji-Kushon, Parfiya) rivojlangan. Tabiiy-geografik omillar (cho‘l, dasht va voha) va ekologik inqirozlar migratsiya va o‘zgarishlarga sabab bo‘lgan. Ikki guruh bir-birisiz normal hayot kechira olmagan, ularning integratsiyasi Markaziy Osiyo tsivilizatsiyasining asosini tashkil etgan.

Kalit so‘zlar: *ko‘chmanchi chorvador, o‘troq aholi, cho‘l sivilizatsiyasi, xonaki chorvachilik, yaylov chorvachiligi, andronovo madaniyati, srub madaniyati, statsionar manzilgoh, mozorqo‘rg‘on, ko‘chmanchi – yuechji.*

Abstract. The article analyzes the political, economic, and cultural relations between nomadic pastoralists and sedentary agricultural peoples in ancient Central Asia. The study emphasizes the interdependence of the two economic systems, the division of labor, and economic exchange (the barter of livestock products for agricultural and handicraft goods). Although nomadic groups launched raids on

sedentary oases due to insufficient pastures, droughts, and demographic pressures, peaceful interactions were strengthened through trade, caravanserais, and markets. The emergence of stationary settlements and cities along the Syr Darya River and foothill zones, as well as the formation of cultures such as Andronovo, Srubnaya, Chust, and Burgulyk, confirm this process. Nomads gradually became sedentary, engaging in agriculture and crafts, which contributed to urbanization and the rise of statehood (for example, the Yuezhi-Kushan and Parthian states). Natural-geographical factors (deserts, steppes, and oases) along with ecological crises triggered migrations and transformations. The two groups could not sustain normal life without each other; their integration formed the foundation of Central Asian civilization.

Key words: *nomadic cattle breeding, sedentary population, desert civilization, domestic cattle breeding, cattle breeding, Andronovo culture, Srubnaya culture, stationary settlement, Mazar-Kurgan, Yuezhi nomads.*

Аннотация. В статье анализируются политические, экономические и культурные отношения между кочевыми скотоводами и оседлыми земледельческими народами в древней Центральной Азии. Исследование подчеркивает взаимозависимость двух хозяйственных укладов, разделение труда и экономический обмен (бартер продукции скотоводства на сельскохозяйственные и ремесленные товары). Хотя кочевники совершали набеги на оседлые оазисы из-за нехватки пастбищ, засух и демографического давления, мирные связи укреплялись через торговлю, караван-сараи и рынки. Возникновение стационарных поселений и городов вдоль Сырдарьи и в предгорьях, а также формирование культур Андроновской, Срубной, Чустской и Бургалыкской подтверждают этот процесс. Кочевники постепенно оседали, занимаясь земледелием и ремеслами, что способствовало урбанизации и становлению государственности (например, юэчжийско-кушанское и парфянское государства). Природно-географические факторы (пустыни, степи и оазисы) и экологические кризисы вызывали миграции и трансформации. Две группы не могли вести нормальную жизнь друг без друга; их интеграция составила основу центральноазиатской цивилизации.

Ключевые слова: *кочевое скотоводство, оседлое население, пустынная цивилизация, домашнее скотоводство, скотоводство, Андроновская культура, Срубная культура, стационарное поселение, мазаркурган, кочевники-юэчжи.*

KIRISH

O‘rta Osiyo xalqlari qadimgi tarixining dolzarb muammolaridan biri ko‘chmanchi chorvador va xo‘jaligi asosi dehqonchilik bo‘lgan o‘troq aholining o‘zaro munosabatlari masalasidir. Ushbu masalani tahlil qilishda, dehqonchilik va chorvachilik sohasidagi yutuqlar, o‘troq manzilgohlarning paydo bo‘lishi va ularning

shaharlarga aylanishi kabi tarixiy jarayonlarni hisobga olish zarur. Ma’lum bir hududda o‘troq va ko‘chmanchi aholining o‘zaro munosabatlarini tahlil qilishda, bu ikki xil xo‘jalik turining qaysi biri, qaysi davrda yetakchi rol o‘ynaganligini, jamiyat taraqqiyotida ulardan qay biriga qachon moyillik kuchli bo‘lganligini va “ko‘chmanchilikdan shaharlar sari” shakldagi asosiy fikrning qanchalik to‘g‘ri talqin etilishini e’tiborga olish zarur. U ko‘pchilikni tashkil etadigan ko‘chmanchi chorvachilik ustun bo‘lgan bir sharoitda, aholi bir qismining o‘troqlashib dehqonchilik, hunarmandchilik va savdo bilan shug‘ullanishi natijasida shaharlar sonining ortishiga sabab bo‘lishi kabi konsepsiyaga tayangan (Массон В.М. 1989: 90-93).

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Markaziy Osiyoda qadimgi davrda ko‘chmanchi chorvador va o‘troq dehqon xalqlar o‘rtasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy munosabatlarni o‘rganishda adabiyotlarning tahlili ko‘chmanchilik va o‘troqlikning o‘zaro ta’siri, migratsiya jarayonlari, xo‘jalik ixtisoslashuvi va urbanizatsiya masalalarini qamrab oladi. Tadqiqotlar asosan arxeologiya, etnografiya va tarixiy antropologiya yo‘nalishlarida rivojlangan.

Sovet davri olimlari (Руденко С.И., 1961) ko‘chmanchi va o‘troq aholini yagona etnik jamoa sifatida ko‘rib, chorvachilik va dehqonchilik elementlarining aralashuvini ta’kidlaydi. Rudenko ishlarida geografik omillar va ekologik sharoitlarning xo‘jalik o‘zgarishlariga ta’siri batafsil tahlil qilingan.

V.M. Masson (1989) ko‘chmanchilar va qadimgi sivilizatsiyalarning dinamikasini tahlil qilib, ko‘chmanchilikdan shaharlashuvga o‘tish jarayonini ta’kidlaydi. Uning konsepsiyasi mavzuning asosiy g‘oyasiga mos keladi: ko‘chmanchi chorvachilikning ustunligi o‘troq aholi bilan munosabatlarda shaharlarning paydo bo‘lishiga sabab bo‘lgan.

L.M. Levina (1971) Sirdaryo bo‘yidagi keramika va manzilgohlarni o‘rganib, cho‘l va tog‘ vodiylarida ko‘chmanchilarning statsionar manzilgohlari mavjudligini qayd etadi. Bu ish mavzuning arxeologik bazasini mustahkamlaydi.

Zamonaviy tadqiqotlarda K.M. Baypakov (2008) shahar va dasht o‘rtasidagi munosabatlarni, sak va usunlardagi o‘troqlik va dehqonchilikni yoritadi. Baypakovning yondashuvi mehnat taqsimoti va iqtisodiy bog‘liqlikni ta’kidlaydi.

Mahalliy olimlar M.X. Pardayev (1995, 2006) Ustrushona va Jizzax vohasi tarixini o‘rganib, ko‘chmanchilikning o‘rta asrlar urbanizatsiyasiga ta’sirini tahlil qiladi. I. Djurayev (2019, 2021) bronza davri munosabatlari va chorvador qabilalar migratsiyasini ekologik va demografik omillar asosida tadqiq qiladi.

Adabiyotlarning umumiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, mavzu sovet arxeologiyasidan (Akishev, Masson, Levina) zamonaviy tadqiqotlarga (Djurayev, Pardayev, Baypakov) o‘tgan bo‘lib, ko‘chmanchi va o‘troq munosabatlarni antagonistik emas, balki

integratsion jarayon sifatida ko‘radi. Biroq, bosqinlar, ekologik inqirozlar va migratsiya masalalari hali ham bahsli bo‘lib qolmoqda va keyingi tadqiqotlar uchun asos yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda ko‘chmanchi chorvador va o‘troq aholi o‘rtasidagi ijtimoiy, iqtisodiy va xo‘jalik aloqalarining tarixi va etnogenez masalalari tarixiy asoslarini o‘rganishda xolislik tamoyiliga amal qilinib, tahlil, sintez, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tarixiy tahlil hamda xronologik yondashuv kabi ilmiy usullardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ko‘chmanchi va o‘troq dehqon aholining o‘zaro aloqalarini o‘rganishda yagona etnik jamoaga mansub bo‘lgan, sof ko‘chmanchilarning ba’zi guruhlarida chorvachilik bilan birga o‘troqlik va dehqonchilik elementlari mavjud bo‘lganligini hisobga olish zarur (Руденко, 1961:5-9). Dehqon aholisi bilan chorvadorlar o‘rtasidagi farq mavjud sharoitdan kelib chiqib, ma’lum bir guruh aholining o‘troq hayot tarziga o‘tishi bilan yo‘qolib borgan yoki aksincha holatlar ham kuzatilgan. Biroq, ma’lum bir hududdagi ba’zi o‘zgarishlarga qaramay Yevrosiyo aholisining xo‘jaligida o‘troq dehqonchilik katta ahamiyat kasb etib, dehqonchilik vohalarida urbanizatsiya jarayonlari kuchayib borgan.

“Cho‘l sivilizatsiyasi” dinamikasiga e’tibor qaratib, uning taraqqiyotidagi ko‘chmanchilikdan shaharlashuvga va qabila ittifoqlaridan davlatchilik sari borgan bosqichlarni ko‘rish mumkin. Bunda dehqonchilik va chorvachilikning tarkib topish bazasi, jamiyatning ijtimoiy bo‘linishi, savdo va hunarmandchilikning paydo bo‘lishi, etnik birlikning tarkib topishi, kuchli boshqaruv hokimiyatiga asos solinishi, yagona mafkura, yozuv, diniy udum va tasavvurlarning yoyilishi kabilar muhim rol o‘ynagan.

Sirdaryo bo‘yi va unga tutashib ketgan cho‘l va tog‘ landshaftlari o‘zining geografik xususiyati bilan ko‘chmanchi chorvachilik va o‘troq dehqonchilik xo‘jaligining aralash holda rivojlanishini ta’minlagan. U yoki bu xo‘jalikning ko‘proq taraqqiy etishi o‘sha joyning tabiiy xususiyatiga bog‘liq bo‘lgan. Buning oqibatida ikki xil xo‘jalik, janubda va g‘arbda dehqonchilik, shimol va sharqda esa chorvachilik intensiv rivojlanib borgan. So‘ngi bronza va ilk temir davriga kelib, Farg‘ona vodiysidagi Chust, Eylatan, Sho‘robashat madaniyatlariga o‘xshash, Burg‘uliq, Qovunchi va O‘tror – Qoratov madaniyatlari shakllana boshlagan. Ikkinchi tomondan esa Avesto yashtlari va Eron bitiklarida ta’kidlangan ko‘chmanchi chorvadorlarning xo‘jaligi tarkib topgan. Bu chorvador qabilalar hamisha O‘rta Osiyoning janubiga ko‘chmanchilar ta’sirini yoyuvchi maqomida bo‘lishgan (Пардаев, 2005:68). Sirdaryo bo‘yi arxeologik madaniyati bu erdagi tarixiy-geografik, xo‘jalik-madaniy va etnik belgilarning shakllanishini o‘zida aks ettirgan. Bu qaysidir bir vaqtda butun aholining

harakatchan ko‘chmanchi chorvachilikka, keyinchalik esa ma’lum tabiiy va ijtimoiy omillar tufayli o‘troq dehqonchilikka o‘tish holatini ko‘rsatadi. Ko‘chmanchi chorvachilikning kelib chiqishi va o‘troqlikkacha bo‘lgan taraqqiyot bosqichlari, tabiiy geografik va ekologik holat, ijtimoiy-iqtisodiy omillar va siyosiy vaziyatga bog‘liq holda juda murakkab kechgan. Yevrosiyo aholisi ma’lum qismining o‘troq dehqonchilikdan ko‘chmanchi chorvachilikka (yoki aksincha) yoppasiga o‘tishi to‘g‘risidagi fikrlarga qo‘shilib bo‘lmaydi. Haqiqiy ko‘chmanchilar hamisha harakatda (ko‘chib yurishda) bo‘lishgan.

Ba’zi geografik omillargina ularning u yoki bu darajada o‘troq aholi bilan aloqada bo‘lishiga sabab bo‘lgan (Руденко 1967. S. 10). Ko‘chmanchilar va o‘troq aholi tinch munosabatlarining buzilishiga bir qancha sabablar bo‘lgan.

Birinchidan, ko‘chmanchilar hech kim egallamagan, o‘zlashtirilmagan dasht va cho‘llar bo‘ylab harakat qilishgan, vaqt o‘tishi bilan o‘zlashtirilmagan erlarning kam qolishi, chorvani ekin erlariga haydashga ham sabab bo‘lgan. O‘troq va ko‘chmanchi aholining yaylov, o‘tloq va ekinzorlarga bo‘lgan qiziqishi ular o‘rtasidagi to‘qnashuvlarga asosiy sabab bo‘lgan. Bu chorvani va o‘z hayotini saqlash bilan bog‘liq iqtisodiy manfaatdorlik edi. Bunday holat nafaqat ko‘chmanchilar va o‘troq aholi o‘rtasidagi balki ko‘chmanchilarning o‘zlari o‘rtasida ham sodir bo‘lgan. Bu qabilalar imkon qadar harbiy bosqinchilik yurishlaridan tiyilishga harakat qilgan (Mirzaahmedov, Odilov, Pardayev, 2000. 56 b.). Biroq, ko‘chmanchilarning harbiy ittifoqlari ularni bunday bosqinlarda ishtirok etishlariga majbur etgan.

Ikkinchidan, an’anaviy ko‘chmanchi tarzidagi ekstensiv xo‘jalik qo‘shimcha bosqinlar uyushtirishni ham taqozo etgan. Bunga, ba’zi paytlardagi qurg‘oqchilik yoki qishning me’yordan ortiq sovuq bo‘lishi va cho‘zilishi natijasida chorvaning qirilib ketishi sabab bo‘lgan. Qahatchilik yillarida Dashti Qipchoq ko‘chmanchi chorvachilik tarzda xo‘jalik yuritish, uzluksiz qurg‘oqchiliklar, doimo sodir bo‘lib turadigan demografik portlashlar, harbiy ittifoqlarga qo‘shilish va o‘troq vohalarga yurish, yaylovlar yetishmasligi natijasidagi ijtimoiy-siyosiy tanglik, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy omillar yashash uchun so‘nggi umid – o‘troq vohalarga yurish edi. Bu ahvolga tushgan ko‘chmanchilar o‘z jonini saqlash uchun, yirik xonlarga tobelik bildirib, yetakchi ittifoqchilar madadida, qo‘shni hududlar va o‘troq vohalar tomon harakatlana boshlashgan. Ko‘chmanchilar tomonidan uyushtirilgan ko‘pgina yurishlar nafaqat o‘troq vohaga, balki ularning o‘zlari ustiga ham bo‘lgan.

Uchinchidan, o‘troq vohalarga yurish ko‘chmanchilarning emas, balki harbiy birlashmalarning harakati edi. S.A. Pletnevaning yozishicha, yurishlarga hamisha iqlim sharoitining noqulay kelishi va demografik portlashlar sabab bo‘lgan (Плетнева С.А., 1982:117). Yirik chorvadorlarning ko‘plab xotin va farzandlari bo‘lib, ularni ham chorva, yaylov va yangi yashash hududlar bilan ta’minlash zarur edi. Aholining

muntazam suratda ko‘payishi yangi yerlarga kelib joylashishni yuzaga keltirgan. Bu ko‘chmanchilarning yangi yerlarga kelib joylashishi holati ko‘chmanchilikning yo‘q bo‘lishi degani emas, balki, yashashga yangicha moslashuvdir. Yana shunga qo‘shimcha iqtisodiy va siyosiy inqiroz davrida ko‘chmanchilarning yoppasiga o‘troq aholiga aylanishi hamdir. Shu tarzda, chorvaning qirilishi natijasida, oziq-ovqat va hunarmandchilik mahsulotlarining etishmasligi sababli, bir necha guruh aholining xo‘jalik yuritish shakllarini o‘zgartirishi sodir bo‘ladi. Yangi ko‘chmanchilar yoki o‘troqlashganiga ko‘p bo‘lmagan ko‘chib kelganlar o‘zlarining dashtdagi qarindosh qabilalari bilan aloqa bog‘lab, yangi hududdagi savdo va siyosiy ishlarda imtiyozli rol o‘ynay boshlaydi. Chegaralardagi bunday vositachilik yoki o‘tkazuvchanlik ikki xil xo‘jalik vakillarining aloqalarini kuchaytiradi. Ikki tomon uchun ham boshqa xil ko‘pgina (mavsumiy) shakllarni qabul qilishga imkon beradi. Ko‘chmanchilar bo‘sh paytlari vohalarga kelib dala faoliyatida o‘z ishchi kuchlarini sotishi ham mumkin bo‘lgan. Ayriboshlashning bosh manbai (puli) chorva hisoblangan. Ko‘plab chorva mahsulotlari o‘troq vohalarga keltirib sotilgan. Dehqon aholi hamisha chorvachilik mahsulotlariga(go‘sht, yog‘, jun va jundan to‘qilgan buyumlar, teri va h.) kuchli ehtiyoj sezardi. O‘z navbatida, o‘troq voha ustalari tomonidan tayyorlangan ip-gazlama, kiyim-kechak, xo‘jalik buyumlari va dehqonchilik mahsulotlari (bug‘doy, un, meva-sabzavot va h.k.)ga dashtda hamisha talab katta bo‘lgan.

Chorvador va dehqon aholining o‘zaro mol ayriboshlashi odatda ko‘chmanchi va o‘troq aholining chegara hududi bo‘ylab kechgan. Bu erdagi karvonsaroy, yarmarka va bozorlar doimo gavjum bo‘lib, savdo qizg‘in amalga oshgan. Bunday joylarda yirik aholi punktlari, madaniyat o‘choqlari bunyod etilgan. Shu asosda Sirdaryoning o‘rta va quyi qismida ko‘plab shaharlar vujudga kelgan. Qadimda O‘rta Osiyoda o‘troq va ko‘chmanchi aholini qamrab olgan (birlashtirgan) yagona iqtisodiy tizim (konfederatsiya) bo‘lgan.

Ba’zi xollarda ko‘chmanchilik bilan shug‘ullangan xalqlar o‘troq aholi tomonidan barpo qilingan davlatlarga yarim qaram holda kirib, ma’lum majburiyatlarni olgan bo‘lsa-da (masalan, harbiy yordam), ba’zi hollarda esa, ko‘chmanchi–chorvadorlar vodiylarni bosib olib, u yerlarda o‘z hukmronliklari ostida yirik davlatlar tuzganlar. Ko‘chmanchi-chorvachilik bilan shug‘ullangan Parnlar qabilasiga hukmronlik qilgan arshakiylar sulolasiga asos solgan Parfiya davlati, Turk va Qang‘ xoqonligi hukmronligi davrida dehqonchilik vohalarida tashkil topgan davlatlarni misol o‘rnida keltirish mumkin. Xuddi shunday holat Baqtriyada ham yuz beradi. Bu erda ko‘chmanchi– yuechjilar mahalliy xalqlarni bo‘ysundirib Kushon davlatini tuzganlar. Tadqiqotlardan ma’lumki, ko‘chmanchilarda bir kishining yashash ta’minoti uchun dehqon aholiga qaraganda ko‘proq yer talab qilingan. Ko‘chmanchi aholi yashashi uchun jon boshiga 1,5 desyatina yer kerak bo‘lsa, dehqon aholi jon boshiga hatto u

yerdan primitiv foydalanganda ham 0,78 desyatina yer zarur bo‘lgan. Ya’ni, ko‘chmanchilarga dehqon aholiga qaraganda yer ikki baravar ko‘p talab qilingan. O‘rtacha chorvador oilaning 24-25 ta oti bo‘lsa, shu miqdordagi ot uchun 2-3 km. kv yaylov kerak bo‘lgan (Кшибеков, 1980:124). Doimiy ko‘chishlar oldidan o‘tli joylar ko‘p bo‘lishi uchun, ko‘chmanchilar bir-biridan 10-15 km uzoqlikda joylashgan va o‘zlariga ma’lum hududlarni bo‘lib olishgan.

Ko‘chmanchi chorvachilikda ishlab chiqaruvchi kuchlar faqat tabiiy imkoniyatlar, chorvaning mahsuldor turlarini yaratish, mehnat qurollarini takomillashtirish va yaylovlarni kengaytirishlar hisobiga oshirilgan. Bu xo‘jalikdagi ishlab chiqarish kuchlarini rivojlantirishga bo‘lgan qiziqish, tinimsiz ko‘chishlarni taqozo etgan. Ba’zi olimlar, ko‘chmanchilarning harakatchan tabiatiga qarab, ular hamisha o‘zlarining qo‘shnilariga tazyiq o‘tkazib kelgan deb ta’kidlaydi To‘g‘ri, ko‘chmanchi-chorvadorlar va o‘troq dehqonlar o‘rtasidagi munosabatlar doimo ham silliq kechavermagan. Ular o‘rtasida ishchi kuchi, ishlab chiqarish va mahsulot taqsimoti ustidan hukmronlik o‘rnatish uchun urushlar ham bo‘lib turgan. Ko‘chmanchi xalqlarning yashash tarzi va jamiyat tuzilishini tahlil qiladigan bo‘lsak, ular tabiati bosqinchilik yurishlari uyushtirishga mos emas. Bunday yurishlar faqat yaylovlar uchun bo‘lishi mumkin. Feodal-patriarxal tarzidagi ko‘chmanchi chorvadorlar uchun yer va chorva eng muhim hisoblangan. Biroq ko‘chmanchilarning asosiy yashash tarzi chorvaga bog‘liq. Kimning chorvasi ko‘p bo‘lsa, u yaylovlarning egasi bo‘lardi. Shuning uchun yer uchun kurash xususiy chorvani saqlash va ko‘paytirish uchun bo‘lgan (Сулейманов, 1989:67). Ular asrlar mobaynida chorvani saqlash va mahsuldorligini oshirish borasida, ko‘plab yutuqlarni qo‘lga kiritib, yashash uchun qulay imkoniyatlar yaratishdi.

Insoniyat sanoatlashgan davrgacha butunlay yoki ma’lum tarzda tabiiy sharoitga qaram bo‘lgan va bu holat xo‘jalik turi va uning rivojlanishini ta’minlagan. Qanchalik qadimiylikka borgan sari, geografik omillar, kishilarning jamiyat va xo‘jalik taraqqiyoti va madaniyatida hal qiluvchi rol o‘ynaganligini kuzatamiz Aynan, Yevrosiyo cho‘llaridagi tabiiy sharoit ko‘chmanchi chorvadorlarning xo‘jalik yuritish shakli va uning bosqichlarini yuz yilliklar mobaynida – yangi davrgacha saqlanib qolishi va yetib kelishini ta’minladi. Faqat o‘ziga xos tabiiy sharoitlar, “Qadimgi Sharqda”, daryo va tog‘ oldi hududlaridagi unumdor vohalarda ilk dehqonchilikning taraqqiy topishi va jamiyatning baravj rivojiga sabab bo‘lgan.

Sirdaryo bo‘yida mavsumiy yaylovlar ko‘p. Bulardan qishda – cho‘lli mintaqa, yozda o‘tloqlar (yaylov) mintaqasidan almashinib foydalanilgan. Shuningdek, tog‘oldi hududlarda xashak jamg‘arib, uy chorvachiligi bilan ham shug‘ullanilgan. Qadimgi Sirdaryo bo‘yi hududida o‘rganilgan ko‘plab ko‘chmanchilarga mansub manzilgohlarda yashash va xo‘jalik yuritish uchun qurilgan inshootlar, kichik tog‘li

daryolardan keltirilgan irrigatsiya qoldiqlari, chorva qo‘ralari, shuningdek, dehqonchilik bilan bog‘liq bronza o‘roq, tosh motiga, yero‘choq, kichik tog‘ daryolari asosidagi irrigatsiya qoldiqlari o‘rganilgan. L.M. Levina tadqiqotlarida cho‘l va dashtliklardan tog‘ vodiylariga almashinadigan joylarda ko‘chmanchilarning statsionar manzilgohlari qayd qilingan (Левина Л.М., 1971:214). O‘rta Sirdaryo bo‘ylarida ham aholi o‘troqlashuvi va yuksak rivojlangan shahar madaniyatiga asos solinishi aynan yuqoridagi xususiyatlar bilan mos keladi. Hududdan topilgan ko‘plab manzilgohlar va shahar qoldiqlari asosan, tabiiy himoyalangan dehqonchilik vodiylari bilan cho‘l mintaqasi chegarasida, anhorlar va savdo yo‘llari bo‘yiga yaqin joylarda ko‘payib boradi.

K.A. Akishev Yettisuvdagi Besshatir mozorqo‘rg‘onlarini o‘rganishda yog‘ochdan yasalgan sag‘anaga duch kelib, qabr yasashdagi statsionar uylarga xos alomatlarni aniqlagan. Bunga tayanib, Ettisuv sak va usunlari sovuq kunlarini statsionar qishloqlarda o‘tkazgan va ular faqat chorvador bo‘lmagan degan fikrga keladi (Акишев К.А., 1970:72-78). Orolbo‘yi saklari ham yuqori darajadagi quruvchilik san’atiga ega bo‘lib, ular murakkab irrigatsiya tarmoqlari, shuningdek, qishloq va shaharlar ham bunyod etishgan (Толстов, 1960:139-184).

Ko‘chmanchilar hamisha dehqonchilik va ovchilik bilan shug‘ullanib kelgan. Ma’lumki, ko‘chmanchilarning katta qismi qishlovlarda yotadi (yotoq) ba’zida kiyimlari ham o‘troq aholiga xos ko‘rinishda bo‘lgan. Mintaqadagi, antik va ilk o‘rta asrlarga oid ko‘plab manzilgohlar qishlov ovullari, statsionar manzilgohlar, hunarmandchilik rivojlangan yirik markaz (poselenie)lar ekanligi ma’lum bo‘ldi. Atrofi sahrolardan iborat bo‘lgan bu aholi manzilgohlari va shaharlarni mahsulot bilan ta’minlash qiyin edi. Odam omili resurslarining atrofda yo‘qligi sababli, kuchli siyosiy hokimiyatning yemirilishi bilan bu manzilgohlar ham inqirozga yuz tutgan. Shuningdek, suv balansining buzilishi ham manzilgohlarning yo‘q bo‘lib ketishiga yoki aholining boshqa joyga ko‘chib o‘tishiga olib kelgan. O‘rganilgan yodgorliklar taqdiri haqida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bunday xulosa chiqarish ham to‘g‘ri emas.

Aytilganidek, bu manzilgohlar ko‘chmanchi va dehqonchilik vohalari chegaralarida paydo bo‘lganligidan ular uchun zarur mahsulotlar savdo aloqalari orqali keltirilgan. Faqat u yoki bu sabab orqali qurilgan, savdo aloqalari esa bu shaharlarga hayot bag‘ishlagan. Ikkala tomon o‘rtasidagi aloqalarning buzilishi esa ularning inqiroziga sabab bo‘lgan (Джураев И., 2019:658-661). Bu holat ko‘chmanchilar uchun ham taalluqli. Ko‘chmanchilar dashti va dehqonchilik vohasi tutashib ketadigan hududda joylashgan G‘ulbo mozorqo‘rg‘onlarida ko‘plab ko‘chmanchilar moddiy madaniyatiga taalluqli ashyolar bilan birgalikda shahar hunarmandlari tomonidan yuksak did bilan yasalgan sopol idishlarning ham uchrashi fikrimizni tasdiqlaydi (Джураев И., 2021: 225).

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, O‘rta Osiyo sharoitida iqtisodiyotning uzluksiz rivoj topishi faqat o‘ziga xos mehnat taqsimoti va ikki xil xo‘jalik yurituvchi aholi madaniy aloqalari faoliyatining integratsiyalashuvi bilan belgilanadi. Ikki tomon ham bir -birisiz normal hayoti faoliyat ko‘rsata olmagan. Ko‘chmanchilar madaniy taraqqiyoti esa, asosan ularning uzluksiz o‘troqlashib borishi bilan xarakterlanadi. Ko‘chmanchilarning yozgi yaylovlari qishlovlaridan qancha uzoq bo‘lmasin, baribir ular qishloqlarida ko‘p vaqt o‘tkazgan. Bu ularning o‘troqlikka o‘tishi va dehqonchilik bilan shug‘ullanishiga, o‘rta asrlarda urbanizatsiya jarayonlarining kuchayishi va shaharlar paydo bo‘lishiga imkon yaratgan. Ular faoliyati tufayli, tog‘, tog‘oldi, dasht va cho‘l hududlari hech qachon bo‘shab qolmagan.

Demak, bunday qabilalar cho‘l va dashtlardan to, uzoq shimoldagi o‘rmonlarining janubiy qismi-taygagacha, ya’ni qayerdaki chorva uchun qulay joylarda yashab, u yerlardagi mavjud imkoniyatlarni ishlab chiqarishga jalb qilishgan va bu orqali dunyo sivilizatsiyasi taraqqiyotiga o‘z hissalarini qo‘shib kelishgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Акишев К.А. О возникновении оседлости и земледелия у древних усуней Семиречья// По следам древних культур Казахстана. Алма–Ата, 1970.

2. Акишев К.А., Кушаев Г.А.Древняя культура саков и усуней долины р. Или. Алма–Ата, 1964.

3. Байпаков К.М. Город и степь в древности: оседлость и земледелие у саков и усуней Жетысу // Культура номадов Центральной Азии. Самарканд, 2008.

4. Вернадский В.И. Философские мысли натуралиста. М., 1988.

5. Джураев И. Миграционний процес Центрально Азиатских скотоводческих племен на юг //традицийни та инновацийни пидходи до наукових дослиджень. – 2021. – С. 225.

6. Djuraev I. On the question of the relationship of the population of the steppes Eurasia and Central Asia in the bronze age //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 11. – С. 658-661.

7. Левина Л.М Керамика нижней и средней Сырдарьи в первой половине первого тысячелетия н.э. М., Наука, 1971.

8. Массон В.М. Номады и древние цивилизации: динамика и типология// Взаимодействие кочевых культур и древних цивилизаций. Алма-Ата, Наука, 1989.

9. Мирзаахмедов Ж., Одилов Ш., Пардаев М., Мақсудов Р. Қазилтепа қадимиятидан лавҳалар. А.Қодирий номидаги Халқ меъроси нашриёти. Ташкент, 2002.

10. Пардаев М.Х. Северо–западная Уструшана в эпоху раннего средневековья (по материалам нижнего течения Сангзара) // Автореф. дисс. канд. ист. наук. Ташкент, 1995.

11. Пардаев М.Х. Жиззах воҳаси қадим ва ўрта асрлар тарихини ўрганишнинг истиқболлари ва муаммолари. Тошкент, 2006.

12. Sheraliyevich K. O. et al. The Role of Studying the History of Irrigated Farming Culture in the Work of Yahya Ghulomov //Naturalista Campano. – 2024. – Т. 28. – №. 1. – С. 1735-1740.

REFERENCES:

1. Akishev K.A. O vozniknovenii osedlosti i zemledeliya u drevnix usuney Semirechya// Po sledam drevnix kultur Kazaxstana. Alma–Ata, 1970. (In Russian)

2. Akishev K.A., Kushayev G.A.Drevnyaya kultura sakov i usuney dolini r. Ili. Alma–Ata, 1964. (In Russian)

3. Baypakov K.M. Gorod i step v drevnosti: osedlost i zemledeliye u sakov i usuney Jetisu // Kultura nomadov Sentralnoy Azii. Samarkand, 2008. (In Russian)

4. Vernadskiy V.I. Filosofskiye misli naturalista. M., 1988. (In Russian)

5. Djurayev I. Migratsionniy protses Sentralno Aziatskix skotovodcheskix plemen na yug //traditsiyni ta innovatsiyni pidxodi do naukovix doslidjen. – 2021. – S. 225. (In Russian)

6. Djuraev I. On the question of the relationship of the population of the steppes Eurasia and Central Asia in the bronze age //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 11. – S. 658-661.

7. Levina L.M Keramika nijney i sredney Sirdari v pervoy polovine pervogo tisyacheletiya n.e. M., Nauka, 1971. (In Russian)

8. Masson V.M. Nomadi i drevniye sivilizatsii: dinamika i tipologiya// Vzaimodeystviye kochevix kultur i drevnix sivilizatsiy. Alma-Ata, Nauka, 1989. (In Russian)

9. Mirzaahmedov J., Odilov Sh., Pardayev M., Maqsudov R. Qaziltepa qadimiyatidan lavhalar. A.Qodiriy nomidagi Xalq me’rosi nashriyoti. Tashkent, 2002. (In Uzbek)

10. Pardayev M.X. Severo–zapadnaya Ustrushana v epoxu rannego srednevekovya (po materialam nijnego techeniya Sangzara) // Avtoref. diss. kand. ist. nauk. Tashkent, 1995. (In Russian)

11. Pardayev M.X. Jizzax vohasi qadim va o‘rta asrlar tarixini o‘rganishning istiqbollari va muammolari. Toshkent, 2006. (In Uzbek)

12. Sheraliyevich K. O. et al. The Role of Studying the History of Irrigated Farming Culture in the Work of Yahya Ghulomov //Naturalista Campano. – 2024. – Т. 28. – №. 1. – S. 1735-1740.

O‘ZBEK XALQINING ETNOGENEZI MASALASI: NAZARIY-METODOLOGIK YONDASHUVLAR VA AKADEMIK A.ASQAROV QARASHLARI

THE ISSUE OF THE ETHNOGENESIS OF THE UZBEK PEOPLE: THEORETICAL AND METHODOLOGICAL APPROACHES AND THE VIEWS OF ACADEMICIAN A.ASKAROV

ПРОБЛЕМА ЭТНОГЕНЕЗА УЗБЕКСКОГО НАРОДА: ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ И ВЗГЛЯДЫ АКАДЕМИКА А.АСКАРОВА

https://zenodo.org/records/19260679

Sattorov Nurbek Abdurazzoqovich
Oriental universiteti Ijtimoiy - gumanitar fanlar kafedrasi dotsenti,
tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
Tel.: +998 90-276-45-32
E-mail: beksattoroff@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o‘zbek xalqining etnogenezi masalasi zamonaviy tarixiy-etnologik fan nuqtayi nazaridan tahlil qilinadi. Tadqiqotda etnogenez muammosini o‘rganishda qo‘llaniladigan asosiy nazariy va metodologik yondashuvlar yoritilib, ularning ilmiy ahamiyati baholanadi. Shuningdek, akademik A.Asqarovning o‘zbek xalqining shakllanish jarayoni, uning tarixiy ildizlari va etnik tarkibiga doir qarashlari chuqur tahlil etiladi. Mazkur maqolada akademik A.Asqarov konsepsiyasining o‘zbek xalqi etnogenezi masalasini tadqiq etishdagi o‘rni va ahamiyatini aniqlab beradi hamda uni zamonaviy ilmiy qarashlar bilan qiyoslaydi. Maqola natijalari o‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixini o‘rganishda muhim nazariy va metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: *o‘zbek xalqi, etnogenez, etnik tarix, nazariy-metodologik yondashuvlar, akademik A. Asqarov.*

Annotation: This article examines the problem of the ethnogenesis of the Uzbek people from the perspective of modern historical and ethnological scholarship. The study analyzes key theoretical and methodological approaches used in the investigation of ethnogenetic processes and evaluates their scholarly significance. Particular attention is paid to the views of Academician A. Askarov regarding the formation of the Uzbek people, their historical roots, and ethnic composition. The article assesses the role and importance of Askarov’s concept in the study of Uzbek ethnogenesis and compares it with contemporary academic interpretations. The research findings

contribute to a deeper understanding of the ethnic history of the Uzbek people and provide a solid theoretical and methodological foundation for further studies.

Keywords: *Uzbek people, ethnogenesis, ethnic history, theoretical and methodological approaches, Academician A. Askarov*.

Аннотация: В статье рассматривается проблема этногенеза узбекского народа с позиций современной историко-этнологической науки. Анализируются основные теоретические и методологические подходы к изучению этногенетических процессов, раскрывается их научное значение. Особое внимание уделено взглядам академика А.Аскарова на процесс формирования узбекского народа, его исторические корни и этнический состав. Проводится анализ концепции ученого, определяется ее место и значение в исследовании этногенеза узбеков, а также осуществляется сопоставление с современными научными подходами. Полученные выводы могут быть использованы при дальнейшем изучении этнической истории узбекского народа.

Ключевые слова: *узбекский народ, этногенез, этническая история, теоретико-методологические подходы, академик А.Аскаров.*

KIRISH

O‘zbek xalqining etnogenezi masalasi Markaziy Osiyo tarixshunosligi va etnologiya fanining eng murakkab hamda dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. Mazkur masala nafaqat xalqning kelib chiqishi va shakllanish bosqichlarini aniqlash, balki mintaqada qadimdan kechgan etnik jarayonlar, migratsiyalar, madaniy aloqalar va ijtimoiy-siyosiy omillarning o‘zaro ta’sirini yoritish nuqtayi nazaridan ham muhim ahamiyatga ega. O‘zbek xalqi etnogenezining ilmiy tadqiqi xalqning tarixiy xotirasi, milliy o‘zlikni anglash va madaniy merosni chuqurroq tushunishda muhim metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

Sovet davri va mustaqillik yillarida o‘zbek xalqining etnogenezi masalasi turli nazariy va metodologik yondashuvlar asosida tadqiq etildi. Ayrim tadqiqotlarda etnogenez jarayoniga biryoqlama – faqat ko‘chmanchi yoki faqat o‘troq aholi omillari asosida baho berilgan bo‘lsa, keyingi ilmiy izlanishlarda arxeologik, antropologik, etnologik va yozma manbalarni kompleks tahlil qilishga asoslangan yondashuvlar ustuvorlik kasb eta boshladi. Aynan shunday kompleks yondashuvlar o‘zbek xalqining shakllanish jarayonini ko‘p asrlik va ko‘p qatlamli tarixiy hodisa sifatida talqin etish imkonini bermoqda.

Mazkur ilmiy jarayonda akademik A.Asqarovning tadqiqotlari alohida o‘rin tutadi. U o‘zbek xalqining etnogenezini mahalliy qadimgi aholi asosida, turli tarixiy davrlarda mintaqaga kirib kelgan etnik komponentlarning uzviy qo‘shilishi natijasida yuzaga kelgan murakkab jarayon sifatida izohlaydi. A.Asqarov qarashlari arxeologik va etnologik materiallarga tayangan holda shakllangan bo‘lib, ular o‘zbek xalqi

etnogenezi masalasiga ilmiy xolislik va tarixiylik tamoyillari asosida yondashish zarurligini ko‘rsatadi.

Ushbu maqolaning maqsadi o‘zbek xalqining etnogenezi masalasini yoritishda qo‘llaniladigan asosiy nazariy-metodologik yondashuvlarni tahlil qilish hamda akademik A.Asqarov qarashlarining ilmiy ahamiyatini ochib berishdan iborat. Shuningdek, tadqiqot doirasida A.Asqarov konsepsiyasining zamonaviy tarixshunoslikdagi o‘rni va uning o‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixini o‘rganishdagi metodologik imkoniyatlari baholanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

O‘zbek xalqining etnogenezi masalasi XX asr boshlaridan boshlab Markaziy Osiyo tarixshunosligi va etnologiya fanida muntazam tadqiq etib kelinmoqda. Dastlabki ilmiy izlanishlarda mazkur muammo asosan umumiy tarixiy yondashuvlar doirasida ko‘rib chiqilgan bo‘lsa, keyinchalik arxeologik, antropologik va etnografik ma’lumotlarga tayangan holda kompleks tadqiqotlar amalga oshirildi. Shu jihatdan, o‘zbek xalqi etnogenezini o‘rganish jarayonida turli ilmiy maktablar va konsepsiyalar shakllanganini kuzatish mumkin.

Sovet davri tarixshunosligida o‘zbek xalqining etnik shakllanishi masalasi sinfiy yondashuv va marksistik metodologiya asosida talqin etilgan. Ushbu davr tadqiqotlarida etnogenez jarayonlari ijtimoiy-iqtisodiy omillar bilan chambarchas bog‘lab izohlangan bo‘lib, ayrim hollarda etnik omillarning murakkabligi yetarlicha hisobga olinmagan. Shunga qaramay, bu davrda to‘plangan boy arxeologik va etnografik materiallar keyingi ilmiy izlanishlar uchun muhim manba vazifasini bajardi.

Mustaqillik yillarida o‘zbek xalqining etnogenezi masalasiga yondashuvlarda muayyan metodologik yangilanishlar yuz berdi. Tadqiqotlarda milliy tarixni xolis va ilmiy asosda yoritish, mahalliy etnik jarayonlarga ustuvor ahamiyat berish, shuningdek, qadimgi o‘troq dehqonchilik madaniyatlari bilan ko‘chmanchi chorvador qabilalar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni kompleks tarzda tahlil qilishga intilish kuchaydi. Bu jarayonda arxeologiya, antropologiya, etnologiya va yozma manbalar ma’lumotlarini o‘zaro uyg‘unlashtirgan holda tadqiq etish tamoyili keng qo‘llanila boshlandi.

O‘zbek xalqining etnogenezi muammosini chuqur o‘rgangan yetakchi olimlar orasida akademik A.Asqarovning ilmiy merosi alohida ahamiyatga ega. Uning tadqiqotlarida o‘zbek xalqining shakllanishi uzoq tarixiy jarayon sifatida talqin qilinib, mintaqaning qadimgi aholisining uzviy davomiyligi asosiy omil sifatida ko‘rsatib beriladi. Akademik A.Asqarov arxeologik topilmalar va etnografik kuzatishlarga tayangan holda, o‘zbek xalqi etnogenezida mahalliy substrat bilan turli tarixiy davrlarda kirib kelgan etnik komponentlarning sintezi muhim rol o‘ynaganini asoslab beradi.

Shuningdek, mavzuga oid adabiyotlarda o‘zbek xalqi etnogenezi masalasini turli jihatlardan yoritgan tadqiqotchilar qarashlari ham muhim o‘rin tutadi. Ayrim olimlar etnik shakllanishda turkiy omilning ustuvorligini ta’kidlasa, boshqalari eroniy tilli aholi va qadimgi dehqonchilik madaniyatlarining roliga alohida e’tibor qaratadi. Mazkur qarashlarning xilma-xilligi o‘zbek xalqi etnogenezi muammosining murakkab va ko‘p qirrali ekanidan dalolat beradi.

Umuman olganda, mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek xalqining etnogenezi masalasi hozirgi kunda ham ilmiy bahs-munozaralarga boy bo‘lib, uni o‘rganishda nazariy-metodologik yondashuvlarni takomillashtirish, yangi arxeologik va antropologik ma’lumotlarni ilmiy muomalaga kiritish dolzarb vazifa bo‘lib qolmoqda. Ayniqsa, akademik A.Asqarov qarashlarini zamonaviy ilmiy kontekstda qayta tahlil qilish mazkur masalaning yanada chuqurroq ochilishiga xizmat qiladi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda o‘zbek xalqining etnogenezi masalasi tarixiy asoslarini o‘rganishda xolislik tamoyiliga amal qilinib, tahlil, sintez, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, tarixiy tahlil hamda xronologik yondashuv kabi ilmiy uslublardan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Etnologiya fanining nazariy va metodologik asoslariga ko‘ra, har bir millatning shakllanishi uch asosiy bosqichdan iborat bo‘ladi. Birinchi bosqich – bu xalqning etnogenezi, ya’ni etnos sifatida shakllanish jarayoni. Etnos vujudga kelgandan keyin, uning ikkinchi bosqichi – el yoki xalq sifatidagi tarixi boshlanadi. Uchinchi bosqichda esa bu etnos rivojlanib, millat darajasiga yetadi va shu bilan uning milliy tarixi yuzaga chiqadi. Har bir bosqich alohida va uzoq tarixiy davrlarni qamrab oladi. Bu nazariya etnologiya fanining umumqabul qilingan qoidasi hisoblanadi va barcha millatlarga taalluqlidir.

Ilmiy jihatdan e’tirof etilgan yondashuvga ko‘ra, ma’lum bir xalq yoki millatning etnogenezi qachon boshlanganini aniqlashda, eng avvalo, uning bugungi ona tilining ilk asoslari qay vaqtda yuzaga kelgani asosiy mezon sifatida qaraladi. Ana shu mezon, o‘sha xalqning etnogenezi qay davrdan boshlanganini belgilaydi. Agar shunday metodologik yondashuvga tayanadigan bo‘lsak, akademik A.Asqarov fikricha, o‘zbek xalqining etnogenez jarayoni taxminan 3,5 ming yil avval, ya’ni so‘nggi bronza davrida boshlangan. (Асқаров А., 2015. Б. 640). Chunki miloddan avvalgi II ming yillikning o‘rtalarida, Turkistonning shimoli-sharqidagi Sirdaryoning o‘ng sohilidan tortib, Ordosgacha cho‘zilgan keng dashtlarda yashagan turk etnosiga mansub qabila va urug‘lar O‘rta Osiyoga ko‘chib kelgan. Bu tarixiy jarayon adabiyotlarda “oriylar migratsiyasi” deb yuritiladi. Shu davrda ular bu hududdagi qadimgi eroniy tilli xalqlar – sug‘diylar, xorazmiylar, boxtariylar, chochliklar va praganaliklar bilan etnik

aralashuvga kirishgan. Shu bois, aynan shu davrni o‘zbek xalqi etnogenezining boshlang‘ich bosqichi deb hisoblash mumkin. (Аскаров А., 2015. Б. 640).

Ta’kidlash lozimki, O‘rta Osiyo o‘zbek va tojik xalqlarining etnogenetik hamda etnik tarixi shakllangan asosiy makon hisoblanadi. Bu ikki xalqning elat sifatida shakllanish jarayonlari aynan shu makonda, o‘zaro chambarchas bog‘liq va murakkab sharoitda kechgan. Har ikki xalq bir hududda yashab kelgani sababli, ularni qadimdan geografik jihatdan aniq ajratish ancha mushkul.

Akademik A.Asqarovning tadqiqotlariga tayanadigan bo‘lsak, til va siyosiy birlik kabi etnologik mezonlarga asosan, tojik xalqining etnogenezi milodiy IX-X asrlarda, o‘zbek xalqiniki esa XI-XII asrlarda yakuniga yetgan. Shu davrdan boshlab, bu ikki xalqning etnik tarixi boshlangan, ya’ni ular mustaqil xalqlar sifatida shakllana boshlagan. (Аскаров А., 2015. Б. 641).

O‘zbek xalqi tarixidagi elat (xalq) sifatidagi rivojlanish jarayoni XIX asr oxiri va XX asr boshlarigacha davom etdi. Bu davrda Rossiya imperiyasining bosqini natijasida O‘rta Osiyoga Rus kapitali kirib kelishi mahalliy jamiyatda katta o‘zgarishlarga sabab bo‘ldi. Xususan, mahalliy boylar orasida milliy burjuaziya shakllana boshladi. Ular moliyaviy imkoniyatlarini ishga solib, yangi ijtimoiy harakat – jadidchilikning yuzaga kelishiga turtki berishdi.

Bu yangi burjua qatlami farzandlari Yevropa mamlakatlarida tahsil oldi, u yerdagi iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayot bilan tanishdi. Ular o‘z vatini ham shunday isloh qilish mumkinligini anglab, o‘zgarishlarni ma’rifat orqali boshlash kerakligini tushunishdi. Shu asosda ular mahalliy aholi uchun yangi maktablar ochdi, gazeta va jurnallar nashr etdi, xalqni uyg‘otish va o‘zligini anglashga da’vat etdi. Keyinchalik bu harakat mafkuraviy va siyosiy kurashga aylandi.

Aynan shu harakatlar – XIX asr oxiri va XX asrning birinchi choragida kechgan ijtimoiy, iqtisodiy va mafkuraviy o‘zgarishlar – o‘zbek xalqining millat sifatidagi tarixi boshlanganini ko‘rsatadi.

Turkiston o‘lkasida ro‘y bergan milliy uyg‘onish jarayoni Sovet hokimiyatining jiddiy tashvishga solishi natijasida Sovet hokimiyatining O‘rta Osiyo xaritasida o‘zbek, turkman, qozoq, qirg‘iz va tojik nomlari bilan bir qatorda millatlar nomi bilan ataluvchi yangi davlatlarni rasmiy ravishda tashkil etildi.

Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida, yangi tashkil etilgan respublikalarga – ya’ni o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman va tojik xalqlari nomi bilan atalgan davlat tuzilmalariga – tarix yozish jarayoni boshlab yuborildi. Bu jarayonda har bir respublika uchun alohida milliy tarix yaratilishiga harakat qilindi. Natijada, umumiy Turkiston zaminining yagona tarixi va boy madaniy merosi bosqichma-bosqich parchalanib, avlodlar o‘rtasidagi an’anaviy tarixiy birlik tamoyillariga putur yeta boshladi.

Yangi tashkil etilgan davlatlarning tarixini yozishni boshlagan sovet tarixchilari nafaqat tarixni muayyan nuqtadan boshlashga intiladi, balki tarixiy davomiylik va mintaqadagi elatlar o‘rtasidagi uzviylikni e’tibordan chetda qoldiradi. (Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар), 2019. Б. 77-85). Shuni alohida ta’kidlash lozimki, Sovet hokimiyatining ilk yillarida o‘zbek xalqining kelib chiqish tarixini yoritishda asosan o‘rta asrlarga oid, ko‘p hollarda rivoyat va hikoyalar bilan omuxtalashgan yozma manbalarga tayanilgan. Buning asosiy sababi shundaki, o‘sha davrda O‘rta Osiyoda arxeologiya, antropologiya, etnografiya, toponimika, numizmatika, geraldika, tarixiy lingvistika kabi tarixiy manbashunos fanlar yetarli darajada rivojlanmagan edi. Aslida esa xalq va elatlarning etnogenezini ilmiy asosda to‘liq o‘rganish ana shu sohalarning kompleks rivojisiz mumkin emas.

Bundan tashqari, o‘sha paytda turkiy tilli aholining etnik tarixi mavjud an’anaviy etnosiyosiy voqelikni hisobga olmagan holda tadqiq etildi. Natijada, o‘zbek xalqining kelib chiqishiga oid murakkab masala soddalashtirilib, “o‘zbeklar faqat turk qabilalaridan tashkil topgan, ular mintaqaga qadimdan xos, sof turk tilli xalqdir”, degan bir yoqlama tezis ilgari surildi. (Асқаров А, 2015. Б. 641). Bu g‘oya mintaqada milliy ziddiyatlar kelib chiqishiga olib kelishi mumkinligi aniq bo‘lib qoldi .

Shu bilan birga, bu g‘oyaga mutlaq qarama-qarshi yondashuvga ega bo‘lgan guruhlar ham paydo bo‘ldi. Ular “O‘rta Osiyoning qadimgi aholisi faqat eroniy tilli xalqlar bo‘lgan, turkiylar esa bu hududga keyin kelgan kelginchilardir”, degan tezisni ilgari surdilar. (Асқаров А, 2015. Б. 641).

O‘lkada o‘tkazilayotgan milliy siyosatni kuzatayotgan islom ulamolari xalqlarning kelib chiqishiga nisbatan o‘ziga xos munosabat bildirdilar. Ularning ta’kidlashicha, etnosni shakllantiruvchi asosiy omil til emas, balki dindir. Ulamolarga ko‘ra, O‘rta Osiyo xalqlari turli tillarda so‘zlashishi mumkin bo‘lsa-da, ularning barchasini birlashtiruvchi umumiy belgilardan biri – islom diniga mansubligidir. (Asqarov, 2015. Б. 641).

Aslida esa, bu kabi qarama-qarshi fikrlar va qarashlar, ijtimoiy-gumanitar fanlar hali rivojlanishning bosh bosqichida bo‘lgan bir davrda shakllangani bois, muayyan darajada tabiiy edi.

XX asrning 40-yillariga kelib, o‘zbek xalqining kelib chiqishi masalasida sharqshunos olim A.Yu.Yakubovskiy 1941-yilda “O‘zbek xalqining etnik kelib chiqishiga doir masalalar” nomli risolasini nashr etdi. Ushbu asarida Yakubovskiy muhim ilmiy xulosalarni ilgari suradi.

Uning ta’kidlashicha, Movarounnahr va unga tutash hududlar hech qachon bo‘sh, aholi yashamagan yerlar bo‘lmagan. Shayboniyxon boshchiligidagi Dashti Qipchoq o‘zbeklari bu hududlarga kirib kelgunga qadar ham bu yerlarda turkiy va eroniy tilli qabila va elatlar birgalikda, aralash holda yashaganlar. Agar mazkur hududlarda

Shayboniyxon kelguncha aholi yashamagan, “kimsasiz” yerlar bo‘lganida, o‘zbek xalqining tarixi XVI asrdan, ya’ni Shayboniyxondan boshlangan, deb aytish mumkin bo‘lar edi. Ammo tarixiy va arxeologik dalillar bu fikrni rad etadi degan fikrni bildiradi. (Якубовский А.Ю, 1941 Б. 16).

Arxeologik topilmalar va qadimgi yozma manbalar shuni ko‘rsatadiki, bu hududlarda eroniy va turkiy tilli aholi uzoq davrlardan beri qo‘shnilik va hamkorlikda yashab kelgan. Ular o‘rtasida iqtisodiy, madaniy va etnik aloqalar tarixan juda qadimiy ildizlarga ega. Ayniqsa, Buyuk Turk xoqonligining mintaqaga kirib kelishi bu jarayonni yangi bosqichga olib chiqdi. G‘arbiy Turk xoqonligi davrida esa ikki til sohibi xalqlar o‘rtasidagi etnomadaniy qorishuv yanada kuchaydi, shu bilan birga, siyosiy va harbiy ustunlik turk qabilalari qo‘liga o‘ta boshladi.

A.Yu.Yakubovskiyning fikriga ko‘ra, ana shu tarixiy voqelik – ya’ni Turk xoqonligi davridan boshlangan etnomadaniy va etnosiyosiy jarayonlar – o‘zbek xalqining etnogenezi uchun boshlang‘ich nuqta hisoblanadi. Uning ushbu ilmiy konsepsiyasi o‘z vaqtida o‘zbek xalqining kelib chiqishi masalasidagi eng to‘g‘ri va dalilga asoslangan xulosa sifatida e’tirof etilgan. (Якубовский А.Ю, 1941 Б. 20).

A.Yu.Yakubovskiy tomonidan ilgari surilgan etnogenezga oid ilmiy g‘oyani keyinchalik arxeolog va etnograf S.P. Tolstov yanada rivojlantirdi. U Movarounnahr va qadimgi Xorazm hududlarida keng qamrovli arxeologik va antropologik tadqiqotlar olib bordi. Bu tadqiqotlar natijasida o‘zbek xalqining etnogenezi ildizlari antik davrgacha, ya’ni miloddan avvalgi ming yilliklargacha qadimiylashtirildi. (Толстов С.П, 1941 Б. 33).

Ko‘p yillardan beri mintaqaning deyarli barcha hududlarida tadqiqot olib borayotgan akademik A.Asqarov ilmiy ishlarida bugungi kunda Markaziy Osiyoda yashab kelayotgan barcha turkiy va eroniy tilli xalqlar – o‘zbek, tojik, qozoq, qirg‘iz, turkman va qoraqalpoqlar – avtoxton, ya’ni ushbu hududning tub aholisidir degan fikrni ilgari suradi. Ularning barchasi tarixiy-etnik jihatdan umumiy ildizga ega. Agar ularni mevali bir daraxtga qiyos qiladigan bo‘lsak, bu daraxtning turli payvand shoxlari – bir tomonda tojik, boshqa tomonda o‘zbek, qozoq, qirg‘iz, turkman va qoraqalpoq xalqlaridir. Bu yerda qadim va o‘rta asrlarda yashab o‘tgan buyuk allomalar, din va ilm-fan namoyandalarining butun Markaziy Osiyo xalqlariga teng darajada taalluqlidir, degan qarashni o‘z monografiyalarida keltirib o‘tadi. (Асқаров А, 2015. Б. 643).

Zero, mintaqa xalqlarining ajdodlari asrlar davomida o‘zaro iqtisodiy, madaniy va etnik aloqada bo‘lib, aralash holda yashaganlar, tashqi tahdidlarga qarshi birgalikda kurashganlar. Ular tomonidan yaratilgan boy madaniy meros esa, tabiiy ravishda, barcha xalqlar uchun umumiy, umuminsoniy boylik hisoblanadi. Bu boylik, shuningdek, ajdodlarimizning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shgan muhim hissasi sifatida ham e’tirof etilgan.

So‘nggi yillardagi tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, Markaziy Osiyoning bronza davriga oid dasht chorvador qabilalarining moddiy madaniyatidagi kuchli o‘xshashlik mavjud ekanligi, shuningdek, antropologik tipning yakdilligi ham Markaziy Osiyoda yashab kelayotgan barcha turkiy va eroniy tilli xalqlar bitta o‘q tomirga mansubligini isbotlaydi.

Etnogenez jarayonida hal qiluvchi rol o‘ynaydigan omillardan biri til omili bo‘lib, tilshunos mutaxassislardan A.S.Omonjolov kushonlar davriga oid bo‘lgan “noma’lum yozuv”ni Issiq yozuvi bilan taqqoslab tahlil qildi va uning qadimgi turkiy yozuv ekanini ilmiy asoslab berdi. (Омонжолов А.С, 1975. Б. 61-65).

So‘nggi yillarda Xitoy va yapon olimlarining qadimgi Xitoyning 24 sulolaviy tarixi bo‘yicha iyerogliflarning asl mohiyati qayta tahlil qilindi. Ushbu ilmiy tadqiqotlar natijasida N.Ya.Bichurindan farqli ravishda, miloddan avvalgi III ming yillikning oxiri va II ming yillikning boshlarida Janubiy Sibirda “xu”, “g‘uz”, “tiek”, “hunnu” kabi etnonimlar mavjud ekanligi aniqlandi. Bu etnonimlarning geografik va madaniy lokalizatsiyasi Yevrosiyoning eneolit va bronza davri arxeologik madaniyatlariga bog‘liq ekani ilmiy jihatdan isbotlandi.

Jahon tarixshunosligida g‘uz (og‘uz), tiek (turk), xu (hun) etnonimlari turk etnik qatlamiga mansubligiga oid tajribalar mavjud. Ular eneolit va bronza davrlarida Tyan-Shan, Janubiy Sibir dashtlari, Yenisey havzalari, Ordosgacha bo‘lgan hududlarda yashagan. G‘arb olimlari, xususan Rossiyadagi tarixchilar hindu-oriy nazariyasi ta’sirida Yevrosiyo dashtlarining eneolit va bronza davri qabilalari qadimgi eroniy til lahjalarida so‘zlashgan, degan fikrni asoslashga uringanlariga qaramay, ularning asosiy dalillari qadimgi xitoy iyerogliflarini chuqur o‘rganish natijasida ularning qadimgi turkiy tilda so‘zlashganligiga asos borligi aniqlandi.

Arxeologik, antropologik, etnografik, lingvistik, tarixiy toponimika va qadimgi yozma manbalar asosida ilmiy tadqiqot natijalariga ko‘ra, o‘zbek elatining tarixiy shakllanishi tub joyli turkiy va qadimgi eroniy tilli qabila va elatlarning uzoq asrlar davomida o‘zaro etnik qorishuvi asosida O‘rta Osiyo ikki daryo oralig‘i va unga tutash hududlarda vujudga kelganligi o‘z ilmiy tasdig‘ini topdi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur tadqiqot davomida o‘zbek xalqining etnogenezi masalasi nazariy-metodologik yondashuvlar asosida tahlil qilinib, akademik A.Asqarov qarashlarining ilmiy ahamiyati ochib berildi. O‘rganishlar shuni ko‘rsatadiki, o‘zbek xalqining etnik shakllanish jarayoni biryoqlama omillar bilan emas, balki Markaziy Osiyo hududida qadimdan kechgan murakkab etnik, madaniy va ijtimoiy jarayonlarning uzviy uyg‘unligi natijasida vujudga kelgan tarixiy hodisadir.

Tadqiqot natijalari akademik A.Asqarov tomonidan ilgari surilgan konsepsiyaning ilmiy asoslanganligini tasdiqlaydi. Uning qarashlariga ko‘ra, o‘zbek

xalqi etnogenezi mahalliy o‘troq aholi asosida shakllanib, turli tarixiy davrlarda mintaqaga kirib kelgan etnik guruhlar bilan uzluksiz aloqalar va integratsiya jarayonlari orqali rivojlangan. Ushbu yondashuv o‘zbek xalqining etnik tarixini tushunishda tarixiylik va uzviylik tamoyillarining muhimligini namoyon etadi.

Shuningdek, tadqiqot jarayonida o‘zbek xalqi etnogenezi muammosini o‘rganishda qo‘llaniladigan nazariy-metodologik yondashuvlarning evolyutsiyasi aniqlanib, zamonaviy tarixshunoslikda kompleks, fanlararo yondashuvlarning ustuvor ahamiyat kasb etayotgani asoslab berildi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, quyidagi **ilmiy-amaliy takliflar** ilgari suriladi:

birinchidan, o‘zbek xalqining etnogenezi masalasini o‘rganishda fanlararo tadqiqotlarni yanada kengaytirish, ayniqsa zamonaviy arxeologik va bioantropologik tadqiqotlar natijalarini ilmiy muomalaga faol joriy etish maqsadga muvofiqdir;

ikkinchidan, akademik A. Asqarov ilmiy merosini tizimli ravishda o‘rganish va uning qarashlarini yangi manbalar asosida qayta tahlil qilish zarur;

uchinchidan, o‘zbek etnogeneziga oid ilmiy natijalarni oliy ta’lim muassasalarida tarix va etnologiya fanlari doirasida o‘quv jarayoniga keng joriy etish maqsadga muvofiq bo‘lib, bu yosh avlodda tarixiy tafakkur va milliy o‘zlikni anglashni mustahkamlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, mazkur maqolada ilgari surilgan xulosalar va takliflar o‘zbek xalqining etnik tarixini chuqurroq o‘rganish hamda etnogenez masalasiga oid ilmiy izlanishlarni yangi bosqichga ko‘tarishda muhim nazariy va metodologik asos bo‘lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Асқаров А. (2015) Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи. – Тошкент: O‘zbekiston. – Б. 641.
2. Асқаров А. (2007) Ўзбек халқининг этногенези ва этник тарихи. – Тошкент.
3. Асқаров А. (2023) Қадимги Турон энеолит, бронза ва илк темир даври цивилизациялар тарихидан лавҳалар. – Тошкент. – Б. 356.
4. Асқаров А. (2024) Меҳнат ва курашда тобланган ҳаёт онларим. Тошкент: Donishmand ziyisi. – Б. 510.
5. Каримова Д. Машаққатли ва шарафли илм йўли / Ўтмишга назар. № 3. – Б. 50-65.
6. Омонжолов А.С. (1975) Материалы и исследования по истории древнетюркской письменности. Алма-Ата. – С. 61-65.
7. Сатторов Н. (2022) Қадимги Турон аҳолисининг ёзма манбаларда акс этиши / ҚарДУ Хабарлари Илмий-назарий, услубий журнал. – 5/2. – 28-31 бетлар. – http://xabarlar.qarshidu.uz.

8. Сатторов Н. (2022) Ўзбек халқи этногенезининг шаклланиш жараёни ҳақида туғилган пантуркизм, панираниз м, панисломизм қарашлари / Марказий Осиё цивилизация тизимида ўзбекистон тарихи ва маданияти Халқаро илмий-амалий конференция. – 14 май. – 272-278 бетлар.

9. Толстов С.П. (1947) Основные проблемы этногенезе народов Средней Азии. СЭ. – № VI-VII. – С. 303.

10. Ўзбекистон тарихи (1917-1991 йиллар). (2019) 1-жилд. – Тошкент: O‘zbekiston. – 77-85 бетлар.

11. Якубовский А.Ю. (1941) К вопросу об этногенезе узбекского народа. – Ташкент: Изд.

REFERENCES:

1. Asqarov A. (2007) O‘zbek xalqining etnogenezi va etnik tarixi. – Toshkent. (In Uzbek)

2. Asqarov A. (2015) O‘zbek xalqining kelib chiqish tarixi. – Toshkent: O‘zbekiston. – B. 641. (In Uzbek)

3. Asqarov A. (2023) Qadimgi Turon eneolit, bronza va ilk temir davri sivilizatsiyalar tarixidan lavhalar. – Toshkent. – B. 356. (In Uzbek)

4. Asqarov A. (2024) Mehnat va kurashda toblangan hayot onlarim. Toshkent: Donishmand ziyisi. – B. 510. (In Uzbek)

5. Karimova D. Mashaqqatli va sharafli ilm yo‘li / O‘tmishga nazar. № 3. – B. 50-65. (In Uzbek)

6. Omonjolov A.S. (1975) Materialy i issledovaniya po istorii drevnetyurkskoy pismennosti. Alma-Ata. – S. 61-65. (In Russian)

7. Sattorov N. (2022) Qadimgi Turon aholisining yozma manbalarda aks etishi / QarDU Xabarlari Ilmiy-nazariy, uslubiy jurnal. – 5/2. – 28-31 betlar. – http://xabarlar.qarshidu.uz. (In Uzbek)

8. Sattorov N. (2022) O‘zbek xalqi etnogenezining shakllanish jarayoni haqida tug‘ilgan panturkizm, paniranizm, panislomizm qarashlari / Markaziy Osiyo sivilizatsiya tizimida O‘zbekiston tarixi va madaniyati Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya. – 14 may. – 272-278 betlar. (In Uzbek)

9. Tolstov S.P. (1947) Osnovnyye problemy etnogeneze narodov Sredney Azii. SЭ. – № VI-VII. – S. 303. (In Russian)

10. O‘zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). (2019) 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston. – 77-85 betlar. (In Uzbek)

11. Yakubovskiy A.Yu. (1941) K voprosu ob etnogeneze uzbekskogo naroda. – Toshkent: Izd. (In Russian)

PIRI RAISNING DENGIZSHUNOSLIK ASARI “BAHRIYA” BO‘YICHA TAHLILLAR

АНАЛИЗ МОРСКОГО ТРУДА ПИРИ РЕИСА «БАХРИЕ».

ANALYSES OF PIRI REIS’S NAUTICAL WORK “BAHRIYE”

https://zenodo.org/records/19260711

Kamolov Jahongir Mamasidiqovich
Oreantal universiteti
Ijtimoiy fanlar kafedrasi dotsenti, PhD.
Tel.: +998 99-843-88-96
E-mail: jahongir.kamolov.88@gmail.com
ORCID: 0009-0005-6245-1004

Annotatsiya. Ushbu maqolada Usmoniylar imperiyasi davrida yashab, dengizchi, kartograf va olim sifatida shuhrat qozongan Piri Rais qalamiga mansub “Bahriya” asari tahlil qilinadi. Maqolada, avvalo, ushbu asarning mazmuni qaysi masalalarga qaratilgani, unda dengiz yo‘llari, portlar va qirg‘oq hududlarini tasvirlashdagi o‘ziga xos jihatlar yoritib beriladi. Shuningdek, “Bahriya”da tilga olingan sayohatlar qamrab olgan hududlar, ularning geografik xususiyatlari va navigatsion ahamiyati haqida fikr yuritiladi.

Matnda Piri Raisning shaxsiyati, uning dengizchi va kartograf sifatida shakllanish jarayoni, asarni yozishdan ko‘zlagan maqsadi hamda nega aynan “Bahriya” (“Bahriye”, ya’ni dengizchilikka oid kitob) deb nomlanganiga doir ayrim mulohazalar ilgari suriladi. Shuningdek, muallifning Xristofor Kolumb tomonidan Amerikaning kashf qilinishi haqidagi ma’lumotlari, yangi ochilgan qit’aga doir tasavvurlari ham tahlil etiladi.

Kalit so‘zlar: *Bahriya, O‘rta yer dengizi, Usmoniylar, Amerika, Sulton Sulaymon, nasr, nazm, Magellan, Kolumb.*

Аннотация. В данной статье рассматривается произведение «Бахрие» османского мореплавателя, картографа и учёного Пири Реиса, жившего и творившего в эпоху Османской империи. Прежде всего анализируется, на какие вопросы и проблемы направлено содержание этого труда, как в нём описываются морские пути, порты и прибрежные территории, а также какие особенности морской навигации в нём отражены. Отдельное внимание уделяется регионам, по которым, согласно «Бахрие», совершались плавания, их географическим характеристикам и значению для мореплавания и торговли.

В статье также затрагиваются личность Пири Реиса, формирование его как мореплавателя и картографа, цели написания им данного труда и причины выбора названия «Бахрие» (то есть «морская книга», «книга о мореплавании»).

Кроме того, анализируются сведения автора об открытии Америки Христофором Колумбом и представления Пири Реиса о новом континенте.

Ключевые слова: *Бахрия, Средиземное море, Османская империя, Америка, Султан Сулейман, проза, поэзия, Магеллан, Колумб.*

Abstract. This article examines the work “Bahriye” by Piri Reis, a sailor, cartographer, and scholar who lived and worked during the Ottoman Empire. First, it analyses the main focus of the book’s content, the way it describes sea routes, ports, and coastal regions, and the specific features of navigation reflected in the text. Special attention is given to the regions covered by the voyages mentioned in “Bahriye,” their geographical characteristics, and their significance for maritime navigation and trade.

The article also touches upon the personality of Piri Reis, his formation as a sailor and cartographer, the purpose for which he wrote this work, and the reasons why it was titled “Bahriye” (that is, a “sea book” or “book of navigation”). In addition, it analyses the author’s information about Christopher Columbus’s discovery of America and Piri Reis’s perception of the newly discovered continent.

Keywords: *Bahriya, Mediterranean Sea, Ottomans, America, Sultan Suleiman, prose, poetry, Magellan, Columbus.*

KIRISH

Turk dengizchisi va sayyohi Piri Rais XVI asrning mashhur tadqiqotchisi hisoblanib, dengizchilik ilmiga katta hissa qo‘shgan. U o‘zi tashrif buyurgan joylarni sinchiklab o‘rganib, kuzatuv natijalari shu bilan birgalikda boshqa tadqiqotchi olimlarning ma’lumotlaridan foydalangan holda muhim kartografik xaritalarni yaratgan. Shuningdek, tuzgan xaritalarining aksariyat qismini Bahriya asarida keltirib o‘tadi. Asarda berilgan har bir xaritaga muallif tomonidan alohida to‘xtalib, imkon qadar kengroq va to‘liqroq yoritilishiga harakat qilingan. Ushbu asarning asosiy xususiyati shundaki, unda keltirilgan ko‘plab xaritalar O‘rta yer dengizi qirg‘oqlari haqidagi geografik ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Shuningdek, Qora va Egey dengizi haqidagi kartografik ma’lumotlar mavjud. Nafaqat Usmoniylar imperiyasi geografiyasi va xaritachiligining eng muhim namunasi, balki turli fanlar uchun ham asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Shu jihatdan ham asar ko‘proq shuhrat qozongan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu asarni bugungi kungacha juda ko‘plab tadqiqotchilar tahlil qilishgan bo‘lib, ayniqsa Yevropada ko‘p marta nashr etilgan. Turkiyaning o‘zida ham Usmoniylar davri tarixiga oid manbalar bugungi kunga qadar juda ko‘p marta tadqiq qilinib, o‘rganilgan. Xususan, Piri Reisning dengizshunoslik kartografiyasiga oid Bahriya asari qimmatli asarlar sirasiga kiradi. Uni tadqiq etgan ko‘pgina tarixchilar asarni o‘z davri uchun nihoyat darajada qimmatli bo‘lganligini e`tirof etishgan. Usmoniylar davrida, xususan Piri Reis haqidagi tadqiqotlar Turkiya olimlarining

diqqat markazida bo'lgan. Bu olimlar orasida Afet İnan va Yusuf Akçura kabi shaxslar alohida o'rin tutadi. Afet Inanning "Türk Amirali Piri Reis'in Hayatı ve Eserleri"da Piri Reisning 1513-yilgi mashhur xaritasini o'rganishda katta rol o'ynagan. Yusuf Akçura 1937-yilda "Piri Reis Haritasi" nomli kitob chop etgan, unda xaritadagi yozuvlarni lotin grafikasiga almashtirib qayd etgan va bu xalqaro e'tiborga tushgan. Yuqoridagi tadqiqotlardan so'ng bu asarni tadqiq etish ishlari yanada jonlandi. Piri Reisning "Kitab-i Bahriye" asari va Amerika qit'asini ko'rsatgan 1513 xaritasi bo'yicha Turk Tarix Kurumi (TTK) tadqiqotlar olib bordi. Bu xarita 20 ta manbadan, shu jumladan Kolumb xaritasidan foydalanib chizilgani aniqlangan.(https://21yyte.org/milli-guvenlik-ve-dis-politika-arastirmalari merkezi/piri-reis-haritasi-nasil-cizildi/7354)

Asar ikki qismdan, qisman she'riy va nasriydan iborat. Bu xususda muallifning o'zi Bahriya asarida quyidagilarni ta'kidlaydi: "Bu kitobda kompas, xarita va shamollari sayoz hududlarning ahvolini har doim nazmda bayon qildim. Faqat O'rta yer dengizidagi reja ishlarini nasrda yozdim. Chunki nazmda davom etsam, so'zlar ko'payib ketardi. Ish paytida, tun vaqtida, qandaydir qiyinchilik paytida uzun so'zlar to'g'ri kelmaydi. Birdaniga qisqacha bayon kerak. Endilikda har bir qismning sharhlari yozilib, so'ngra hududlarning tafsilotlari qayd etiladigan bo'ldi. Ish paytida, tun, qiyinchilik vaqtida darhol bu kitobga qarab, unga ko'ra harakat qilinsa inshalloh foyda topadilar" (Piri Reis, 1973:20)

Piri Raisning qachon tug'ilgani haqida aniq ma'lumotlar mavjud emas. Aksariyat tarixchilar uni 1465-1470-yillar oralig'ida dunyoga kelgan degan taxmin qilishadi (Piri Reis, 1973:23).

Piri Rais Bahriya asarida o'zini Hoji Mehmet o'g'li bo'lgan G'oziy Kamol Raisning ukasini o'g'li deb tanishtiradi (Piri Reis, 1973:27).

Dastlab Kamol Raisning oldida o'zining dengizchilik faoliyatini boshlaydi. Kotibi Chalabiyga ko'ra, Kamol Rais vafot etgandan so'ng Piri Rais Barbaros Hayriddin Posho bilan birga xizmat qilgan. Barbarosning "ko'ngilli kemalari" tomonidan qo'lga kiritilgan yog'och ortilgan fransuz savdo kemasi Piri Rais tomonidan Istanbulga olib kelingan. Buning evaziga Sulton tomonidan unga faxriy libos hadya etilgan (Gökyay O.Ş., 1980: 42-43).

Shundan so'ng bir muddat Piri Rais Gallipolida qolib, u yerda (1513-yilda) dunyo xaritasini tuzgan. Bugungi kunda bizgacha yetib kelgan, Markaziy va Janubiy Amerikaning sharqiy sohillari hamda Yevropa va Afrikaning g'arbiy sohillarini ko'rsatadigan xarita, ana shu dunyo xaritasining bir qismi hisoblanadi (Mine Esiner Özen. 2006. VII-2).

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda Piri Raisning "Bahriya" asari kompleks yondashuv asosida, tarixiy-manbashunoslik va matnshunoslik usullari uyg'unligida o'rganiladi.

“Bahriya”da keltirilgan xaritalar, portolanlar va navigatsion chizmalar zamonaviy kartografiya talablari nuqtayi nazaridan o‘rganilib, ularning geografik aniqligi, proyeksiya xususiyatlari, shartli belgilar tizimi va masshtab ifodasi tahlil qilinadi.

Asarda tasvirlangan O‘rta yer dengizi qirg‘oqlari, portlar va dengiz yo‘llari boshqa zamondosh xaritalar va portolan atlasi bilan qiyosiy solishtiriladi. Asarning strukturasi (boblar, fasllar, prolog va xotima qismi), undagi nazariy izohlar hamda amaliy navigatsion ko‘rsatmalar tizimli tahlil qilinadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bahriya asarining yozilishining asosiy sababi Qonunni Sulton Sulaymonga sovg‘a sifatida taqdim etishdan iborat bo‘lgan. Bu haqida muallifning o‘zi ham ta’kidlab o‘tgan (Piri Reis, 1973:27).

Nasr va nazmdan iborat bo‘lgan ikki nashrdan iborat bo‘lgan ushbu asarning nasriy bo‘lgan nashrga tegishli 120-134 ta xarita saqlangan. Birinchi va ikkinchi nashrlar, shuningdek faqat xarita yoki faqat matn sifatida tasniflanganlar orasida ichki va tashqi manbalarda aniqlangan oltmishga yaqin qo‘lyozmadan yigirma beshtasi birinchi nashrdir. Ikkinchi nashrning she’riy qismlarini Seyyid Muradi yozgani uchun, bu birinchi nashr to‘g‘ridan-to‘g‘ri Piri Reis qalamidan chiqqani uchun muhimdir. Demak, ko‘rib turganimizdek, asar katta hajmda yozilgan bo‘lib, O‘rta yer dengizi, Qora va Egey dengizlari haqidagi kartografik ma’lumotlar, bundan tashqari Amerikaning kashf etilishi, Hind va Atlantika okeani haqidagi fikrlari, sayohatlari davomida o‘zi guvoh bo‘lgan voqealar haqida bayon qilib o‘tadi.

Kitob-i Bahriya asarida Piri Rais okeanni ikkiga ajratib, Hind okeani bilan Atlantika okeani aslida bitta ekanini, ularning alohida-ayri emasligini ta’kidlaydi (Piri Reis, 1973:62). Shuningdek, Janubiy Amerikadan Xitoygacha bo‘lgan sayohat ilgari ilk bor Portugaliyadan yo‘lga chiqqan yetti ta kema orqali amalga oshirilganini, bu yetti kemadan faqat bittasi Portugaliyaga qaytib kelganini ta’kidlaydi.Shuni aytib o‘tish joizki, u bayon qilgan bu voqea Ferdinand Magellanning 1519-yilda amalga oshirgan dengiz safaridan avval sodir bo‘lgan. Magellan o‘z safarini besh kema bilan boshlagan va ulardan faqat bittasi Viktoriya kemasi ekipajda 18 ta odam bilan qaytgan (Bergreen L. 2008. 391-392). Piri Rais yozib qoldirgan ushbu ma’lumotni tasdiqlash uchun nemis astronomi va kartografi Yohannes Shyonerning 1515-1520-yillar oralig‘ida tayyorlagan Yer globuslarida Piri Rais xaritasining janubida Magellan bo‘g‘ozining ko‘rsatilganini misol keltirish mumkin (Дузер, Чет Ваню 2010). Bundan ko‘rinib turibdiki, muallif tomonidan berilgan fikrlar, ma’lumotlar keyingi yillarda boshqa olimlar, kartograflar tomonidan ilgari surilgan va ular ham o‘z xaritalarida, kitoblarida shunga o‘xshash o‘z fikrlarini bildirishgan.

Piri Raisning fikricha, ilk dengiz safarlarini amalga oshirganlar barcha hududlarni xaritalashtirganlar. Bahriya asarida esa bu xaritalar Portugaliyada bo‘lgan, bir necha

kishi uni muvofiqlashtirgan va ilmda mukammal darajaga yetgan bir ruhoniyga olib kelingani bayon qilinadi. Ushbu ruhoniy barcha ma'lumotlarni o‘zaro muvofiqligiga ko‘ra bitta kitobga joylashtirgan. Shuningdek, bu yerda Xitoydan G‘arbiy dengizga, ya'ni Amerika qit'asigacha bo‘lgan barcha hududlar va orollar o‘lchovlari bilan yozib qo‘yilgani aytiladi (Piri Reis, 1973: 63). Yuqorida ta'kidlanganidek, olim asarida Xristofor Kolumbning Amerikani kashf qilishiga ham o‘z mulohazalarini bildirib o‘tgan. Asarda Xristofor Kolumbning yo‘nalishini bayon qilar ekan, shunday deydi: "G‘arb tomonda cheksiz bir dengiz bor. Uni Jazoirda deb o‘ylama. Qarab ko‘r, u qayerda?" – deganidan so‘ng, uning chegaralarini ko‘p izlashgan, ammo topa olishmaganini aytadi. Oxir-oqibat u chegara-belgisiz, qoramtir bir quruqlik massasi bo‘lib, oqimlar ta'siri ostida joylashganini ta'kidlaydi. Lodos, ya'ni g‘arb tomonda joylashgan bo‘lib, Septadan 4000 mil g‘arbga qarab yo‘l bosilgach, San-Salvador oroliga yetib boriladi. U yerdan 230 mil yurgach, Kuba oroliga kiriladi. So‘ng "tarixchilar nima deydi, qarang", deya davom etadi. Hijriy taqvim bo‘yicha 870-yilda, ya'ni milodiy 1465-yilda topilganini aytadi (Piri Reis. 1973: 105).

Bu esa Kolumbdan 28 yil oldin sodir bo‘lgan. Bundan shunday xulosa chiqadiki, tarix keyinchalik yana qaytadan yozilgan. Bu hududga Antillia deb nom berilgan, ya'ni bugungi Antil orollari. Janubiy Amerika esa Bertilya deb atalgan.

Shuningdek, o‘z asarida qiziltanlilar haqida ham to‘xtalib o‘tib, ularning yuzlari yassi ekanligini, ikki ko‘zi orasidagi masofa ham ochiq bo‘lishini aytadi. "Go‘yo bu masofa bir qarichdek", deydi (Piri Reis. 1973:106). Ya'ni bu yerda u aniq "bir qarich"ni nazarda tutmayapti, balki o‘xshatish ma'nosida ikki ko‘z orasidagi masofani kattaligini bildirmoqchi bo‘layotganini tushunishimiz mumkin. Shu bilan birgalikda ularning boshlari qush patlari bilan bezatilganini ham eslatib o‘tadi.

Shundan keyin juda muhim bo‘lgan, e'tiborimizni ko‘proq qaratishimiz kerak bo‘lgan masalaga o‘tadi. Ularda "kiyah" deb atalgan bir o‘simlikning borligini, uning barglarini bir marta yeganlaridan so‘ng, O‘rta yer dengizida kofirlarga rahm-shafqat qilmaganlarini tasvirlaydi. Bundan xulosa qilishimiz mumkinki, bu o‘simlik inson organizmida jasoratni kuchaytiradigan, shijoatini oshiradigan qandaydir gormon ishlab chiqaradi.

Xristofor Kolumbning Amerikaga kelishini bayon qilar ekan, uning aytishicha, bir kuni u yerga bir xalqni asir olish uchun Ispaniyadan kemalar kelgan. Avval ham borib kelingani sababli, bu hudud Ispaniya yo‘li hisoblanganini aytadi. Dengizchilar dengizda bir qayiqni ko‘rib, uni kuzatib borishadi va shu tariqa bir orolga yetib kelishadi. Kuba ana shu tarzda topilgan.

Kubada aholi ko‘p bo‘lgani uchun ularni asir olib, qul sifatida ishlatishgan. Kolumbning qirolga yuborgan xaritasida Kubani ko‘rsatmaganining sababi ham shu ekanligi aytiladi. Piri Rais u yerdan ikki nafar tub aholi vakilini Ispaniya qiroliga

yuborishganini ta’kidlaydi. Shundan so‘ng Kolumb bu hududning hokimi (volisi) bo‘lgan.

Kitobda mahalliy aholiga munchoq berib, evaziga oltin olishgani, keyinchalik esa yana munchoq berib, evaziga marvarid (yoki qimmatbaho buyumlar) olishgani haqida so‘z yuritiladi. Piri Rais keltirgan bu ma’lumotlarning aynan o‘zi Edvard Egglestounning 1889-yilda yozilgan Amerika tarixi haqidagi ilk kitobida ham xuddi shu tarzda bayon etilgan (Edward Eggleston, 1889:10). Ko‘rib turganimizdek, muallif imkon qadar hududlarning geografiyasi shu bilan birgalikda tarixini imkon qadar yoritib berishga harakat qilgan. Bu ma’lumotlar to‘g‘riligi bilan ham ayniqsa qiymatlidir. Asarning nomini nega aynan Bahriya deb atagani ham qiziq, albatta. Buning sababini ham Piri Rais keltirib o‘tgan bo‘lib, bunday deb ta’kidlaydi: “Bahri Rumning barcha tavsiflarini sizga yozib berdim, biz uchun bir duo qiling.Chunki, ey komilligi to‘la kishi, Bu yurt xalqiga Bahr-i Rumni bilish, uning holini anglash zarur. Shu sababdan men buni yodga oldim va unga “Bahriye” deb nom berdim” (Piri Reis, 1973:110).

Olim bu so‘zlari orqali asarga nom berilishi sababini ochiq-oydin ko‘rsatib o‘tgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki,Piri Raisning “Bahriya” asari Usmoniylar davri dengizchilik ilmi, geografiya va kartografiya tarixida muhim o‘rin tutadigan noyob manbadir. Asarda asosan O‘rta yer dengizi havzasi, portlar, qirg‘oqlar, dengiz yo‘llari, shamollar va suv oqimlari batafsil tasvirlangan. Kartograf olim Piri Raisning Bahriya asari o‘z davri uchun yetarli darajada mukammal edi. Bunga isbot tariqasida muallifning o‘z asarida keltirgan ma’lumotlarini boshqa olim va sayyohlarning yozgan kitoblarida aynan o‘zini yoki qisman o‘zgartirish keltirilgan holatda ko‘rishimiz mumkin. Bu esa Piri Raisning yozib qoldirgan ma’lumotlarini aniqliligini,to‘g‘riligini isbotlab beradi. U imkon qadar o‘zi borgan, o‘z ko‘zi bilan ko‘rgan hududlar, aholi, dengiz va ko‘llarni yoritib bergan. Shuningdek, asarni bevosita Usmoniylar imperiyasi hukmdori Qonuni Sulton Sulaymonga topshirilishi uning qiymatini yanada oshiradi. Xususan, “Bahriya”ni o‘z davridagi boshqa dengizchilik asarlari bilan solishtiradigan bo‘lsak, uning eng katta ustunligi muallifning shaxsiy sayohatlari va kuzatuvlariga asoslanganidadir. Bu jihati bilan u faqat nazariy emas, balki amaliy qo‘llanma sifatida ham ahamiyatlidir.

Asar bugungi kunda tarix, geografiya va dengizchilik ilmini o‘rganishda muhim ilmiy manba bo‘lib xizmat qiladi. Ayniqsa, undagi xaritalar va tasvirlar o‘sha davr dunyoqarashi, Yevropa va Usmoniylar ilmiy an’analari o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni anglashga yordam beradi. Masalan, Kolumb va Magellan kabi sayyohlar faoliyatiga doir ma’lumotlar asarning qamrovini yanada kengaytiradi.

Biroq “Bahriya”ning ayrim kamchiliklari ham mavjud. Masalan, ba’zi geografik tasvirlar bugungi ilmiy ma’lumotlar bilan to‘liq mos kelmaydi, ayrim hududlar esa subyektiv qarashlar asosida yoritilgan. Shunga qaramay, asar o‘z davri uchun yuksak ilmiy darajada yozilgan bo‘lib, Piri Raisni buyuk dengizchi va kartograf sifatida tarixda mustahkam o‘ringa ega etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Afet Inan (1983) Piri Reis’in Hayati ve Eserlari, Ankara.
2. Bergreen L. (2008) Over the Edge of the World: Magellan’s Terrifying Circumnavigation of the Globe. HarperCollins e-books.
3. Дузер Чет Ван (2010) Глобус Иоганна Шёнера 1515 года: расшифровка исследование, издательство американского философского общества.
4. Edward Eggleston (1889) American history, New York: D.Appleton and company.
5. Fuad Ezgü (1964) Piri Reis, Islam Ansiklopedisi, M.E.B., c. IX.
6. Katib Çelebi (1980) Tuhfetü’l-Kibar fi Esfari’l-Bihar, Istanbul, O.Ş. Gökyay tarafindan yayima hazirlanan nüsha, c.I.
7. Mine Esiner Özen (2006) Piri Reis ve Müntehab-i Kìtab-i Bahriye, Osmanli Bilimi Araştirmalari VII/2. Topkapi Sarayi Müzesi Kütüphanesi, Revan 1633 numarada kayitlidir.
8. Piri Reis (1973) Kitab-i Bahriyye. Kervan Kitabçilik A.Ş. ofset tesisleri. Türkiye cumhurbaşkanliği Ankara.

REFERENCES:

1. Afet Inan (1983) Piri Reis’in Hayati ve Eserlari, Ankara. (In Turkish)
2. Bergreen L. (2008) Over the Edge of the World: Magellan’s Terrifying Circumnavigation of the Globe. HarperCollins e-books. (In English)
3. Chet Van Duzer (2010) Globus Ioganna Shyonera 1515 goda: rasshifrovka issledovaniye, izdatelstvo amerikanskogo filosofskogo obshestva. (In Russian)
4. Edward Eggleston (1889) American history, New York: D.Appleton and company. (In English)
5. Fuad Ezgü (1964) “Piri Reis”, Islam Ansiklopedisi, M.E.B., c. IX. (In Turkish)
6. Katib Çelebi (1980) Tuhfetü’l-Kibar fi Esfari’l-Bihar, Istanbul, O.Ş. Gökyay tarafindan yayima hazirlanan nüsha, c.I. (In Turkish)
7. Mine Esiner Özen (2006) Piri Reis ve Müntehab-i Kìtab-i Bahriye, Osmanli Bilimi Araştirmalari VII/2. Topkapi Sarayi Müzesi Kütüphanesi, Revan 1633 numarada kayitlidir. (In Turkish)
8. Piri Reis (1973) Kitab-i Bahriyye. Kervan Kitabçilik A.Ş. ofset tesisleri. Türkiye cumhurbaşkanliği Ankara. (In Turkish)

O‘ZBEKISTON VA YUNESKO HAMKORLIGI RIVOJLANISHIDA MODDIY MADANIY MEROSNING O‘RNI

THE ROLE OF TANGIBLE CULTURAL HERITAGE IN THE DEVELOPMENT OF COOPERATION BETWEEN UZBEKISTAN AND UNESCO

РОЛЬ МАТЕРИАЛЬНОГО КУЛЬТУРНОГО НАСЛЕДИЯ В РАЗВИТИИ СОТРУДНИЧЕСТВА МЕЖДУ УЗБЕКИСТАНОМ И ЮНЕСКО

https://zenodo.org/records/19260737

Sattorov Ulug‘bek Abdurazzoq o‘g‘li
Oriental universiteti o‘qituvchisi
Tel.+9981-470-66-09
E-mail: beksattoroff123@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0009-7376-2421

Annotatsiya. Maqolada mamlakatimiz tarixi, madaniyati, san’ati hamda qadriyatlarining bir qismi bo‘lgan moddiy madaniy merosni xalqaro miqyosda targ‘ib qilish hamda ularni asrab-avaylash borasida YUNESKO bilan faol hamkorlik aloqalari yoritib berilgan. Mazkur tadqiqotda O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng, barcha sohalarda bo‘lgani singari madaniy sohada ham tub islohotlar amalga oshirilganligi, sohaga oid huquqiy tizim mustahkamlanganligi, qadimiy shaharlarimiz va u yerda joylashgan madaniy yodgorliklarning madaniy tashkilot hisoblanmish YUNESKOning turli ro‘yxatlari va dasturlariga kiritilishiga oid tadqiqotlar tahliliga qaratilgan. Mavzuni yoritishda ushbu sohaga oid tegishli me’yoriy hujjatlar, ilmiy tadqiqotlar, adabiyot va davriy matbuot materiallaridan foydalanilgan.

Kalit so‘zlar: *YUNESKO, moddiy madaniy meros, nomoddiy madaniy meros, Samarqand, Buxoro, Shahrisabz, Xiva, Tyan-Shan, Ipak yo‘li, Zarafshon, Ichan Qal’a.*

Annotation. The article highlights active cooperation with UNESCO on the international promotion and preservation of tangible cultural heritage, which is part of our country’s history, culture, art, and values. This study focuses on the analysis of research on the implementation of fundamental reforms in the cultural sphere, as in all spheres after Uzbekistan gained independence, the strengthening of the legal system in this area, and the inclusion of our ancient cities and cultural monuments located there in various lists and programs of UNESCO, which is a cultural organization. Relevant regulatory documents, scientific research, literature, and periodical press materials related to this field were used in covering the topic.

Keywords: *UNESCO, tangible cultural heritage, intangible cultural heritage, Samarkand, Bukhara, Shakhrisabz, Khiva, Tien Shan, Silk Road, Zarafshan, Ichan Kala.*

Аннотация. В статье освещается активное сотрудничество с ЮНЕСКО в международном продвижении и сохранении материального культурного наследия, являющегося частью истории, культуры, искусства и ценностей нашей страны. В данном исследовании основное внимание уделяется анализу исследований о том, что после обретения Узбекистаном независимости, как и во всех сферах, в культурной сфере были проведены коренные реформы, укреплена правовая система в данной сфере, наши древние города и расположенные там памятники культуры включены в различные списки и программы ЮНЕСКО, являющейся культурной организацией. При освещении темы были использованы соответствующие нормативные документы, научные исследования, литература и материалы периодической печати.

Ключевые слова: *ЮНЕСКО, материальное культурное наследие, нематериальное культурное наследие, Самарканд, Бухара, Шахрисабз, Хива, Тянь-Шань, Шелковый путь, Зарафшан, Ичан-Кала.*

KIRISH

Mustaqillikning ilk yillaridan O‘zbekiston xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini o‘rnatishga alohida e’tibor qaratdi. Jumladan, 1993-yil 26-oktyabrda Birlashgan Millatlar Tashkilotining fan, ta’lim, madaniyat masalalari bo‘yicha tashkiloti YUNESKOga a’zo bo‘ldi. Tashkilot bilan faol hamkorlik aloqalari rivojlanishi natijasida fan, ta’lim, axborot-kommunikatsiya sohalaridagi hamkorlik aloqalari bilan bir qatorda, madaniyat sohasi ham respublikamiz va tashkilotning asosiy hamkorlik yo‘nalishi hisoblanadi. Ushbu sohadagi hamkorlik aloqalari natijasida mamlakatimiz moddiy va nomoddiy madaniy merosi YUNESKOning “Umumjahon madaniy merosi” ro‘yxati va “Nomoddiy madaniy merosning reprezentativ” ro‘yxatiga kiritilgan. Bugungi kunda O‘zbekiston va YUNESKO o‘rtasida Jahon merosi obyektlarini asrash va targ‘ib qilish bo‘yicha mustahkam hamkorlik aloqalari har qachongidan ham mustahkamlandi. Madaniyat, xususan, Jahon merosi obyektlarini asrash O‘zbekiston va YUNESKO o‘rtasidagi bir necha o‘n yillardan beri davom etayotgan munosabatlarning muhim jihati bo‘lib kelmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Dunyo miqyosida umumbashariy qadriyat deb topilgan madaniy va tabiiy merosni aniqlash, muhofaza qilish va saqlash YUNESKOning madaniyat sohasidagi asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. YUNESKO tomonidan 1972-yil 16-noyabrda “Umumjahon madaniy va tabiiy merosini muhofaza qilish to‘g‘risida”gi (Саидова Л., 2004: 171-172) konvensiya qabul qilingan. Ushbu konvensiyaga a’zo davlatlar o‘zlarining milliy hududlarida mavjud bo‘lgan tarixiy meroslar nomzodini Butunjahon

meroslar ro‘yxatiga kiritish uchun tavsiya etishlari mumkin. 1993-yilda O‘zbekiston Respublikasi ushbu konvensiyaga qo‘shilgan.

Ushbu mavzu alohida tadqiqot mavzusi sifatida tadqiq etilmagan bo‘lsa-da, qator tadqiqot ishlari, monografiyalar va maqolalarda ushbu mavzuga to‘xtalib o‘tilgan. Jumladan, Rahimov M. va Abdimo‘minov O. (2021), Asrorxo‘jayeva M. (2024) tomonidan yozilgan monografiyalarida ushbu mavzuga oid ma’lumotlar keltirilgan.

Mustaqillik yillarida respublikamizda madaniy yodgorliklarni saqlash va muhofaza qilishga oid huquqiy tizim mustahkamlanib, qator qonun va qarorlar qabul qilindi. Jumladan: 2019-yil 30-avgustda “Madaniy meros obyektlarining muhofaza qilinishi kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni (O‘RQ-560) qabul qilindi. 2022-yil 15-fevralda “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (O‘RQ-754) qabul qilindi.

2019-yil 30-martdagi O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishga oid ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi (VM 265) qarori, 2019-yil 3-martda qabul qilingan 119-sonli “Moddiy madaniy meros obyektlari va YUNESKOning Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan hududlar muhofazasini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori, 2019-yil 4-oktyabrda “Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi (VM 846) qarorini, 2021-yil 14-iyunda “YUNESKO bilan hamkorlikda madaniy meros masalalari bo‘yicha xalqaro maslahat qo‘mitasini tashkil etish va uning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi 371-sonli qarorlari ushbu sohaga oid huquqiy tizimni mustahkamlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada respublikamiz madaniy yodgorliklarining YUNESKO ro‘yxatiga kiritilishi tarixiy asoslarini o‘rganishda tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma’lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Bugungi kunga kelib, O‘zbekiston va YUNESKO o‘rtasida Jahon merosi obyektlarini asrash va targ‘ib qilish bo‘yicha mustahkam hamkorlik aloqalari yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bu hamkorlik aloqalari yildan-yilga mustahkamlanib bormoqda. Madaniyat, xususan, Jahon merosi obyektlarini asrash O‘zbekiston va YUNESKO o‘rtasidagi bir necha o‘n yillardan beri davom etayotgan munosabatlarning muhim jihati bo‘lib kelmoqda. Tashkilotning “Umumjahon madaniy merosi” ro‘yxatiga

mamlakatimiz madaniy yodgorliklarini kiritish bo‘yicha hamkorlik respublikamiz mustaqillikka erishish arafasida boshlangan bo‘lib, uning birinchi obyekti – “Ichan qal’a” 1990-yilda Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Mustaqillik yillarida respublikamizda ushbu ro‘yxatga yana to‘rtta madaniy va ikkita tabiiy obyektlar kiritildi.

YUNESKO ro‘yxatiga kiritilgan obyektlar uchun muayyan standartlar va boshqaruv mexanizmlari qo‘llanadi. Jumladan, inshootlar va shaharsozlik strukturalarining asosiy prinsiplar bo‘yicha konservatsiya nazorati, qurilish va infratuzilma loyihalarini tashkilot bilan kelishgan holda amalga oshirish, tarixiy hududlarda qat’iy ekologik-me’moriy xizmatlar qo‘llanish zarurati. Bu esa amalda, tarixiy obidalarni saqlash, barqaror turizm va ekologik muvozanatni ta’minlashda asos bo‘ladi.

YUNESKO ro‘yxatiga kiritilish ilmiy izlanishlar va arxeologik tadqiqotlar uchun muhim bo‘lib, xalqaro miqyosda hamkorlik imkoniyatlarini kengaytiradi. jumladan, ko‘p tomonlama seminarlar, ekspert missiyalari, konferensiyalar hamda birgalikdagi tadqiqot loyihalari orqali madaniyatshunoslik, tarix, arxeologiyani rivojlantirishga hissa qo‘shadi. Masalan, tashkilotning maxsus ekspert guruhi davlatlardagi tarixiy shaharlarda tadqiqotlar olib boradi, mahalliy ekspertlar va xalqaro mutaxassislar bilan tajriba almashadi.

YUNESKO ro‘yxatidagi obyektlar tarixiy shaharlar va hududlarda infratuzilma va xizmat sifatini oshiradi, xalqaro sayyohlar va investorlar e’tiborini tortadi, natijada, barqaror turizmni rivojlantirish, o‘sha davlat iqtisodiyoti uchun yangi ish o‘rinlari va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarini yaxshilashga yordam beradi. Bugungi kunda respublikamiz hududidagi jahon madaniyati namunalarining durdonalari bo‘lgan madaniy meros obyektlarini YUNESKOning “Umumjahon madaniy merosi” ro‘yxatiga va “Insoniyat nomoddiy madaniy merosining reprezentativ” ro‘yxatiga kiritish borasida samarali ishlar amalga oshirilmoqda. YUNESKOning Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan O‘zbekiston Respublikasidagi obyektlar yettita (www.unesco.org) bo‘lib, ularning beshtasi madaniy va ikkitasi tabiiy obyektlardir.

Quyida mazkur obyektlar haqida to‘xtalib o‘tamiz:

1. 1990-yilda Xivadagi “Ichan qal’a” (https://whc.unesco.org/en/list/543/). Xiva shahrining Ichan qal’a qismi YUNESKOning (1990-yil dekabrda Kanadada bo‘lib o‘tgan 14-sessiyasida) Butunjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritildi. Tashkilot tomonidan “Ichan qal’a” alohida obidalar emas, yagona tarixiy shahar-majmua sifatida 1990-yilda ro‘yxatga olingan bo‘lib, majmua tarkibida 50 dan ortiq tarixiy-me’moriy obida mavjud bo‘lib, ro‘yxatda alohida me’moriy obidalar, shaharsozlik elementlari birgalikda kiritilgan. “Ichan qal’a masjidlar, maqbaralar, madrasalar, minoralar, ark va saroylar, mudofaa inshootlari, savdo inshootlari, ma’muriy majmualar hamda

an’anaviy turarjoylardan iborat yaxlit shahar-majmuani tashkil etadi”. Respublikamizdan tashkilotning Umumjahon merosi ro‘yxatiga birinchi bo‘lib kiritilgan obyekt Ichan qal’a bo‘lib, u mustaqillikka erishish arafasida ushbu ro‘yxatga kiritilgan va keyingi obyektlarning mazkur ro‘yxatga kiritilishini boshlab bergan obyekt desak mubolag‘a bo‘lmaydi.

2. 1993-yilda Buxoroning tarixiy markazi (https://whc.unesco.org/en/list/602/). Buxoro shahri tarixiy markazi YUNESKOning 1993-yil Kolumbiyada bo‘lib o‘tgan 17-sessiyasida Butunjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritildi. YUNESKO tashkiloti tomonidan Buxoro shahrining tarixiy markazini alohida binolar yig‘indisi emas, yaxlit tarixiy shahar-majmua sifatida ro‘yxatga olgan. “Buxoro shahrining tarixiy markazi masjidlar, madrasalar, maqbaralar, savdo inshootlari hamda an’anaviy turarjoylardan iborat yaxlit shahar-majmuani tashkil etadi”. Buxoro shahrining tarixiy markazi tashkilotning ushbu ro‘yxatiga mamlakatimiz mustaqilligi yillarida kiritilgan birinchi obyekt hisoblanadi. Umumiy hisobda esa ushbu ro‘yxatdagi ikkinchisidir.

3. 2000-yilda Shahrisabz tarixiy markazi (https://whc.unesco.org/en/list/885/). 1999-yil 27-30-noyabr kunlari YUNESKOning Avstraliyada bo‘lib o‘tgan 24-sessiyasida Shahrisabz shahri va madaniy yodgorliklari YUNESKOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritildi. Ushbu majmua Amir Temur va temuriylar davri shaharsozligi, me’morchiligi va madaniyatini aks ettiruvchi noyob tarixiy makon hisoblanadi. “Shahrisabz tarixiy markazi saroylar, maqbaralar, masjidlar, ziyorat majmualari hamda an’anaviy shaharsozlik tuzilmasidan iborat yaxlit tarixiy ansamblni tashkil etadi. Mazkur ro‘yxatga kiritilgan madaniy yodgorlikning bebaho va umuminsoniy qimmatga ega ekanligi e’tirof etiladi hamda insoniyat manfaati uchun himoya qilinishi zarurdir.

4. 2001-yilda Samarqand – madaniyatlar chorrahasi. Samarqand shahrining tarixiy markazi YUNESKOning 2001-yil Finlandiyada bo‘lib o‘tgan 25-sessiyasida Butunjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritildi. “Samarqand madaniyatlar chorrahasi masjidlar, madrasalar, maqbaralar, savdo inshootlari hamda an’anaviy turarjoylardan iborat yaxlit shahar-majmuani tashkil etadi”. Samarqand madaniyatlar chorrahasi turli davrlar va sivilizatsiyalar me’morchiligi, shaharsozligi va madaniy qatlamlari uyg‘unlashgan noyob tarixiy shahar-makon hisoblanib, tashkilotning ushbu ro‘yxatiga kirgan. Samarqand – madaniyatlar chorrahasi Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilgan Ichan qal’a, Buxoro shahrining tarixiy markazi, Shahrisabz shahrining tarixiy markazi kabi alohida berilgan nomzodnomasi hisoblanadi. Keyingi obyektlar qo‘shni davlatlar bilan o‘zaro mushtarak hamkorlik asosida ushbu ro‘yxatga kiritilgan.

5. 2016-yilda G‘arbiy Tyan-shan tabiiy hududi. O‘n besh yillik tanaffusdan so‘ng, 2016-yilda O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston qo‘shma nomzodligida G‘arbiy Tyan-Shan tog‘lari mazkur ro‘yxatga kiritildi. U uchta qardosh va bir-biriga

chegaradosh mamlakatlar hamkorlik nomzodnomasi sifatida mazkur ro‘yxatga kiritildi. O‘zbekistonning YUNESKO Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan obyektlari orasida – G‘arbiy Tyan-Shan hududi ro‘yxatning aralash, ya’ni ikki yoki undan ortiq davlat hududida joylashgan Jahon merosi sifatida ro‘yxatga kiritilgan. Jahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan har bir obyekt shu kundan boshlab, butun jahon merosi sifatida xalqaro darajada muhofaza etilishini bildiradi. Jahon merosiga egalik qiluvchi davlat ular muhofazasini turli omillarga qarshi kurashni xalqaro yordam bilan uyg‘unlikda amalga oshirishi mumkin.

6. 2023-yilda “Turonning qishki sovuq sahrolari. YUNESKO Butunjahon merosi qo‘mitasining 45-sessiyasida “Turonning qishki sovuq sahrolari” nominatsiyasini Umumjahon madaniy va tabiiy merosi ro‘yxatiga kiritish to‘g‘risida qaror qabul qilindi. Nominatsiya O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmaniston tomonidan tayyorlangan. Nominatsiyaning o‘zbek qismi Janubiy Ustyurt milliy tabiat bog‘i va “Sayg‘ochiy” qo‘riqxonasi tomonidan taqdim etilgan. Sovuq qishki mo‘tadil cho‘llar noyob va keng ko‘lamli biomlardan biridir. Turon cho‘llarining geografik kengliklari juda katta bo‘lganligi sababli, ekotizimlarning asosiy turlari va ekologik jarayonlarini, jumladan, o‘ziga xos flora va faunani tasvirlash uchun mintaqalararo ketma-ket yondashuv zarurdir. Ishtirokchi davlatlar – O‘zbekiston, Qozog‘iston va Turkmanistonning qo‘shma nomzodnomasi YUNESKOning millatlararo mintaqaviy hamkorligining yorqin namunasidir.

7. 2023-yilda “Ipak yo‘li: Zarafshon-Qoraqum koridori”. Ushbu nomzodnomaga kiritilgan barcha obidalar turli davrlarda bunyod etilgan bo‘lib, tarixdagi eng muhim savdo yo‘llaridan biri – Buyuk Ipak yo‘lida joylashgan. Ular Markaziy Osiyo xalqlarining boy madaniy-tarixiy merosi durdonalari hisoblanadi. Nomzodnoma O‘zbekiston, Turkmaniston va Tojikistonda joylashgan jami 31 ta tarixiy obidani o‘z ichiga oladi. Shulardan 15 tasi O‘zbekiston, 9 tasi Tojikiston va 7 tasi Turkmaniston hududida joylashgan. O‘zbekiston hududida joylashgan 15 obida, ya’ni Jartepa otashparastlar ibodatxonasi, Sulaymontepa, Kofirqal’a qo‘rg‘oni, Dabusiya qo‘rg‘oni, Qosim Shayx me’moriy majmuasi, Mirsaid Bahrom maqbarasi, Raboti Malik karvonsaroyi, Sardoba, Deggaron masjidi, Chashmai Ayyub maqbarasi, Vardanze qo‘rg‘oni, Vobkent minorasi, Bahovuddin Naqshband me’moriy majmuasi, Chor Bakr nekropoli, Varaxsha qo‘rg‘oni, Poykent qo‘rg‘oni. 866 km uzunlikdagi Zarafshon-Qoraqum yo‘lagi uchta mamlakatni kesib o‘tadi. Mazkur madaniy meros obyekti YUNESKOning Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatidagi eng yirik obidalardan hisoblanadi. Buyuk Ipak yo‘li kesib o‘tgan Markaziy Osiyoning mazkur qismi tog‘lar, vodiylar va cho‘llardan iborat. U bir necha asrlar davomida xalqlar va madaniyatlarni bog‘lab kelgan hamda Markaziy Osiyoda g‘oyalar hamda madaniy almashinuv chorrahasi bo‘lib kelgan. Ro‘yxatga kiritilgan obyektlarning asosiy qismi

O‘zbekistonda, Samarqand, Buxoro va Navoiy viloyatlarida joylashgan. Ushbu nomzodnomaning uchta qo‘shni davlat tomonidan taqdim etilishi va YUNESKO ro‘yxatiga kiritilishi ularning mushtarak hamkorligi natijasi hisoblanib, kelajakda ham tashkilotning Umumjahon merosi ro‘yxatiga hamkorlikda qo‘shma nomzodnomalar berishida muhim rol o‘ynashini ta’kidlab ketishimiz o‘rinlidir.

Respublikamiz madaniy yodgorliklarining YUNESKO ro‘yxatiga kiritilishi, bir tomondan, har bir yurtdoshimizga o‘z tarixiy o‘tmishi bilan faxrlanish tuyg‘usini baxsh etsa, ikkinchi tomondan ushbu obidalarni ko‘z qorachig‘idek asrab-avaylashga hamda kelajak avlodga asl holatida yetkazishga mas’uliyat bilan yondashishimiz zarurligini ko‘rsatib beradi.

1993-yil 3-dekabrda Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi, YUNESKO va JST vakillari bo‘lgan B.Leyn, E.D.Eriko, R.Lyukok, I.Vassalo, M.Erdiklar O‘zbekistonga ilk bor tashrif buyurib, madaniy yodgorliklarni muhofaza qilish, ta’mirlash, foydalanish, turizmni rivojlantirish borasidagi ishlar bilan tanishib, yuqoridagi sohalarda hamkorlik qilish bo‘yicha o‘z takliflarini berishdi. 1996-yil iyun oyida O‘zbekiston hududidagi tarixiy va madaniy yodgorliklarni YUNESKOning «Butunjahon tarixiy yodgorliklari» ro‘yxatiga kiritish uchun mamlakatimizdagi 22 ta tarixiy yodgorlik, 1999-yil avgustida esa Andijon viloyatidagi 3 ta, Buxoro viloyatidagi 23 ta, Qashqadaryo viloyatidagi 10 ta, Namangan viloyatidagi 6 ta, Navoiy viloyatidagi 4 ta, Samarqand viloyatidagi 16 ta, Surxondaryo viloyatidagi 6 ta, Toshkent viloyatidagi 5 ta, Farg‘ona viloyatidagi 5 ta, Xorazm viloyatidagi 20 ta, Qoraqolpog‘iston Respublikasidagi 3 ta, jami 101 ta tarixiy madaniy yodgorlik nomzod sifatida YUNESKOga yuborildi (Раҳимов.М, Абдимўминов.О., 2021: 226) Mazkur tarixiy madaniy yodgorliklardan (38 tasi 30.09.2025-yil holatiga ko‘ra turli yillarda YUNESKO tomonidan “Butunjahon tarixiy yodgorliklari” ro‘yxatiga dastlabki nomzod sifatida kiritildi.YUNESKO Jahon merosi dastlabki ro‘yxatiga kiritilgan tarixiy-me’moriy yodgorlik va tarixiy joylar:

№	Tarixiy obida yoki joy nomi	Ro‘yxatga kiritilgan yili	Joylashgan joyi
1	Oq ostona bobo maqbarasi	01.06.1996.	Surxondaryo viloyati
2	Shayx Muxtor Vali majmuasi	01.06.1996.	Xorazm viloyati
3	Xonbandi to‘g‘oni	01.06.1996.	Navoiy viloyati
4	Abdullaxon bandi	18.01.2008.	Navoiy viloyati
5	Axsikent	18.01.2008.	Namangan viloyati
6	Qadimiy Pop	18.01.2008.	Namangan viloyati
7	Qadimiy Termiz	18.01.2008	Surxondaryo viloyati
8	Andijon	18.01.2008.	Andijon viloyati

9	Arab-Ota maqbarasi	18.01.2008.	Samarqand viloyati
10	Bahouddin Naqshband me'moriy majmuasi	18.01.2008.	Buxoro viloyati
11	Chashmai Ayub maqbarasi	18.01.2008.	Buxoro viloyati
12	Chor Bakr majmuasi	18.01.2008.	Buxoro viloyati
13	Qadimiy Xorazm cho‘l qal'alari.	18.01.2008.	Xorazm viloyati
14	Qo‘qon tarixiy markazi	18.01.2008.	Farg‘ona viloyati
15	Qanxa shahri	18.01.2008.	Toshkent viloyati
16	Hazorasp.	18.01.2008.	Xorazm viloyati
17	Vobkent minorasi	18.01.2008.	Buxoro viloyati
18	Mir Sayyid Bahrom maqbarasi	18.01.2008.	Navoiy viloyati
19	Poykent	18.01.2008.	Buxoro viloyati
20	Raboti Malik karvonsaroyi	18.01.2008.	Navoiy viloyati
21	Shohruhiya shahri	18.01.2008.	Toshkent viloyati
22	Siypon-tosh qoyatosh suratlari	18.01.2008.	Navoiy viloyati
23	Varaxsha	18.01.2008.	Buxoro viloyati
24	Zarautsoy qoyatosh suratlari	18.01.2008.	Surxondaryo viloyati
25	O‘zbekiston Ipak yo‘li shaharlari	19.02.2010.	O‘zbekiston Respublikasi
26	Toshkent mahallalari	30.12.2021.	Toshkent shahri
27	Ipak yo‘llari: Farg‘ona-Sirdaryo korridori	31.01.2023.	O‘zbekiston Respublikasi
28	Toshkent modernist arxitekturasi: Markaziy Osiyoda modernlik va an'ana	26.01.2024.	Toshkent shahri
29	Nurota tog‘lari	30.10.2024.	Navoiy viloyati
30	Ko‘hitang tog‘lari	30.10.2024.	Surxondaryo viloyati
31	Boysun madaniy landshafti	30.10.2024.	Surxondaryo viloyati
32	Sarmishsoy qoya suratlari	30.10.2024.	Navoiy viloyati
33	Shohimardon tog‘lari	30.10.2024.	Farg‘ona viloyati
34	Hisor tog‘lari	30.10.2024.	Surxondaryo viloyati
35	Zomin tog‘lari	30.10.2024.	Jizzax viloyati
36	Ko‘hitang karstlari, karvonlari va g‘orlari	21.08.2025.	Surxondaryo viloyati
37	Orolbo‘yi hududining qadimgi shaharlari va qal'alari	30.09.2025.	O‘zbekiston Respublikasi
38	Chilpik – sukunat minorasi	30.09.2025.	O‘zbekiston Respublikasi

YUNESKO rasmiy saytida keltirilgan ma’lumotlarga ko‘ra Jahon merosi dastlabki ro‘yxatiga mamlakatimizdan turli yillarda 38 ta nomzodnoma kiritilgan bo‘lib, ushbu nomzodnomalar 1996-yilda 3 ta, 2008-yilda 21 ta, 2010, 2021, 2023-yillarda 1 ta, 2024-yilda 8 ta, 2025-yilda 3 ta nomzodnoma kiritilgan. Bu nomzodnomalar keyingi yillarda tashkilot bilan olib borilayotgan faol hamkorlik natijasida Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilishi uchun dastlabki ro‘yxatga kiritilgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Respublikamizdagi Madaniy yodgorliklarning YUNESKO Umumjahon madaniy merosi ro‘yxatiga kiritilishining ahamiyati shundaki, ushbu ro‘yxatga kiritilgan obyektning jahon miqyosidagi madaniy, tarixiy yoki ilmiy ahamiyatini xalqaro hamjamiyat tomonidan rasmiy tan olinishi hisoblanadi. Shuningdek, global tarixiy jarayonlar, madaniy almashinuv va etnik madaniy boyliklar kontekstida e’tirof etilishini anglatadi. Mamlakatimiz uchun milliy tarixni mustahkamlashda, mamlakatimizning muhim qadriyatlarini xalqaro madaniy dialogda aks ettirishda, xalqaro ilmiy hamkorlik va tadqiqotlar uchun poydevor yaratishiga yordam beradi. Madaniy yodgorliklarimizning YUNESKO ro‘yxatlariga kiritilishi O‘zbekiston boy tarixiy merosining xalqaro hamjamiyat tomonidan yanada kengroq e’tirof etilishiga xizmat qiladi, ushbu yodgorliklarning xalqaro miqyosda muhofaza qilinishini ta’minlash uchun asos bo‘ladi. Shuningdek, kelgusida mamlakatimiz turizm salohiyatining keng miqyosda rivojlanishiga ham katta yo‘l ochadi. Bir so‘z bilan aytganda, mamlakatimizda madaniy yodgorliklar tarixini o‘rganish, ularni saqlash va kelajak avlodga asl holatida yetkazish bugungi kunning qilinayotgan va qilinishi kerak bo‘lgan muhim vazifalaridan hisoblanadi desak yanglishmaymiz.

Biz yuqoridagi tahlil va natijalar hamda xulosalarimizga tayanib quyidagi takliflarni berishimiz mumkin bo‘ladi:

YUNESKO bilan hamkorlikda moddiy madaniy meros obyektlarining monitoringi va konservatsiyasi bo‘yicha milliy strategiyani yanada takomillashtirish va uni xalqaro standartlarga (1972-yilgi Konvensiya va keyingi qo‘shimcha protokollar) to‘liq moslashtirish.

Dastlabki ro‘yxatdagi nomzodnomalarni tezlashtirilgan tartibda tayyorlash va ularni transmilliy (qo‘shma) nomzodnomalar shaklida (masalan, qo‘shni davlatlar bilan birgalikda) taqdim etish orqali mintaqaviy hamkorlikni kuchaytirish.

Madaniy meros obyektlari atrofida barqaror turizm modellari (ekoturizm, madaniy turizm) yaratish va mahalliy jamoalarni jarayonga faol jalb qilish.

Ilmiy tadqiqotlar, arxeologik qazishmalar va raqamlashtirish loyihalarini YUNESKO grantlari va xalqaro ekspertlar ishtirokida kengaytirish.

Yosh olimlar va mutaxassislar uchun YUNESKO dasturlari (UNESCO Chairs, stipendiyalar) doirasida maxsus ta’lim va malaka oshirish dasturlarini tashkil etish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. ЮНЕСКО халқаро меьёрий ҳужжатлари. / Ўзбекча нашрининг масьул муҳаррири Л.Саидова. – Т.: Адолат, 2004.

2. 2019-yil 30-avgustda “Madaniy meros obyektlarining muhofaza qilinishi kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni O‘RQ-560-son. // https://lex.uz/uz/docs/-4494508

3. 2022-yil 15-fevralda “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni O‘RQ-754-son. // https://lex.uz/uz/docs/-5859901

4. 2019-yil 30-martda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishga oid ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 265-sonli qarori. // https://lex.uz/uz/docs/-4262171

5. 2019-yil 3-martda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Moddiy madaniy meros obyektlari va YUNESKOning Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan hududlar muhofazasini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 119-sonli qarori.

6. 2019-yil 4-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 846-sonli qarori. // https://lex.uz/uz/docs/-4543266

7. 2021-yil 14-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “YUNESKO bilan hamkorlikda madaniy meros masalalari bo‘yicha xalqaro maslahat qo‘mitasini tashkil etish va uning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” 371-sonli qarori. // https://lex.uz/uz/search/all?searchtitle=yunesko

8. O‘zbekiston Respublikasidan YUNESKOning “Umumjahon madaniy merosi” ro‘yxatiga kirirtilgan yodgorliklar ro‘yxati. // www.unesco.org.

9. Ichan Qal’a YUNESKOning “Umumjahon madaniy merosi” ro‘yxatiga kiritilishi. // https://whc.unesco.org/en/list/543/

10. Buxoro tarixiy markazining YUNESKOning “Umumjahon madaniy merosi” ro‘yxatiga kiritilishi. // https://whc.unesco.org/en/list/602/

11. Shahrisabz tarixiy markazining YUNESKOning «Umumjahon madaniy merosi» ro‘yxatiga kiritilishi. // https://whc.unesco.org/en/list/885/

12. Samarqand tarixiy markazining YUNESKOning «Umumjahon madaniy merosi» ro‘yxatiga kiritilishi. // https://whc.unesco.org/en/list/603/

REFERENCES:

1. YUNESKO xalqaro meyoriy hujjatlari. / O‘zbekcha nashrining masul muharriri L.Saidova. – T.: Adolat, 2004. (In Uzbek)

2. 2019-yil 30-avgustda “Madaniy meros obyektlarining muhofaza qilinishi kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasi ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni O‘RQ-560-son. // https://lex.uz/uz/docs/-4494508 (In Uzbek)

3. 2022-yil 15-fevralda “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish kuchaytirilishi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasi Qonuni O‘RQ-754-son. // https://lex.uz/uz/docs/-5859901 (In Uzbek)

4. 2019-yil 30-martda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va ulardan foydalanishga oid ayrim normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida” 265-sonli qarori. // https://lex.uz/uz/docs/-4262171 (In Uzbek)

5. 2019-yil 3-martda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Moddiy madaniy meros obyektlari va YUNESKOning Umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan hududlar muhofazasini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 119-sonli qarori. (In Uzbek)

6. 2019-yil 4-oktyabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari milliy ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 846-sonli qarori. // https://lex.uz/uz/docs/-4543266 (In Uzbek)

7. 2021-yil 14-iyunda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “YUNESKO bilan hamkorlikda madaniy meros masalalari bo‘yicha xalqaro maslahat qo‘mitasini tashkil etish va uning faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida” 371-sonli qarori. // https://lex.uz/uz/search/all?searchtitle=yunesko (In Uzbek)

8. O‘zbekiston Respublikasidan YUNESKOning “Umumjahon madaniy merosi” ro‘yxatiga kirirtilgan yodgorliklar ro‘yxati. // www.unesco.org. (In Uzbek)

9. Ichan Qal’a YUNESKOning “Umumjahon madaniy merosi” ro‘yxatiga kiritilishi. // https://whc.unesco.org/en/list/543/ (In Uzbek)

10. Buxoro tarixiy markazining YUNESKOning “Umumjahon madaniy merosi” ro‘yxatiga kiritilishi. // https://whc.unesco.org/en/list/602/ (In Uzbek)

11. Shahrisabz tarixiy markazining YUNESKOning «Umumjahon madaniy merosi» ro‘yxatiga kiritilishi. // https://whc.unesco.org/en/list/885/ (In Uzbek)

12. Samarqand tarixiy markazining YUNESKOning «Umumjahon madaniy merosi» ro‘yxatiga kiritilishi. // https://whc.unesco.org/en/list/603/ (In Uzbek)

ISLOM MANBALARIDA MOLIYAVIY IBODATLARDAGI MAJBURIYATLARNING TARIXIY BOSQICHLARI

STAGES OF THE HISTORICAL DEVELOPMENT OF OBLIGATIONS IN FINANCIAL ACTS OF WORSHIP IN ISLAMIC SOURCES

ЭТАПЫ ИСТОРИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ ОБЯЗАТЕЛЬСТВ В ФИНАНСОВЫХ АКТАХ ПОКЛОНЕНИЯ В ИСЛАМСКИХ ИСТОЧНИКАХ

https://zenodo.org/records/19260762

Botirov Boburmirzo Mirodiljon o‘g‘li
Oriental universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlari kafedrasi o‘qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi
Tel: +998 90 925-00-93
E-mail: bbotirov.@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada islom huquqi manbalarida moliyaviy ibodatlardagi majburiyatlarning shakllanishi va tarixiy rivojlanish bosqichlari tahlil qilinadi. Asosiy e’tibor zakot, ushr, fitr sadaqasi, fidya va haj kabi moliyaviy ibodatlarning Qur’on, sunnat, ijmo va qiyos asosida tartibga solinishiga qaratiladi. Ayniqsa, hanafiy mazhabi doirasida Burhoniddin Marg‘inoniyning “al-Hidoya”, Imom Muhammad Shayboniyning “Kitobu-l-asl” hamda Abu Yusufning “Kitobu-l-xaroj” asarlarida moliyaviy majburiyatlarning huquqiy va ijtimoiy ahamiyati ochib beriladi. Tadqiqotda moliyaviy ibodatlarning jamiyatda ijtimoiy barqarorlik, adolat va ijtimoiy himoyani ta’minlashdagi o‘rni asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: *islom huquqi, moliyaviy ibodatlar, zakot, ushr, fitr sadaqasi, al-Hidoya, hanafiy mazhabi, majburiyatlar.*

Annotation: This article analyzes the historical stages of the formation and development of financial obligations in Islamic sources. Special attention is paid to financial acts of worship such as zakat, ushr, sadaqat al-fitr, fidya, and hajj, which are regulated on the basis of the Qur’an, Sunnah, ijma, and qiyas. Within the Hanafi school, the works of Burhan al-Din al-Marghinani’s al-Hidaya, Imam Muhammad al-Shaybani’s Kitab al-Asl, and Abu Yusuf’s Kitab al-Kharaj are examined as key sources reflecting the legal and social dimensions of financial worship. The study demonstrates that financial obligations in Islam played an important role in ensuring social justice, economic balance, and social protection throughout history.

Keywords: *Islamic law, financial worship, zakat, ushr, sadaqat al-fitr, al-Hidaya, Hanafi school, obligations*

Аннотация: В данной статье рассматриваются исторические этапы формирования и развития финансовых обязательств в источниках исламского права. Особое внимание уделяется таким видам финансового поклонения, как

закят, ушр, садакат аль-фитр, фидья и хадж, регулируемым на основе Корана, сунны, иджмы и кияса. В рамках ханафитского мазхаба анализируются труды Бурхана ад-Дина аль-Маргинани «аль-Хидая», Имама Мухаммада аш-Шайбани «Китаб аль-Асл» и Абу Юсуфа «Китаб аль-Харадж». В статье обосновывается, что финансовые религиозные обязанности способствовали обеспечению социальной справедливости, экономической стабильности и системы социальной защиты в мусульманском обществе.

Ключевые слова: *исламское право, финансовые поклонения, закят, ушр, садакат аль-фитр, аль-Хидая, ханафитский мазхаб, обязательства*.

KIRISH

Islom huquqi tizimida moliyaviy ibodatlar (zakot, ushr, fitr sadaqasi, fidya, haj va shu kabi to‘lovlar) nafaqat diniy-axloqiy majburiyat, balki jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta’minlovchi muhim mexanizm sifatida tan olinadi. Ushbu majburiyatlar Qur’on, sunnat, ijmo‘ va qiyos kabi asosiy shariat manbalari asosida shakllangan bo‘lib, ularning tarixiy rivojlanishi islom jamiyatining ijtimoiy adolat, iqtisodiy muvozanat va kambag‘allikka qarshi kurashdagi o‘rnini belgilaydi.

Moliyaviy ibodatlarning majburiyatlari islomning dastlabki davrlaridan boshlab bosqichma-bosqich shakllangan. Makka davrida (Makkada nozil bo‘lgan suralarda) zakot va sadaqa asosan axloqiy va ma’naviy tozalanish (tazkiya) ma’nosida tilga olingan bo‘lib, boylikni muhtojlarga berish savobli ish sifatida ta’kidlangan (masalan, Baqara surasi 177-oyat, Ma’arij surasi 24-25-oyatlar). Bu davrda majburiyatlar hali aniq huquqiy shaklga ega bo‘lmagan, balki imon va taqvo bilan bog‘liq bo‘lgan. Madina davrida esa (Hijratdan keyin, xususan, Hijratning 2-yilida) zakot rasman farz qilingan, uning nisob miqdori, to‘lov vaqti va oluvchilar toifalari batafsil belgilangan (Toba surasi, 60-oyat va tegishli hadislar). Bu bosqichda zakot nafaqat shaxsiy ibodat, balki davlat darajasidagi majburiyatga aylangan, Abu Bakr (r.a.) davridagi Ridda voqealari esa uni davlat siyosati sifatida mustahkamlashga misol bo‘lgan.

Hanafiy mazhabining rivojlanishida bu majburiyatlarning huquqiy tizim sifatida shakllanishi Imom Abu Hanifa (r.h.), uning shogirdlari Imom Muhammad Shayboniy va Abu Yusuf asarlarida yaqqol namoyon bo‘ladi. Imom Muhammad Shayboniyning “Kitobu-l-asl” asarida zakotning chorvachilik, dehqonchilik va tijoratga oid batafsil qoidalari keltirilgan bo‘lsa, Abu Yusufning “Kitobu-l-xaroj” asari zakot va xarojni davlat moliyasi nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. Burhoniddin Marg‘inoniy “al-Hidoya” asarida esa bu majburiyatlarni mukammal tizim sifatida jamlagan: zakotning nisob va miqdorlari (tuya, qo‘y, kumush, tilla, hosil va boshqalar bo‘yicha), fitr sadaqasi, fidya va hajning moliyaviy shartlari aniq belgilangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHLILI

Islom huquqi manbalarida moliyaviy ibodatlardagi majburiyatlarning shakllanishi va tarixiy rivojlanish bosqichlarini o‘rganishda eng muhim o‘rinni hanafiy mazhabining klassik fiqh asarlari egallaydi. Ushbu mavzu bo‘yicha tadqiqotlar asosan Qur’on, Sunnat, ijmo‘ va qiyos asosida yaratilgan quyidagi asosiy manbalarga tayangan holda olib borilgan.

Imom Muhammad ash-Shayboniyning “Kitobu-l-Asl” (Tarjima, 2012) asari Hanafiy mazhabining eng dastlabki va eng ishonchli asarlaridan biri hisoblangan “Kitobu-l-Asl” (12 jild) moliyaviy ibodatlarni batafsil yoritgan ilk yirik fiqhiy asardir. Asarning 2- va 3-jildlaridagi “Kitobu-z-Zakot” bo‘limi (92 betdan iborat) chorvachilik, dehqonchilik, tijorat mollaridan zakot, ushr sadaqasi va fitr sadaqasi masalalariga bag‘ishlangan.

Abu Yusuf Ya’qub ibn Ibrohimning “Kitobu-l-Xaroj” (Tarjimon Mannopova A.,2021) asari Xalifa Horun ar-Rashidning topshirig‘i bilan yozilgan ushbu asar zakot va xaroj masalalarini davlat moliyasi va iqtisodiy siyosat nuqtayi nazaridan tahlil qiladi. Asarda zakotni davlat darajasida yig‘ish, Abu Bakr (r.a.) davridagi Ridda voqealari, zakot to‘lashdan bosh tortganlarga nisbatan qo‘llanilgan choralar va zakot bilan xarojni aralashtirib bo‘lmasligi kabi masalalar chuqur yoritilgan. “Kitobu-l-Xaroj” moliyaviy ibodatlarni nafaqat shaxsiy, balki davlat va ijtimoiy-iqtisodiy institut sifatida ko‘rsatgan muhim manbadir.

Burhoniddin Marg‘inoniy – “Al-Hidoya sharh bidoyatil mubtadi” (tarjimon Mustafo Ahmad Boz, 1994:J.1-2.) Hanafiy mazhabidagi eng mukammal va tizimli asarlardan biri bo‘lib, keyingi asrlarda hanafiy fiqhining eng nufuzli manbasi sifatida qabul qilingan. “Al-Hidoya”ning ibodatlar qismida zakot, fitr sadaqasi, fidya, ushr, xiroj va hajning moliyaviy jihatlari juda batafsil va mantiqiy tartibda bayon etilgan. Hayvonlar, till-kumush, tijorat mollari, ekinlar va ma’danlardan olinadigan zakot miqdorlari, nisoblar, shartlar va istisnolar bu yerda aniq ko‘rsatilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqotda tarixiy-tahliliy, qiyosiy-huquqiy va tizimli yondashuv usullaridan foydalanildi. Qur’on oyatlari, hadislar va fiqhiy manbalar o‘zaro solishtirilib, moliyaviy ibodatlardagi majburiyatlarning shakllanish bosqichlari aniqlandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Tahlil natijalariga ko‘ra, moliyaviy ibodatlar dastlab diniy-axloqiy mazmunga ega bo‘lgan bo‘lsa, keyinchalik davlat va jamiyat manfaatlariga xizmat qiluvchi huquqiy majburiyat darajasiga ko‘tarilgan. Zakot, ushr va fitr sadaqasi orqali ijtimoiy tenglik va kambag‘allikni kamaytirish maqsad qilingan.

Islom dini ta’limotiga ko‘ra, moliyaviy ibodat deganda avvalambor, zakot ibodati tushuniladi. Shuning bilan birga turli holatlardagi to‘lovlar: ushur, fitr sadaqasi, fidya va boshqa to‘lovlar ham moliyaviy ibodat turlariga kiradi. Ushbu ibodatlarni ado etishdagi majburiyatlar Qur’on, sunnat, ijmo, qiyos kabi islom huquqi manbalari asosida tartibga solinadi.

“Al-Hidoya” asarida moliyaviy ibodatlar zakot kitobida zikr qilingan (1:358-345). Zero, islomdagi asosiy 5 arkon orasida imon ruknidan tashqari namoz, ro‘za va haj ibodatlari ham bilvosita moliyaviy jihatlarga ega bo‘lsa-da, ular orasida zakot bevosita moliya bilan bog‘liq ibodat hisoblanadi.

Ilk islom tarixiga murojaat qilinadigan bo‘lsa, Makkada nozil bo‘lgan suralar birinchi davrda asosan, yagona Allohga imon keltirishga chaqiriq bilan bog‘liq oyatlardan iborat bo‘lgan bo‘lsa-da, ularda ham moliyaviy ibodatga kattagina e’tibor qaratilgan. Masalan, miskinlarga taom berishning naqadar ulug‘ savob ekanligi, bu ishni qilmaslik yoki boshqalarga uni qilishga chaqirmaslik qay darajada yomon ish ekanligi ta’kidlanadi (2:2, 576, 595, 602).

Madinada nozil bo‘lgan oyatlarda esa moliyaviy ibodatlarning kimlarga berilishi kabi ma’lumotlar bayon qilingan. Ammo kimlar berishi, nisob miqdorlari, qancha muddatda berilishi kabi tafsilotlar hadislarda bayon qilingan.

Burhoniddin Marg‘inoniyning “al-Hidoya” asari islom tarixidagi moliyaviy ibodatlar bo‘yicha majburiyatlarni tartibga solish jarayonining bir bosqichini o‘zida aks ettiradi. Hanafiy mazhabi tarixiga nazar solinadigan bo‘lsa, Qur’on, hadis, ijmo, qiyos kabi shariat manbalarini o‘zida aks ettirgan bir nechta bosqichdan iborat manbalar to‘plami mavjud. Ular 1) usul; 2) navodir; 3) fatovo va voqeot kitoblari bo‘lib, ularning barchasi moliyaviy ibodatlardagi majburiyatlarni tartibga solish tarixini tashkil etadi.

Ilk hanafiy manbalaridan bo‘lmish Imom Muhammad Shayboniyning (749-806) 12 jildda chop etilgan “Kitobu-l-asl” (3:52-144) asarining 3-jildida “Zakot kitobi” qismi 92 betdan iborat hajmda berilgan. Hanafiy mazhabi asoschilari Imom Abu Hanifa va Abu Yusufdan bevosita ilm olgan bu olim ko‘pgina fiqhiy masalalarda o‘zi ijtihod qilgan. Shu sababli ham Imom Muhammad Shayboniyning “Kitobu-l-asl” asari hanafiy mazhabining asosiy manbalaridan hisoblanadi va Burhoniddin Marg‘inoniyga qadar yetib kelgan fiqhiy masalalarning tarixiy rivojlanish bosqichlarini aynan shu kitobda ko‘rish mumkin.

“Kitobu-l-asl”ning “Zakot” qismida tuya, qo‘y, qoramollardan beriladigan zakot miqdorlari, ushr sadaqasi, uning shartlari haqida batafsil to‘xtalib o‘tiladi. Ushbu kitob hanafiylik mazhabidagi moliyaviy ibodatlarga oid majburiyatlarning ham boshlang‘ich tarixiy bosqichlarini o‘zida aks ettiradi.

“Kitobu-l-asl” bevosita pul bilan bog‘liq zakotning tartiblari emas, balki tuya, qo‘y, qoramollardan beriladigan zakotlar haqidagi bo‘lim bilan boshlanadi. Shundan so‘nggina puldan beriladigan zakot haqida so‘z yuritiladi. Unda ham tijoratchilarning mollaridan ajratiladigan zakot haqida so‘z boradi. Shundan so‘ng ushr va qimmatbaho toshlar va taqinchoqlardan beriladigan zakot miqdorlari ko‘rsatiladi. Kitobdagi ushbu yondashuvdan xulosa qilish mumkinki, fiqhda asosiy savollar chorvachilik va dehqonchilikka oid masalalarda bo‘lgan. Tijorat va boshqa ishlab chiqarish vositalaridan tushadigan tushumning va ulardan to‘lanadigan zakotning ulushi nisbatan kamroq bo‘lgan.

Fitr sadaqasi ham moliyaviy ibodat masalalari ichidagi muhim jihatlardandir. Bu masalada islom manbalarida asosan, Payg‘ambar (s.a.v.)dan rivoyat qilingan “Har bir hur va katta yoki kichik yoshda bo‘lgan qul uchun yarim so (صاع) bug‘doy yoki bir so xurmo yoki bir so arpa berib (fitr sadaqasini) ado etinglar”, degan hadisni keltiradilar (4,5:173, 434). Ushbu keltirilgan hadisning rivoyat qilinishi qat’iy dalillik darajasiga yetmagan hisoblanadi. Ammo shunga qaramay, bu kabi hadislar orqali vojib hukmlar sobit bo‘lishiga misol qilib keltirilgan.

Hanafiy mazhabi asoschilaridan biri bo‘lgan yana bir mujtahid olim Abu Yusuf Yaqub ibn Ibrohim Ansoriy Kufiy (731-798) qalamiga mansub “Kitobu-l-xaroj” asarida zakot masalasi batafsil yoritilgan. Xalifa Horun ar-Rashidning (786-809) talabiga binoan yozilgan ushbu asarda o‘z noiga binoan asosan “xaroj”lar, ya’ni to‘lovlar haqida so‘z ketadi. Chunki Horun ar-Rashid olimdan asosan aholidan olinadigan to‘lovlar haqida so‘ragan edi.

“Kitobu-l-xaroj” asarining “Zakot” bobida muallif xalifaga bir qator tavsiyalarni beradi. Xususan, Payg‘ambar (s.a.v.) Muoz ibn Jabalni Yamanga jo‘natayotib aytgan so‘zlari, ya’ni: “Alloh taolo ularga boylaridan olinib, faqirlariga qaytariladigan sadaqani farz qilgan”ligi haqidagi hadis mohiyatini tushuntiradi. Bu ishda zakot yig‘ishga mas’ul qilinganlarga Payg‘ambar (s.a.v.) va xulafoi roshidin davrlarida amal qilingan shartlarga rioya qilishlarini buyurishini so‘raydi (6:112).

Qo‘y va qoramollardan beriladigan zakotning miqdori o‘zgarmas etib belgilanganini Abu Yusuf bir hadis bilan dalillaydi. Unga ko‘ra, “Rasululloh (s.a.v.) zakot haqida maktub yozib, uni qilichlariga bog‘lab yoki vasiyatnomalariga biriktirib qo‘ydilar va uni to vafotlariga qadar chiqarmadilar. Rasululloh (s.a.v.)dan so‘ng undan Abu Bakr (r.a.) vafqotiga qadar foydalandi, so‘ngra esa Umar (r.a.) foydalandi”. Mazkur maktubda quyidagilar yozilgan edi: 40 tadan to 120 tagacha bo‘lgan qo‘ydan 1 ta qo‘y, va h.k. (6:112-113): Hayvonlardan olinadigan zakot miqdorlari keyingi manbalar, xususan, Burhoniddin Marg‘inoniyning “al-Hidoya” asarida ham xuddi shu shaklda takroran keladi (7:99).

Asardagi “Zakot to‘lashdan bosh tortishning haromligi, ...” deb boshlanuvchi bob alohida e’tiborga loyiq. Chunki unda zakot nafaqat diniy majburiyat, balki davlat darajasidagi ahamiyatga ega masala sifatida qaralgan. Bunda mamlakat ichidagi fuqarolarning ijtimoiy himoyasi uchun ham moli nisobga yetgan kishilar uchun uni olishga haqdor bo‘lgan ehtiyojmand kishilarga ushbu majburiyatni bajarish zaruriy ekanligiga xalifa Abu Bakr (r.a.) davrida yuz bergan “Ridda” voqeasini keltiradi. Unga ko‘ra, “Abu Bakr (r.a.) Rasulullohning vafotlaridan so‘ng arablar zakot to‘lashdan bosh tortganlarida: “Agar Rasulullohga bergan zakotlarini bermasalar, ularga qarshi urush qilaman”, – degan va ular zakot bermay qo‘yganlarida ularga qarshi urushni qonuniy deb hisoblagan” (6:119). Zakot va boshqa soliqlar davlat rahbari tomonidan tayinlangan mas’ullar amalga oshirgan ushbu davrda zakotga shu qadar jidiy qaralgan.

“Kitobu-l-xaroj” da e’tiborga loyiq joylaridan yana biri shundaki, muallif unda xalifaga nisihat qilayotib, “Zakot yig‘ishni xaroj yig‘uvchilarga topshirma”, deydi. Shuningdek, muallif zakot va xaroj pullarini bir-biri bilan aralashtirish ham mumkin emasligini ta’kidlaydi (6:119-120).

Markaziy Osiyoda to‘lov tizimlari har doim ham bir xilda bo‘lavermagan. Masalan, bu mintaqadagi qoraxitoylar bosib olgan yerlarda xuddi Xitoydagi kabi mavjud hovli (xonadon)lar soniga bog‘liq holda amalga oshirilgan. Bunda har bir hovlidan bir dinordan undirilgan. Ibn al-Asirning (1160-1233) “al-Komil fi-t-tarix” asarida bayon qilishicha, Qoraxitoylar bosib olgan hudud aholisining turmush tarzini o‘zgartirmagan, faqatgina har bir xonadondan soliq undirish bilan cheklangan (8:19).

Islom huquqi normalari ham insonlarga huquq va erkinliklarini kafolatlagan holda ularning zimmasiga muayyan majburiyatlarni ham yuklagan. Bu bilan inson oilasi, o‘zi yashab turgan jamiyat va davlat oldida ma’lum burchlarni bajarishi belgilangan.

Diniy majburiyatlarni ado etishning tarkibiy qismlari mavjud (9:26). Sunniylar uni tashqi ko‘rinishiga ko‘ra quyidagi uch qismga bo‘ladilar: ibodat (ibodatlar va ularga tegishli majburiyatlar), muomalot (fuqarolik huquqi munosabatlari), uqubot (jinoyat va jazo masalalari) (10:430).

Dastavval fiqx ilmida belgilab berilgan haqqulloh (Allohning huquqi) va haqqul abd (banda, ya’ni kishilarning huquqi) atamalarining tub mohiyatini chuqur anglab olish maqsadga muvofiq.

Fiqhda haqqulloh ikki qismga bo‘linadi: Birinchi qism Alloh bilan bandalar orasidagi munosabatdan iborat bo‘lib, yaratuvchiga yaqin bo‘lish uchun barcha musulmonlar tomonidan bajariladi. Ular diniy va axloqiy mohiyatga ega. Masalan namoz, ro‘za, zakot, haj va boshqa ibodatlarni bajarishda har bir oqil va bolig‘ kishining o‘zi mas’ul bo‘lib, Allohning oldida javobgar hisoblanadi.

Haqqullohning ikkinchi qismi jamiyat manfaatlarini rioya qilgan holda shaxsiy huquqdan ustun qo‘yilib bajarilishi zarur bo‘lgan huquqdir. Huquq tili bilan ifodalansa,

ushbu soha ommaviy huquqdan iborat bo‘lib, jinoyat huquqi, xalqaro huquq, xalqqa tegishli davlat boyliklari, barcha fuqarolar foydalanadigan umumiy yo‘llar va umumiy muassasalarni qamrab oladi. Ushbu ma’noda agar haqqulloh (ommaviy huquq) bilan shaxsiy huquq bir-biriga qarshi tursa, haqqulloh ustun qo‘yiladi.

Abdulvahhob Xallof bu sohaga ikkita qo‘shib quyidagicha tasnif etgan:

1. Ikkala haq qo‘shilib, lekin Allohning huquqi ustun turgan haq: Qazf haddi, ya’ni bir ayolni yolg‘ondan zinokorlikka nisbat berib so‘kish uchun belgilangan jazo. Qazf jinoyati isbotlangandan keyin ayol o‘z huquqidan o‘tib, uni kechirsa ham haqqulloh nuqtayi nazaridan jazo soqit bo‘lmaydi.

2. Ikkala huquq qo‘shilib, lekin bandaning haqqi ustun turgan huquq. Masalan, qasos huquqi, unda maqtulning valiysi qotilni afv etish salohiyatiga ega bo‘ladi (11:293).

Xaqqul abd esa shaxsiy huquqdan iborat bo‘lmish barcha huquq sohalarini qamrab olib, oila huquqi, fuqarolik huquqi, vaqf huquqi (jamg‘armaning bir shakli) va boshqa tarmoqlarga bo‘linadi.

Axloqiy me’yorlar islom huquqida ijobiy ahamiyatga ega bo‘lsa ham, aytib o‘tilgan sohalarning hech biri sof axloqiy normalardan iborat emas, balki amaliy-dunyoviy mohiyatga ega bo‘lib, o‘rni kelganda qonuniy majburiyat tusini oladi.

Islom shariatida belgilangan majburiyatlar o‘zining manbasi va huquqiy oqibatiga ko‘ra quyidagi kategoriyalardan iborat bo‘ladi:

1. Farz yoki vojib, ya’ni amalga oshirilishi mukofotga va tark etilishi jazoga sabab bo‘luvchi majburiy amal. Shuningdek, farz – shariat ko‘rsatmalarini bajarishga ahd bo‘lgan kishidan bajarilishi qat’iy talab qilingan amal (5:43). Vojib – farz kabi bajarish qat’iy talab qilingan, lekin dalillar farznikidan kuchsiz bo‘lgan amallar. Masalan, fitr sadaqasi va qurbonlik kabi. Ushbu kategoriya farzi ayn va farzi kifoyaga bo‘linadi.

2. Sunna (12:11-12; 72, 32), mandub, mustahab, maqbul, marg‘ub, nafl yo nofila tavsiya etilgan, ya’ni tark etilishi jazoga sabab bo‘lmay, bajarilishi savob (ma’naviy mukofot)ga loyiq deb bilingan amallar. Mazkur amallardan har birini bajarish tatavvu’ deb ataladi.

3. Muboh (joiz deb ham ataladi) bajarilishi va bajarilmasligi na mukofot va na jazoga sabab bo‘lmaydigan amallar. Ularni bajarish yoki bajarmaslik insonning o‘z ixtiyoriga topshirilgan. Bunday ishlar iboha, ya’ni insonning ixtiyorida bo‘lgan ishlar sohasini tashkil etib, “ibohai shar’iya” – shariat tomonidan berilgan ixtiyor, deb ataladi.

4. Makruh, ya’ni jazoga sabab bo‘lmaydigan, ammo islom qonunlari me’yorlariga uyg‘un kelmaydigan ishlar. Keyingi davrlarda ushbu qismda “xilof al-avlo” (maqbulga qarshi) atamasi ham qabul qilingan. Unga ko‘ra “mandub” bilan “muboh” o‘rtasida “avlo” (marg‘ub va maqbul) kategoriyasi turadi.

5. Harom (mahzur deb ham ataladi) taqiqlangan yoki jazolanadigan amallar (13:91). Shuningdek, tark etilishi qat'iy va majburiy uslubda talab qilingan va uni amalga oshirgan kishi ta'qib ostiga olinib, jazolashga hukm etiladigan ishlar, masalan, odam o'ldirish, o'g'rilik qilish kabi ishlar. Bunday ishlar muharramot va har biri harom yoki muharram deb ataladi.

Iboha sohasi, ya'ni muboh yoki joiz ishlar sohasi jamiyat hayotining asosiy qismini tashkil etgani uchun, qonun sohasiga kirmaydi (10:430-431, 13, 18).

Ushbu kategoriyalar asosida sodir etilgan xatti-harakatlarning huquqiy oqibati baholanib, unga gunoh yoki savob berilishi islom huquqi manbalarida belgilangan. Farz, vojib va harom kategoriyalari qat'iy darajadagi majburiyatlar, sunnat, mustahab va makruh kategoriyalari qat'iy bo'lmagan majburiyatlar hamda muboh kategoriyasi esa inson ixtiyoriga havola etilgan va amalga kiritilgan. Shuningdek, islom shariatida bajarilishi qat'iy talab etilgan majburiyatlar asosan halol va harom kategoriyasidan kelib chiqadi.

Islom huquq manbalaridagi ijtimoiy ahamiyatga ega majburiyatlardan eng kattasi – moliyaviy majburiyatlar hisoblanib, bunday majburiyatlar moliyaviy ibodatlar nomi bilan haj va zakot mavzulariga kiritilgan. Moliyaviy ibodatlar haj, zakot, ushr, xiroj, sadaqa kabi turlarga bo'linadi.

Burhoniddin Marg'inoniy "al-Hidoya" asarida majburiyatga oid masalalarga keng o'rin ajratib, ularning kelib chiqish manbalari, mazmuni va ijtimoiy-iqtisodiy va diniy ahamiyatini ochib bergan.

Moliyaviy ibodatlardan biri zakot (nisobga yetgan molidan ma'lum qismini ma'lum shaxslarga mulk qilib berish) bo'lib, "al-Hidoya" asarining ibodat qismida alohida "Zakot bo'lim"ida ochib berilgan (7:95). Yuqorida zakot oluvchi shaxslar va uning ijtimoiy ahamiyati haqida to'xtalingan edi. Mazkur bobda esa zakot ibodatini ado etishdagi majburiyatlar haqida so'z boradi.

Qur'on va u asosida yuzaga kelgan islom fiqhi inson turmushining barcha sohalarini, jumladan, musulmonning majburiyatlarini ham qamrab oladi. Tadqiqotchilarning bu mavzuga qiziqishining boisi ham ana shunda (15).

Qur'ondagi ayrim oyatlarda musulmonning o'ziga xos majburiyatlari ochiq-oydin bayon etilgan. Masalan, "Baqara" surasining 177-oyatida: "Yuzlaringizni Mashriq va Mag'rib tomonlariga buraverishingiz yaxshilik emas, balki Allohga, oxirat kuniga, farishtalarga, kitoblarga, payg'ambarlarga imon keltirgan, o'zi yaxshi ko'rib turib molini qarindosh-urug'lariga, yetim-yesirlarga, miskin-bechoralarga, yo'lovchi-musofirlarga, tilanchi-gadolarga va qullarni ozod qilish yo'lida beradigan, namozni to'kis ado qilib, zakotni beradigan kishi va ahdlashganlarida ahdlariga vafo qilguvchilar va xususan og'ir-yengil kunlarda va jang-u jadal paytida sabr-toqat

qiluvchilar yaxshi kishilardir. Ana o‘shalar chin imonli kishilar va ana o‘shalar taqvodordirlar” (2:27), – deyilgan.

“Zakot – o‘ziga xos muhtoj musulmonlar foydasiga olinadigan soliq, – deb hisoblaydi N. I. Matar. – Qur’onda zakot xudojo‘ylik bilan bog‘lanadi, chunki xudoga ishonish ezgu ishlarda namoyon bo‘ladi. Musulmon yilda bir marta o‘z mablag‘ining 2,5 foizini zakot sifatida muhtojlarga beradi” (16:53).

Shuningdek, sabiy (bola), majnun, mukotab qulning zimmasiga zakot berish majburiyati yuklatilmagan.

Zakot berilishi belgilangan mol-mulklarga alohida shartlar ham belgilangan bo‘lib, kishi yashash joylari (uylar), kiyadigan kiyimi, uy anjomlari, minib yuradigan hayvonlari, xizmat uchun ajratilgan qullar va ishlatiladigan qurol-aslahalardan zakot bermaydi (7:96). Yo‘qolgan va topilishidan umid uzilgan moldan ham zakot berilmaydi.

Zakotni ado qilishda yoki zakot miqdorini ajratish vaqtida “zakot deb” qilingan niyat bilan zakot berish zimmasidan soqit bo‘ladi. Aks holda majburiyat to‘liq bajarilmagan hisoblanadi. Ammo bir kishi zakot berishni niyat qilmagan holatda butun mol-mulkini sadaqa qilib yubordi. Uning ichida zakot berilishi lozim bo‘lgan qism ham bor edi. Ular istehsoniga ko‘ra u kishidan farz bo‘lgan zakot majburiyati soqit bo‘ladi.

Islom huquqida zakot berilishi lozim bo‘lgan mol-mulk va uning miqdori alohida belgilab berilgan. Marg‘inoniy “al-Hidoya”ning zakotdan keyingi o‘rinlarida hayvonlar, mol-mulk, meva, daraxt, hosildan olinadigan zakotlar haqida to‘xtalib o‘tgan.

Hayvonlardan tuya, qoramol, qo‘y va echkilar hamda otlardan zakot olinishi belgilangan. Hayvonlardan olinadigan zakotni belgilashda umumiy shart qilib yilning aksar (ko‘p) qismida o‘tloq (yaylov)da boqilgan bo‘lishi nazarda tutilgan. Hayvonlar turiga qarab miqdori va soni bir-biridan farqlanadi. Jumladan, tuyalardan olinadigan zakot miqdori 5 ta tuyadan bir yoshga to‘lgan qo‘y zakot sifatida berilishi belgilangan. Tuyalar soni undan kam bo‘lsa, zakot berilmaydi (7:97).

Tuyalar soni o‘ntaga yetsa, har yili ikkita qo‘y zakoti uchun berish farz bo‘ladi. 15 tadan 19 tagacha tuyasi bor kishi 3 ta qo‘yni zakot sifatida beradi. 20 tadan 24 tagacha yetsa, 4 ta qo‘y beriladi. Shu tarzda tuyalar soni ko‘paygani sari zakot miqdori ham ortib boradi. 35 tagacha yetsa bir yoshli tuya, 45 tagacha yetsa ikki yoshli tuya, 60 tagacha yetsa uch yoshli tuya, 75 tagacha yetsa to‘rt yoshli tuya, 90 tagacha yetsa ikki yoshli tuyadan 2 ta, 120 tagacha yetsa uch yoshli tuyadan 2 ta berish lozim bo‘ladi. Agar tuyalar soni 150 tadan oshsa, yana dastlabki miqdorga qaytib, 5 ta tuyadan 1 ta qo‘y zakot sifatida beriladi hamda shu tartib hisoblanadi.

Qoramollardan olinadigan eng kam zakot miqdori esa 30 tadan boshlanishi belgilangan. Bunda 30 ta qoramoldan bir yoshli 1 ta buzoq zakot sifatida beriladi.

Ularning soni 40 taga yetsa ikki yoshli qoramol zakot qilinadi. Qoramollar soni ortgani sari zakot miqdorini ham ko‘tarib borish belgilangan. Jumladan, agar qoramollar soni 60 tagacha yetsa, 2 ta bir yoshli buzoq, 70 tagacha yetsa 1 ta ikki yoshli g‘unajin va 1 ta bir yoshli buzoq, 80 tagacha yetsa 2 ta ikki yoshli g‘unajin, 90 tagacha yetsa 3ta bir yoshli buzoq, 100 tagacha yetsa 2 ta bir yoshli buzoq va 1 ta ikki yoshli g‘unajin zakot sifatida berilishi belgilangan. Agar qoramollar soni 100 tadan oshsa, dastlabki hisobga ko‘ra miqdori chiqariladi.

Shuningdek, Janubi-Sharqiy Osiyo, Afrika, Sharqiy Yevropa kabi mamlakatlarda boqiladigan qo‘tos (buyvol yoki jomus) deb nomlangan hayvonlardan xuddi qoramollar miqdorida zakot berilishi fiqhiy manbalarda keltirib o‘tilgan (7:98).

Chorva qo‘y va echkilardan zakot olinadigan eng kam miqdor qirqta etib belgilangan. Ya’ni 40 tadan to 120 tagacha bo‘lgan qo‘y va echkilardan 1 ta qo‘y zakot sifatida beriladi. 121 tadan 200 tagacha 2 ta qo‘y zakot qilinadi. 201 tadan 399 tagacha 3 ta qo‘y, 400 tadan 4 ta qo‘y zakot sifatida ajratiladi. Bundan oshgan chorva qo‘ylarining har 100 tasidan 1 ta qo‘y zakot sifatida har yili berilishi belgilangan (7:99).

Otlardan olinadigan zakot miqdori har bir otdan bir dinor etib belgilangan. Agar hoxlasa, otlarning umumiy narxini belgilab, har ikki yuz dirhamdan 5 dirhamini zakot uchun ajratadi. Otlar faqat erkak bo‘lsa, ulardan zakot berilmaydi. Chunki ular ko‘paymaydi (7:99). Shuningdek, xachir va eshaklardan hech narsa vojib emasligi ta’kidlangan.

Abu Hanifaga ko‘ra, bo‘taloq, buzoq, qo‘zichoqlardan zakot berilmaydi. Biroq ular bilan kattalari ham bo‘lsa, zakot vojib bo‘ladi (7:100).

Ishlarda foydalaniladigan, yuk tashiydigan va yilning aksar qismida uyda yem-xashak berib boqiladigan hayvonlardan zakot berilmaydi.

Marg‘inoniy mol-mulklardan olinadigan zakot miqdorini ham alohida bobda bayon etadi. Unda kumushdan olinadigan zakot miqdori ikki yuz dirham kumushdan besh dirham miqdorida etib belgilangan. Demak, o‘rtacha 595 gm kumushdan 14.875 gm kumush miqdorida zakot olinadi (7:103).

Agar kumush miqdori ikki yuzdan oshsa, har qirq dirhamdan bir dirham miqdorida zakot ajratiladi.

Tilladan olindigan zakot miqdori 20 misqol3dan yarim misqol tilla etib belgilangan. Demak, 80 yoki 85 gramm tilladan 2 yoki 2.125 gramm tilla miqdorida zakot olinadi. Undan oshsa, har to‘rt misqol tilladan ikki qiyrot4 miqdorida zakot olinadi. Ya’ni 17 gramm tilladan 0.425 gramm tilla miqdorida zakot belgilanadi.

[3] Bir misqol 4 yoki 4.25 grammga teng o‘lchov birligi.
[4] Bir qiyrot 0.2125 grammga teng o‘lchov birligi.

Agar, ular tijorat maqsadida saqlanayotgan bo‘lsa, tilla va kumush taqinchoqlar, zeb-ziynat buyumlari va idishlardan zakot beriladi.

Tijorat mollaridan ham tilla yoki kumush narxida nisobga yetsa, zakot ajratish belgilanadi. Ya’ni har ikki yuz dirhamdan besh dirham miqdorida zakot olinadi.

Shuningdek, islom huquqi manbalarida hosildan olingan daromadlardan ushr olinishi belgilangan. Bunda Marg‘inoniy musulmonlardan molining qirqdan bir miqdorida, zimmiylardan molining yigirmadan biri miqdorida va ahli harbdan molining o‘ndan bir miqdorida ushr olinishini keltirib o‘tgan (7:105).

Marg‘inoniy aytadi: “Xiroj olinadigan yoki ushr olinadigan yerdan tilla, kumush, temir, qo‘rg‘oshin, mis kabi ma’danlar koni topilsa, ularning beshdan bir qismi olinadi” (7:107). Abu Hanifaga ko‘ra, agar kishi o‘z hovlisidan ma’dan topib olsa, undan biron narsa berishi vojib bo‘lmaydi. Agar bir kishi boylik topib olsa, undan xums (beshdan birini) berishi vojib bo‘ladi. Yana tog‘dan topilgan qimmatli toshlar, dengizdan topilgan dur va anbardan ham beshdan bir ulush beriladi.

Ekin va mevalardan zakot berish haqida Marg‘inoniy Abu Hanifa so‘zini keltiradi: “Erdan chiqqan narsalardan xoh u oz bo‘lsin, xoh u ko‘p bo‘lsin ushr olinadi. Bu narsalar xoh oqar suv bilan sug‘oriladigan bo‘lsin, xoh osmon suvidan ichgan bo‘lsin farqi yo‘q. Faqat daraxt, qamish va o‘tlardan ushr olinmaydi” (7:109). Yerdan olinadigan ushr miqdorini belgilashda bir yil o‘tishi shart qilinmaydi. Ularning miqdori besh vasaq[5] miqdorga yetsa, ushr olinadi.

Yana ushr olinadigan yerda boqilgan asalarining asalidan ham ushr olinadi. Imom Quduriy aytadi: “Ushr beriladigan yerdan chiqqan neft va qora moy chashmalari uchun hech narsa berilmaydi” (7:111). Chunki bular yer mahsuloti emas, balki yerdan otilib chiqqan suv kabilar hisoblanadi.

Moliyaviy majburiyatlardan biri fitr sadaqasi bo‘lib, Marg‘inoniy “al-Hidoya” asarida bu haqida: “Musulmon, hur kishining moli, agar o‘zining turar joyi, kiyimi, uy anjomi, ot-ulovi, qurol aslahasi va qullaridan ortiqcha, nisob miqdoriga yetadigan mulkka ega bo‘lsa, fitr sadaqasini berishi vojib bo‘ladi”, – deydi (7:115). Fitr sadaqasining miqdori, vaqti, kim berishi hamda ijtimoiy ahamiyati ikkinchi bobda keltirilgan.

Ramazon oyi ro‘zasi farz qilingan bo‘lib, har bir balog‘atga yetgan musulmon ado qilishi lozim bo‘lgan jismoniy ibodat hisoblanadi. Ammo ro‘za tuta olmaydigan keksa kishi (shayxi foniy) yoki tuzalmas kasal bo‘lib, ro‘za tutsa kasali ziyoda bo‘ladigan kishilar ro‘za tutmay, uning kafforati (jarimasi) uchun ro‘za tutmagan har bir kuniga bir miskinni ovqatlantiradi. Ya’ni yarim so’ bug‘doy yoki bir so’ xurmo yoki arpa miqdorida mablag‘ni fidya sifatida beradi (7:123). Shu bilan Ramazon ro‘zasini ado

[5] Bir vasaq 195 kg ga teng o‘lchov miqdori.

qilgan savobga ega bo‘ladi. Jismoniy ibodatni bajarish imkoniyati bo‘lmagani bois bu amal moliyaviy ibodat, ya’ni fidya – bir miskinni ovqatlantirishga almashtiriladi. Bu ham moliyaviy majburiyatlarning ko‘rinishlaridan biri sanaladi.

Islom shariatida ibodatlar uch tur: jismoniy, moliyaviy va ham jismoniy, ham moliyaviy ibodatlarga bo‘linadi. Yuqorida moliyaviy ibodatlar va ulardagi majburiyatlar haqida to‘xtalib o‘tildi. Marg‘inoniy o‘z asarida ham moliyaviy, ham jismoniy ibotadlardan biri – Haj ibodati haqida alohida bo‘lim ajratgan.

Haj ibodati ozod, balog‘atga yetgan, aqlli va sog‘lom kishilarga umri davomida bir marta farz hisoblanadi. Agar ular hajdan qaytib kelgunicha turar joy, zarur anjom va ahli ayolining nafaqasidan ortiqcha oziq-ovqat va ulovga ega bo‘lsa hamda hajga boradigan yo‘l xavfsiz bo‘lsa farz bo‘ladi.

Demak, haj amallarini bajarish bilan bir qatorda ziyoratchilarga borib-kelish uchun moliyaviy ta’minlanganlik sharti ham belgilangan.

Marg‘inoniyning “al-Hidoya” asari orqali yuqorida keltirilgan moliyaviy ibodatlardagi o‘ziga xos majburiyatlarni o‘rganilganda, mana shu kabi majburiyatlar O‘zbekiston qonunchiligida ham fuqarolarning atrof tabiiy muhitga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish va soliq to‘lash shaklida namoyon bo‘layotganini qayd etish zarur.

XULOSA

Moliyaviy ibodatlardagi majburiyatlar islom huquqi tizimining muhim tarkibiy qismi bo‘lib, ularning shakllanishi va rivojlanishi bir necha tarixiy bosqichlardan iborat:

1. **Makka davri** – moliyaviy majburiyatlar asosan axloqiy-ma’naviy tavsiya sifatida (tazkiya, sadaqa berish savobi) namoyon bo‘lgan. Bu davrda zakot va sadaqa hali aniq huquqiy shaklga ega emas edi.

2. **Madina davri (Hijratdan keyin, ayniqsa 2-hijriy yil)** – zakot rasman farz qilingan, uning nisob miqdori, to‘lov vaqti, oluvchilar toifalari (Toba surasi, 60-oyat) va umumiy tartibi belgilangan. Zakot shaxsiy ibodatdan davlat darajasidagi majburiyatga aylangan (Ridda voqealari).

3. **Xalifa davri va ilk hanafiy olimlar davri** – Imom Abu Hanifa, Imom Muhammad ash-Shayboniy va Abu Yusuf davrida moliyaviy ibodatlar huquqiy jihatdan batafsil ishlab chiqilgan. “Kitobu-l-Asl” va “Kitobu-l-Xaroj” asarlari bu jarayonning muhim bosqichlari hisoblanadi.

4. **Keyingi rivojlanish va tizimlashtirish bosqichi** – Burhoniddin Marg‘inoniy “al-Hidoya” asarida oldingi barcha qarashlarni jamlagan holda, moliyaviy ibodatlarni (zakot, ushr, fitr sadaqasi, fidya, hajning moliyaviy shartlari) mukammal huquqiy tizim sifatida taqdim etgan.

Natijada, moliyaviy ibodatlar nafaqat shaxsiy diniy-axloqiy majburiyat, balki islom jamiyatining ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini ta’minlovchi muhim institut sifatida shakllangan.

Moliyaviy ibodatlardagi majburiyatlarning tarixiy rivojlanishi va ularning zamonaviy ahamiyatini hisobga olgan holda quyidagi takliflarni berishimiz mumkin:

- Hanafiy mazhabining moliyaviy ibodatlarga oid qarashlarini zamonaviy iqtisodiy nazariyalar (soliq tizimi, ijtimoiy ta’minot, qayta taqsimlash mexanizmlari) bilan qiyosiy tahlil qiluvchi tadqiqotlar olib borish.
- “Al-Hidoya”, “Kitobu-l-Asl” va “Kitobu-l-Xaroj” asarlarining moliyaviy ibodatlarga oid bo‘limlarini zamonaviy o‘zbek tilida to‘liq yoki mavzuli tarjima qilish va sharhlar bilan nashr etish.
- O‘zbekiston hududida (Movarounnahr) hanafiya mazhabi doirasida moliyaviy ibodatlar qanday amalda qo‘llanilgani bo‘yicha tarixiy hujjatlar asosida tadqiqotlar olib borish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Alimov Z. (2019). Ibn al-Asirning “Al-Komil fi-t-tarix” asarida Qoraxitoylar davri haqida ma’lumotlar // Meros. – Toshkent.
2. Абу Юсуф Яъқуб ибн Иброҳим Куфий. (2021). Китобу-л-харож / таржимон А.Маннапова. – Toshkent: O‘zXIA NMB.
3. Бабаханов Ш. З. (1998). Великие мухаддисы о мире и дружбе между народами (из шести общепризнанных сборников хадисов). – Т.
4. Бурхониддин Марғиноний. (1994). Ал-Ҳидоя шарҳи бидоятил мубтадий. – Ж. 1-2. – Макка: Мустафо Аҳмад Боз.
5. Бурхониддин Марғиноний. (2020). Ал-Ҳидоя шарҳ бидоятил мубтади. Ибодатлар қисми. Биринчи жилд / Таржима ва муаллифлари: А.Қамбаров, А.Икромжонов ва И.Бекмирзаев. Сўзбоши. М.Комилов. – Т.: Ҳилол-нашр нашриёт-матбааси.
6. Ерофеев Д. (1991). Шариат – исламский кодекс права и морали // Азия и Африка сегодня. – №7.
7. Исҳақов С.А. ва бошқ. (2012). Мусулмон ҳуқуқи. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси.
8. Қуръони карим маъноларининг таржима ва тафсири / Таржима ва тафсир муаллифи: Абдулазиз Мансур. (2018). – Тошкент: Тошкент ислом университети.
9. Маттар Н.И. (1997). Islam for Beginners. – New York, London. – P. 53.
10. Muhammad ibnu-l-Hasan ash-Shayboniy. (2012). Al-Asl. – J. 2. – Qatar: Vizoratu-l-avqof.
11. Xallof Abdulvahhob. (1985). Ilm Usulil fiqh va xulosatut tashri’il islomiy. – Qohira.

REFERENCES:

1. Alimov, Z. (2019). Ibn al-Asirning “Al-Komil fi-t-tarix” asarida Qoraxitoylar davri haqida ma’lumotlar // Meros. – Toshkent. (In Uzbek)
2. Abu Yusuf Ya’qub ibn Ibrohim Kufiy. (2021). Kitobu-l-xaroj / tarjimon A. Mannapova. – Toshkent: O‘zXIA NMB. (In Uzbek)
3. Babaxanov, Sh. Z. (1998). Velikie muxaddisy o mire i drujbe mezhdu narodami (iz shesti obshchepriznannyx sbornikov xadisov). – Toshkent. (In Russian)
4. Burhoniddin Marg‘inoniy. (1994). Al-Hidoya sharhi bidoyatil mubtadiy. – J. 1-2. – Makka: Mustafo Ahmad Boz. (In Arabic)
5. Burhoniddin Marg‘inoniy. (2020). Al-Hidoya sharh bidoyatil mubtadi. Ibodatlar qismi. Birinchi jild / Tarjima va mualliflari: A. Qambarov, A. Ikromjonov va I. Bekmirzaev. So‘zboshi. M. Komilov. – Toshkent: Hilol-nashr nashriyot-matbaasi. (In Uzbek)
6. Erofeev, D. (1991). Shariat – islamskiy kodeks prava i morali // Aziya i Afrika segodnya. – № 7. (In Russian)
7. Is’hoqov, S.A. va boshq. (2012). Musulmon huquqi. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi. (In Uzbek)
8. Qur’oni karim ma’nolarining tarjima va tafsiri / Tarjima va tafsir muallifi: Abdulaziz Mansur. (2018). – Toshkent: Toshkent islom universiteti. (In Uzbek)
9. Matar, N.I. (1997). Islam for Beginners. – New York; London. – P. 53.
10. Muhammad ibn al-Hasan ash-Shaybani. (2012). Al-Asl. – Vol. 2. – Qatar: Wizārat al-Awqāf. (In Arabic)
11. Xallof, Abdulvahhob. (1985). Ilm Usulil fiqh va xulosatut tashri’il islomiy. – Qohira. (In Arabic)

Oriental universitetining “Al-Buxoriy” nomli jurnali

Jurnal Oliy o‘quv yurtlari hamda ilmiy-tadqiqot muassasalarining professor-o‘qituvchilari, doktorantlari, mustaqil tadqiqotchilari, magistrantlari, talabalari va keng kitobxonlar ommasiga mo‘ljallangan.
Maqola muallifining fikri tahririyat fikrini ifodalamaydi.

AL-BUXORIY
AL-BUKHARI

Bosh muharrir: **Farhod Maksudov**
Bosh muharrir o‘rinbosari: **Malika Nasirova**
Mas’ul muharrir: **Govhar Rahmatova**
Musahhih: **Gulida Norkulova**

Manzil: Toshkent shahri, Olmazor tumani, Norzatepa ko‘chasi, 52.
Telefon: +998 93 004-57-77. E-mail: al-buxoriy@orientaluniversity.uz

“Al-BUXORIY” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining
№ 111741 raqamli guvohnomasi bilan
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Oriental universiteti Kengashining 2026-yil 26-fevral, 5-sonli yig‘ilish bayonnomasiga asosan nashrga ruxsat etildi.